Alloh sevgan bandasini barcha sevadi, yomon ko'rganini hamma yomon ko'radi, deyilar. Allohga shukrki, yurtimizda mustaqillik sharofati bilan qanchadan-qancha azizu muhtaram siymolarning qabrlari obod, ruhlari shod bo'ldi. Ularning hayot yo'llari va asarlaridan xalqimizni boxabar va bahramand etdik. Ulug' siymolar qatorida, Shayx Xudoydod Valiga ham ehtirom ko'rsatishimiz ayni muddao bo'ldi.

---

<sup>9</sup> Qosimiy Sayyid. Masnaviyalar majmuasi. – T.: 1992. 164-bet.

Samarqandda amalga oshgan bir qator tadqiqot va anjumanlarda Shayx Xudoydodning tasavvufdagi xizmatlari, komil murshidligi, karomotu kamolotlari, axloq va ma'naviyatlari hamda adabiy meroslari imkon qadar yoritib berildi. Shuningdek Shayx Xudoydodning yurt tinchligi va farovonligi yo'lida olib borgan xizmatlari, turli millat vakillarini atrofiga yig'ib, mehnatga jalb qilishi, bosh-qosh bo'lib ariq va zovurlar qazdirgani, yo'l-ko'priklar qurdirgani, odamlar qarzini uzib bergani, ko'plab saxovatlar qilgani, fidoyi talabalar yetishtirgani olimlarimiz tomonidan ilmiy davralarda ta'kidlab o'tildi<sup>10</sup>.

Masalan, manoqibda aytilishicha, Shayx Xudoydodning namunali axloqlaridan biri shu ediki, "...barcha kishilar — qul va ozod, turku fors, arabu ajam u kishining nazdida barobar edi. Hamma u kishini sharaflar va ehtirom ko'rsatar edi. Hazrat barchaning ko'ngliga qarar edilar". Yoki u kishining yaxshi odatlaridan biri shu ediki:" ... har yili ariq qazib, tashlandiq yerlarni ziroatga yaroqli holatga keltirib, ekin ekar edilar. Ziroat yetilib, yig'im-terim paytida, birovga topshirar va uning hosilidan foydalanmas edilar...". "Aytar edilar, Abu Sa'idxon Samarqand hokimi edi, bir vaqtlar bizga ming tanga naqd va ming tanga miqdori ot, kiyim va boshqa narsalar sovg'a qildi. Men Allohning inoyati bilan shu kuniyoq mazkur mollarning hammasini tilanchi va faqirlarga ulashib yubordim. Va bu voqea Ramazon oyida bo'lgan edi. Kechqurun pishirishga uyda hech vaqo yo'q va sotib olishga pul ham yo'q edi. Noiloj, qo'shnilardan biroz un qarzga oldik. Unni kechga pishirib, u bilan iftorlik qildik". Hazrat Eshon bobomizning ibodatda ham, saxovatda ham, komil insonga xos bo'lgan bunday fazilatlaridan yana ko'plab misol keltirish mumkin. Ular haqida yozganlarimiz hali yetarli emas.

O'ylaymizki, bundan buyon ham bu ulug' zotning xalq oldidagi, tasavvufdagi va adabiyotdagi xizmatlari borasida izlanishlar, tadqiqotlar davom etajak va etayotir. Chunki buyuk shaxslarning ibratli hayoti hamda asarlari tuganmas ma'naviy bir

---

<sup>10</sup> Shayx Xudoydod Vali ijodining ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarini yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyati (ilmiy-amaliy anjuman materiallari). Samarqand, 2006, "Hazrati Azizon Shayx Xudoydod Vali-Yassaviya tariqatining mashhur namoyandasi" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari (1997 yil 2 may). Samarqand, 2000; XV-XVI asr tasavvuf namoyondalari ilmiy merosining ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarini yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyati — Samarqand. 2011 (ilmiy maqolalar to'plami); Komilxon Kattayev. Shayx Xudoydod Vali tarixi. Samarqand. 2007; Suyundiq Mustafo Nurotoiy. Karmana azizlari. - T.: "Muharrir nashriyoti". 2010. 19-100-b

xazinadir. Har kim g'ayrat va himmati, ixlos va e'tiqodiga ko'ra, undan nasibador, bo'laveradi.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, hazrat Shayxning ilmiy merosi 25 dan ortiq noyob qo'lyozmalarda jamlangan. Ayni paytda ular xalqimiz madaniyati va ma'rifatining durdonalari sifatida o'rganilib, chop etilmoqda.

Ushbu so'zboshida, asosan, Shayx Xudoydodga mansub bo'lgan asarlar ichida "Manoqibi Shayx Xudoydod Vali" nomli manoqib va uning ayrim xususiyatlariga to'xtalib o'tmoqchimiz. Hijriy 1331 (milodiy 1913) yilda Muhammad Oshur Nurmuhammad o'g'li tomonidan ko'chirilgan bu manoqibdan parchalar, matnlar va hatto to'liq tarjima qilingani haqida matbuotda xabar berilgan<sup>11</sup>. Kamina Shayx Xudoydod Valining avlodlaridan bo'lgan texnika fanlari doktori, professor Sayyidmaqsud Razzoqovning talablari bilan mazkur manoqibni tarjima qilishga kirishdim va imkon darajasida amalga oshirdim.

#### SHAYX XUDOYDOD VALI MANOQIBI

Ma'lumki, manoqib (birligi manqabat) yaxshi sifatlar, go'zal xislatlar, maqtoqlar, biror kishining fazilat va martabasini maqtab yozilgan asardir. Adabiyot tarixida "Manoqibi Favsul-a'zam", "Manoqibi Hakim ota", "Manoqibi hazrat Naqshband", "Manoqibi Pahlavon ota" kabi bir qator manoqiblar mavjud. Ular avliyolar haqidagi tazkiralarni o'ziga xos ma'lumotlar bilan to'ldiradi.

Manoqiblarda garchi tarixiy sanalar va shaxs ismlari to'liq ko'rsatilmasa-da, so'z yuritilayotgan muhtaram bir zotning hayoti, ijodi va tasavvufiy faoliyati bilan bog'liq ahamiyatli voqea va hodisalarga munosabat bildiriladi.

Ma'lumki, tazkiralarning xususiyatiga ko'ra, ularda har bir siymoning hayoti va faoliyatiga yaxlit yondashish, u haqdagi rivoyat va xalq orasidagi so'zlarga alohida to'xtalish mumkin emas. Chunki, tazkiraning o'ziga xos qonun qoidasi bo'lib, hatto ba'zi bir shaxslar to'g'risida uch-to'rt satr ma'lumot bilan kifoya qilinadi, xolos.

<sup>11</sup> Bu haqda qarang: A. Abduhamidov. Shayx Xudoydod Valining merosini o'rganaylik. // XV-XVI asr tasavvuf namoyondalari ilmiy merosining ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarini yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyati. Samarqand. 2011. 34-39-b. (Maqola muallifi "Manoqibi Shayx Xudoydod Vali"ni tarjima qilganini aytgan. Ammo kamina uni ko'rishga muvaffaq bo'lmadim. (S.S.)

Manoqib esa, tazkiradagi ma'lum bir bo'shliqni to'ldiradi. Lekin manoqiblardagi voqea va hodisalarni tarixiy va ilmiy hujjat sifatida qabul qilish uchun ilmiy asarlar bilan qiyoslash kerak.

Shuning uchun ham, ba'zi olimlar Ahmad Yassaviy haqida gapirganda, uning tarixiy va manqabaviy hayoti borligi, ularni muqoyasa qilgandan so'ng ilmiy haqiqatlar yuzaga chiqishini ta'kidlaganlar.

“Shayx Xudoydod Vali manoqibi” o'ziga xos uslub, til va voqealar rivojiga ega. Ulug' shayxning surat va siyratini, she'riyatdagi mahoratini ochib berish jihatidan birlamchi manbadir, desam xato bo'lmaydi. Shayx Xudoydod manoqibini ko'chirgan kotibning nomi bor, ammo unga tartib bergan kishi biror yerda nomini qayd etmagan. Manoqibni o'qir ekansiz, ko'z oldingizda yoshligidanoq mashaqqatlar bilan ilmu ma'rifatga intilgan, tariqat pillapoyalarini birin-ketin zabt etib, ruhiy kamolot kasb etgan, ilohiy nurga g'arq bo'lgan, xokisor, mehnatkash, mehribon va donishmand bir zot gavdalanadi. U muridlar va yaqinlarini doimo hayotdan ibrat olishga, o'qib izlanishga, riyozatga, tafakkurga va halol mehnat qilishga targ'ib qiladi. Gohida muridlar davrasida hayotdan, ilmdan chiqargan xulosalarini o'rtoqlashadi. Ba'zan o'z pirining hayoti va o'g'itlari misolida, tasavvufdagi bir qator tushunchalarga izoh berib o'tadi va o'z fikrlari bilan boyitadi. Shuningdek Shayx hazratning she'rlaridan ko'plab misollar keltiriladi, “hikoya ichida hikoya” tarzida ayrim voqealarga munosabat bildiriladi. Mavzular Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflar bilan dalillangan. Bu o'ziga xos asarni o'qigan kitobxon undan bir qator xulosalar chiqarib, ma'naviy ozuqa olishi tayin: birinchidan, o'tmish tariximizga va ulug' siymolarga mehri ortadi. Ikkinchidan, tasavvuf va mumtoz she'riyatimizga aloqador bo'lgan ayrim atama va izohlarga duch keladi. Uchinchidan, bir qator oyat va hadislarining botiniy ma'nolari va o'ziga xos talqinlari bilan tanishadi. To'rtinchidan, Shayx Xudoydodning o'zbek va fors tillarida yozgan she'rlari va uning badiiy mahoratidan ogoh bo'ladi. Beshinchidan, manoqibda Farididdin Attor, Jaloliddin Rumi, Hofiz Sheroziy va Xoja Muhammad Porso kabi yirik mutasavviflarning she'rlaridan ham bahra oladi. Oltinchidan, yassaviylik tariqati va Shayx Xudoydodning ustozlari Shayx Jamoliddin Azizonning ma'rifatga oid hikmatli so'z va o'g'itlari bilan oshno bo'ladi. Asarning bundan boshqa fazilatlarini ham bisyor.

Manoqib nasta'liq xatida yozilgan, ba'zi o'rinlarda qizil siyoh ishlatilgan va o'n sakkiz bobga ajratilgan. Ammo kitobda birinchi va o'n ikkinchi boblarning sarlavhalari yozilmay qolgani uchun, biz ularni shartli nomlar bilan boblarga ajratdik, natijada, asar jami o'n to'qqiz bobdan tashkil topdi. Birinchi bobni "Ishq haqida", o'n ikkinchi bobni "Ma'rifat xususida" deb atadik. Keltirilgan oyat va hadislarining, avvalo, asl shaklini, so'ng "kirill" alifbosida o'qilishini va keyin ma'nolarini berib o'tdik. Ayrim tarjima qilinmay ketilgan arabiy jummalarni ham o'zbek tiliga o'girdik. Tarjima jarayonida imkon qadar asl matn mazmunini saqladik va kitobxonga qulay bo'lishi uchun ba'zi so'zlarga izoh berdik<sup>12</sup>.

Tasavvuf tarixiga nazar tashlasak shayxlarning faoliyati turli xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Va'zi mashoyixlar ham shayxlik qilgan, ham xalqni ma'rifatli she'rlari bilan Haq yo'lga undab kelgan. Ayrim shayxlarning faoliyatida ijodidan ko'ra, amaliy xizmati ko'proq ko'zga tashlanadi. Masalan, Emom G'azzoliy va Xoja Yusuf Hamadoniylar hampira, hamshayx bo'lishgan, ikkovlari ham Shayx Abu Ali Formadiy hazratlariga qo'l bergan. Imom G'azzoliy shayxlik qilish barobarida, ko'proq kitob tasnif qilib, tasavvufni rivojlantirgan bo'lsalar, Xoja Yusuf Hamadoniylar kamroq asar yozib, ko'proq vaqtlarini odamlar bilan muloqotda, ularni Haq yo'lga da'vat qilish bilan o'tkazganlar. Manbalarda u kishining minglab g'ayri dinlarni chiroyli axloq va odoblari bilan islomga kiritganlari aytilgan<sup>13</sup>.

Boshqa bir toifa shayxlar ma'rifatli, ilimli bo'lgan holda, kitoblar tasnif qilmasdan, xalqni faqat ilm va tariqat yo'lga undab kelgan. Yana bir toifa shayxlar bo'lganki, ular avomroq bo'lgan hollarida duolari ijobat va sohibi hol bo'lganlar. Bu toifa shayxlarning ham o'ziga yarasha murid-muxlislari ko'p bo'lgan.

Shayx Xudoydod Valida esa, mukammal bir shayxga xos bo'lgan barcha fazilat mavjud edi. U kishi o'zbek va tojik tilidagi g'azallarida haqiqiy orif va oshiqqa xos bo'lgan xislat va fazilatlardan, ishqning sir va sinoatlaridan bahs yuritgan. Hasanxoja Nisoriy "Muzakkiri ahbob" tazkirasida Shayx Xudoydodning ulug'ligi va

---

<sup>12</sup> Manoqibning ayrim xususiyatlari haqida filologiya fanlari doktori, professor Dilorom Salohiyning "Ma'rifat asrori donishmandi" degan maqolasini kitob oxirida ilova qilganimiz uchun unga ortiqcha to'xtalmadik. (S.S)

<sup>13</sup> Bu haqda qarang: Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniylar. Maqomoti Yusuf Hamadoniylar. – T.: "Yangi asr avlodi". 2003. 16 – 29-b.

fazilatlarini ta'riflab, yana shunday deydi: “Shayx Xudoydod gohida fikriga kelgan durlarni nazm ipiga terganlar. Bu matla' ularning sharif maqolotlaridandir. Matla':

*Har banda, ki dar subh az jon kashid ohe,*

*Bikushod so'i Haqash az oh, shohrohe<sup>14</sup>.*

(Mazmuni: Har bir banda tong mahali jon-dilidan bir oh tortsa, o'sha ohi bilan Haq tomonga katta bir yo'l ochadi.)

Manoqibda keltirilishicha: “Ular (Shayx Xudoydod Vali) umrlarining oxirida she'r aytishga va bu risolaning yozilishiga ko'p ahamiyat berdilar. Aytardilar: menda shu paytgacha g'azal aytish va risola yozish dag'dag'asi yo'q edi, endi yozish va yozdirishdan maqsadim shulki, sizlarga esdalik bo'lib qolsin va har kim bundan o'ziga bir ibrat olsin. Shu jihatdan bu faqirga (risola muallifi nazarda tutilmoqda. S.S.) “Sen ham bu risolani tezroq yozishga harakat qil, sustkashlik qilmaginki, bu sendan ham esdalik bo'lib qoladi”, deyiladi.

Shayx Xudoydoddan “Xudoydod” taxallusi bilan bir qator she'rlar yetib kelgan. Devon tuzganliklari haqida biror ma'lumot yo'q. Turkiy xalq qo'shiqlari vaznidagi o'ynoqi va jarangdor g'azallarda haqiqiy va majoziy ishq bilan bog'liq tuyg'ular va qalbning dardli iztiroblari o'z ifodasini topgan. Til va uslubda ravonlik, tasvir, ma'no va badiiyatda samimiylilik ko'zgatashlanadi.

Filologiya fanlari doktori, professor B. Valixo'jayevning yozishicha, “Shayx Xudoydod Valining g'azallari ishq mavzusiga bag'ishlangan. Muallif talqinida ishq-tariqat ahli va peshvosi tushunchasida bo'lib, uning asosini Alloh taolaga nisbatan bo'lgan ishq-muhabbat tashkil etadi. Shuning uchun g'azallardagi “Sen, yor” kabi so'zlar zaminida Tangri, Xudo anglashiladi, “men” esa, unga intiluvchi banda - oshiqni ifoda etadi. Shu jihatdan butun g'azallarda “sen, yor” birinchi o'rinda bo'lib, “men” ikkinchi qatlamda turadi”<sup>15</sup>.

Shoir g'azallarini o'qisak, ularda mehru vafo, ilm va ma'rifat, halollik, rostgo'ylik kabi tuyg'ularga undash sezilib turadi. She'rlarida inson sevgisi, majoziy

<sup>14</sup> Hasanxoja Nisoriy. Muzakkiri ahhob. Mazkur asar, mazkur sahifa.

<sup>15</sup> Botirxon Valixo'jayev. Hazrati azizon Shayx Xudoydod Valining adabiy meroslari haqida. // Hazrati azizon Shayx Xudoydod Vali —yassaviya tariqatining mashhur namoyandasi. Samarqand. 2000. 19-b.

ishq bilan bog'liq baytlar ham uchraydi, lekin, asosan, aksar she'rlarning zamirida hamisha Allohga iltijo, duo va yolvorish ohanglari, visol lazzatiyu hijron azoblari o'rin olganiga guvoh bo'lamiz.

Eyxayoling tushgali mehring saning bu jonima,

Quydi asrori haqoyiq ko'nglim ichra hamnihon.

Sensizin bir lahza bu tanda jon qilmas qaror,

Loyiq uldur bu vujudda ham ko'rinsa ul chunon.

Ey Xudoydod, jahd ayla, toki ko'rgaysan ani,

Garchi ul munda ko'rinmas ham bo'lubtur jona jon.

G'azallar ko'proq 5-7 baytdan iborat bo'lib, ba'zi she'rlar ravonligi jihatidan go'yo zikr halqalarida o'qish uchun yozilgandek taassurot uyg'otadi. Ammo kotibning ehtiyotsizligi tufayli, ayrim g'azallardan so'zlar tushib qolgan, ba'zi o'rinlarda vazniy saktaliklar ham ko'zga tashlanadi. Fors-tojik tilidagi g'azallari ham o'zbekcha she'rlardan aslo qolishmaydi. Juda ravon va mazmundor jaranglaydi. Tom ma'noda Shayx hazratlari zullisonayn shoirdir. Bu jo'shqin she'riyatning til va uslubi, mavzu va g'oyasi, san'atkorlik va mahorati bilan bog'liq ayrim fikr va mulohazalar bildirilgan. Lekin Shayx Xudoydodning butun merosini jamlash, ishonchli matnni tayyorlash va poetik mahoratini ilmiy asosda ochib berish, galdagi vazifalardan biri, deb o'ylayman.

Shayx Xudoydod Valining hayot va ijodiga doir ko'p narsa haqida munosabat bildirish mumkin. Lekin kamina asosan, u kishining qutb unvoniga ega bo'lganlari va ikkinchidan, fano maqomiga erishganlari, uchinchidan, she'rlaridagi visol, jamol, mushohada kabi so'zlarning mohiyati va to'rtinchidan, ba'zi e'tiroz uyg'otadigan jummlar yoki voqealar haqida mulohazalarimni bayon qilmoqchiman.

**I.** Ma'lumki, qutblik avliyolik martabasining eng yuksak darajalaridan biridir. Qutb lug'atda: 1. Har bir narsaning o'rtasidan o'tgan o'qning ikki uchi; 2. O'rta, markaz; 3. Ko'chma. Har bir jamoa va guruhning moddiy va yo ma'naviy boshlig'i; peshvosi; yagona hisoblangan avliyo, valiyulloh (so'fiylarda); Qutbi sobit — Qutb yulduzi;

Qutbi dahr — Zamonasining peshvosi; Qutbi avliyo — Yo'l ko'rsatuvchi avliyo<sup>16</sup>.  
 Qutb — tasavvufiy maslakda ma'naviy yo'l boshchi, valiy, murshid, valiyulloh, tasavvuf shayxlariga beriladigan oliy unvon. Olamni idora etuvchi «hukumati ma'naviya»ning (ma'no olamining rahnamolari) boshida qutb turadi. Qutblar azaldan Allohning nuri bilan qalblari munavvar bo'lgan, Allohning o'zi tanlagan kishilari bo'lib, botiniy va zohiriy olamning aqlari ularga tobedir. E'tirof etilishicha, Odam alayhissalom ilk qutbi zamon bo'lgan. Qutb barchaga Allohning karami va rahmatini ulashadi. Alisher Navoiy Shayx Abulhasan Xaraqoniyni (vaf. 425/1033) vaqtning qiblasi, o'z ro'zgorining yagona va g'avs erdi, deb qayd etgan. Qutblar «g'avs» (madadkor), «qutb ul-aqtob» (avliyolar peshvosi), «g'avs ul-a'zam» (buyuk madadkor) deb ulug'langan. Qutblikka fazilat va ko'p amallar qilish bilan emas, Allohning fazli va lutfi bilan erishiladi. Zamonada minglab valiylar bo'lsalar-da, qutbiyat — qalbida Muhammad sollallohu alayhi va sallam qalbi va mazharida Muhammad sollallohu alayhi va sallam haqiqati bo'lgan Haq do'stlarigagina nasib etadi. Yer yuzida faqat bitta qutb bo'ladi. Uni «qutb ul-vaqt» deyiladi. Qutb o'ziga birlashtirilgan vazifani abdol va abrorlar yordamida amalga oshiradi. Zunnun Misriy, Abu Hafs Haddod, Junayd Bag'dodiy, Abdulqodir Jiyloniy, Ahmad Badaviy, Ibrohim Dasuqiy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy qutblarning eng mashhurlari bo'lgan.

Shayx Ahmad Ziyovuddin Kumushxonaviy qutblik haqida shunday deydilar: “Qutb va boshqa valilarning ta'rif va kasb (maslak)lari haqida so'z ketganda, aytilganki, har bir jamoaning ma'naviy buyugi (peshvosi), u jamoaning qutbidir. Shuningdek, barcha komillik xislatlarini o'zida jamlagan va g'avs deb nomlaganimiz qutb esa, har bir davrda bitta bo'lib, u ham bo'lsa g'avsul A'zamdir”. Va'zi manbalarda ikki xil qutblik darajasi borligi aytilgan. Biri Odam alayhissalomdan qiyomatga qadar bo'lgan ma'naviy qutb, u qutblarning qutbi va yoki haqiqati muhammadiydir. U dunyo hayotida yashab o'tgan payg'ambardir. Ikkinchisi o'z davrida qutblikni boshqa biridan qabul qilib olgan kishidir. U o'z davrida yagonadir. Allohning xalifasi, Payg'ambarning vakilidir. Dunyo nizomini har zamon kuzatib

<sup>16</sup> P. Shamsiyev, S. Ibrohimov. Navoiy asarlari lug'ati. — T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. 746-b.



turuvchidir. Shuningdek har bir asrda faqat yagona bo'lgan qutbdan tashqari, avtod, abdul va chiltanlar guruhining ham o'z qutblari (peshvolari) bo'lishi haqida fikrlar mavjud<sup>17</sup>.

Demak, valiylikning o'zi ilohiy bir in'om bo'lish barobarida, qutblik darajasiga qadar yetib borish nur ustiga nur, Alloh ato etgan xos fazilat ekan.

Shayx Xudoydodning qutbligi, darajasining ulug'ligi “Lamahot”, “Hujjat uz-zokirin” va “Tuhfat uz-zoirin” kabi bir qator e'tiborli manbalarda qayd qilingan. Manobda yozilishicha, u zot Karmanada bo'lgan paytlarida bir tush ko'radilar. Tushlarida qo'llariga bir qog'oz beriladi va u qog'ozda qutb bo'lishliklari yozilgan bo'ladi. U kishi bu tushni do'stlariga aytganlarida, ayrim muxoliflari ta'nayu malomat ham qilishgan. Ammo hazrati Shayx ularning so'zlariga parvo ham qilmagan. Do'stlari davrasida: “Agar Xudoydod qutblik martabasiga bosh egasa va u bilan qanoat qilsa, u Namruddan ham, Shaddoddan ham tubanroq bo'ladi”, degan gapni aytgan. Va yana shunday deganki: “Qutblikka bog'lanib qolishlik va qutblikni orzu qilishlik ham manmanlikdir<sup>18</sup> va lekin bizga o'zlikni inkor qilish, menlikdan yiroq bo'lish farz va lozimdir”. Demak Shayx Xudoydodning har bir so'zlari, harakatlari, karomatlari shunday ulug' martaba asosiga qurilgandir. Shuning uchun ham u kishi hayotidagi ba'zi hodisalar odatdagi avliyolarnikidan farq qiladi.

**II.** Shayx Xudoydodning fanoga erishgani haqidagi xabar va rivoyat ko'p nufuzli manbalarda ta'kidlangan. Jumladan, Muhammad Olim Siddiqiyning “Lamahot” kitobida shunday deyiladi: “...naql qilibdurlarki, qachonkim Azizon Shayx Jamoliddin Hirot shahriga ko'chib borib, u yerda muqim turib qolgach, bir majlisda ul zotga: “Tariqatingizdagi so'fiylar va darveshlar orasida fano maqomiga yetganlar hozirda bormu?” — deb so'rganlarida, Shayx Jamoliddin debdilar: “Bu yerda yo'q, ammo Movarounnahrda Mavlono Xudoydod nomli bir do'stim (shogirdim) bor, ul kishi fano maqomi darajasiga yetgandurlar”.

Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” asari va boshqa manbalarda ham yuqoridagi rivoyat biroz farqli jihatlari bilan bayon etilgan. Manobda bu borada

<sup>17</sup> Suod al-Hakim. İbni Arabiy so'zlugi. İstanbul. “Kabalji” nashriyoti. 2004. 430-433-b.

<sup>18</sup> “Qutblikni orzu qilishlik ham manmanlikdir”, degan jumlagi izoh berishga to'g'ri keladi. Agar kishi riyo va faxrlanish uchun qutblikni orzu qilsa, manmanlik bo'ladi. Lekin xolis Alloh rizosi uchun, Uning avliyolaridan bo'lish va rahmatiga erishish uchun qutblikni orzu qilsa, buning yomon tomoni yo'q. (S.S.)

shunday deyiladi: “Aytar edilar, Hazrati Azizonimiz xizmatlarida bo’lgan paytlarimda do’stlardan biri meni tushida ko’ribdiki, men vafot etibman va meni dafn qilishibdi. Va u do’stim mening qabrimni belgilash uchun ko’p bayroqlar jamlabdi. Ular bu tushlarini Hazrati Azizon rahimahullohga aytishganida, Hazrati Eshon aytibdilarki, Mavlono Xudoydodga fano davlati hosil bo’libdi, u bayroqlar uning mashhurlik belgisidir”. Fano tasavvufda turlicha talqin qilingan. Asosan yo’q bo’lish, foniy bo’lish. Narsa va ashyolarning so’fiy nazaridan barham topishi. Fanoning tub ma’nosi — bandaning yomon axloq va fe’llarni tark qilib, Allohning go’zal sifatleri va ilohiy fe’llariga erishishi, bashariy irodadan ilohiy irodaga ko’chishi. Fanoholidagi oshiq «men»ligini unutishi bilan tavhid asroriga sohib bo’ladi. Tavhidning yuqori darajasi esa fanofillohdir. Bu esa inson zoti va sifatining Haq zoti va sifatida foniy bo’lishi. Baqo barcha yaxshi sifatleri o’zida mujassam etish bo’lsa, fano — o’zidagi barcha yomon sifatleri yo’q qilish yo’li bilan Allohga yaqin bo’lishlik. Fano va baqo ilmida eng avval so’z aytgan kishi Abu Said Xarrozdir. Abubakr Zaqqoqi Kabir esa «Junayddin fanoda bir so’z eshitibmen, hanuz aning choshni (ta’ m, tot, maza)si jonimdadur», deydi.

Tasavvufda fano fil — ishq tushunchasi ham mavjud. Bunga ko’ra, ko’ngil tasfiyasi va ruhni darajama-daraja yuksaltirish orqali fano fil — ishq darajasiga erishiladi.

Fano tasavvuf maqomlarining oxirgi bosqichlaridan. Fanodan keyin baqo keladi. Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostonida sulukning yetti bosqichini qushlar vositasida majoziy yo’l bilan bayon qiladi. Tasavvufda solikning ruhiy takomillashish yo’lida bosib o’tishi lozim bo’lgan *yetti vodi*y, ya’ni yetti ma’naviy maqom haqida keng to’xtalib o’tadi. Ular quyidagilardan iborat: Talab vodiysi, Ishq vodiysi, Ma’rifat vodiysi, Istig’no vodiysi, Hayrat vodiysi, Tavhid vodiysi, Faqru fano vodiysi. Ko’rinib turibdiki, bu yerda fano tasavvufning oxirgi bosqichlaridan biri bo’lib, unga erishish oson emas ekan.

Hazrat Navoiy fano haqida ko’p g’azal va hikmatlarida munosabat bildirgan. Bu so’zni turli ma’noda qo’llagan. Ayniqsa, tasavvufiy g’azallarida fanoning qirralari va injaliklarini obrazli tarzda ifodalagan. Bir o’rinda, fano tushunchasi sharhlansa, yuz risola bo’lishi, uning muxtasar ma’nosi: “O’lmasdan burun o’lmoq” ekani ta’kidlangan:

Deding: “Fano nedurur?” Muxtasar deyin: “O’lmak!”

Ki sharhin tilasang, yuz risola bo’lg’usidir.

Ya’ni, fano jismoniy yo’q bo’lish emas, ma’nan o’zida o’lib, Haq bilan tirilishdir. “O’lmasdan burun o’lmoq” hadisini shior qilib olgan Xoja Ahmad Yassaviy hazratlari hikmatlarida bu mavzuga ko’p murojaat etgan. İzdoshlari she’riyatida ham, bu g’oya, bu maslak davom etganini ko’ramiz:

*Men seni sendin tilarmen o’zlugimdin uzulub,  
O’zlugumdin uzmayin hargiz topa olmon sani.*

*Chin o’larsen, ey Xudoydod, o’lgin o’lmasdin burun,  
Davlati boqiy kerak, yo’qsa qo’y, ushbu fonini!<sup>19</sup>*

Fanolikda faqirlik holati borligi uchun “faqr fano” degan iborani ishlatamiz. Aslida fanoga erishgan avliyolar ma’naviy sultonlardir. Ularga bejiz podshohlar ta’zim qilishmagan. Navoiy hazratlarining shunga ishora qilgan baytlari mavjud:

*Fano mayxonasida qil gadolig’,*

*Desangkim, bo’lmayin sultong’a muhtoj.*

Solikning fano holatini tasvirlash, so’z bilan ifodalash aslida nisbiy bir tushunchadir.

Manoqibda fanoga shunday ta’rif berilgan: “Fano deb, Haqdan boshqa narsalarning Haqda nest-nobud bo’lishidir”. Ba’zi manbalarda aytiladiki, «istig’roq»ning ma’nosi «tavhid dengiziga sho’ng’ish va g’arq bo’lish» demakdir. Hamisha zikr bilan mashg’ul bo’lgan zokir orifning fikru xayoli o’zida bo’lmaydi, mutlaqo begona bo’ladi. Bu holatni «fano» deydilar.

Abul Hasan Xaraqoniydan: “Fano va baqo haqida so’z aytishga kim munosib?” — deb so’rashganda: “Bir kishini osmonda bir tor ipak ip bilan osib qo’ysang, shu odamni binolar va yog’ochlarni qo’porib tashlaydigan va daryolarni jo’shtirib yuboradigan shamol o’rnidan tebratolmasa, ana shu odam munosib”, deb javob bergan

<sup>19</sup> Ayrim manbalarda: “Davlati foniy kerak, qo’y ushbu fanoni”, deb berilgan.

ekan. Shayx hazratlarining bir qator she'rlarida fano atamasi qo'llangan va nozik ma'nolar keltirilgan. "O'zlikdan uzilmay" Haqni tanib bo'lmaslikdan bahslar yuritilgan. Demak, Bu atama mohiyatidan xabardor bo'lish, Shayxning holatlarini bir qadar his qilish va g'azallari ma'nosini anglashimizga yordam beradi.

Ko'rib o'tganimzdek fano holati xos insonlarda sodir bo'ladigan xususiy, ilohiy bir holat. Bu holat qachon va qancha davom etadi yoki doimiy Haq bilan aloqada bo'lgan botiniy holatmi, buni valiylarning o'zlari yaxshiroq biladilar. Ammo bu degani, ular oiladan, xalqdan, jamiyatdan uzilgan insonlar degani emas. Ular ham odamlar kabi yeydi-ichadi, uylanadi, farzandlar ko'radi, odamlar bilan muomala qiladi. "Odamlarning yaxshirog'i odamlarga manfaat yetkazadigani", hadisiga ular ko'proq amal qilishgan. Manoqibni o'qigan har bir kishi Shayxning xalq farovonligi, yurt obodonchiligi, odamlarga ko'rsatgan g'amxo'rlikidan hayratga tushadi. Bu jihatlari olimlarimiz tomonidan bir qadar yoritilgan, ammo yanada batafsilroq yoritilishi kerak bo'lgan alohida mavzulardir.

**III.** Shayx g'azallarida visol, jamol, diydor va ular bilan bog'liq ma'nolar uchraydi. G'azallarni o'qisangiz, Yor jamolini qo'msashdan, hijron azoblaridan bahs yuritadi. Ayrim baytlarda yoki nasriy parchalarda "Alloh jamolini mushohada qilgani va muoyana ko'rgani, "Tangrini ko'rgan kishi"ning "o'z xonumonidan kechishi" haqida so'zlaydi.

Kimlargadir bunday so'zlar erish tuyulishi va e'tiroz ham uyg'otishi mumkin. Chunki, shariat qol bo'lsa, tariqat holdir. Rasul alayhissalom hadislarining birida marhamat qiladilarki: "Shariat mening so'zlarim, tariqat fe'llarim, haqiqat esa hollarimdir". "Hollar"ni esa ba'zan so'z va jumlar ta'riflashdan ojiz bo'lib qoladilar... Ulug' mashoyixlarning o'z holatlari haqida aytgan so'zlariga bepisandlik qilish, aytishuv va tortishuvlar esa his qilmaslikdan yo tushunmaslikdan yoki takabburlikdan kelib chiqadi.

Shayx hazratlarining Haq visoli, jamoli bilan bog'liq ifodalarini qanday tushunsak bo'ladi? Albatta, bunday holatlarni ifodalash uchun inson o'z boshidan shunga o'xshash holatlarni o'tkazishi kerak. Lekin ifodalash lozim bo'lgani uchun, "Suv bo'lmasa tayammum joiz", deganlaridek, ba'zi tasavvufiy manbalar asosida mulohaza yuritishga harakat qilamiz.

Hadisi shariflarda Allohning diydorini faqat oxiratda ko'rishlik mujdasi berilgan. Bu dunyoda Allohni ko'rish mumkin emas, ko'rib bo'lmaydi ham. Ahli sunnat va jamoat e'tiqodining qarashlariga ko'ra, jannatdagi eng ulug' ne'mat Alloh diydoriga musharraf bo'lishdir. Manaqibda ham aytiladiki: "Aytar edilar, Menda bechun (bemisl, bemonand) jamolini mushohada qilishda biror taraddud (ikkilanish) qolmadi va har zamon unga hoziru nozirmanki, "U Kunda ba'zi yuzlar yashnovchi, Parvardigorlariga boqib turuvchidir" (*Qiyomat*, 22-23). Bu oyatning mazmuniga ko'ra, qiyomat kunida ba'zi bandalarga mushohada davlati beriladi. Tasavvuf ahlining fikricha, g'aybiy jamolni mushohada qilishlik bu dunyoda sir ko'zi bilan hosil bo'ladi. Bayt:

*Digaronro va 'dai fardo buvad,*

Oshiqonro naqd ham injo buvad.

(Boshqalarga diydor ertaga (qiyomatda) va'da qilingan bo'lsa, Oshiq'larga esa bu dunyoda naqd qilib berilgandir.)

Xudoydod hazratlarining she'rlarida, asosan, oshiqning visol va hijron bilan bog'liq turfa holatlari, iztirob va o'rtanishlari san'atkorona o'z ifodasini topgan. Olovdan kuygan inson olovning qanday azob berishini ko'proq his qiladi va bu haqdagi taassurotlari ham haqiqatga yaqinroq bo'ladi...

Shayx hazratlari ham Allohning haqiqiy oshig'i va do'sti edilar. Shu bois qalbdagi ishq olovining butun harorati va alangasini, o'rtanish va kuyishini, talpinish va intilishlarini bor bo'y-basti bilan ifoda qilib berdilar. Bunday she'rlar sizga ayricha ta'sir qiladi va ruhiyatingizni ko'taradi.

Ma'lumki, Muso alayhissalom Tur tog'ida Allohdan: "Jamolingni ko'rsat! Senga nazar solay?" deb talab qildilar. Alloh aytdi: "Ey Muso, jamolimni aslo ko'rolmaysan, sani ko'rishga toqating yetmaydi". Lekin toqqa nazar sol, agar u o'z joyida sobit-barqaror tursa, bas meni ko'ra olasan". Shunda Alloh taolo toqqa tajalliy qilganida, tog' titilib, parcha-parcha bo'lib ketdi. Muso alayhissalom esa hushsiz yiqildilar va hushlarga kelib, bu ishlaridan tavba qildilar<sup>20</sup>". Shunday ulug' payg'ambar Haq diydorini ko'rolmaganidan keyin, avliyolar qanday ko'rishi mumkin? Ularning g'azallaridagi da'volarni qanday tushunish kerak? Shubhaga

---

<sup>20</sup> Qarang: Qur'on, A'rof, 143.

bormaylik. Allohning do'stlari botil da'vo qilmaydilar va yolg'on gapirmaydilar. Ular tajalliy nuridan sarmast bo'lib, turli iddaolar qiladilar, xolos. Shayx Xudoydodning qarashlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, sir ko'zi bilan g'aybiy jamolni mushohada qilgani, vuslat va qurbat onidagi ilohiy kayfiyatlarini bayon etgani ma'lum bo'ladi. Abu Abdulloh bin Sulaymon Jazuliyning "Daloyil ul-xayrot" kitobining sharhida Vaslga shunday ta'rif beriladi: "Vasl dar lug'at ba ma'niyi payvand va payvastian ast. Va nazdi so'fiya foniya va nobud soxtani banda avsofi xudro dar avsofi Haq... Ya'ni, Vasl lug'atda bog'lash (ulash) va bog'lanishdir (ulanishdir). So'fiylar nazdida bandaning o'z sifatlarini Haq sifatlarida foniya va nobud qilishidir"<sup>21</sup>. Demak, so'fiylar vasl va visol so'zlari orqali Haqni ko'rdim deb da'vo qilmaydilar. Visolga erishdim, unga qovushtim degan so'zlaridan Allohni ko'rdim, (hulul (ichiga, botiniga kirish) va ittihad (bir-biriga ulanish, payvast bo'lish) degan ma'nolar chiqmaydi. Zotan, tasavvuf ahli "hulul va ittihad" deb boshqa bir holatni tushunadilar. Allohga nisbatan bu ma'noni qo'llashni kufr, deb biladilar.

Ma'lumki, hamma narsa Allohga tasbih aytadi va unga itoat etadi. Lekin maxluqot ichida Alloh inson zotini eng mukarram va eng ulug' qilib yaratdi. Barcha yaratgan narsalarini odamga bo'ysunuvchi va xizmatkor qilib qo'ydi. Shayx Xudoydod ham bir baytida bunday deydi:

*Jumla olamdin guzida qildi-yu, qildi sharaf,*

*Odama qildi inoyat, lutfu axyor ayladi.*

Alloh taolo insonga qalb degan ulug' bir xilqatni, Haq "tajalligohi"ni ato etdi. Alloh sifatlarini oshkor qilish uchun olamni, o'z zotini oshkor qilish uchun esa odamni yaratdi. Odamdagi bu sharofat va imkoniyatlarni ko'proq his qilgan, yuzaga chiqargan va buni anglashga chaqirgan ham ulug' zotlar edilar.

Anas raziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisi qudsiyda aytiladi: "Rasululloh sallallohu alayhi vasallam aytdilar. Allohu taolo shunday buyuradi: "Mo'min bandam menga bir qarich yaqinlashsa, Men unga bir gaz<sup>22</sup> yaqinlashgayman. Menga bir gaz yaqinlashsa, Men unga bir quloch yaqinlashgayman. Men tomon yurib kelsa, Men unga yugurib peshvoz chiqqayman" (*Imom Buxoriy rivoyat etgan*). Alisher Navoiy

<sup>21</sup> Mazkur asar. Bombay. 1331 (1913) y. 123-b.

<sup>22</sup> Bir gaz 50 sm larga yaqin uzunlik o'lchovi.

“Hayrat ul-abror”da Alloh butun koinotni hikmat bilan yaratib, har bir narsani bir-biriga muvofiq va munosib qilgani lekin barcha yaratiquklardan maqsad inson ekani haqida teran ma’noli baytlar bitadi:

*Ganjing aro naqd farovon edi,*

*Lek boridin g’araz inson edi.*

Keyingi baytlarda insonning butun fazilat va xislatlari muxtasar ta’rif-tavsif etiladi.

*Turfa kalomingg’a dog’i komil ul,*

*Sirri nihoningg’a dog’i homil ul.*

*Ko’ngliga qilding chu yaqin ganji qism,*

*Jismini ul ganjga qilding tilism.*

Ya’ni, inson Haq kalomidan voqif, maxfiy sirlaridan xabardor bo’luvchi, ko’ngli butun ma’nolar xazinasi bo’lsa, jismi u xazinani asrovchi tilsimdir.

*«Karramano»<sup>23</sup> keldi manoqib anga,*

*«Ahsani taqvim»<sup>24</sup> munosib anga.*

*Ma’rifating kim qila olmay sifat,*

*Qilding ani orifi ul ma’rifat.*

Qur’oni karimda Alloh insonni mukarram va chiroyli shaklu shamoyilli qilib yaratganidan xabar berdi. Hech narsa inson kabi Haq ma’rifatining orifi bo’lolmaydi. Lekin inson o’zidagi ana shu sifatlardan, bebaho gavhardan, noyob sharafdan va imkoniyatlardan boxabar bo’lsagina “saodati abadiy” va “davlati boqiy”ga musharraf bo’ladi. Chunki, Alloh odamni o’z jonibidan bo’lgan ruhdan nasibador qildi, til, idrok, shuur, tafakkur, ong kabi hamda eng muhimi, qalb, ko’ngil degan ne’matlar bilan siyladi. Qalbgaga esa iymon, taqvo, zikr va ishq bilan sayqal berdi.

Tasavvufda ishq so’fiyning dardi, holatiga daxldor bo’lgan, uni visolga

<sup>23</sup> Qarang: Qur’on. Isro, 70.

<sup>24</sup> Qarang: Qur’on. Tin, 4.

yetkazadigan ilohiy tuyg'udir. Irfoniy manbalarda "ishq ilohiy bir ne'mat", "qalbdagi kuchli olovdurkim, mahubdan boshqa barcha narsani kuydirib yuboradi", "oshiq shamda kuyadi va nurga aylanadi" kabi majoziy so'zlar bor. "Kishi sevgani bilan birga bo'ladi", degan hadisi sharif ham sevgi-muhabbatning inson hayotida muhim ahamiyat kasb etishidan darak beradi. Shayx Xudoydod: "Qachonki, kishi ishq davlati tufayli yo'qlik martabasidan borliq martabasiga keladigan bo'lsa, e'tiborsizlikdan e'tibor topadigan bo'lsa, shubhasizki, ishq—Boriytaolodan boshqa narsa emas", degan majoziy fikr bildiradi. Shoir o'z yorini jonu dilidan sevadi, uning ko'yida devona bo'lish hech gapmas!

*Men sening ishqingda, bas, devona bo'lsam ne ajab,*

*Xonumonimdin kechib, begona bo'lsam ne ajab!*

*Ishqing sharobini ichib, aqlu hushum barcha ketib,*

*Onu iynimdin ayrilib, afsona bo'lsam ne ajab!*

Telbavor oshiqni ishq "bechora qilib", "bag'rini kuydurub pora qilgan"dir. Qanday azobu iztiroblar ichida qolsa ham oshiqqa faqat sevgilisi, jondan aziz yori kerak. Yo'qsa, jonning ham, hayotning ham unga zarracha qadri yo'q.

*Menga bu tanda jon, sensiz kerakmas,*

*Hayoti jovidon, sensiz kerakmas!*

*Na qilsun oshiqing ishqingdan o'zga.*

*Nechokim bo'lsa jon, sensiz kerakmas!*

Shoir uqtiradiki, "dinu iymon", "musulmon"likdan maqsad Yordir, Uning xushnudligi va rizoligi bo'lmasa, dinu iymondan ham foyda yo'q. Hatto ikki jahon xushnudligi, abadiy hayot ham Usiz nokerak va beqadr. Navoiydan oldin yashab o'tgan dilbar shoirlarimizdan biri Atoyi ham bir baytida shunday deydi:

*Dinu dunyo, ayshu ishrat, molu mulku, izzu joh,*

*Barcha yaxshidur, vale, dilbar barindin yaxshiroq.*



Odatda, inson keksayganda oxiratni o'ylab qoladi. Umrni sarhisob qiladi. Chunki, qarilik va o'lim orasi bir qadam...

*Xudoydod naylasun pirlilik holinda,*

*Jahon ichra jahon, sensiz kerakmas!*

Ya'ni: "Xudoydod keksaygan, dunyoni teran anglagan bir paytida, dunyo ichida dunyolarni qo'shib bersalar ham ularni nima qiladi, ular bari o'tkinchi, foni. Ey abadiy tirik bo'lgan Zot, sevikli Yor, Sensiz har qanday molu dunyo menga aslo kerakmas! Mazkur baytdagi pir so'zini murshid deb talqin qiladigan bo'lsak, unda bayt yanada o'zgacharoq ma'no kasb etadi..."

Shayx İzzuddin Mahmud Koshiyning: "O'rtada sen bor ekansan, vahdat yuzi shubha niqobidan xoli bo'lmaydi. Agar o'zlik niqobidan kechsang, ishq, oshiq, ma'shuq birdir", degan hikmatidan ma'lum bo'ladiki, ishq yo'lining eng asosiy pardasi, to'sig'i, bu o'zlikdir... Manoqibda qayta-qayta tilga olinadigan va muhokama qilinadigan, "abadiy mahjub jamolini ko'rishga mone'" bo'luvchi so'z o'zlikdir". O'zlik da'vo qilgan kishida shaytoniy manmanlik va xudbinlik paydo bo'ladi. "Zarracha xudbinligi" bor bo'lgan kishi "bevafo", o'zlik qaydidan xalos bo'lganning odati esa "lutfu vafodir". "O'zlik dardini davolash uchun ko'p riyozatlar va fano lozimdir".

O'zlikdan kechmaguncha, undan uzilmaguncha, Yor vasliga yetib bo'lmaydi. Shoir e'tirof etganidek:

*Men seni, sendin tilarmen, o'zlugimdin uzulub,*

*O'zlugimdin uzmayin, hargiz topolmon men seni.*

"Albatta, (oshiq uchun) hol va kayfiyatini faxr bilan izhor etish, hozirligi va o'zligini namoyon qilish haqiqiy tubanlikdir. Bunday da'vo va dag'dag'a qilish xudbinlik alomatidir. Zeroki, bu sifatlar "o'zlik"ka tegishlidir, o'zlik esa borlik (menlik)dir. Bu toifa (so'fiylar) nazdida hech narsa "menlik"dan yomonroq emas. Va shu ham aniqki, kishida zarracha bo'lsa-da, manmanlik qusuru nuqsonidan qolgan bo'lsa, bu kishi bemisl jamol mushohadasi va turli rohatu lazzatlardan hamda: "Bir

guruh kishilar Alloh jamoliga nazar soladilar”, mujdasi va shodliklaridan mahrum va benasib bo’ladi”.

Hazrati G’avsul A’zam aytgan ekanlar: “Hazrati Parvardigordin so’rdum: “Ishqning ma’nosi nedir?” Hazrat Parvardigor aydi: “Maning birla maosh qilmoq, o’zga din ko’ngul saqlamoq”. Oshiq qanday bo’lishi kerak, degan savolga, U kishining manoqibida shunday javob berilgan: “Ey aziz, tolibi oshiq andoq bo’lmoq kerakkim, tani — Nosut martabasida, ya’ni olami zohirda shariat birla orasta va ko’ngul — martabai Malakutda farishtaxo’y bo’lmoq kerak. Va ruhi — martabai Jabarutda arvohlar birla hamroz bo’lmoq kerak va sirri — Lohut olamida Haq taoloning ishqi birla huzur qilmoq kerak. Vaqteki, tolibning toati natija bersa, farishtaxo’y bo’lur, farishtalar ham kashf bo’lur. Ko’ngli ashg’oli (Haq bilan mashg’ulligi) ziyoda bo’lsa, ruhoniyyat sifat bo’lur, arvohlar ham kashf bo’lur. Va sirrining, ya’ni, botinining ishqi va muhabbati Xudoga g’olib bo’lsa, yodidin huzur topar, hama Haqqa hozir bo’lur, toat va ma’siyatda va muomalai xalqda, xilvatda va jam’iyatda Xudoni hozir ko’rar. Balki nazohir na botin hech olamko’runmas. . Haqiqatni nihoyati budur”<sup>25</sup>. Shayx Xudoydodning qavllariga ko’ra ham: “Muhabbat ahlining yaxshiligi bu — barcha lazzatlardan forig’ bo’lib, Haq zotining mushohadasiga berilishdir”.

O’z Yaratuvcisiga ishqi va iymoni bo’lmagan insonlar esa ulug’likdan tubanlikka, odamiylikdan hayvoniylikka qarab ketadilar. Shu bois odamlar iymon e’tiqodi, ishqi va maslagi bilan uch toifaga bo’linadi:

1. Hayvonsifat insonlar. Ular hayvonlar kabi yeb-ichish va maishat qilishdan boshqani bilmaydilar. Axloqsizlik va shuursizlik tufayli, hayvondan ham tubanga aylanadilar;

2. Farishtasifat insonlar. Ular doimo toat-ibodat va ehsonda bo’ladilar. Hayotlarini Haq nizomi asosida o’tkazishga harakat qiladilar.

3. Payg’ambarsifat insonlar. Ular doimo Haq taoloning zavqu shavqi, sevgi - muhabbati, zikru fikri bilan mashg’ul bo’ladilar. Ular Ma’budi haqiqiyning muroqaba, mukoshafa va mushohadasiga tamoman g’arq bo’ladilar. O’zlik sifatlaridan xoli bo’lib, Haq sifatleri bilan boqiy bo’ladilar.

<sup>25</sup> Manoqibi hazrati G’avsul A’zam. Namangan. 1910. 137-b.

Biz yuqorida qalb, ko'ngil degan tushunchaning ilohiyligi va ulug' ne'mat ekanligini aytdik. Zotan, ishq va tajallining manbai va mazhari qalbdir. Orif-oshiq qalbini sayqallab, sof qilsa, Alloh bu qalbg'a nazar soladi. Dil nazargohi Haq, ya'ni qalb Haqning tajalli qiladigan nazargohi, benazir Zotning jilvagohidir. O'zi marhamat qilganidek, "Men yeru osmonlarga, arshu kursiga sig'mayman, bas, mo'min bandaning yuragiga sig'a olaman". Shayx Sa'diyning mashxur bayti quyidagicha:

*Ka'baki, bunyodi Xalili Ozar ast,*

*Dil nazargohi Jalili akbar ast.*

Ya'ni, Ka'ba Ozar o'g'li Xalilulloh alayhissalomning bunyod qilgan binosidir, ko'ngil esa ulug' va buyuk Allohning nazargohidir. Hazrat Navoiy "Hayrat ul-abror" da ko'ngilning Ka'badan ham qadrliroq ekanini yanada ochiqroq ifodalaydi:

*Ka'baki, olamning o'lub qiblasi,*

*Qadri yo'q andoqki, ko'ngul ka'basi.*

Qalb, musaffoligi va Haq nazargohi bo'lgani uchun oynaga qiyoslanadi. Oyna qancha toza va musaffo bo'lsa, ma'shuqni shuncha tiniq va beg'ubor aks ettiradi. Sayqallangan va soflangan qalbdan ma'shuqning ma'naviy jamoli zohir va huvaydo bo'ladi. Sa'diy aytganlaridek:

*Sa'diy hijob nest, tu oina sof kuni,*

*Zangor xud kuni, binmoyad jamoli do'st.*

(Sa'diy, sen oinangni (qalbingni) sof qilsang, (yor jamoliga) to'siq qolmaydi, sen unga sayqal bersang, do'st jamoli unda aks etadi). Fuzayl ibn Iyoz rahmatullohi alayh: "Xaloyiq sening zohiringga nazar soladi, Xoliq esa botiningga nazar soladi. Sen odamlar nazar soladigan joyni ziynatlab, Alloh nazar soladigan joyni xunuk qilib yurishdan saqlan!" — deb tanbeh berganlar. Manoqibdan Shayx Xudoydodning yuqoridagi fikrlariga hamohang satrlarini o'qiydiz: "Qalbim oynasini Allohdan boshqa narsalarning g'illu g'ashlari zangidan tozalab, Xudovand zikri nuri bilan sayqal berganman. Muhabbat nomasini Uning dardi sarlavhasi bilan muhrlaganman.

Xudoning inoyati bilan, ishqu muhabbatni o'zimga maqsad qilganman. Ikki dunyo lazzatini o'zimdanda yiroqlashtirganman. To tirik ekanman, mening ishim visol va jonon yuzini talab qilishdir. Visolni ixtiyor qilishga bo'lgan istaku talab qo'llari har tomonga uzatilgandir. Mahbubning ishqu havosi hamisha jonim orasidadir”.

Lekin Shayx Xudoydodning ta'kidlashlaricha, “Tangrining vaslin tilagan” kishi ko'nglini turli hoyu havaslardan, nafs qutqularidan “xoli qilishi” va dilda paydo bo'lgan sirlarni esa har kimga ham oshkor qilmasligi kerak:

*Ey Xudoydod, sirri dilni ochmag'il har xirag'a,*

*Ko'p riyozatlar keraktur, ko'p fonoyo ishqida.*

Chunki, Haq sirrining kashfi osonlikcha qo'lga kiritiladigan narsa emas. Manaqibda bunga erishish “baland himmatlilik va ixlosning kuchliligiga bog'liq”, deb aytilgan.

Hadisi shariflardan birida, Alloh bir bandasini sevsa (yaxshi ko'rib qolsa), Jabroil alayhissalomga sevishni buyurar ekan, u zot ham sevib qolar va samo ahliga e'lon qilib, “falonchini Alloh sevdi, sizlar ham sevinglar”, deb nido qilar ekan. Samo ahli ham uni sevgandan keyin, bu amr yer ahliga bo'lar va nihoyat odamlar ham bu insonni sevib qolarekan. Shayx Xudoydod bir baytida mazkur hadisga ishora qilib aytadi:

*Bandakim, avval inoyat birla Haq sevdi ani,*

*Lojaram Haqni sevib, o'zga sevuklukdin kechar.*

Ya'ni, agar Haq o'z inoyati bilan bir bandasini sevib qolsa, bu banda beixtiyor barcha yaxshi ko'rgan narsalaridan voz kechadi va Haqni sevib qoladi. Haqiqiy oshiq va ma'shuqlik sobit bo'ladi. Navoiy hazratlari aytganlaridek: “Ishq agar komildurur oshiq qilur ma'shuqni ham”.

XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asr boshlarida yashab o'tgan Azim Xoja Eshon muxammaslaridan birida quyidagi baytni naqorat qilib keltiradi:

*Yo Rab, hama jismimga berib diydayi biyno,*

*Dil turiga<sup>26</sup> qilsang na bo'lur lahza tajallo?*

Ya'ni, shoir Allohga iltijo qilib, qalbining to'riga tajalli qilishini va butun jismi

<sup>26</sup> Bu o'rinda shoir ihom san'atini qo'llagan. Baytda Tur tog'iga ham ishora bor (S.S.)

mushohada qiluvchi ko'zga aylanishini yolvorib so'raydi.

Agar Alloh qalbgga nazar solsa, tajalliy etsa, orif bu holdan mastu mustag'raq bo'ladi, yuksak zavq va vajdu hol ro'y beradi. Shunday bir holatki, uni so'z bilan ifodalash qiyin. Ifodalagan taqdirda ham, boshqa birovning u so'zlarni tushunishi, his qilishi, haqiqiy ma'noda idrok etishi mushkul. Zotan, tasavvufga berilgan ta'riflardan biri ham uning "movaroi aql" ya'ni aqldan ustun, aql bilan anglab bo'lmaydigan holatlarga ega bir ta'limot ekanidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, oriflar tajalliy va mushohadani shunga qiyos qiladilar: har qanday suratning ko'rinishi oynada aks etadi. Shuningdek oy va quyoshning aksi suvga tushadi. Bunda oynaga boquvchining shakli oynaga o'tib qolmaydi yoki oy va quyosh ham suvga tushib qolmaydi. Faqat o'rtada bir ma'naviy bog'liqlik bo'ladi, xolos. Oyna va suv qancha sof va zilol bo'lsa, yor aksi ham shu qadar tiniq va musaffo bo'ladi. Aksni ko'ruvchilarning kayfiyati va holati esa turlicha bo'lishi tabiiy. Chunki, har bir boquvchining taqvosi, ishq, ilmi, hikmati, zavqi, holi, vajdi o'zgachadir. Suratning go'zalligini va holatning injaligini esa har kim o'z andozasida bayon etadi. Ba'zan visol holida bexudlik va beshuurlik ro'y beradi, deydilar. Chunki, Zot tajallisida na ism, na rasm, na fe'l va na sir boqiy qoladi.. Chaqmoqqa bir tikilgan odamda oniy shuursizlik ro'y berganidan keyin, Zot tajalliy etganida nimalar ro'y bermaydi deysiz...

Muborak bir hadisda: "Menda Allohga yaqinlik jihatidan shunday bir lahzalar bo'ladiki, o'rtaga biror mursal payg'ambar ham biror muqarrab farishta ham sigmaydi", deyiladi. Bu hol payg'ambarlarning haqiqiy vorislari bo'lgan avliyolarda ham o'ziga xos tarzda zuhur etadi. Oriflar orasida Haq oshiqlarining visoldan mast holatda, bexudona aytilgan so'zlari kechiriladi, degan naql bor. Uni shunday izohlashadi. Shariat hukmlari va hujjatlari aql sohibiga tegishlidir. Oshiqlar esa hol sohiblaridir va ular visoldan mast bo'lib, devonaga aylanadilar. Devona esa har jihatdan uzrlidir. Ruboiy:

*On kaski, turo shinixt, jonro chi kunad?!*

*Farzandi azizu xonumonro chi kunad!*

*Devona kuni, har du jahonro boxshi,*

*Devonai tu, har du jahonro chi kunad!*

*(Kimki, seni tanisa, jonni na qilsin,*

*Azuz farzandiyu xonumonni na qilson.*

*Devona qilursan, ikki jahonni berursan,*

*Sening devonang, ikki jahonni na qilsin?!)*

Tasavvuf manbalarida: “Albatta Alloh oshiqalaridan sodir bo’lgan narsalar bilan ularni itob qilmaydi”, degan mashhur gap bor. Bu gap Mansuri Hallojning “Anal Haq” (Men Haqman) degan da’vosiga ham tegishli.

“Manoqibi hazrati G’avsul A’zam”da “visol”ga shunday izoh beriladi: “Oshiq bilan Haqning visoli ikki insonning bir-biri bilan muloqot qilib uchrashgani kabi emas, balki Haq zoti va sifatleri tajalliy qilganda, bandaning zoti va sifatleri unda mahv va yo’q bo’lib ketadi, undan biror asar qolmaydi...”. Chunki, bandaning sifatleri foni, Haqning sifatleri boqiydir. Demak qiyoslar va dalillar asosida visol, tajalliy va mushohada kabi so’zlarni to’g’ri talqin qilishimiz kerak.

**IV.** Manoqibda keltirilgan ayrim jumlar yoki holatlar bayoni kimdadir shubha yo e’tiroz uyg’otishi mumkin. Masalan, manoqibda “Bas, darhaqiqat, Alloh taolo Odamni o’z suratida yaratdi”, degan hadis bor. Bu hadisni ko’p tasavvuf olimlari sharhlagan. Alloh taolo Odam alayhissalomni va uning zurriyatlarini o’zining “xalifasi”, ism va sifatlariga mazhar qildi. U Allohning haqiqiy oshig’i bo’ldi va Allohni xotirlatadigan nur ham faqat odamda zohir bo’ldi. Inson o’zining aslini, qadrini, haqiqiy suratini bilganda edi, tuban ishlarga qo’l urmasdi. Bir hadisda odamning: “Avvali ham najosat va oxiri ham najosat”, ekani eslatilgan. Ya’ni, jisman shunday. Ona qornidan, najosatlar ichidan dunyoga keladi. Qabrga kirganda ham jasad yorilib, hidlanib, tuproqqa singib ketadi. Buni chuqur mulohaza qilgan odam haqiqatini angelaydi va takabburlikdan ehtiyot bo’ladi. Lekin ma’nan va ruhan odamning ulug’ligidan yuqorida bahs etdik. Manoqibda keltiriladi: “Inson mening sirrim va Men uning sirriman, (insonni o’zimga sirdosh, mahram, munis, hamroz qildim). Va agar inson mening huzurimdagi qadr va darajasini bilganida edi, har nafasda: “Men podshohman va mendan boshqa podshoh yo’qdir”, deb aytardi”<sup>27</sup>. Ya’ni, inson

<sup>27</sup> “Manoqibi G’avsul A’zam”, 10-b.

Allohning unga bo'lgan lutfidan, xos mahram qilganidan zavqqa tushib, haqli ravishda visolning xos mahramxonasida Podshohlik da'vo qilardi... Shu kabi ma'nolar hadisidagi “o'z suratida yaratdi” iborasini qo'llab-quvvatlaydi. Yoki Shayx hazratlarining: “Siz mening oldimda Maliki allom kalomini o'qiyotganingizda, goho sizni orada ko'rmay qolaman, shu lahzalarda Kalomi majidni Haq jalla va alodan eshitayotgandek bo'laman”, qabilidagi so'zlari ham hech shubha uyg'otmasligi kerak. Hazrati Shayx bunday paytlarda qanday holatlarni boshidan kechirganini biz bilmaymiz va bu muborak zotlar so'zlarida sodiqdirlar. Manoqibda: “Ishq — Boriy taolo zotidan boshqa narsa emas”, degan jumla imkon qadar sharhlangan. Ammo chuqurroq, teranroq sharhlanishga ehtiyoj seziladi.

Manoqibda “ba'zan o'z uylarini g'orat qilishga amr qilardilar va oila a'zolari bilan uydan chiqib ketar edilar va harna uylarida bor bo'lsa, talon-toroj qildirardilar. Ko'ngil sultoniga yo'qlik mulkidan xiroj berardilar”, degan jumlar yoki: “ba'zan Hazrati Shayx muborak oyoqlarini uzatib, ma'rifullohdan hikoya” qilayotganlarida, oyoqlari og'rigani uchun muridlari oyoqlarini uqalab qo'yisharkan. Hikoyatga muvofiq uzr bilan oyat o'qiganlarida, gohida oyoqlari uzilib turar, ammo hadis o'qisalar (hushyor tortib), birdan oyoqlarini yig'ib olarkanlar”. Manoqibda Shayx hazratlari nega bunday qilganini tushuntirib bergan. Ammo izoh hamma uchun yetarlimikin? Xullas manoqibda o'ylatadigan, fikrlashga undaydigan va savol tug'diradigan jumlar bor.

Menimcha, “Kim o'z nafsini tanisa, Rabbisini taniydi”, degan hadis mazmunini tafakkur qilgan odam o'zlik mohiyatidan, Xoliq va maxluq munosabatidan, olam va odam sirlaridan hayratga tushmasdan iloji yo'q. Balki bir umr hayrat ichida yashar...

Tasavvufiy manbalarda yozilishicha, solik o'z nafsining haqiqatini, Haq haqiqatini, dunyo haqiqatini va oxirat haqiqatini anglamaguncha, yuksak ma'rifat hosil qilolmas ekan. Manoqibni diqqat bilan o'qigan kishi “nafs ahli”, “qalb arboblari”, “sir arboblari” va “mushohada va muoyana arboblari” kabi atamalarga duch keladi. Bularni ajratish va har qaysi toifaning o'ziga xos sifatlarini aniqlash, nazariy va amaliy tajribani talab biladi. Bu osonish emas. Ustozlarimiz: “Aqli yetmagan narsaga sukut saqlagan afzal”, deb ta'lim berganlar. Bu har jihatdan to'g'ri fikr. Kamina o'zimni loyiq sezmasam ham,

manoqib bilan bog'liq ayrim o'rinlarga izoh bergandek bo'ldim. Alloh bilguvchiroq va kechirguvchiroq!

So'zimning oxirida juz'iy mulohazamni aytmoqchiman. Ma'lumki, Shayx Xudoydod Valini o'z davrida podshohlar ham, odamlar ham aziz inson, ulug' pir bilib, hurmat qilgan, duolarini olgan. Ukishining shuhrati va ovozi butun Movarounnahr va Xuroson o'lkalariga yoyilgan. Nafaqat odobi, axloqi, obro' va karomatlari bilan, balki o'zbek va tojik tilidagi ajoyib g'azallari orqali ham butun chor-atrofdagi odamlarni dinu diyonatga, axloqiy va ruhiy kamolatga undab, ezgulikni, tinchlik-totuvlikni, halol mehnatni targ'ib qilib kelgan; eng nufuzli tasavvufiy va tarixiy manbalarda muborak nomlari sharaf bilan tilga olingan.

Samarqandda Shayx Xudoydodga bag'ishlangan ko'plab ilmiy amaliy anjumanlarning o'tkazilgani xayrli ish, albatta. Lekin shunday mashhur xalqparvar, dinparvar avliyo, orif-oshiq, san'atkor shoir va ezgulik targ'ibotchisi bo'lgan inson haqida kengroq va ko'proq targ'ibot ishlarini amalga oshirish kerak, deb o'ylayman. Faqat Samarqandda emas, butun respublika miqyosida ilmiy- amaliy anjumanlar o'tkazish, radio va televideniylarda chiqishlar qilish, asarlarini chop etish, qabrlarini obod etish galdagi vazifalarimizdan bo'lmog'i darkor. Bu muhtaram zotning tasavvuf, tarix va adabiyotdagi haqiqiy o'rnini belgilash va yoshlarimizga bildirish lozim. Bu yo'lda barchamizga Alloh madadkor bo'lsin.

**Sayfiddin SAYFULLOH**



## BIRINCHI BOB: ISHQ<sup>28</sup> TO'G'RISIDA

İshqning ma'nosi shuki, ular (ishq ahli) o'zlaridan foniy va Haq subhonahu va taolo (ishqi) bilan boqiy va abadiy hayotga erishib, tirikdirlar<sup>29</sup>. Olam ahlining qolgan (ishqsiz, iymonsiz)lari esa ularning nazdida, o'liklar kabidir<sup>30</sup> va u (oshiq)lar o'lik (ishqsiz)lar bilan hamsuhbat bo'lishlari lozim bo'lib qoladi, ammo bu hamsuhbat bo'lishlik ular uchun eng og'ir balodir. **Saj'**: Zero, oshiq doimo habibi ishqida muhtaloyu zor, unga shaydolikda fidokor, Undan o'zgasidan bezor. Ma'shuq dardi bilan baxtiyor, (Uning ishq bilan) to'abad boqiy va poydor (mustahkam). Azaldan Alloh o'z inoyati bilan unga mehribon va hamisha hamdamu yor.

Alloh o'z lutf karami bilan Odam (alayhissalom)ni qildi ixtiyor, har lahza uning haqida inoyatlar, bashoratlar bo'lgani xabarlarda bisyor. (Shu sabab) oshiq Xudoning

---

<sup>28</sup> İshq — Haqning zuhuriga sabab bo'ladigan dastlabki sifat. Tasavvufda Allohga bo'lgan shiddatli sevgi. Haqning boshlang'ichi va oxiri bo'lmaganidek, Haq tajalliysining ham ibtido va intihosi yo'qdir. Uning zoti har joyda zohir erur. İshq Allohdan ato etilgan rahmoniy bir ulfat. Ulfatdoshlik tuyg'usi esa har bir ruh sohibiga xos. İshq ikki xildir: haqiqiy va majoziy. Haqiqiy ishq — Allohga, majoziy ishq esa Alloh yaratgan narsalarga, odam va olam go'zalligiga oshiqlik erur. İshq oshiqni Haqqa yetkazuvchi, yaqinlashtiruvchi eng asosiy vositadir. Shu bois ham Alisher Navoiy yozadi:

*Bo'lmasa ishq, ikki jahon bo'lmasin,*

*İkki jahon demaki, jon bo'lmasin.*

<sup>29</sup> “Manoqibi Hazrati G'avs ul-A'zam”da shunday keltiriladi: “Hadisurkim, “Al-ishqu norun tafa'u fil-qalbi va tahruku ma sival-mahbub” (İshq — qalbdan paydo bo'ladigan va Mahbubdan boshqasini kuydirib yuboradigan otash — olovdir). Ya'ni, ishq bir o'tdur, ko'ngulda paydo bo'lur va ma'shuqdan o'zga har ne bordur, kuydurur. Va Mahbubning zikri yodi muhibga g'izo bo'lur. Va ma'shuqning fikri oshiqning maoshidur. Va do'st jamoli oshiqning oromu rohatidur.

<sup>30</sup> Bu o'rinda, ishqsiz odam ma'nadan o'lik ma'nosida kelgan. Masalan, Alisher Navoiy bir necha baytlarida inson jismida ishqning ahamiyati haqida shunday yozadi:

*Yordin ayru ko'ngul mulkedurur sultoni yo'q,*

*Mulkkim sultoni yo'q, jismedururkim joni yo'q.*

*Jismdin jonsiz ne hosil, ey nusulmonlarkim, ul*

*Bir qaro tufrog'dekdururkim, gulu rayhoni yo'q.*

*Yoki: Ne ayb jon menga behol bo'lsa jonsiz,*

*Ne holi bo'lg'ay o'luk jismi zorning jonsiz.*

lutfidan umidvor va jumla olam uning nazdida noqobil, begona va murdor. Chunonchi, marhamat qilganlaridek, hikmat:

*Ey saning ishqing mani ko'p o'ziga zor ayladi,  
Xush muborak jazbakim, barchaga bezor ayladi.*

*Ey, saning darding bilan qol g'umdurur men to abad,  
Bu saodat ko'rkida afloki davvor ayladi.*

*Men azaldin kutmadim hargiz saningdek mehribon,  
Uzdi o'zgodin mani ham o'ziga zor ayladi.  
Jumla olamdin guzida qildi-yu, qildi sharaf,  
Odama qildi inoyat, lutfu axyor ayladi.*

*Ey Xudoydod, lutfni ko'rgil, boqi hamvor bo'l,  
O'ziga nisbat uchun, o'zgago ag'yor ayladi.*

Agar bir xonada o'limtik (murdor) aynib, sasib qolgan bo'lsa, o'sha xonadagi jamoa badbo'ylikdan qanchalar noxushlik va nafrat tuyishini bilasizlar. Bilinglarki, ishqsiz sizlar ham xuddi murda kabisizlar<sup>31</sup>, men (Allohning lufti bilan) shuncha baloyu mashaqqatga qaramasdan, ko'nglimni dildor (ishqi)ga baxsh eta oldim. G'azal:

*Ey xayolat aqlu husham dargumon andoxta,  
Karda ro'yat jilvayi dardi nihon andoxta!*

*Otashu shavqat fitoda dar dili har oshiqe,*

---

<sup>31</sup> Bu yerda haqiqiy ishq holidan va haqiqatlaridan yiroq bo'lgan kishilar nazarda tutilmoqda. (S.S.)

*Har yakero tiri g'am dar jon andoxta!*

*Har zamone tiri g'amza mirasad bar joni man,*

*Chun kunam, on toqi abru az kamon andoxta!*

*Bah, chi sozam, chunkunam, k-az vasli o'yobam nishon,*

*Azbaroyi fapqi hijron dar miyon andoxta!*

*Ey Xudoydod, ar bisuzad otashi ishqat chi bok,*

*“Kullu shay'in yarji' u” dar insu jon andoxta!*

(Mazmuni: Ey xayoling<sup>32</sup>, aqlu hushimni gumonga solib qo'ygan, yuzing jilva ko'rgizib, yashirin dardga yo'liqtirgan (Zot). Har bir oshiq ko'ngliga shavqing o'tini solib, har birining jon boshiga g'am o'qlarini sanchasan. Har lahza g'amzang o'qlari jonimga sanchiladi. Nima qilay? Bular qoshing toqi kamonlaridan otiladi. O'rta tushgan hijron farqi — ayrilig'idan qutulish uchun ey voh, nima qilib bo'lsa ham uning visolidan xabar topsaydim? Ey Xudoydod, agar seni ishqing otashi kuydirsa ne ajab, chunki, insonu jinlarga: “Har bir narsa o'z asliga qaytuvchidir”, deb nido qilingan.)

Zero, Payg'ambar alayhissalom marhamat qilganlaridek:

إِنَّ اللَّهَ تَعَالَى خَلَقَ آدَمَ عَلَى صُورَتِهِ

*Innalloha ta'ala xolaqo Adama 'ala sirotihi<sup>33</sup>.*

“Darhaqiqat, Alloh taolo Odamni uz suratida yaratdi”. Bu o'rindagi suratdan maqsad Odam (alayhissalom) yuzidir. Chunki, kimki Alloh azza va jallaning ishq muhabbati tufayli, parishonhol va xayolparast bo'lib qolsa, bu oshufta ahvol va hayronlik o'sha odamning yuzida namoyon bo'ladi. Zero, oshiqning qalbida ma'shuqining xayolidan bo'ston paydo bo'ladi. Va visol taxtida oshiq yuragi podshohu

<sup>32</sup> **Xayol** — ishq, ma'nosidan tashqari, xohish, iroda mazmunida ham qo'llangan. (Mutarjim).

<sup>33</sup> Bu hadis majoziy ma'nodadir. E'tiqodi sog'lom mutasavviflar Allohning yakka-yagona, o'xshashi va naziri yo'qligini bilgan holda, bu hadisni keltirganlar va uni o'z ma'nosida emas, majoziy ma'noda talqin va tahlil qilganlar. Ba'zi “Arba'iyin” qirq hadis jamlangan asarlarda ham mazkur hadisning sharh va izohlari uchraydi. (S.S.)

sulton bo'ladi. Va gohida ishqqa muhtalo dil mashaqqatlarga chiday olmaganidan hayronu zordir. Mahbubning xattu xoli<sup>34</sup> oshiqni ko'ngli va jonidan ayirish uchun o'z domiga ilintiruvchi dona va tuzoq kabidir. U har qancha dil dardini izhor qilmaslik uchun xomush bo'lsa ham, yurak muhabbat mazhari bo'lgani bois, sirni ochuvchi hazordoston<sup>35</sup> bulbulga aylanadi. Hijrondan toqati toq bo'ladi va ko'ngli visol ishtiyoqida yonadi. Ko'ngli tez-tez muhabbat otashida yonsa-da, oshiqning sabr qilmog'i zarurdir. G'azal:

*Ey, xayoling tushgali ko'nglumga bo'stondur ko'ngil,  
Vaslingiz taxtida bo'lsa, asru sultondur ko'ngil!*

*Muhtalo bo'ldim saning ishqing bilan men notavon,*

---

<sup>34</sup> Bu yerda “**xat**” va “**xol**” tasavvufiy istilohlardir. Sajjodiy lug'atida aytiladi: **Xat** deb, soliklar nazdida, ruhlar olamining ayon bo'lishiga aytiladi. Bunda (orifda) vujud martabalariga yaqinlashish holati yuz beradi. Shuningdek xatdan murod kibriyo olami, ya'ni mujarrad ruhlar olamidir... Shuningdek **xat** — ruhlarga oid narsalarning jismlarda paydo bo'lishiga nisbatan ham aytiladi (ya'ni ma'naviy olamdagi narsalarning moddiy olamda namoyon bo'lishi, deyish mumkin. (Ta'kid bizniki — S.S.).

**Xol**— tariqat soliklari va zavq ahllari nazdida, haqiqiy vahdat nuqtasidir. Shu jumladan, xol so'fiylar istilohida, vahdat nuqtasiga ishoradir. Vahdat nuqtasi esa kasratning boshlanishi va oxiri, idrok etish va anglash mumkin bo'lmagan g'aybiy borliqqa o'xshaydi... Lohijiyning ayti- shicha, vahdat kasratning nihoyasi bo'lib, xol esa unga ishoradir. Zeroki, xol nuqtasi qop-qoraligi bilan idrok va shuurning fanosi (eng yuqori darajasi) bo'lmish Zot nuqtasi yoki maqomi bilan mutanosib bo'ladi.

**Xol** — haqiqiy vahdat nuqtasi hisoblanadi. U kasrat — ko'plikning boshlanishi va intihosi. Ag'yorning idrok va shuuridan berkitilgan va maxfiy qilingan. «Barcha amrlar undan boshlanadi va unga qaytadi...». Xol yo'qlik olamini anglatishi bilan birga, Mutlaq zot yagonaligiga ham ishoradir.

*Zulfig'a tushsa Navoiy xoli shavqidin ne tong,*

*Domdin yo'q chorosi har qushki, bo'lg'ay donado'st.*

*(«G'aroyib us-sig'ar», 87,7)*

«Mir'otul ushshoq»da vujud falagining markazi bo'lgan qalbning suvaydo nuqtasi bu holni jilolantiruvchi va zohir qiluvchi joydir, deyilgan. Ba'zi mutasavviflarga ko'ra, xol — toat nurlari ichidagi ma'siyat zulmati. Agar yaxshilik oz bo'lsa, xol deydilar. Xolning qora rangga tashbih qilinishi g'aybiy haqiqatdir, idrok va shuurdan panadadir; mabda' va kasrat intihosining haqiqiy vahdat nuqtasidir. Shuningdek, Mutlaq zot vahdatidan kinoya ham deydilar. Qora xol deganda, ba'zan, g'ayb olami tushuniladi.

<sup>35</sup> Mumtoz adabiyotda bulbulning yana bir nomi hazordoston, ya'ni, mingdostondir. Aytishlaricha, u ishq tufayli ma'shuqaga minglab dostonlar kuylab berar ekan.

*Ibtiloyi xush erur, hayronu hayrondur ko'ngil!*

*Maxzani husningda ko'rdim ul xatu xolingni men,  
Donai doming bila besar somondur ko'ngil!*

*Barchani tark aylabon, qildim tamanno ko'rgali,  
Ohu vovaylo bilan giryonu nolondur ko'ngil!*

*Dardi dilni aytmayin, toki shikoyat bo'lmasun,  
Mazhar o'ldi husnunga, mazharga dostondur ko'ngil!*

*Toqatim ham toq bo'ldi, ushbu hijron ilkidan,  
Vaslni juft aylagilkim, asru mezbondur ko'ngil!*


*Ey Xudoydod, sabr etib tur, nola afg'oning qo'yib,  
Dam-badam ishq o'tida bir necha biryondur ko'ngil!*

Vohid — (yakkayu yagona bo'lgan zot) vahdoniyat sifatini xolis qilish uchun o'ziga muxlis istaydir. Chunonchi:

*“Fotiha” omad zi hamdat ham ubudiyatcba ham,  
Vasfi vahdoniyat dar surai “İxlos” shud.*



(Mazmun: “Fotiha” surasi Sening hamdingga, shuningdek, bandalik qilishga dalil bo'lib keldi. Vahdoniyat — yakkayu yagonalik vasfing esa “İxlos” surasida jamlangandir.)

Muxlis uldirki, Xudoyi azza va jalla unga Hofiz (saqlovchi) bo'lgan va uning botiniy ko'zini o'zining mukammal jamolini ko'rishda tavhid surmasining ro'shnoligi (ravshanligi) yordamida, g'ilaylar kabi ikkita ko'rishdan saqlagan, uning qalbida —



“Qul huwallohu ahad” bashorati bilan, o'z zotining vahdat (yagonaligi)


inoyat qilgan *Allohus somad*” ma'nosining kashfi bilan, (ixlos-e'tiqodini)

mustahkam etgan va  “*Lam yalid va lam yulad*” sifati tanzihii (aybu nuqsondan munazzah sifati) ila, Allohu taoloning zotini tug’ish va tug’ilish sifatlaridan pok va munazzah bilgan  “*Va lam yakul lahu kufuvan ahad*” ixlosi bilan, Xudovand taoloni tengsiz va sheriksiz, deb ixlos qilgan. Chunonchi, g’azal taxallusida inoyat qilib aytadilarki:


*Ey Xudoydod, in saranjomi dilam dar vahdat ast, Koshifi in durri ma’ni surayi  
“Ixlos” ast.*

(Mazmuni: Ey Xudoydod, bu ko’nglingning saranjomligi vahdat xosiyatidandir. Bu durning ma’nosini esa “Ixlos” surasi kashf qilib, ochib beradi).

Qur’oni karim xabariga ko’ra: “(Zulayxo) **unga moyil, u (Yusuf dili) ham bunga moyil bo’lgandi. Agar Rabbining hujjatini ko’rmaganda** (bo’lar ish bo’lar edi). **Shu tarzda undan yomonlik va fahshni burib yubordik. Albatta, u (dili) xolis bandalarimizdandir**<sup>36</sup>”. (Ya’ni,) Alloh taolo azza va jalla ishorat bilan marhamat qiladi:

 “*Lav la ar roa burhana Robbih*”. “**Agar Rabbining hujjatini ko’rmaganda** (bo’lar ish bo’lar edi)” (Yusuf, 24-oyat).

 “*Kazalika linasrifa ‘anhus sua val fahshaa*” “**Shu tarzda undan yomonlik va fahshni burib yubordik**” (Yusuf, 24).

Uning ismat xirqasini nafsu havo bo’risi pora-pora qilishiga yo’l qo’ymadi va  “*Innahu min ibodinal muxlasiyn*”. “**Albatta, u (dili) xolis bandalarimizdandir**” (Yusuf, 24) bashoratini berdi.

U kishini mehnat va mashaqqatdan xalos etib, hijronga barham berib hifzu himoyasiga oladi. Chunki hijron dardiga visol darmondir. Va sir olamida o’zining vasliga sirdosh va mahram qiladi. Va dardsiz darmon topish mumkin emas. Oshiqlar yor vaslidan xabar topishlari uchun Ahmadi muxtor alayhissalom dini soliklarga rahbardir.

<sup>36</sup> Oyatga izohdan: Yusufdagi moyillik dilda hosil bo’ladigan, lekin uni ijro etish niyati bo’lmagan moyillik edi. Zulayhodagi moyillik esa uni amalga oshirish niyati bilan edi. Rabbining hujjati — otasining siyosi, ya’ni mazkur moyillik paydo bo’lgan zahoti bexos ko’zlariga otasi Ya’qub (alayhissalom)ning yuzlari ko’rinib, go’yo “bu ishdan qayt!” — degandek tuyuldi. (Ushbu o’rinda Shayx Abdulaziz Mansurning tarjima va izohidan foydalandik. S.S.)

Habib vasli oshiq'larga jonajon hamdam bo'lib turganda, hijrondan qayg'urmaslar. Dardmand oshiq'lar uchun do'st visoli har laha darmon o'rnidadir. Chunki aytmishlar g'azal:

*Ey habibi mehribon, dar ishq hijron soxta,*

*V-az baroyi dardi hijron vasl darmon soxta.*

*Oshiqonash to biyoband har zamon az vay xabar,*

*Dini Ahmadro va kulli rahbare on soxta.*

*Dar biyoboni firoqash gar biyaftad in dilam,*


*Nest hamchun vasli xudro hamrahi jon soxta.*

*Ey Xudoydod, chunki gashti, dar g'ami u dardmand,*

*Vaslro az domani dardash chu darmon soxta.*

(Mazmuni: Ey mehribon do'st, ishq yo'lida hijronni yaratding, uning dardiga vaslni darmon qilding. Oshiq'laring har zamon undan xabar topsalar, uni topishda Ahmad dinini tamoman o'zlariga rahnamo qilib oladilar. Agar bu ko'nglim firoqing biyobonida yiqilib qolsa, g'am chekmasman, chunki jonga vaslingni hamroh qilgansan. Ey Xudoydod, uning g'amida dardmand bo'lgan ekansan, endi vasl etagidan tutib dardingga darmon istagin).

Hazrati Eshon: "Men yigirma uch yoshimda hazrati Azizon (Jamoliddin Shayx) rahmatullohi alayhga inobat qilib bog'langan edim. Mana ellik yildan buyon faqir-miskin va yo'qlik dashtida yurib, xalqni Haq yo'lga chaqirib kelaman", deb aytar edilar. U zot yetmish uch yoshlarida edilarkim, muharram oyining o'n ikkinchi kechasi, xufton namozi boshlanishidan avval, chorshanba shomi dorul-fanodan dorul-baqoga rihlat qildilar. Hazrati Eshon jon taslim qilishlaridan oldingi kechasi do'stlardan biri shunday ishorat ko'ribdikim, ular ushbu oyatni o'qiyotgan ekanlar:



*“Fasubhanallaziy biyadihi malakutu kulli shay’iv va ilayhi turja’un”.*

**“Bas, barcha narsaning egaligi O’z “qo’li”da bo’lgan (Alloh)ga tasbeh (aytilur). Unga (huzuriga)gina qaytarilursizlar!”** (*Yosin*, 83).

Musannif bayti:

*Vatani asli mo nest bajuz vahdati yor,  
Boz gardem ba so’i vatani xud nochor.*

(Mazmuni: bizning asl vatanimiz Yor bilan vahdatda bo’lishdan boshqa narsa emas va yana nochor o’z vatanimizga qaytamiz).

Ular (Shayx Xudoydod Vali quddisa sirruhu) umrlarining oxirida she’r aytishga va bu risola yozilishiga ko’p ahamiyat berdilar. Aytardilar: Menda shu paytgacha g’azal bitish va risola yozish dag’dag’asi (ishtiyoqi) yo’q edi, endi yozish va yozdirishdan maqsadim shulki, sizlarga esdalik bo’lib qolsin va har kim bundan o’ziga bir ibrat olsun. Shu jihatdan bu faqirga (risola muallifi nazarda tutilmoqda): “Sen ham bu risolani tezroq yozishga harakat qil, sustkashlik qilmaginki, bu sendan ham esdalik bo’lib qoladi”, derdilar. Nazm:

*În turo yodgor az sharaf ast,*

*Nomi U — dar jahon ba har taraf ast.*

(Mazmuni: Bu senga sharafli yodgordir. Zero, Uning nomi jahonning har tarafiga yoyilgandir).

Hazrati Azizon (quddisa sirruhu) Samarqand viloyatida vafot etdilar va muborak marqadlari G’azira atalmish qishloqdadir. Bayt:

*Bar sari turbati mo chun guzari himmatxoh,*


*Ki ziyoratgahi rindoni jahon xohad buvad.*

(Mazmuni: Bizning qabrimiz yonidan himmat bilan o’tsang, jahon rindlarining ziyoratgohi bo’lsa, ajab emas).



## İKKINCHI BOB: FAQIRLIK<sup>37</sup> XUSUSIDA

Alloh taolo shunday marhamat qiladi:



“Ey (unutuvchi) insonlar, sizlar (har vaqt, har qanday holatda) **Allohga muhtojdirsizlar. Alloh esa, albatta, behojat va hamdga loyiq zotdir**” (*Fotir*, 15).

<sup>37</sup> **Faqr** — tariqat yo’liga kirgan orifning to’rtinchi maqomi; faqirlik — bu moddiy yetishmovchilik yoki tilanchilik qilish emas, balki, Alloh nazdida o’zini ojiz, g’arib va faqir his qilishdir. Faqr mosivo (Allohdan o’zgasi)dan xalos bo’lish, tavakkul tuyg’usi bilan yashash demakdir. Faqr sharaf xirqasi, payg’ambarlar va solihlarning libosidir. Faqr tojini kiygan ikki jahonda sultondir. Shu bois faqr tasavvufning asosi va manbai hisoblanadi. Payg’ambar alayhissalom: «Faqirlik faxrimdir», deganlari uchun ham orif insonlar faqirlik bilan faxrlanganlar. Bu faxrlanish xalqqa kambag’alligini ko’z-ko’z etish emas, Alloh nazdida ojiz va faqirligini his etib yulvorishdir.

**Faqr** — yo’qsillik, Allohga muhtoj bo’lish holati va shuuri, so’fiylik. Faqir, darvesh, so’fiy, murid, tolib o’zining har jihatdan Allohga muhtojligini biladigan, al-faqr ilalloh — Allohga muhtoj bo’lish, al-faqr ilalloh — o’zini Allohga muhtoj, deb bilgan kishi.

Bu maqomning uch bosqichi bor: birinchi bosqichda orif nima topsa, shunga qanoat qiladi. Ikkinchi bosqichda orif o’zida dunyo molidan kechish hissini tarbiyalaydi. So’nggi bosqichda shunday darajaga erishadiki, u uchun boylik va kambag’allikning farqi bo’lmaydi. Faqr — tarki dunyo qilib, hayotga qo’l siltash emas, balki olami botinni poklashdir. Piri Turkiston Xoja Ahmad Yassaviy hazratlari faqrning olti odobi borligini ta’kidlaydi:

1. Har kim bilan yaxshi va yomon muomalada bo’lmaslik;
2. Pir oldida xomush bo’lmoq va uning ijozatisiz so’zlamaslik;
3. Biror kishi bilan yomon muomalada bo’lmaslik;
4. «Xosu omning xizmatini» ado etmoq;
5. Nafsnı yengmoq;
6. Havoyu havasni tark qilmok.

Mashhur so’fiy Sahl ibni Abdulloh Tustariy: «So’fiy har qanday g’am-g’ussadan xoli, tafakkurli, Xudoning dargohida fisqu fasod qilishdan yiroq va uning ko’ziga tuproq ham, tillo ham bir xil ko’rinib, tafovuti qolmagan kimsadir», deb faqr maqomining so’fiylik shartlaridan biri ekanligiga urg’u beradi.

Ibrohim Buxoriy Kalobodiy faqrta ta’rif berib: «Faqr — moling bo’lmasligi, bo’lsa ham senga mansub emasligi, faqir esa haqiqat ma’rifatiga niyozmand kishidir», degan ekan. Shuningdek, faqirning Allohdan boshqaga muhtojligi bo’lmaydi va u tavakkul e’tiqodi bilan yashaydi.

الفقر اسم للبراء من رؤية الملك “*Al faqru ismul lil baroi min ro'yatil mulk*”, ya’ni “Faqr – solikning o’zida mulkni ko’rishdan bezor bo’lgan nomi”. Bu jamoaning ittifoq qilishicha, kishi haqiqatan ham faqirlikka uchramasa, ilohiy sunnatga ko’ra, u bandada faqirlikning hidiyam bo’lmaydi. Inson banda ekan, u bandaning (qulning) mulki bo’lmaydi (degan mantiqni tuymog’i lozim). Bandaning mulki bo’lsa-yu, poklikdan da’vo qilsa, unday holda العبد وما في يديه لمولاه “*Al-‘abdu va mo’fiy yadayhi li mavlahu*” ya’ni, banda va uning qo’lidagi bor narsa aslida uning xojasinikidir”, hikmatiga ko’ra, u yolg’onchi hisoblanadi.

Ammo Azizon qaddasallohu sirrahu (Alloh u kishining sirlarini muqaddas qilsin) faqirlik bobida, o’z hayotlarining ilk kunlarida (bolalik chog’larida) boshidan kechirgan voqealarni shunday gapirib berganlar: “Men ota-onamdan yoshlik paytimdanoq yetim qoldim. Hech qanday tarbiyachim yo’q edi. Birovning qo’ylarini boqardim. Ochlik tashnalik va yalang’ochlikdan zaiflashib, holdan toyib, yiqilib qolgan paytlarim ham bo’lgan. Chunonchi, aytganlaridek, bayt:

*Íshqing bila bag’rim kabob*

*Yo’qluq uchun holim xarob.*

*Men na qilay sendin toki,*

*Mendin sango demak kerak.*

Yana shunday derdilar: sochim peshonamgacha o’sib ketardi, doimo rangim sarg’aygan holda “oh” tortib, nolayu hasrat chekib yurardim. Marhamat qilib, derdilar, she’r:

*So’zi jon az had guzashtu hasratam bisyor shud,*

*Dardi dil az had burunu ham jiggar afgor shud!*

*Toqatam shud toq, tokay meso’zoniy dilam,*

*Dardmand omad dilu, az rohi g’am bemor shud!*

*Otashi ishqat zi g'ayrat so'xt har g'ayre ki bud,*

*Sof shud az g'ayr aknun qobili asror shud!*

*Mosivalloh ey ajab, tardomanam dar mulki dil,*

*Xushk gardon az karam, k-on dar dilam ag'yor shud!*

*Ey Xudoydod, in xudi az sari xud ovvora soz,*

*To tavoni tu zamone mahrami on yor bosh.*

(Mazmuni: Jonim otashi haddan oshdi, hasratim ko'payib ketdi. Ko'nglim dardi ham ko'payib, jigarim pora bo'ldi. Toqatim toq bo'lib ketdi, qachongacha ko'nglimni yoqasan? Zero, dilim dardmand bo'ldi va g'am yo'lida bemorga aylandi. Ishqing otashi g'ayrat tufayli boshqa har narsani ko'ngildan o'chirib tashladi. Endi ko'nglim begona narsalardan sof — toza bo'lib sir-asrorlar makoniga aylandi. Ajabo, dil mulkida Allohdan boshqa narsalar etagimni ho'l (iflos) qildi. Uni lutfi-karaming bilan qurit, zero ular ko'nglimga begonadir. Ey Xudoydod, bu manlikni o'z boshingdan chiqarib tashla, toki imkonning bor ekan, bir lahza bo'lsa ham U yorning mahrami bo'lgin!)

Shuningdek, o'z ahvollari to'g'risida gapirib, “bir muddat shunday ahvolda bo'ldimki, o'z vaqtimni kambag'allikda, noumid, xastayu bemor, nochorlikda o'tqazar edim vaqiyinchilik, kamchiliklarim to'g'risida hech kimga shikoyat qilib bormas edim”, derdilar. Bayt:

*Man charo az vay shikoyat xud kunam dar har g'ame,*

*Roziyam har chi rasad z-o' bar dili afgori xud.*

(Mazmuni: Men har bir g'ami tufayli, nima uchun undan shikoyat qilishim kerak? Undan afgor dilimga har qancha g'am yetsa ham roziman).

Hazrat Azizon davom qilib derdilar: “Oradan bir muddat vaqt o'tgach, bir kishi kelib menga lutfu karam ko'rsatdi. Ahvolimga rahmi kelib, qo'limdan ushlab

maktabga olib bordi va ustozga topshirdi. Men u maktabga kirishim bilan, xijolatdan eshik oldida (poygakda) joylashdim. Chunki, ahvolimning xaroblidan bolalar men bilan o'tirishdan or qilar edilar. Ustoz menga ko'z tashladi-da, ancha tikilib qoldi. Shunda, uning amri bilan men o'rnimdan turib, ko'pchilik bolalardan oldinga o'tib o'tirdim. U kishi menga dars mashg'ulotlarini yozib berar, men haqimda: Bu bola ko'pchilikka murshid<sup>38</sup> (pir, rahnamo) bo'ladi, olam<sup>39</sup> ahli unga beixtiyor maylu rag'bat ko'rguzadi", derdi. Bayt:

*Ro'zeki, chashm andoxtam ba chustu cholokiyash,*

*Guftamki, in qalloshvash sarxayli rindon meshavad.*

(Mazmuni: Uning chaqqonligi va g'ayratiga ko'z tashlab, dedimki, kunlar kelib, bu faqirvash bola rindlar xayli (guruhi)ning boshlig'i, pahnamosi bo'lsa ajab ermas!)

Qish faslining sovuq kunlarida do'stlarim maktabga etik va to'n kiyib borishar, men esa bir yirtiq po'stin va bir juldur ko'ylakda oyoq yalang borar edim.

---

<sup>38</sup> Murshid — tariqat piri, to'g'ri yo'lga boshlovchi rahnamo, irshod qiluvchi shayx. «Sayyid Amir Kulol quddisa sirruhuning tillaridan ko'p o'tar ediki, huzur (hozirlik) va g'aybat (g'oyiblik)da ham tolibning ruhoniya kishi bir sohibdavlatning tarbiyati orqali, bashariyat tuxumidan chiqishi zarur. Shundan so'ng bu qushning uchib boradigan joyini hazrati Ilohdan o'zga hech kim bilmaydi». «Murshid (pir) bu — hoziq tabib, muridning holiga muvofiq bo'lgan davoni qiladi» (Xoja Muhammad Boqirning «Bahouddin Balogardon» kitobidan).

Murshid va murid — XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida Qo'qonda yashab o'tgan Azim Xoja eshon hikmatlaridan birida yozadi:

*Murshid bo'lgan suhbat tutur murid birlan,*

*Oshno etar ilmu hikmat, tavhid birlan.*

Hazrat Bahouddin Naqshband bu borada shunday deganlar: «Murshid har kuni tolibning holidan xabardor bo'lishi, farosat yoki so'rab-surishtirish bilan uning ahvolini bilib turishi zarur.

...Murshid Allohning marhamati bilan tolibning o'tgan, hozirgi va kelajak kabi uch holidin xabardor bo'lishi kerak, shundagina uni tarbiya qila oladi.

...Har bir mashoyixning oynasida ikki tomon bor, bizning oynamizda olti tomon. Qirq yildirki, biz oynadorlik qilamiz, vujudimiz oynasi hech qachon xato qilgan emas. Har vaqt sening ko'nglingdan nimaiki o'tsa, biz uni bexato ko'ramiz».

<sup>39</sup> Olam — dunyo, jahon, koinot, borliq. Tasavvufda Allohdan boshqa hamma narsaga olam deyiladi va olami amr, olami arvoq, olami dunyo, olami kubro, olami sug'ro, olami xalq, olami shahodat kabi bir necha olamlar tushunchasi ilgari suriladi. Amr olami bilan xalq olami orasidagi farq amr olamining lahzada bor bo'lganligidadir. Inson katta olam ichidagi kichik olam, deb ham yuritiladi.

Shunga qaramay, uzluksiz maktabga qatnardim. Bir kuni ular bilan hamrohlikda maktabga borar ekanman, qor qalinligi va havoning juda sovuqligidan oyog'imni sovuq urdi. Shunda ko'ylagimni yirtib, ikkala oyog'imga o'radim va maktabga borishda davom etdim. Yalqovlik qilmadim. Chunki oshiqqa bir zum ham, mahbub xayolidan forig' bo'lish loyiq emas. Kimki yor talabidan forig' bo'lsa, u oshiq emasdir. Oshiq visol orzusida hamisha oshiqishi kerak, chunki kishi nimani orzu qilsa, unga erishadi. Marhamat qiladilar, **saj'**:

*Ey Xudoydod, har zamon forig' bo'lunmo lutfidin,*

*Nechakim qilsang tamanno, anda topqoning bo'lur.*

G'ijduvonda ilm talab qilib yurgan vaqtlarimda, kambag'alligim shu darajaga yetgan ediki, qishin-yozin hujrada oyoq ostiga to'shalgan bir parcha xasdan boshqa hech vaqoyim yo'q edi; na ovqat pishirmoqqa qozonu va na suv ichmoqqa kosam bo'lgan. Payg'ambar alayhissalom marhamat qilganlaridek:

الفقير من إذا أراد أن يطبخ لم يجد قدرا  
وإذا أراد أن يشرب الماء لم يجد إناء

“*Al-faqiru man iza aroda ay yatbaxo lam yajid qidron va iza aroda ay yashrobal maa lam yajid inoan*”. Ya'ni, “Faqir deb, ovqat pishiray desa qozon yo'q, suv ichay desa idish topolmaydigan kishiga aytiladi”, dedilar.

Chunki, ilm tolibi Allohdan o'zgasidan mosivo (ajraladi) va uzluksiz, mahbub visoliga yetishishga urinadi, boshqa narsani talab qilmaydi va tanu jonini avaylamaydi. Chunki, aytarlarki:

*Mosivoning mulkidan chiqg'il, borg'il dam-badam,*

*Andin o'tgin barchadin, ey jon anga.<sup>40</sup>*

Shuningdek, aytar edilar, G'ijduvonda tolibi ilm bo'lgan chog'imda, bitta po'stinni uch yil qish davomida kiyganman, menda na bir tuzuk ishton bor edi va na

<sup>40</sup> Bizningcha misradan so'z tushib qolgan (— S.S.).

bir butun kuylak. Bitta kuylakning yoqasini topib bo'ynimga bog'lab olgan edim, bu ishni birov ko'yilgim yo'qligini bilib qolmasligi uchun qilganman. Va birovning oldida kambag'alligimni oshkor qilmasdim. **Saj'**: Chunki oshiqning ishi kuymoq, yonmoq va sukut saqlamoqdir. Zero, hijron dardi qanchalik betoqat qilsa-da, visol iforini tuyish va o'z holini maxfiy tutish shunchalik yaxshiroqdir.

Mahubning jamolini mushohada qilib, uning bemisl husnidan bahra olish yaxshidir. Ishqu muhabbatning<sup>41</sup> dardiga darmon qilmasdan, sa'yu harakatdan to'xtamaslik va har lahza talab yo'lida bedor bo'lish yaxshidir. Inoyat birla aytarlar g'azal:

*Ishqingiz har damda aytar yonu kuyu so'zlama,*

*Shavqida yong'ilu kuygil, damchu udu so'zlama!*

*Toqatim hech qolmadi toq o'ldi hijron ilkidin,*

*Lashkari vasling aytar, vaslini bo'yu so'zlama!*

*Tal'ati zebong saning qildi tulu' dil haddida,*

*Subhi sodiqning deyur husnini ko'ru so'zlama!*

*Ey, sening darding bilan darmon tilamasam bo'lur,*

*Forig' o'lmay, ey Xudoydod, uyul, yugur so'zlama!*

Aytar edilarkim, Hazrati ustozimiz alayhir rahmaning suhbatlari va darslarida bo'lur edim, o'rtog'larim barchasi Hazrati Azizonga zikrdan, uzlatdan chiqib va boshqa holatlarda nazru niyoz berar edilar. Menda esa boshqalar qatorida u kishiga hadya qiladigan bir miri (pul, chaqa) ham yo'q edi. Shuningdek, pulni saqlay ham

---

<sup>41</sup> **Muhabbat**—sevgi, mehr, yaqinlik va sadoqat hissi. Ishq martabalaridan biri.

Muhabbat «hibba» o'zagidan yasalgan so'z bo'lib, «ustiga tuproq tortilgan urug'» ma'nosini anglatadi. Hayotning asli va asosi urug' bo'lgani kabi diniy, ma'naviy va ruhoniy hayotning asli va asosi muhabbatdir.

olmasdim. Hadya berish vaqtida birodarlarim menga tanga yo tillo berib: “Sen ham nazru niyoz bergin”, deb undashar edi. Lekin men hadya berishga ham bermaslikka ham e’tibor qilmasdim. Chunki batamom faqirlikni ixtiyor etgan, jondan kechgan, dinu iymonni istagan va ikki olam lazzatidan kechib bo’lgan edim.

*Menga bu tanda jon, sensiz kerakmas,*

*Hayoti jovidon, sensiz kerakmas!*

*Na qilsun oshiqing ishqingdan o’zga*

*Nechakim bo’lsa jon, sensiz kerakmas!*

*Nechakim mo’minu bo’lsam musulmon,*

*Menga dinu iymon, sensiz kerokmos!*

*Agar ikki jahon xushlikni bersang,*

*Hamisha jovidon, sensiz kerakmas!*

*Xudoydod naylasun pirluk holinda,*

*Jahon ichra jahon, sensiz kerakmas!*

**Saj’:** Hazratimizning hollari avvaldan oxirigacha shunday ediki, doimo o’z vaqtlarini faqirligini nomurodlik bilan o’tkazar edilar. Hech qachon dunyo mollaridan zaxira saqlamasdilar. Ba’zan o’z uylarini g’orat qilishga amr qilardilar va oila a’zolari bilan uydan chiqib ketar edilar va boshqa har nimaki uylarida bor bo’lsa, talon-toroj qildirardilar. Ko’ngil sultoniga yo’qlik mulkidan xiroj berardilar. Va mahubni mushohada qilish uchun nimaiki bor edi, bahridan o’tardilar. Va uning ishqu muhabbatini orzu qilardilar. Va dunyo va uqbodan kechardilar. Va bihishti Adning

lazzatidan kechardilar va muhabbat otashiga kuymoqni qabul qilar edilar. Va visol umidida hijron azobiga dosh berardilar. Zeroki, oshiq hayoti davomida visolga yetish uchun sa'y-harakat qilishi kerak. Agar shu dunyoda kishiga ushbu davlat paydo bo'lsa, umid bordirki, u dunyoda Alloh uni abadiy visolga erishtiradi. Inoyat birla yozganlar, g'azal:

*Barchani tark aylabon, istab seni topsa bo'lur,*

*Jumlaning hubbin qo'yubon, ham seni sevsa bo'lur!*

*Sensizin nega kerak, bu tonda jonim bir zamon,*

*Sen bilan dunyovu uqbo har nekim desa bo'lur!*

*Sensizin jannatni qilsam xushog'i ham mehnatul,*

*Sen bilan do'zax ichinda ham taqi kuysa bo'lur!*

*Men visolingdin umid tutqon uchun hajr mulkida,*

*Bok tutmay vasl uchun hajr o'tiga kirsa bo'lur!*

*Ey Xudoydod, jahd ayla, munda vasl topmoq uchun,*

*Munda ko'rgan va'dadur, dorulbaqo bo'lsa bo'lur!*

Aytar edilarki, uyimda yegulik bo'lmagan kuni mening zavq va osudaligim ziyodaroq edi va qaysi kunki, biz farovonlik bilan yashasak mening kayfiyatim yomondir. Chunki, yuragim Rasululloh alayhissalomning so'zlaridan vahm va qo'rquvdadir.



قال النبي عليه السلام أوحى الله تعالى إلى بعض أنبيائه: احذر أن  
أمقتك فتسقط من عيني فأصّب عليك الدنيا صبًّا

*Qolan nabiyyu alayhissalom: “Avhallohu ta’ala ila ba’zi anbiyaihi: ihzar an amqutaka fa tasquto min ayniy fa asubba ‘alaykad dunya sobban”.* Ya’ni, payg’ambar alayhissalom aytadilar, Alloh taolo payg’ambarlaridan ba’zisiga vahiy yuborib, shunday marhamat qilgan: “Men seni yomon ko’rib qolishimdan va sen nazdimda qadrsiz bo’lib qolishingdan qo’rq. Shunda tepangdan mol-dunyoni to’kib solaman”. Shayx Mahmud Shabustariy rahmatulloh aytadilar. Misra: “Sen bu bevafo dunyoni ikkita nonga sotib yubor”.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning “Mol va farzandlaringiz sizga fitnadir”, degan hadislariga asosan, bir kun faqirlarga sadaqa qilib yuborish uchun uyimga kirdim. Uyda biror narsa bo’lsa, tarqatib yuborish maqsadida, qo’limni har tomon cho’zdim. Biror narsa bo’lsayu uni o’zimdan yiroqlashtirsam va fitnadan xalos bo’lsam, deya uyni boshdan-oyoq tintib chiqdim. Zero, men uydin muhabbat qo’yishga loyiq biror narsa chiqishidan va unga bog’lanib qolishdan, natijada esa to’g’ri yo’ldan adashib, xatolik zulmatiga cho’mib ketishdan qo’rqardim. Chunki, Payg’ambar alayhissalom aytadilar:

حب الدنيا رأس كل خطيئة

“Hubbud dunya ro’su kulli xotiatin”.

Ya’ni, “Dunyo (mol-davlat)ni sevmoq barcha xatolarning boshidir”. Aytardilar: Qancha urinmay, uydin hech bir narsa topa olmadim. Faqat barchaning nazaridan chetda qolgan bir siniq kosada ozroqqina kepak qoldiqlari bor ekan. Shuni ham chiqarib, bir kishiga berib yubordim va ahli ayolimga shunday dedim: Allohga shukrlar bo’lsinki, bugun uyda yeguday hech vaqo yo’q. Lekin boshqalar uchun bu darajada bo’lishni maslahat bermagan bo’lardim. Aytar edilar, men o’zim bu vahimadan rosa xursand bo’ldim va yedi-ichdi tashvishlaridan qutuldim va shu lahzada o’zimning faqirona kulbamni Payg’ambar alayhissalomning muborak uylariga (hujralariga) o’xshatdim. Ahli ayolim qanoatidan xursandligimdan ko’ylagimga sig’mas edim. Bu g’azalda marhamat qilganlaridek:

*Chun faqirlik ne'matin berding va ham qone'lig'in,*

*Ro'zi qil, yo Rab, mani miskina ham tobe'lig'in.*

*“Faqrū faxriy” davlatin berding anga, bergil manga*

*“Bi'tu mo yafno bimo yabqo”<sup>42</sup> abad boye'lig'in.*

*Chunki qilding ummati tobe'lig'in ham qil ato,*

*Lutf etib bergil mani bechorag'a loyqlig'in.*

*Zoti poking Rasuling barcha ma'lum ettilar,*

*Mazhari ishq ayladi zohir qilib sone'lig'in.*

*Ey Xudoydod, ul karam daryosig'a hardam cho'mub,*

*Durri ehsonin chiqar izhor etib ahsanlig'in.*

Aytar edilarki: Do'stlarimizdan biri tush ko'ribdi. Tushida Payg'ambar alayhissalom bir majlisda menga nisbatan izzat-hurmat ko'rsatib, rahmu shafqatda bo'lgan ekanlar. Men do'stinga dedim: Payg'ambar alayhissalom meni hurmat qilishlariga loyiq biror ish qilganimni bilmayman. Lekin kambag'allik va qashshoqlik borasida Payg'ambar alayhissalomning sahobalariga o'xshashlik taraflarim bor, deya olaman. Chunki, o'n kundan ko'proq vaqt bo'ldi, uyimda tirikchilik vajidan hech vaqo yo'q. Demak, Payg'ambar alayhissalom menga nisbatan iltifot ko'rsatgan bo'lsalar, shu jihatdan bo'lishi mumkin, chunki bu yo'qlikka qanoat, faqirlikka sabr davlati menga

---

<sup>42</sup> “Foniy bo'lgan narsani boqiy bo'lgan narsaga sotdim (almashtirdim)!”

Payg'ambar alayhissalomga ergashishdan hosil bo'lgan. Va bu saboqni men u kishiga bo'lgan mehr-muhabbatim tufayli oldim:

*Ey xayolat, Mustaforo barguzid andar jahon,*

*Sarvari olam bikardu rahnamoi olimon.*

*Ey xayolat, dar visol ovard ham ahkomi din,*

*Mustoforo kard muxtor shafi'i yavmiddin.*

*Ey xayolat, hamrahi izzu sharaf az ro'yi xalq,*

*Xosu om az vay biburda andarin olam sabaq.*

(Mazmuni: Ey xayoling (xohishing), Mustafoni jahonda tanlagan (Zot), uni olamlarga sarvaru va olimlarga rahnamo qilding. Ey xayoling, barchani visolga bog'lagan va din hukmlarini ham shunga qaratgan. Mustafoni esa qiyomat kunida shafatchi qilgan. Ey xayoling, xalq uchun izzatu sharaf sababi bo'lgan, shu tufayli xosu avom bu olamda sening xayolingdan saboq olgandir.)

Va Aytar edilar, Men Payg'ambar alayhissalomning *“Lu'inad dunyo va mo fiyha, illa ma labudd”*. “Dunyo va undagi narsalar la'nat qilingan faqat zarur bo'lgani bundan mustasno” degan hadislarini to'g'risida so'rab-surishtirdim va hojatga yarasha mol-dunyo qanday miqdorda ekanligini bilmoqchi bo'ldim. Ammo Hazrati Mavlono Xalil Qaroko'liy sallamahulloh bu masalaning javobini maktub orqali menga shunday ma'lum qildilar. Hazrati Shayx Hasan Basriy rahmatullohi alayh Hazrati Payg'ambar alayhissalomdan naql qiladilar: Payg'ambar alayhissalom aytgan ekanlarki, *“ma labudd”* — ya'ni zaruriy narsadan maqsad shuki, yegulikdan namozga tik tura oladigan miqdorda, kiyimdan avratni yopadigan, istiqomat qiladigan joy esa qushlar o'zlari uchun ixtiyor qiladigan kovak yoki in miqdoricha (ya'ni kichikroq bir maskan)

bo'lsa, yetarli, bulardan ortig'i la'natlangandir". Va aytar edilar, bu xabar menga yetgach, xotirjam bo'lib, juda suyundim. Xursandchiligimning sababi shu ediki, o'zimning yashayotgan joyim va jamoa joylarimizning hammasini shu hadis mazmuniga muvofiq, deya topdim. Ya'ni zaruriy narsalardan ortiq takalluf (ortiqcha xarajat, soxta muomala, riyokorlik) yo'q edi. Payg'ambarimiz alayhissalomga ergashish tufayli zalolat botqog'idan xalos edim. Aytar edilar, nazm:

*Eyxayolat, ham zi avval ham z-oxir Mustafo,*

*Rahnamoi jumla olam shud vahmi Mujtabo.*

*Ey xayolat, Mustaforo bahri xud karda zuhur,*

*Xil'ati o'ro bikarda zohiru botin ba nur.*

*Ey xayolat, karda maro xud rasuli mehribon,*

*Sunnati o'ro bamo karda chunin dorul amon.*

*Ey xayolat, Mustaforo karda mahbub az azal,*

*Kulli olamro biyomad u rasuli beilal.*

(Mazmuni: Ey xayoling, avvalda ham oxirda ham Mustafo (s.a.v) bo'lgach, U Zot barcha olamning rahnamosi va mujtabo<sup>43</sup>si bo'ldi. Ey xayoling, Mustafoni o'zing uchun vujudga keltirgan va xil'atining zohiru botinini nur qilgan. Ey xayoling bizga mehribon Payg'ambarni rasul qilgan va uning sunnatini biz uchun amonlik uyi qilgan.

---

<sup>43</sup> **Mujtabo** — saralangan; saylab, tanlab olingan, mumtoz (Hazrat Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam)ning sifatleri.

Ey xayoling, Mustafoni azaldan o'zingga mahbub — sevikli qilgan, barcha olamlar uchun uni mukammal Rasul — payg'ambar qilib yuborgan.)

Hazrati Azizon quddisa sirruhuning muxlislar va muridlari u kishiga uylari va mehmonxonalariga to'shasinlar, deb ba'zi paytlar gilam va kigizlar olib kelib berishar edi. Hazrati Eshon ularni uylariga ham, xonaqohlariga ham to'shamasdanoq, boshqalarga berib yuborar edilar. Payg'ambar alayhissalom aytadilar:

أنا وأصحابي براء من التكلف

“*Ana va ashobiy barroun minat-takallufi*”. Ya'ni, “Men va sahobalarim takallufdan bezormiz”. Aytishlaricha, hazrat Payg'ambar alayhissalom komil inson bo'la turib, tuproq ustida namoz o'qishdan tiyilmaganlar. Ba'zan to'shak va gilam to'shamaganlar. Payg'ambar alayhissalomning aytganlari va qilmishlaridan ortiqcha ixtiyor qilmagan holimizda, bizning shuncha kamchilik, nuqson va muhtojligimiz bo'laturib, nega endi Xudoning ibodatiga takalluf qilishimiz kerak? O'z dardimiz davosi uchun ishq muhabbat yo'li va faqru qashshoqlikni xohlamaymiz? Va nega uning visoli va liqosiga yetmoqni talab qilmaymiz? Va o'z juzviy aqlimizni ketkizsak. Va dil olovi shavqida o'zimizni kuydirsak! Va hayratu hasratimizni sir olamida davom ettirsak va vaqti-vaqti bilan g'amli yuraklarni yuz pora bo'lishga amr etsak! Va tuproq tanamizdan jon chiqishini orzu qilsak va azaliy mahbubning g'ami bilan mushkullarni hal qilsak! Inoyat bilan aytar edilarki:

Hazrati Sulton Xoja Ahmad Yassaviy rahmatullohi alayh ashoblarini e'tiqod va ixlos borasida imtihon qilmoqchi bo'libdilar. Qo'yning ikkita suvdonini olib, birini suv, ikkinchisini yel (havo) bilan to'ldiribdilar. Ikkalasini ham shalvar ichidan bog'lab olib, ashoblariga imomatchilik qilib, namoz o'qishga kirishibdilar. Namoz o'qish asnosida avval yeldan to'ldirilgan xaltachani harakatga keltirganida undan ovoz chiqibdi. Talabalarning ko'pchiligi imomning tahorati sindi, deb o'ylab namozni to'xtatishibdi. Bir oz keyinroq suv to'la xaltachani harakatga keltiribdilar. Hazrati Sultonning shalvarlaridan suv oqib, yerga tusha boshlabdi. Do'stlar bu holni ko'rgach, barchasi namozlarini to'xtatishibdi. Hazrati Sulton namozlarida davom etibdilar. Hazrati Hakim ota rahmatullohi alayh namozlarini buzmadilar. Hazrati So'fi

Muhammad Donishmand namozini to'xtatib, yana qaytadan iqtido qilgan ekanlar. Hazrati Sulton rahmatullohi alayh bu holni ko'rib: men shuncha vaqt xalqni da'vat qilib, bir yarimtagina shogird paydo qilibman, debdilar. Bayt:

*Mard vaqti imtihon oyad padid,*

*Imtihon kun, to nishon oyad padid*

(Mazmuni: Haqiqiy mard kishi sinovda bilinadi, sen uning qandayligini imtihon qil, shunda kimligi ma'lum bo'ladi).

Hazrati Sulton rahmatullohi alayh avval shamolni harakatga keltirib, imtihon qilishlari, Alloh taolo bandani birinchi navbatda dunyo bilan imtihon qilishiga ishoradir. U bandaga avval dunyoni ko'rsatib imtihon qilar ekan, chunki dunyoning hokimi shamoldan o'zga narsa emas. Bayt:

*Peshi sohibnazaron mulki Sulaymon bod ast,*

*Balki on ast Sulaymon k-az mulk ozod ast.*

(Mazmuni: Sohibnazarlar nazdida Sulaymon alayhissalomning mulki shamoldir, balki Sulaymon shunday kishidir, mulkdan ozoddir).

Hazratning ikkinchi marta suv bilan imtihon qilishlari jannat ne'matlari: huru g'ilmon, oqar suvlarga ishoradirki, bu dunyo lazzatlari muridni visol va muloqotdan mahrum biladi. Balki murid dunyo va oxiratdan ko'z yumishi, jonini jononga topshirib, ikki olamni nazarga ilmay, mahbubni ko'rishni o'zining asosiy vazifasi deb bilishi va uning visol sharobidan hijron dardiga davo istashi lozim. Va "*Alastu birabbikum*"<sup>44</sup> sharobidan mast va huru g'ilmondan beparvo bo'lib, azaliy Mahbubni

---

<sup>44</sup> Bu yerda "A'rof" surasi 172-oyatiga ishora qilingan. Oyatga ko'ra, Alloh taolo barcha ruhlarni bir yerga yig'ib, "*Alastu birabbikum*" ("**Men sizlarning Rabbingiz emasmanmi?**") degan xitob qilgan. Barcha yaratiluvchi bandalar esa "*Qolu bala*" — "**ha, Sen bizning rabbimizsan**" deya e'tirof etishgan. Dinimizda bu kun "al-miysoq" — "va'dalashish kuni" deb yuritiladi. Ya'ni, Odam alayhissalomning zurriyotidan bo'lgan barcha kelajakda dunyoga keluvchi bandalarning ruhi shu kunda Alloh taologa va'da berib: "Sen bizning Rabbimizsan", deyishgan va bu va'da qiyomat kuni esga olinadi. Ya'ni, Alloh shartlarini biror sabab bilan bajarmagan bandaga "al-miysoq" kunidagi va'dasini eslatadi. Shunda u hech qanday sabab ko'rsata olmaydi. Xalq orasidagi "almisoqdan qolgan", ya'ni "qadimdan qolgan" mazmunidagi so'zning asosi ham shu oyatga borib taqaladi.

ko'rishdan shod va bihishtni orzu qilishdan mutlaq ozod bo'lishi kerak. Chunonchi, aytar edilar. G'azal:

*Kim sening ishqingda o'lsa, yori joni ko'bbo'lur,*

*Qatraiobi ziloli bahribepoyon bo'lur.*

*Ma'rifat<sup>45</sup> maydonida bo'lsam agar bir lahzae,*

*Ikki olam ko'zuma chun zarrayi maydon bo'lur.*

*Orzum bor, har zamon sir mulkida bo'lsam muqim,*

*Ko'rsam oni har zamon, maslahatim ham on bo'lur.*

*Sharbati vasling ichib, la'li labing so'rsam hame,*

*Dardi hijron ketmaga ham lablaring darmon bo'lur.*

*Chun "Alast" xamridin ichib, minsam Buroqing, vaslig'a,*

*Hamchunin mastonalardek ham huri hayron bo'lur.*

---

<sup>45</sup> **Ma'rifat** — insonning o'zini va Rabbini tanishi. Haqiqat ahlining fikricha, inson faqatgina ma'rifatulloh orqali saodatga erishadi. Ya'ni, ma'rifat bir nur bo'lib, iymon ahli shu ma'rifat nurlari orqali Allohga yaqinlashadilar. «Qalbda ma'rifat maydonga kelgach, qalbning holi o'zgaradi. Qalbning holati o'zgargach, a'zolarning amallari ham o'zgaradi. Ya'ni, amal holga, hol ilmga, ilm esa tafakkurga bog'liq bo'lib qoladi». «Tavhid pog'onasiga tezdagina yetsa bo'ladi, ammo ma'rifat pog'onasiga yetish qiyin. Bir darveshning oyog'iga tikan qadalsa, uning qayerdan ekanini bilmoq kerak» («Bahouddin Balogardon» kitobidan).

Imom G'azzoliyning yozishicha: «Sog'lom qalb faqatgina zikrulloh va ma'rifatullohdan zavq oladi. Chunki, ma'rifat sohilsiz, tubsiz bir dengiz bo'lib, hikmat ozug'idir». Shu bois tariqatda ma'rifatni egallamagan solik ishq martabasiga yuksala olmaydi. Ma'rifatni irfon ham deydilar. Irfon — Allohning ehsoni bo'lganidan, so'fiylar irfonni ilmdan ustun qo'yganlar.

*Tal'atidin har zamon qilsa tajalli<sup>46</sup> ko'ngluma,*

*Bu ko'ngul zor o'lubon, har dam anga shodon bo'lur.*

*Boqmag'aysen ey Xudoydod, ul bihishtning sorig'a,*

*Vasl gulzorida ruhing bulbuli nolon bo'lur.*

Va aytar edilar, Biz doimo masjidu jamoatxona va qal'a ishlari bilan shug'ullanamiz, bular vaqf bo'lgani uchun, men va boshqalar ushbu yerlarga egalik qila olmaymiz. Va mendan keyin hech kim bu binoning vorisiman, deb da'vo qilolmaydi. Mendan keyin, molu dunyodan biror narsa meros qolib, u tufayli azobu uqubatga qolishni istamayman.

*Gar chu Iso az tu yak so'zan bimonad,*

*Dar rahat medonki, sad rahzan bimonad.*

(Mazmuni: Agar Isodek sendan bittagina igna qolsa ham bilginki, yo'lingda yuzlab qaroqchilar bo'ladi.)

**Saj':** Zeroki, men har jonni jononga fido qilish payidaman, mahjubning xoki

---

<sup>46</sup> **Tajalliy** — ko'rinish, jilvalanish, jilolanish, partavlanish; Haq taolo lutfiga muyassar bo'lish; g'aybdankeladigan vaqalbdanamoyon bo'ladigan ilohiy nur va sirlar. Tajalliy — ilohiy fayzning solik ko'nglida zuhur aylashi, g'ayb nurlaridan paydo bo'lgan hol. Navoiy yozadi:

*Magar tajalliyi husnungg'a mazhar o'ldi quyosh,*

*Ki, zohir ayladi oncha jilo bila yog'du.*

(«Badoe' ul-vasat», 506,4)

Tajalliy ikki qismdir: 1. Ruhoniy tajalliy 2. Rabboniy tajalliy. Bu ham ikkiga ajralur: 1. Uluhiyat tajalliysi. 2. Rububiyat tajalliysi. Bularning biri hazrati Muhammad sollallohu alayhi vasallamga, ikkinchisi hazrati Muso alayhissalomga tegishlidir. Tajalliy — doimo g'aybdan shuhudga, zulmatdan nurga, noma'lumdan ma'lumga o'tish demakdir. Tajalliy solikka ba'zan jazba, ba'zan sukunat beradi. Tajalliy to'rtga bo'linadi: zotiy tajalliy — ilohiy zotning zoti uchun tajalliysi; sifat tajalliysi — ilohiy sifatlarning banda ko'nglida zuhur etishi; ism tajalliysi — Haq ismlaridan birining banda dilida zohir bo'lishi; fe'l tajalliysi — ilohiy fe'llarning banda qalbida yuzaga kelishi. Haq taolo har lahza, har yerda turli martabalarda tajalliy etadi, ya'ni, o'zini oshkor qiladi.

Vahdati vujud ahliga ko'ra, ikki xil tajalliy mavjud: umumiy va rahmoniy tajalliy. Umumiy tajalliydan barcha barobar nasibasini oladi; xos va rahimiy tajalliy — bu tajalliyda mo'minlar, siddiqlar va oriflar tavid, ma'rifat va rizo kabi ne'matlarga noil bo'ladilar.



poyini ko'zimga to'tiyo qilmoqchiman. Dunyoning hosilu mahsulini to'laligicha tark qilmoqchiman. Azaliy mahjubning muhabbati ahdiga vafo qilsam, deyman. Va sarkash nafsi<sup>47</sup> riyozat bilan qiynasam, unga jafu qilsam, do'stga ham uning dardidan davu qilsam. Va dilu jon bilan uni izlasam va zohiru botinimni unga fido qilsam. Chunonchi, aytar edilar. G'azal:

*Oyyuzungni ko'rubon jonim fido qilsam bo'lur,*

*Xoki poyingni ko'zumga to'tiyo qilsam bo'lur!*

*Barchadin o'ttimu kechtim-da seni ko'rmak uchun,*

---

<sup>47</sup> **Nafs** — o'zlik, ruh, zot. Insonni to'g'ri va ezgu yo'llardan ozdiruvchi, gunoh va yomonliklarga yetaklovchi mayl va istaklar nafsga nisbat beriladi. Nafsga bo'ysungan kishi aqlga emas, shaytonga itoat qiladi. «Nafsini tanigan, Rabbisini taniydi» hadisi ham uning murakkab xilqat ekanini bildiradi. Navoiy yozadi:

*Har kishi nafs itligidin aylasa o'zni xalos,*

*Vahsh xaylin aylar ul dasht uzra majnunvor sayd.*

*(«Badoe' ul-vasat», 119,7)*

Tasavvuf ahli yetti nafs borligini e'tirof etadilar:

1. Nafsi ammora — yomon va gunoh ishlarni qilishga buyuradigan hayvoniy nafs, «Shubhasiz, nafs yomonlikka buyuradi» («Yusuf» surasi, 53-oyat).
2. Nafsi lavvoma — malomat qiladigan, koyiydigan va yomonlaydigan nafs. Yomon va gunoh ish qilganning o'sha ishi tufayli, uni malomat qiladigan, hisobga tortadigan nafs, vijdon azobi. Qilgan yomonligi natijasida pushaymon bo'ladigan, tavba qiladigan va uzr so'raydigan nafs («Qiyomat» surasi, 2-oyat).
3. Nafsi mulhima — ilhom va kashfga mazhar bo'lgan nafs. Nimaning yaxshi va savobli, nimaning yomon va gunoh ekanligini ilhom orqali biladigan, ushanga ko'ra harakat etadigan, vijdon ovozini eshitadigan va tinglaydigan nafs («Shams» surasi, 7-8-oyatlar).
4. Nafsi mutmainna — qanoatlangan, huzur va sukunga qovushgan, fazilatlariga o'ralgan, ilohiy fe'llarning tajalliylariga mazhar bo'lgan nafs («Nahl» surasi, 106-oyat, «Fajr» surasi, 27-oyat).
5. Nafsi roziyya — o'z shaxsiy irodasi va istagidan voz kechgan, jaloliy va jamoliy tajalliylarni xushnudlik bilan kutib oladigan, qazo va taqdirning har qanday ko'rinishini mutlaqo rozilik bilan qarshilaydigan, rizo maqomiga erishgan nafs («Moida» surasi, 191-oyat, «Fajr» surasi, 28-oyat).
6. Nafsi marziyya — Alloh rozi bo'lgan nafs. «Roziyallohu anhum». Bu maqomda Alloh roziy, banda marziyya. O'zaro rizo holati («Fajr» surasi 27-30, «Bayyina» surasi, 8-oyat).
7. Nafsi komila yoki «nafsi zakiyya» yoki «nafsi safiyya» — barcha kamol sifatlarini qozonib, insonlarni irshod qilish maqomiga yuksalgan komil, toza va sof nafs, komil inson sifati («Shams» surasi, 9-oyat).

*Ham bu jonimdin kechib, senga fido qilsam bo'lur.*

*Mosivoning qayg'usi ketmas ko'nguldin, ey ajab,*

*Mosivoningqudratin tashlab safo qilsam bo'lur!*

*Sevmakingdin yod qilding zabt aylab o'zunga,*

*Men taqi sevsam seni, ahdu vafo qilsam bo'lur!*

*Men seni ko'rmak uchun jahd aylasam ham dam-badam,*

*Nafsni tark aylabon harchand jafo qilsam bo'lur!*

*Oh, saning darding bila xushdur manga ushbu hayot,*

*Ham umedi vasl uchun dardga davo qilsam bo'lur!*

*Bu Xudoydod, tan bila, ham jon bila sevdi seni,*

*Bu seviklik olamin o'zga duo qilsam bo'lur!*


Men uylanish chog'imda, yuz ming dinor mahr berib, ahdu paymon qildim. Lekin qizlarimni uzatish vaqtida, kuyov bo'lmishlardan shar'iy dirhamdan ortiq mahr olmadim. Kuyovlardan mashhur va ma'ruf bo'lgan to'rtta buyruqni talab qilmadim. Chunki men faqir va qashshoqlikka qanoat qilganman. Payg'ambar alayhissalomning so'zlari va sunnatlaridan ortiq qilmaslikka urindim. Bayt:

*Chun faqirlik ne'matin berding ham gone'lig'in,*

*Ro'zi qil, yo Rab, mani miskina ham tobe'lig'in.*

## UCHINCHI BOB: SAXOVAT VA NISOR QILISH HAQIDA

Alloh taolo marhamat qiladi:



“*Va yu’siruna ‘ala anfusihim valav kana bihim xososoh*”. Ya’ni, **“Va dillarida ularga berilgan narsa (o’ljalar) sababli hasad sezmaslar hamda o’zlarida ehtiyoj bo’la turib, (ehson qilishda o’zgalarni) ixtiyor qilurlar”**<sup>48</sup> (*Hashr, 9*).

Ïysor degani — kishi faqir bo’lsa ham inoyat qilib, o’zining mol-mulkidan boshqalarga ulashib, ularni manfaatdor qilmoqdir. Ïysor o’z mulkidan foydalanishni boshqa bir kishiga maxsus bag’ishlamoq yoki bu narsani o’z tasarrufidan chiqarmoqdir. Ïysor qilingan molni xohish va rag’bat bilan berishni ko’plar xush ko’rganlar. Lekin og’rinibroq bersa ham, shariatda to’g’ri va tariqatda<sup>49</sup> ham maqbul

<sup>48</sup> Bu oyati karimada Madinalik musulmonlar qanchalik oliyhimmat muruvvatli va saxiy ekani ta’rif etilgan. O’zlari muhtoj bo’laturib, narsalarini o’zga muhtojlarga ehson qilish (“Ïysor”) saxovat va karamning eng yuqori cho’qqisidir. Tasavvufda ham “Ïysor” so’fiylarning axloqiy fazilatlarini ichida eng oliy maqomdir. (Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. — T.:“Sharq”, 2007. 546-b.)

<sup>49</sup> **Tariqat** — lug’aviy ma’nosi yo’l demakdir. Tariqat — insonlarni maxsus ta’lim-tarbiya bilan, go’zal axloq, pokiza qalb va latif ruh sohibi etadigan, oxir-oqibat Allohga yaqinlikni ta’minlaydigan o’ziga xos maslak va ta’limot yo’lidir. Ammo tariqat shariatdan farqli o’laroq, bir talay xususiy talab, usul va qoidalariga ega yo’ldir. Ya’ni, tariqat ahli shariat amrlarini bajarish bilan bir qatorda, qo’shimcha nafl ibodatlarini ham ado etadi. Qattiq riyozatlar chekib, sunnatga jiddiy e’tibor qaratadi. «Tariqat» so’zidagi har bir harf solik zimmasiga talab qilmoq (T), rozi bo’lmoq (R), yaqin bo’lmoq (Y), qurb ko’rsatmok (Q) va butkul tavajjuh (T) kabi majburiyatlarni yuklaydi.

Olimlarning aniqlashicha, tasavvufda 160 dan ziyod tariqat va tariqat tarmoqlari bo’lgan. An’anaga ko’ra, tariqat uch asosiy tarkibga ajratilgan:

1. Tariqi axyor — xayrli insonlar yo’li. Tariqi arbobi muomalot deb ham ta’riflangan ushbu yo’lning asosini zuhd, taqvo va ibodat tashkil qilgan. Shu bois unga zohidlar va obidlar yo’li sifatida qaralgan. Bu yo’l — Haqqa yetishishning uzundan-uzun yo’li. Uni tanlaganlar orasida maqsadga erishganlar keyingi yo’ldagilarga nisbatan kamroq bo’lishgan.
2. Tariqi abror — yaxshi insonlar yo’li bo’lib, tariqi tasfiya va mujohada deb ham yuritilgan. Bu yo’l — nafs ila kurashish, riyozat ila qalbni yomonlik va chirkinliklardan poklash, axloqiy komillikka yetishish yo’li hisoblangan. Xoh Haq bilan bo’lsin, xoh xalq bilan bo’lsin, munosabat va aloqada ixlos hamda to’g’rilikdan chekinmaslik ushbu yo’lning bosh talabi bo’lgan.
3. Tariqi shuttor — oshiqlar yuli. Uning ikkinchi bir nomi — tariqi soirin. Bu — ishq, muhabbat va jazba bilan maqsadga erishiladigan yo’l. Bu yo’lga kirgan kishi ishq va jazba maqomiga yuksalguniga qadar juda ko’p maqomlardan o’tmog’i shart bo’lgan. Chunki, ushbu yo’lda

debdurlar. Va ammo bizning Azizon hazratimiz quddisa siruhu hamisha “*iysoru mo fil yadi*”, ya’ni, qo’llaridagi barcha narsani berib yuborar edilar. Men sizlarga beradigan bu narsalar osongina amalga oshadi, deb o’ylamang. Balki bu tanga, tillo va boshqa narsalar mening ixtiyorimga o’tishi bilan, qalbdan joy oladi va nafs unga bog’lanib soladi. Men o’sha narsaning naqshini qalbdan o’chirib, uning muhabbatini dildan sidirib tashlayman va o’zimni uning foydasidan mahrum etaman. Aytadilar, bayt:

*Ishqingbalosini sochib, aqluhushimdan ayrilib,*

*Andino’tib, andino’tib, andinso’ngi sevmakkerak.*

Aytar edilar, Amir Boqiy Buxoro hokimi edi. Ustozim hazrati Azizon mening faqir, kambag’al va ayolmand ekanimni bildirganlaridan so’ng, rahm qilib, bir necha qop bug’doy bermoqchi bo’libdi, bu xabarni menga do’stlar yetkazishdi. Men uyalib, u narsani qabul qilmadimki, mo’minlarning amiri Hazrati Ali karramalloyu vajhahu aytganlar:

لا كرم أعز من التقوى

«*La karoma a’azzu minat taqva*». Ya’ni, taqvodan ko’ra azizroq karam yo’q.

*Gar karimi, barohi taqvo rav,*

*Z-onki taqvo sari hama karam ast.*

(Mazmuni: Agar karamli (saxiy, qo’li ochiq) bo’lsang taqvo yo’lidan yur, chunki taqvo barcha karamning boshidir.)

*Nogiriftan diram az vajhi harom,*

*Behtar az bazl kardani karam ast.*

---

sayru suluk asosdir. Tariqatlarning ibtidosi hazrati payg’ambar Muhammad Mustafo sollallohu alayhi va sallamga borib bog’lanadi. Tariqatlar u Zotning ikki buyuk sahobasi — hazrati Abu Bakr va hazrati Ali karamallohu vajhahu tomonidan davom ettirilgan. Hazrati Abu Bakrga borib bog’lanadigan tariqatlar zikri xufiyaga asoslangan. Zikr va duosi ochiq hamda baland ovozda, jamoat holida ijro etiladigan jahriy tariqatlar hazrati Aliga nisbat berilgan.

(Mazmuni: Saxiy, qo'li ochiq bo'lgandan ko'ra, harom bo'lgan dirhamni olmaslik afzaldir.)

Lekin Amir Boqiy mening u nazrni qabul qilmasligimni bilib qolib, Hazrati Azizonga arz qilibdi. Hazrati Eshon u yerdan menga — Karmanaga ushbu mazmunda xat yozib jo'natmishlar: “Bizning silsilamizda nazr va hadyalarni olmaslik yo'q va hadya qayerdan va qanaqa joydan deb surishtirish ham yo'q. Balki beruvchi ham, yetkazuvchi ham Allohu taoloning o'zi, boshqani ko'rmaslik kerak. Va ahval<sup>50</sup> (g'ilay) ko'zni yumish lozim. Shundayki, Shayx Attor rahmatullohi alayh aytadilar. Nazm:

*Raft peshi Bu Ali on pirazan,*

*Kog'azi zar burd k-in biston zi man.*

(Mazmuni: Abu Ali (Formadiy) huzuriga bir kampir bordi va qo'lidagi qimmatbaho zar qog'ozni uzatib, olgin, dedi.)

*Shayx guftash, ahd doram manki niz,*

*G'ayri Haq nastonam az kas hech chiz.*

(Mazmuni: Shayx dedi: Men Haqdan o'zgadan hech narsa qabul qilmayman, deb ontichganman.)

*Pirazan darhol guft, Ey Bu Ali,*

*Az ko'jo ovardai in ahvali.*

(Mazmuni: Kampir darhol dedi: Ey Abu Ali (Formadiy), sen bu g'ilaylikni (yoqtirmaslikni) qayerdan o'rganding?

*Chun darin rahmardi halli aqd nai,*

*Chand bini g'ayr agar ahval nai.*

---

<sup>50</sup>AHVAL a. Ko'zi bir narsani ikki yoki undan ortiq qilib ko'radigan; g'ilay: Birovni ko'zi ahvaldur, chun xilqat Xoliqdindurur, anga ne madxaldur. (Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”).

(Mazmuni: Axir sen bu yo'lda va'dalashgan, ahd qilgan mardlardan emassan. Agar g'ilay bo'lmaganingda, bu nazrni begona deb bilmasding, (ya'ni bu nazr senga mendan emas, Xudodan yetyapdi-ku?)

*Mardro dar dida inho g'ayr nest,*

*Z-onki injo Ka'bane, dayr nest.*

(Mazmuni: Mard nazdida bular g'ayr —yot narsalar emas, chunki bu yer Ka'ba ham, dayr —butxona ham emas. (Ya'ni bu yerda ko'ngiluyi muhimroq.)

*Bu Ali yoniga keldi bir ayol*

*Zarvaraq unga uzatdi, dedi: ol.*

*Shayx dedi: ahdaylaganmen bo'ylakim,*

*Olmagaymen narsa Haqdin o'zgin.*

*Ul ayol dedi anga: ey bu Ali,*

*Qaydanam yetmish senga bu ahvali?*

*Mard kishi ko'ziga bunda g'ayr yo'q,*

*Ka'ba yo'q bunda, kaliso, dayr yo'q.*

*Sen bu yolda mard ahdu hal emas,*

*G'ayr ko'rgaysen, ko'zing ahval emas.*

*Mard ko'nglin haddiga qo'ygaydir qadam,*

*So'ng bu yo'lda yetgay ul manzilga ham.*

(Fariddin Attorning “Mantiq ut-tayr” asaridan Jamol Kamol tarjimasi).

Imom Ja'fari Sodiq roziyallohu anhu aytadilar:

التقوى أن يتقى العبد ما سوى الله تعالى

“*At-taqva ay yattaqiyal ‘abdu ma sivallohi ta’ala*”. Ya’ni, taqvo — bu bandaning Allohdan boshqasidan parhez qilmog’idir. Ya’ni, Xudodan boshqadan ko’z yumsin va o’zini xalos qilsin va riyodan saqlansin. Bayt:

*Ka’bavu dayr tui, dayr kujo, g’ayr kujo,*

*Nest g’ayr az tu kase, g’ayr kiro mesho’mari.*

(Mazmuni: Ka’ba ham dayr (butxona) ham o’zingsan, dayr qaniyu, butxona qani, deb so’rama, chunki, sendan boshqa hech kim yo’q va begona deb kimni hisoblaysan?). Inoyat birla aytarlarki:

*Ey xayolat, vahmro burda zi dil mutqin shuda,*

*Xosu omamro biburda, dar dilam atqan shuda.*

(Mazmuni: Ey xayoling, gumonni sug’urib, ko’nglimni ishonchga to’ldirgan, Xos va umumiy fikrimni yulib, ko’nglimda yanada ustuvorroq bo’lgan (Zot!))

*Ey xayolat, mulkati dori fano<sup>51</sup> gashta mudom,*

<sup>51</sup> Fano — yo’q bo’lish, foni bo’lish. Narsa va ashyolarning so’fiy nazaridan barham topishi. Fanoning tub ma’nosi — qulning yomon axloq va fe’llarni tark qilib, Allohning go’zal sifatleri va ilohiy fe’llariga erishishi, bashariy irodadan ilohiy irodaga ko’chishi. Fano holiday oshiq «men»ligini unutishi bilan tavid asroriga sohib bo’ladi. Tavidning yuqori darajasi esa fanofillohdir. Bu esa inson zoti va sifatining Haq zoti va sifatida foni bo’lishi.

Tasavvufda fano fil-ixvon, fano fish-shayx, fano fir-rasul, fano filloh istilohlari ham bor. Shu jumladan, fano fil ishq tushunchasi ham mavjud. Bunga ko’ra, ko’ngil tasfiyasi va ruhni darajama-daraja yuksaltirish orqali fano fil ishq darajasiga erishiladi. Alisher Navoiy: «Ishq agar komildurur, oshiq qilur ma’shuqni ham» satrida fano fil ishq maqomiga ishora qilgan. Faqru fano esa ma’naviy boylik maqomi. Navoiy yozadi:

*Zohido, sen bo’l riyo avji uza masnadrishin,*

*Xoli gashta az xudi dar mulkati vahdat<sup>52</sup> tamom.*

(Mazmuni: Ey xayoling, mudom fano mulkida molik bo'lgan, Meni tamoman vahdat mulkida o'zlikdan xalos etgan.)

Derdilar: Hazrati Azizon rahmatullohi alayhining nomai muboraklari menga yetib kelgach, men maktubni mulohaza qilib, tushundim va Amir Boqiyning menga yubormoqchi bo'lgan sovg'asiga zarurat tug'ildi va uni menga olib kelishlari bilan oq qabul qildim. Va shu-shu nazr va muomalalarni oladigan odat chiqardim va xalqning sovg'a-salomini oladigan va tama' qilishga o'rganib qoldim. Bayt:

*Mubtalo bo'lding gado hijron elining ilkida,*

*Shohu kishvar vaslini bir dam topib dodaylagil.*

Aytar edilar, Men kimga, qachon, nimani xohlasam beraman, bu hech bir noxushlik keltirmaydi va hech qachon dilimga noxushlik orttirmaydi. Chunki, mening fikrimga kelgan narsa, bu Haq taoloning farmoyishidir. Va boshqa ba'zilarning xayoliga xush kelgani esa uning havoi nafsidir. Menga havoi nafs va shayton vasvasasi bilan amal qilmaslik farzi ayndir.

**Saj':** Chunki, menda Allohning benazir jamolini ko'rish ishtiyoqi balanddir. Va nafsu shaytonga ergashish mushohada ahlining odobi doirasidan tashqaridir.

Bayt:

*Orzu bor, har zamon sir mulkida bo'lsom muqim,*

*Ko'rsam oni har zamon maslahatim ham on bo'lur.*

Aytar edilar, Amir Boqiy menga o'sha bug'doylarni, nazr qilib yuborishi bilan, hammasini tilanchi va miskinlarga berib yubordim va uyda hech vaqo qolmagan bo'lsa-da, oila a'zolarim uchun bir siqim ham olib qolmadim.

---


*Kim, Navoiyg'a erur faqru fano tufrog'ixo'b.*

(«Badoe' ul-vasat», 48, 7)

<sup>52</sup> **Vahdat, vahdoniyat** — Alloh taoloning yagonaligi.

**Vahdat mayi** — yagonaligini his qilish, ma'rifatiga erishtiradigan ilohiy may, Haq ishq va jazbasi.





“*Va yut’imnat to’ama ‘ala hubbihi miskinav va yatiymav va asiyro*”.  
Ya’ni, “**Taomni esa suyub tursalarda, (o’zlari yemasdan) miskin, yetim va asirlarni yedirurlar**” (*Inson, 8*) oyatining ishorasiga ko’ra, shunday qildim.

**Saj’:** Chunki, ishqu muhabbat majnunlikni taqozo etadi, xonumondan, molu jondan begona etadi, aqlu hushdan, ul-buldan afsona etadi, balo va mehnat bilan kuydiradi, dardu so’z bilan hamxona qiladi, mahbubni ko’rish orzusida mosivodan kechib, farzonalik (oqillik, donolik)ni tark ettiradi:

*Men sening ishqingda, bas, devona bo’lsam, ne ajab,*

*Xonumonimdin kechib, begona bo’lsam, ne ajab!*

*Ishqing sharobini ichib, aqlu hushim barcha ketib,*

*Onu inimdin ayrilib, afsona bo’lsam, ne ajab!*

*Garmen taqi sevdim seni, bo’ldim balolarga sherik,*

*Oh, ul sening darding bilan hamxona bo’lsam ne ajab!*

*Sevdum seni men, bu jahon ichra vale ko’rmak mahol,*

*Tark etibon ham yuzulub<sup>53</sup>, devona bo’lsam, ne ajab!*

---

<sup>53</sup> Yuzulub, “uzilib” ma’nosida (S.S.)

*Ey Xudoydod, necha kuyding bu firoq o'tida sen,*

*Oqibat, aslida men hamsoya bo'lsam, ne ajab!*

Aytar edilar, Hazrati Azizon rahmatullohi alayh u hadyalarni oila a'zolarimga ishlatmaganimni eshitib, juda xushhol va shod bo'libdi va shunday marhamat qilibdi: Men Xudoydod to'g'risida qayg'urmasam bo'ladi, undan xotirjam bo'ldim va uning ahvoli haqida qayg'urishim kamaydi. Chunki, uni faqirlikda muqim va yo'qlikda barqaror ko'rdim. Chunonchi, aytadilar:

*Ey, xayoli gul'uzoring doimo bo'lsin muqim,*

*Sobit aqdomi bo'lub tursin bu ishqing mulkida.*

Aytar edilar, Karmanada bo'lgan chog'larimizda, birodarlarimizdan biri qarzdor bo'lib qoldi. Uning qarzi ming tangadan oshib, to'lashdan ojiz qolibdi. Bir kun: "Bu qanday do'stlik bo'ladiki, men omadsiz, qarzga muhtalo bo'lgan do'stinga yordam qo'lini cho'zmasam?", dedim. Shu fikr paydo bo'lishi bilan, qarz egalarini chaqirdim, hisobimizda bo'lgan bor mol-mulkni, hozon-tovoq, o'zinning kiyadigan kiyimlarim, ahli ayol va bolalarimniki va oftobagacha narxlab, o'sha qarz egalariga berdik. U kishi qarzidan qutuldi. Xotirjam, Xudoyi taoloni talab qilishga shoshildi. Shu bahonada, bizga molu dunyodan ajrash (xalos bo'lish) davlati hosil bo'ldi. Qo'limizda hech narsa qolmadi. Bayt:

*Ey, xayolat gavhari yakdonavash, hechenamond,*

*Chun kâlimulloh, z-xud raftu juz peche namond.*

(Mazmuni: Ey seni yakdona gavhar xayoling (ishqing) tufayli qalbmida hech narsa qolmadi. Muso (alayhissalom)dek o'zidan ketdiyu, yonish, o'rtanishdan boshqasi qolmadi).

Bizning Hazrati Azizonimiz quddisa sirruhuning bir odatlari bor edi, har yili ariq qazib, tashlandiq yerlarni ziroatga yaroqli holatga keltirib, ekin ekar edilar. Ziroat yetilib, yig'im-terim paytida, birovga topshirar va oshkora uning hosildan foydalanmas edilar va aytar edilar: Men bu hosildan tama' ham qilmayman, oxiratim uchun ham savob umid qilmayman. Zeroki, Payg'ambar alayhissalom aytadilar,

الدنيا حرام على أهل الآخرة والآخرة حرام على أهل الدنيا  
وهما حرامان على أهل الله تعالى

“Ad-dunyo haromun ‘ala ahlil axiroti val axirotu haromun ‘ala ahlid dunya va humo haromani ‘al a ahlillahi ta’ala”. Ya’ni: Dunyo oxirat ahliga harom, oxirat dunyo ahliga harom va ikkalasi Alloh ahliga (darvesh va so’fiylarga) harom. Ahlulloh deganlari Allohning diydoridan boshqa narsani umid qilmagan kishilardir. Ular o’zlikdan kechgan, ikki dunyoga ham nazar tashlamaydigan, nigohlarini faqat Xudoning yo’liga qaratgan va bu notavon jismlari hijron dardida qolgan va Ilohiy vasl ozuqasi bilan tanlarini somon xas-cho’plaridan ham zaiflashtirgandirlar. Chunonchi, aytadilar. G’azal:

*O’zluqingni qo’y, toki andin sohgin oni tila,*

*Barcha olamdin kechib, andin so’ngin oni tila!*

*Qilmag’il but o’zunga g’ayrini maqsud etibon,*

*G’ayrdin chun pok bo’ldung, emdi Subhonni tila!*

*Mosivodur dushmaning chun darhaqiqat bilgasen,*

*Rahm qulg’il joninga, har lahza Rahmonni tila!*

*Mosivoning zulmati ketmak uchun ham dam-badam,*

*Pok qil ko’nglungniyu, ham dardu hijronni tila!*

*EyXudoydod, dardilanhajrida bo’ldung notavon,*

*Quvvati uzmo keraktur, vasli Yazdonni tila!*

Aytar edilar, Abu Sa'idxon Samarqand hokimi edi, bir vaqtlar bizga ming tanga naqd va ming tanga miqdori ot, kiyim va boshqa narsalar sovg'a qildi. Men Allohning inoyati bilan, shu kuniyoq mazkur mollarning hammasini tilanchi va faqirlarga ulashib yubordim. Va bu voqea Ramazon oyida bo'lgan edi. Kechqurun pishirishga uyda hech vaqo yo'q va sotib olishga pul ham yo'q edi. Noiloj qo'shnilardan biroz un qarzga oldik. Unni kechga pishirib, u bilan iftorlik qildik.

**Saj':** Muhabbatning beqaror dardiga yo'qlikdan o'zga davo bo'lmas, kechakunduz ovora dilga uning xayolidan boshqa navo bo'lmas. Undan boshqaning muhabbati dilda hargiz ravo bo'lmas. Dildagi hijron alamlari uchun, uning vaslidan bo'lak chora bo'lmas, uning mehru muhabbatisiz dilda mosivoning, bir zarracha hoyuhavoning bo'lishi maqbul emas. Menga azaliy Mahbub vaslidan boshqa tavallo yo'q. Zeroki, mening dardu zahmatimga, uning vaslidan o'zga davo bo'lmas. Aytadilar. G'azal:

*Qilmadi ko'nglum qaroru topmadi darda davo,*

*G'ayriga bo'ldum asir, ul vasl ilan qilsa davo!*

*Kechayu kunduz xayoling birla ovora ko'ngul,*

*Hajrini tiymoq uchun qildi bu ko'nglumni sivo.*

*Ishqini g'ayrini qilma bu ko'ngulda sen sherik,*

*Hubbi g'ayrini ko'ngulga qo'ymog'ingdir noravo.*

*Men havodormen hamisha lutfingiz birla mudom,*

*Ne qilaykim, g'ayru mehringdur ko'ngulga mosivo.*

*Mosivoniqo 'ymag'il aslo ko'ngul mulkida sen,  
Ishqida poklik tilasang, qo'ymagil zarra havo.*

*Ey Xudoydod, vasliga qilgil tavallo har zamon,  
Vaslidur darmoni hajru barcha zahmatqa davo!*

Aytar edilarki: Bir kuni ko'pchilik bo'lib, Qiztog'iga sayrga chiqdik, havo isib ketdi, hammamizga to'n og'irlik qila boshladi. To'satdan, bir odam arobada paydo bo'ldi, aroba bo'sh, faqat ikki-uchta yalang'och bolalarni mindirib olgan edi. Mening unga rahmim keldi-da, to'nimni unga berdim, mening ishoram bilan qolganlar ham to'nlarini u kishiga berishdi. Uning arobasi yukdan to'ldi, u bizdan xursand va minnatdor bo'ldi. Biz bo'lsak, mehru muhabbat, ishq tufayli, o'zimizni qiynabturgan og'ir yukdan qutuldik. O'zimizni banddan xalos etdik va yo'limizda tezlik bilan davom etdik. Bayt:

*Ishqing tanga qildi madad, dushmanlarimga qildi had,  
Tark etibon g'ayri Ahad, ham o'zini solmak kerak.*

Bizning Hazrati Azizonimizning doimo shiorlari shu ediki, nazru niyozlar va muomalalardan dunyolik uchun mol-mulk jam bo'lsa, bir bahona qilib, u najosatlardan o'zlarini xalos etar edilar.

**Saj':** Chunki, aytardilarki, menga darmon sifatida, yo'qlik dardi yaxshiroq. Qarg'alar najosatini jamlagandan ko'ra, kambag'allik va yo'qsillik afzalroq. Uning dardi uchun shukronasiga jon bersam a'loroq. Uning ishqiy yo'lida ul-bulning dardidan (g'amidan) xalos bo'ldim. Mahlub (ishqida) hamisha hayron bo'ldim. Chunonchi, inoyat birla aytarlar, g'azal:

*Sening dardingda men darmon na qilsam,  
Yig'ibon barchasin sarson, na qilsam!*

*Sening dardingda jon shukrona bersam,*

*Yaroshur hamtaqi qurbon, na qilsam!*

*Sening darding qamuq dardg'a davodur,*

*Qamuq dardni yig'ib bir son na qilsam!*

*Sening darding o'ti birla bu ko'nglum*

*Rizodur, solibon biryon, na qilsam!*

*Sening dardingni istar bu Xudoydod,*

*Aninglan har zamon hayron, na qilsam!*

Aytar edilar, mening orzuim shuki, bir katta sahro bo'lsayu unga poliz ekinlari eksam, cho'lning kengligidan bir tarafidan ovoz qilganda, keyingi tarafidagi kishi eshitmasa, u qovunlarning hammasini vaqf qilsam, kim xohlasa yesa va olib ketsa. Yana, o'sha yerni to'ldirib, bug'doy eksam, bug'doylarni xirmon qilsam. Bugdoy uyumi shunchalik katta va baland bo'lsaki, bir tarafdan tuya minib o'tayotgan kishi ikkinchi tarafdan ko'rinmasa, men baland joyda tursam, uning har tarafidan xaloyiq olib ketaversa, men qarab turaversam. O'zimning odamlarim va xizmatkorlarimga u bug'doydan olgani qo'ymasam, ular ishlatishmasa, mehru muhabbat bilan qanoat qilsak va xotirjam bo'lsak va Mahbubni ko'rishni orzu qilsak. Chunonchi, aytarlar. Bayt:

*Ey ko'ngul, kelgil, saninglan nolayu afg'on aylaling,*

*Qoni'o'lg'il ham iroqdin<sup>54</sup> qilsa sen nazzoragi.*

---

<sup>54</sup> Iroqdin-yiroqdin ma'nosida (S.S.)

Va aytardilar: Bir kuni do'stlar Hazrati Azizoni kalon rahmatulloh alayhning xonaqohlarida edik, ular qovun yemoqqa moyil bo'ldilar, qovun endi chiqqan bo'lib, qimmat sotishar edi. Hech qaysimizda qovunga yetadigan pul yo'qligidan, sotib ololmasdik. Shu kunlarda menga Hazrat Azizon to'n kiygizgan edilar. Men nochor o'sha to'nni sotdim va do'stlarga qovun sotib olib keltirdim. Hazrati Azizon o'zlari ham keldilar, men olib kelgan qovunni qabul qildilar, hammalari uni birga to'yib yeyishdi. Hazrati Azizon mening haqimga shunday duo qildilar: Sen meni va do'stlaringni qovundan to'ydirganing kabi, Xudoyi taolo sening botiningni ishqu muhabbatdan to'ldirsin va seni barcha dunyo tashvishlaridan ozod qilsin.


**Saj':** Zeroki, muhabbat ahli habib uchun tanu jonini fido qiladi, o'zini dunyoga tegishli narsadan judo qiladi, Ahlullohni o'zidan rizo etadi va ishqu muhabbatning ziyoda bo'lishi uchun duo qiladi. Bayt:

*Bu Xudoydod, tan bilan ham jon bilan sevdi sani,*


*Bu sevukluk olamin o'zga duo qilsa bo'lur.*

## TO'RTINCHI BOB: TAVAKKUL BORASIDA

Alloh taolo marhamat qiladi:



**“Va ‘alallohi fatavakkalu in kuntum mo‘minina”.** Ya'ni: **“Agar mo‘min bo‘lsangiz, yashash va har bir ishda bandalarning Rabbi bo‘lgan Razzoqqa tavakkul va e‘timod qilinglar”** (Moida, 25).



**“At-tavakkulu kilatul amri ila malikihi vat ta'viylu ‘ala vakalatihi”.**

(Mazmuni: Tavakkal qilish bu — ishlarning barchasini moliki — Haqqa topshirishdir va uning vakolat va kafolatiga e'tiqod qilmoq va ishonmoqdir).

Ammo bizning Azizonimiz quddisa ruhahul aziz bu borada, o'z o'tmish voqealaridan shunday inoyat qiladilar: Hali dunyo tashvishlariga bog'lanmagan, xalq

bilan aloqam oz bo'lgan chog'da, bir necha do'stlar bilan ozuqasiz, yo'qchilik aro dasht va tog'larda, nomurodlik umidsizlik bilan g'am va shodliklar ila kezardik va o'zimizning Xudoyi taologa bo'lgan tafviz, tavakkul, sabr, ruju' (barcha ishlarni Xudoga topshirish va unga qaytish), chanqoqlik qo'rquv va xushu'larimizni imtihon qilardik va qay daraja va martabada ekanimizni bilmoqchi bo'lardik.

Va aytar edilar, biz olti kishi bir kun sahro sayrini orzu qildik. O'ylamay-netmay, tavakkul qilib safarga chiqdik va Qiztog'i tomon yo'l oldik. Yemoqqa hech narsamiz yo'q edi. Ishimizni Razzoq — Xudoga topshirdik va tog'dan, yaxshi bir joyda qo'nib, o'tishni maqsad qildik. Yo'lda uzoqdan g'ubor ko'tarildi. O'sha yerga yetib borganimizda, birovning qopqon qo'rganini va qopqonga kiyik tushganini ko'rdik. Biroq egasi yo'q edi. Biz ohuni tuzoqdan yechib oldik. Agar olmaganimizda, u shu yerda o'lib qolar edi. So'ngra uni baholadik (narxladik) va bir necha kun tanovul qildik, pulini esa egasiga berdik. Bayt:

*Dar tavakkul gar buvad firo'ziyat,*

*Haq dihad monandi murg'on ro'ziyat.*

(Mazmuni: Agar tavakkulda saodatli bo'lsang, Haq senga qushlardek rizqingni yetkazadi.)

Aytar edilar, bir safar biz Qiztog'iga bordik va u yerda bir hafta bo'ldik. Shu hafta ichida biror yeguligimiz yo'q edi. Kambag'alchiligu qashshoqlik, taslimu tavakkul bilan umr o'tkazar edik. Lekin Xudoyi taolo o'ta achchiq bo'lgan tog' bodomchasini bizga shirin qilib berdi va har kuni iste'mol qiladiganimiz shu edi. Bayt:

*Az muhabbat talxiho shirin shavad,*

*Az muhabbat maysaho zarrin shavad.*

Tarjimasi:

*Muhabbat tufayli achchiq ham shirin bo'lar,*

*Muhabbat tufayli maysalar zarrin bo'lar.*

Hikoyat: Bir necha do'stlar boshidan kechirgan voqeani shunday naql qiladilar: biz



bir necha kun och qoldik, chanqoq holda, bir chillaxona qurilishi bilan qattiq mashg'ul edik. Ba'zilar o'ta ochligidan "qaniydi, biror kishi bir bo'lak issiq go'sht olib kelsa", deya orzu qila boshlashdi. Shu holatda, bir kishi pishirilgan issiq go'sht olib keldi. Do'stlar hammamiz u go'shtdan to'yuncha yedik va hech birimiz u odamni tanimas edik. Nazm:

*Fis-samoi rizqukum" nashnidai?*

*Andarin past chi bar xuftidai?*

*Hin tavakkul kun, malarzon povu dast,*

*Pizqu tu bar tu, z-tu oshiqtar ast.*

(Mazmuni: **“Osmonda esa sizlarning rizqlaringiz...”** (“Zoriyot”, 22) oyatini eshitmaganmisan? (Shunday bo'lsa ham) nega rizq uchun o'zingni bu qadar xor etasan? Tur va tavakkul qil, oyoq qo'llaringni behudaga silkitaverma! Zero rizqing senga o'zingdan ko'ra oshiqroqdir!)

**Saj':** Zeroki, oshiq balo, mehnat va mashaqqatga giriftor, Parvardigorning lutfi, in'omi va fazli esa unga oshkor. Bu Allohning kamoli inoyatidandirki, oshiqi xastayi dilafgorga har zamon husni tajalliysidir. Uning visoli orzusida sabr qilish, tavakkul qilish, xotirjamlik va tahammul etish bu ishning shevasidir. Va uning har zamon jilolanuvchi husni tajalliysi zor ko'ngil dardining dog'idir. Uning savdosi otashidan kuyib ado bo'lish — bu yorsiz dilning nasibasidir. Oshiq ishqining dardu g'amida har qanday choradan bechoradir va yor lutfidan chora istovchidir. Va mahub qo'yida maskanu ma'vo qurish oshiqi beqarorlarning shevasidir, rahm qilish, sabr berish va tavakkalu taslimni inoyat etish Haqiqiy dildor tarafidan sodir bo'lur. Aytadilar, g'azal:

*Ey zi ishqat sad balo bar joni g'amparvardi man,*

*Karda oshobi g'amat toroj xobu xo'rdi man.*

(Mazmuni: Ey, ishqing tufayli g'amparvar jonimga yuzlab balolar yuzlandi va g'aming hayajoni yeyish- ichishimni, uyqumni talon-toroj qildi.)

*Ey, zi ishqat bar jonu dili afkorro,*

*Mazhari zoti, sifotat kardi in dili zorro<sup>55</sup>,*

*Kard*

*husnash jilvae*

*bar oshiqoni g'amzada<sup>56</sup>...*

(Mazmuni: Ey, ishqing tufayli jonu ko'ngil afkor bo'ldi, Bu zor ko'ngilni zotu sifotingga mazhar qilding.)

*G'amzada oshiqlarga husni jilva qildi.*

\*\*\*

*Dar tamannoi visol dardmandoni g'amat.*

*Sabr orand har zamon az shevae in korro,*

(Mazmuni: Vasling tamannosida g'amingdan dardmand bo'lganlar, har zamon bu ishlarning ravishidan o'zlariga sabr tilashadi.)

*Otashi savdot har dam so'zad in jonu dilam,*

*Volahu shaydo kunad ham in dili afkorro.*

(Mazmuni: Savdoying otashi har dam bu jonu dilimni kuydiradi, Hamda bu afor —so'lgan ko'nglimni volavu shaydo qiladi.)

---

<sup>55</sup> Baytda saktalik ko'zga tashlanadi (— S.S.)

<sup>56</sup> Baytning keyingi satri tushib qolgan (S.S.).

*Dar g'ami ishqī tu az har chora bechora shudam,*

*Chorae farmo ba lutf in dili xunxorro.*

(Mazmuni: Ishqing g'amida har xil choralar qilib, bechora — chorasiz bo'lib qoldim, o'z lutfing bilan bu qonga to'lgan ko'ngilga chora qil.)

*Ey Xudoydod, maskanu ma'vo bikun dar ko'yi u,*

*Toki rahme bar tu oyad on mahi ayyorro.*

(Mazmuni: Ey Xudoydod, uning ko'chasida o'zingga maskanu ma'vo qilib ol, toki u ayyor oy yuzli yorning senga rahmi kelsa.)

Aytar edilar, bir kuni men Samarqanddan tog'u toshlar orqali Buxoroga borishimga to'g'ri keldi. Toqqa qarab yura boshlaganimizda, biz bilan ketayotgan jamoaga arzqildim va aytdimki, sizlardan men bilan bu yo'lda yo'ldosh bo'lib, oxirigacha boradigan kimsa bormiki, mening qasdu azmimdan saboq olsa va bu ish bilan qiziqsa? Bu karvonda bizning kajavadagi yuk ikki dunyo savdosini o'z ichiga oladi va bu karvonning yuki muhabbatu mashaqqat, balovu tavakkul, taslim, rizoyu sabr, qanoatu yo'qlik va fanodan o'zga narsa emas. Chunonchi, inoyat qilib aytarlarki:

*Ey Xudoydod, o'zlugung mone'ul ko'rmoqlikka,*

*Ne uchun bu o'zlugungdin taqibezor o'lmading?*

Kimki ushbu og'ir yukka dosh bersa, karvonga yo'ldosh bo'la oladi, kimki bu yukni ko'tarolmasa, bizdan yiroqdir.

**Saj':** Bizning habibimizning bir tomchi visol suvi, obi hayot suvidan yaxshiroq, vaslining lazzati ming bor jondan avloroq, u bilan birpas muloqotda bo'lish dunyo va oxiratdan va ham yuz ming qasru ayvonlardan yaxshiroq. Balo va mehnat dashtida mahubning serob la'li uning obi hayot zilolidan yaxshiroq. Mahubning qahr bilan bir nazar solishi, Firdavsi a'yon ne'matlaridan yaxshiroq. Bas, nochor, bizga tog'u sahroning mashaqqatu tashvishi yaxshiroq.

*Davlati “Kun-fayakun” baharchi omad az adam,*

*Ya’ni akdam vasli tu az koxu ayvon xushtar ast.*

(Mazmuni: Haqning “Bo’l!” amri bilan vujudga kelgan har bir davlat (mulk)dan ko’ra, sening vasling bilan bir lahza bo’lishlik, saroylaru ayvonlarning lazzatidan yaxshiroqdir.)

*La’li serobi tu xud mar oshiqoni tashnaro,*

*Sad hazoron bor az obi ziloli xushtar ast.*

(Mazmuni: Tashnalab oshiqlar uchun serob la’li labing yuz ming bor zilol suvlardan yaxshiroqdir.)

*Yak nazar gar qahr andozi so’yi dildodae,*

*Lazzatash sad bor az Firdavsi a’yon xushtar ast.*

(Mazmuni: Senga ko’ngil bergan kimsaga bir qahrli qiyo boqishingning lazzati, Firdavs jannatidan yaxshiroqdir.)

*Ey Xudoydod, mehru mahsha’ni dil makun<sup>57</sup>,*

*Az sad hazor lazzoti olam mehri xo’bon xushtar ast.*

(Mazmuni: Ey Xudoydod, oyu quyoshni ta’riflashni ko’ngil ishiga aylantirma, zero olamning yuz ming xil lazzatdan xo’blar — eranlar mehri yaxshiroq.)

Bir qancha do’stlar shunday hikoya qiladilarki, bizning Hazrati Azizonimiz quddisa sirruhu Karmanada bo’lgan vaqtlari, bir kuni Qiztog’i tomon safarga otlandilar. Sheriklaridan ba’zilari o’zlari bilan non, talqon va boshqa yeguliklar olishgan, bu narsani Hazrati Eshondan pinhon tutishgan edi. Bir muncha yo’l yurgach, Hazrati Eshon to’rga o’tirdilar va aytdilar: Hozir bizningtoqqa borishimizdan foyda yo’q. Falonchi

---

<sup>57</sup> Ushbu satrdan so’z tushib qolgan (— S.S.)

do'stning uyiga borishni maslahat beraman. U bilan suhbatlashsak. Shunday ekan, kimda qanday yegulik bo'lsa, chiqarsin va o'rtaga qo'ysin. Hech narsani saqlamasin, yeyiladigan bor narsa yeyilishi kerak, chunki viloyat tomon, obod joylarga boryapmiz. Buning ustiga, so'fiy uchun zaxira qilmoq durust emas. Noiloj do'stlarning hammasi bor narsani o'rtaga chiqarishdi, yeganlarini yeb, qolganlarini yo'lovchilarga berishdi. Hech kimda hech narsa qolmagach, turib tog' tomonga ravona bo'lishdi. Toqqa borib, ishga kirishdilar, uch kun ishlashdi. Shu uch kunda har bir kishi shom vaqtida uch-to'rtta olma bilan iftorlik qilar edik.

Uch kundan so'ng, ko'p odamlar kelib qolishdi. Zeroki, mehribon Alloh bizning holi zorimizdan, dardmandu notavonligimizdan, ishq vodiysini ixtiyor qilganimizdan ogoh edi. Lutfu karam shevasi bilan bizning qalblarimizni olib qo'ygan dildorimiz edi. Uning gavhar sochuvchi labi so'zlaganda, jon qulog'imiz ochiq va beqaror jonimizning oromi edi. Mahbub ruxsorasiga nazar solish qonli ko'zlarimizning odati edi. Mahbub bizning dilimni asir qilib, biz bilan birga edi. Ayriliqda ko'ngilda sabr qilib, xomush bo'lib, yorning mehmon bo'lishini umid qilib kutish, bizning ishimiz. Xayolda munis va g'amxor yor biz bilan birga edi. Chunonchi, aytar edilar. G'azal:

*Ey mahi bas mehribon, ogah azin holam shaviy,*

*Dardmandi hajr gashtam, so'i darmonam shaviy.*

(Mazmuni: Ey mehribon oy yuzligim, bu holimdan ogoh bo'lgin, hajringda dardmand bo'ldim, dardimga darmon bo'lgin!)

*Shevai lutfu karam kardi, bigrifti dilam,*

*Boyadam lutfi digar, ey mahki, g'amxoram shaviy.*

(Mazmuni: Lutfu karam shevasini namoyon qilib, ko'ngilimni olding, ey oy yuzligim, yana bir lutf ko'rgizib, g'amxorim bo'lgin).

*On kabi la'li guhorborat kusho, bargo' suxan,*

*Toki sham'i jon kushoyad ruhafzo shaviy.*

(Mazmuni: Ul gavhar sochuvchi la'li labingni ochgil, so'z so'zla! Toki jon sham'i shu'lalansin, ruhafzo bo'lgini).

*Oh, to did in ruxat in didai xunbori man,*

*In tama' shud mar maro, k-az ahli nazzoram shaviy.*

(Mazmuni: Oh, bu qon yoshli ko'zim yuzingni ko'rgach, menda o'z-o'zidan shunday istak paydo bo'ldiki, menga nazar qiluvchilardan bo'lgini).

*Ey mahi lolaruxam, burdi dilam to kay maro,*

*Mebiso'zoni bag'am, vaqtast to yoram shaviy.*

(Mazmuni: Ey oy yuzli, lola ruxsorim, qachongacha ko'nglimni o'g'irlaysan? G'aming bilan kuydirasan, endi vaqti yetdi, yorim bo'lgini).

*Ey Xudoydod, sabrkun, xomushnishin dar kunji hajr,*

*Boshadam, ey gulruxam, ro'ze ki mehmonam shaviy.*

(Mazmuni: Ey Xudoydod, sabr qilib hajr kunjida jim o'tir! Koshki, ey gul yuzligim, bir kun mehmonim bo'lsayding!)

Va aytar edilarki, Xudoni talab qilish shavqu zavqi dilida bo'lmagan, mahbubi bezavolning visolini orzu qilmagan, tavakkul, taslim, faqru qashshoqlikka sabr qilish ozuqasiga ega bo'lmagan kishiga rahmim keladi, ichim achishadi. Bayt:

*Harkiro nabvad tavakkulbar Xudoy,*

*Shoyad ar bar vay bigiryi "hoy-hoy".*

(Mazmuni: Har kimdagi, Xudoga tavakkul bo'lmasa, uning uchun "hoy-hoy" deb yig'lashing kerak!)

Aytar edilar, Azizlardan biri menga arz qildilarki, sizlar o'zlaringizga dehqonchilik qilishni lozim bilsangiz va o'sha dehqonchilik orqasidan kun kechirsangiz, shundamening sizlarga ixlos va e'tiqodim mukammal bo'lar edi.

Aytardilarki, men u azizga shunday javob berdim: Menga bir voqea ro'y bergach, barcha ishimni tamoman hazrati Xudovandi taologa topshirdim, ikki dunyo hosilu mahsulidan, kasbu ziroatidan qo'l yuvdim. Bayt:

*Mahsuli jon dardi tu shud, ore, base dar ko'i dil,*

*Xud hosili har du jahon afsona xohad soxtan.*

(Mazmuni: Sening darding jon mahsuli bo'ldi, ha, dil ko'chasida ikki jahon hosilini afsonaga aylantirish kerak).

Demak, hazrati Xudovandi g'ayur (eng g'ayratli)ga tavakkal qilgandan so'ng va uning ixtiyoriga hamma ishni topshirgandan keyin, qanday qilib, ziroatni o'zimga lozim qilay va hosilning mahsulotidan panoh izlay? Qanday qilib, tavakkul va tafvizni bir tarafga surib qo'yay?

Men u azizga yana shunday dedim: Bordi-yu, erta qiyomatda agar Haq jalla va 'alo menga tavakkul va taslimga zid ish qilganim uchun itobu xitob qilsa, siz shu itobu xitobga javob berishga kafil bo'la olasizmi? Agar kafil bo'la olsangiz, mayli, men siz aytgandek, ziroatga mashg'ul bo'lay. Shunda u aziz: U yerda o'zimga-o'zimga javob berishim amri mahol bo'lgandan keyin, boshqa birov uchun qanday javob beraman, deb faryod urdilar. Bayt:

*Tu darin pah ne Xudoyu ne Rasul,*

*Dast kutah kun az in raddu qabul!*

(Mazmuni: Sen bu yo'lda na Xudosan, na rasul, bu raddu qabullardan qo'lingni tort!)

Va aytar edilar, men ham chorasiz, besaru somon va dildagi ishqu muhabbat tug'yonidan mubtaloyu hayron bo'lar edim. G'ayrat va himmat taqozosiga ko'ra, mahubbdan boshqa hammadan qochar edim. O'z ishlarimdan qo'l siltab, jonon jamoliga hayron bo'lar edim, o'z ishqim dardi ila zor, boshqa dardu g'amlar menga og'irlik qilar edi. Hayrat daryosida doim g'arq bo'lib o'zim, xeshu aqrabolardan begona, benishon bo'lar edim. Bog'-rog'lar g'amidan va hosilu mahsuli jahondan forig' edim. Aytadilar,

g'azal:

*In dilam pursho 'r gashta, chun kunam zog'ishi yor,*

*Mubtalo gashtam zi g'am, hayron shudam ham peshi yor.*

(Mazmuni: Bu dilim g'avg'oga to'ldi, o'zimni yor tomonga qanday yetkazay? G'amlarga muhtalo-yu, yor oldida hayron bo'ldim!)

*G'ayratam az xud chunon shud to namond g'ayri o',*

*Tarki jumla sozam, bosham hama hamkeshi yor.*

(Mazmuni: G'ayratim — rashkim shunchalik bo'ldiki, qalbimda undan boshqasi qolmadi, barchani tark qilib, doim yorning xizmatkori bo'lay).

*Koru bori xud bimondam, man ba o' hayron shudam,*

*To tavonam bud, xud yak soate ham ayshi yor.*

(Mazmuni: O'zimni barcha ishlarimni yig'ishtirib qo'ydim, unga hayron boqdim, to imkonim bor ekan, bir soat bo'lsa ham yorim bilan hamsuhbat bo'lsam).

*Man az on damki, shudam az dardi ishqash xoru zor,*

*Vorahonidam xudamro az hama boqishi yor.*

(Mazmuni: Men uning ishqida xoru zor bo'lgan vaqtimdan boshlab, yorga begona bo'lgan barcha narsalardan o'zimni xalos etdim).

*Ey Xudoydod, g'arq shav dar bahri hayroni tamom,*


*Az hama begona boshu boqiy shav bo xeshi yor.*

(Mazmuni: Ey Xudoydod, hayronlik dengiziga g'arq bo'lgin va barchadan begona bo'lib, faqatgina yorningo'zi bilan qolgin!)




## BESHINCHI BOB: İSHFOQ (SHAFQATLI BO'LMOQ) HAQIDA

Alloh taolo marhamat qiladi:



“**Ayturlar: “Haqiqatan, bizlar ilgari (dunyoda) oilamiz orasida (Alloh azobidan) qo’rquvchi edik” (Tur, 26).**

Najot sohiblari va oliy daraja arboblardan bu masala haqida so’ralganida, ular shunday javob berishgan ekan: — Biz hayoti dunyoda o’z ahllarimiz orasida (boshqalarga nisbatan) azobu uqubatdan (oxirat azobidan) qo’rquvchiroq edik.



“*Al-ishfaqu davamul hazari maqrunan bit-tarohhum*”. Ya’ni, “İshfoq bu — Allohdan rahmu shafqat umidida makruh amallardan hazar qilmoq (uzoqda bo’lmoq)dir.

Bu borada Hazrati Azizonimiz qaddasallohu sirrahu o’z boshlaridan o’tkazgan voqeani shunday bayon qilgan edilar: “Hazrati Azizon (ustozimiz) rahmatullohi alayh xizmatlari paytida, menda ba’zan go’shanishinlikka, boshqalardan o’zimni olib qochishga, uzlatni ixtiyor qilishga rag’bat paydo bo’lardi. Begonalardan qochib, o’zimni chetga olish, yoru do’stlarimdan ajralib, dildor (Alloh) dargohining mahrami asrori bo’lish, xoli qolish, chilla o’tirish ishtiyoqim juda baland edi. Men o’zimda kechayotgan bu holatimni Hazrat Azizon rahmatullohi alayhga izhor qildim. Ular marhamat qilib dedi: “Men sening bu holatingga xayrixohman. Sening bu xohishing yaxshilik alomatidir. Ammo yolg’izlikda ofat ham bordir. Zero, hazrati Mavlono Rumi shunday deganlar. Nazm:

*Har kiro dev az karimon vo barad,*

*Bo xudash yobad sari o’ro xo’rad.*

(Mazmuni: Kimniki dev-shayton yo'ldan ursa, uni tanho topganda boshini yeydi).

*Go'rg alhaq on zamon giyro buvad,*

*Gar ramah mishqi ba xud tanho buvad.*

(Mazmuni: Qo'y qachonki galadan ajralib qolsa, bo'ri darhol uni tutib yeydi).

Hazrati Azizoni kalon (ustozim) rahmatullohi alayh menga so'zlarini davom ettirib, dedilar: "Senga bu ishda hamroh, hamdard bo'lishga kuch-qudratim yetmaydi va do'stlarimdan birortasini ham sening bu holingga loyiq deb bilmayman va sening bu riyozat va jiddu-jahdingga sabr qiluvchilardan deb topmayman. Shuningdek, seni yolg'iz tashlab ham qo'yolmayman. Xullas, maslahatim shuki, jamoa bilan hamnafas bo'l, xotiringni jamlab ol va sevganing (Allohga)ga kuchli muhabbat bilan bog'lan!"

Aytdilarki: Shunday qilib, Hazrati Azizon rahmatullohi alayh menga bunday shafqat ko'rguzdilar va meni chilla o'tirishdan qaytardilar. Nochor men bu ishdan tiyildim va hazrati Eshonning ul so'zlari (takliflari)ni o'zimga eng zarur maslahat deb bildim. Hazrati Eshon bu borada menga mehru shafqat ko'rsatdilar, men nega endi takliflarini qabul qilmasligim kerakki, Xudovandi azza va jalla ikki olam muhabbatini menga harom ayladi. Meni o'zining visoliga oshno qildi. Ishimni kamolga yetkazdi, vafoda sobitqadam qildi va meni "manlik" nomusu jafosidan forig' etdi. Mendan "men"likni ketkazdi va hamisha Uning o'zini talab qilishimda menga kuchli ishtiyoq va himmat berdi. Jon tanamdan chiqishidan oldin, meni o'zligimdan foniy qilib, o'zining boqiy jamoliga yetishga sobitqadam qildi. G'azal:

*Xoliqim sevdi mani, men nega sevmasman ani,*

*Ikki olam do'stlig'in tashlab chu sevdurdi mani.*

*Chunki do'stliq davlatin topdim, ulandim vaslig'a,*

*Yuz tuman mingjon bila chun sotqun olg'um vaslini!*

*Nechakim vasling tilaganda jafo tegsa manga,*

*Ul manga ayni vafodur, chun topar bo'lsam sani!*

*Men seni sendin tilarmen o'zlugimdin uzulub,*

*O'zlugumdin uzmayin hargiz topa olmon sani.*

*Chun o'larsen, ey Xudoydod, o'lgin o'lmasdin burun<sup>58</sup>,*

*Davlati boqiy kerak, yo'qsa qo'y, ushbufoniyni!*

Aytar edilar, toliblar Haqni talab qilishda do'stlari orasida bo'lishi va birgalikda (xayrli ishlarga) mashg'ul bo'lishi yaxshiroqdir. Zeroki, tanholikni odat qilgan kishining holi zaiflashadi, ishlari yurishmaydi. Ozgina narsa bilan vaqtini zoe qiladi. Bas, uni qanday qilib irshod maqomiga ko'tarish mumkinki, undan xalqqa kam foyda tegsa?!

“Xilvat dar anjuman” iborasining ma'nosi shuki, kishi jamoat orasida ham xuddi tanholikda bo'lgani kabi, Haq bilan birga bo'lishdan huzurlanishi (fayz olishi)dir. Murid to shu darajada kamolga yetmas ekan, irshod qilishga noloyiqdir.

Aytmishlar, “uzlat” shundan iboratki, kishi anjuman (ko'pchilik orasida) ham o'z ahvolini (holatini) saqlay olsin, foydasi tegmaydigan hikoyatu so'zlardan gapirmasin. Chunonchi, inoyat qilib aytar edilar. Bayt:

*Íshqingiz har damda aytur yonu kuyu so'zlama,*

*Shavqida yongilu kuygil, hamchu udu<sup>59</sup>, so'zlama.*

---

<sup>58</sup> Bu o'rinda “*Mutu qabla an tamutu*” — “O'lmasdan burun o'linglar” hadisiga ishora qilingan.

<sup>59</sup> **Ud** — 1) cho'p, daraxtdan kesib olingan shox; 2) musiqa asboblariidan birining nomi; 3) ud yoki udi hindiy daraxti, asosan, Hindistonda va Birmada o'sadi, uning cho'pi qahva rangida va xushbo'y, o'tga tashlansa xushbo'y hid taratadi.

Aytardilar: **Saj'**: “Mening xilvatxonaga kirib, chilla o'tirishimga hojat yo'q, chunki, men hoyu-havas, hirs va orzularni qalbimdan chiqarib tashlaganman va qalbimni bemisl Xoliq zotining vahdoniyatiga yo'naltirganman, ruh olamining jilvagohini manmanlikka tegishli bo'lgan barcha narsalardan pok qilganman. Haq jalla va alodan boshqa narsalardan xotirimni xalos etganman, vujudim borlig'ini yelga sovurib va Uning dardini darmonlar ichidan ajratib olib, o'z jonimga qo'yganman. Qalbim oynasini Allohdan boshqa narsalarning g'illu g'ashlari zangidan tozalab, Xudovand zikri nuri bilan sayqal berganman. Muhabbat nomasini Uning dardi sarlavhasi bilan muhrlaganman. Xudoning inoyati bilan ishqu muhabbatni o'zimga maqsad qilganman. Ikki dunyo lazzatini o'zimdan yiroqlashtirganman. To tirik ekanman, mening ishim visol va jonon yuzini talab qilishdir. Visolni ixtiyor qilishga bo'lgan istaku talab qo'llari har tomonga uzatilgan, Mahbubning ishqu havosi (jozibasi) hamisha jonim orasidadir. Inoyat bilan aytganlaridek, g'azal:

*Tangrini ko'rgan kishi o'z xonumonidan kechar,*

*Orif<sup>60</sup> o'lg'on dardni darmondin lobud sochar.*

*Mosivoning zangidan so'fiy ko'ngulning nurini,*

*Tangrini yodi bilan sayqal urub har dam ochar.*

*Yorning mahfilida solik o'zi ag'yor uchun,*

*Xilvati uzlat qilib, yodi bilan o'zdin qochar.*

---

<sup>60</sup> **Orif** — irfon sohibi. Tom ma'nodagi haqshunos. So'fiylarning tushunchasida ilm-aqlga, irfon — tuyg'ularga asoslanadi. Orif Alloh tomonidan baxsh etilgan laduniy ilm vositasida, uning mavjudligini idrok etadi va mavhum borliqdan kechib, Tangri yodi bilan umr o'tkazadi. Orif — tanuvchi, biluvchi. Allohni, uning sifatlarini, fe'llarini va ismlarini kashf va mushohada yo'li bilan taniydi. Orifi billah — ma'rifat va irfon egasi, komil inson, hikmat va asrorga oshno, fano martabasiga erishgan, valiy.

*Bandakim, avval inoyat birla Haq sevdi ani,*

*Lojaram Haqni sevib, o'zga sevuklukdin kechar.*

*Ey Xudoydod, istagil joning borincha vaslini,*

*Vaslini iysorini ushbu talab qo'li sochar!*

Aytar edilar, “Lekin mening xilvat va suhbat qilishimga sabab, shafqat yuzasidan toliblar haqqi uchundir. Zeroki, ularning ishlari mujohada va riyozatsiz, tashqi hoyu havaslardan kechmasdan turib, rivoj topmaydi”. Aytganlaridek. Bayt:

*Ey Xudoydod, sirri dilni ochmag'il har xirag'a,*

*Ko'p riyozatlar keraktur, ko'p fanoyo ishqida.*

Aytar edilar, “Qachonki, men xilvat va suhbat qilsam, o'zim ham o'sha xilvat va suhbatdan bahra olaman. Chunki, men bu holatda xuddi majlisda ko'pchilik uchun holva pishiradigan holvapazga o'xshayman. Tabiiyki, holvapaz o'zi pishirayotgan holvadan ulush va nasiba oladi. Buning ustiga uning nasibasi boshqalarnikidan ko'proq ham bo'ladi. Zeroki, holvapaz barchadan oldin holvaning hididan bahramand bo'ladi. Buning ustiga, holvadan yeyishda boshqalarga ham sherik bo'ladi. **Saj'**: Zeroki, oshiq ko'ngli hamisha Mahbub xayoli bilan nurlidir. Nurlar g'ami savdosi dengizida xuddi Qosim Anvardek. Mahbubning ishqijonlar munisi (do'sti) va uning dardi iztirobli ko'ngilning hamdamidir. Mahbub yuzini ko'rish oshiqqlar uchun xuddi haji akbardir. Mahbub jamoli mushohadasi oshiqning hayratu hasratini har lahza oshiruvchidir. Firdavsi a'lo ne'matlari lazzatlaridan va ikki dunyo hosilotlaridan Mahbub vasli iforining bir zarrasi ruhni ko'taruvchi va yaxshiroqdir. Jannatni eslash oshiqning aslo xotiriga kelmaydi. Chunki, Habib visoli iforidan uning jon dimog'i muattardir. Chunonchi, ul hazrat tamoman bu ma'noga ishorat qilib aytadilar. G'azal:

*Ey xayolat, har dile, har dam munavvar soxta,*

*Dar bahri savdoi g'amat qosimi anvar<sup>61</sup> soxta.*

(Mazmuni: Ey xayoling ko'gillarni har dam munavvar qiluvchi, g'aming savdosi uchun ko'ngillarga nurlar taqsimlab bergan).

*Ishqi tu omad ba jonho, dardi tu omad badil,*

*Ro'yi tu bar oshiqon chun hajji akbar soxta.*

(Mazmuni: Ishqing jonlarga, darding ko'ngillarga kirib boradi. Sening yuzing oshiqlar uchun xuddi haji akbar qilgandek bo'ladi).

*Hayratam az had go'zashtu, hasratam bisyor shud,*

*Chun kunam hayrat maro har dam fuzuntar soxta.*

(Mazmuni: Hayratim haddidan oshdi va hasratim to'lib-toshib ketdi, nima qilay, hayratim har lahza oshib bormoqda).

*Chun kunam firdavsi a'lo shud maro be hosile,*

*Hosili hardu jahon dar hukm behtar soxta.*

(Mazmuni: Har ikki olamning hosili sening hukmingni, istashlikda deb bilaman. Axir nima qilay? Firdavsi a'lo ham sensiz men uchun besamardir).

*Ey Xudoydod, yod agar hargiz kuni,*

*Bo'i vosli u mashomi tu mu'attar soxta.*

(Mazmuni: Ey Xudoydod, agar har doim yorni eslab tursang, uning vasli tomondan keladigan xushbo'yliklar seni muattar qiladi).

Aytar edilar, "Bir vaqtlar menda, "xos bir manzilda bo'lib, odamlar bilan

---

<sup>61</sup> Bu baytda mashhur so'fiy shoir Sayyid Qosim Anvarga ham ishorat bor. Aytishlaricha, 3-4 yoshlardagi Alisher Navoiy tog'alariga Sayyid Qosim Anvarning "Rindemu oshiqemu jahonso'zu joma chok, Bo davlati g'ami tu az fikri jahon chi bok?" (Biz beparvo oshiqlarmiz, yirtiq chopon, o't nafas, Jahon g'ami Sening g'aming davlatiga arzimaz) baytini aytib lol qoldirgan ekan.

muloqotda bo'lishdan butunlay yiroq bo'lsam", degan fikr paydo bo'ldi. Shu vaqtda oldimda "Masobih" kitobi bor edi. "Payg'ambar alayhissalom mening bu xohishim haqida nima der ekanlar?" degan xayolda mazkur kitobni ochgan edim, quyidagi mazmundagi hadis chiqdi: "Har bir odam "alif" bo'lishi va "ma'luf" bilan birga bo'lishi kerak", ya'ni, xaloyiq bilan ulfatda bo'lishi lozim yoki xaloyiq ulfat bo'lishini qabul qilishi lozim. Toki, uning xalqqa manfaati tegsin va o'zi ham xalqdan manfaatdor bo'lsin. Bu hadisni o'qir ekanman, o'z xohishim haqida istig'for aytib, tavba qildim. Xalq ichida bo'lib, manfaat yetkazish yoki manfaat olishni ixtiyor qildim". Chunonchi, aytadilar. Bayt:

*Ey Xudoydod, ishqida qilg'il tamanno dam-badam,*

*Vaslini jumla xaloyiq .....<sup>62</sup>.*

Movarounnahrning ko'plab podshohlari va shaharlarning aksar sultonlari Hazrati Azizonimiz quddisa sirruhuga e'tiqodmand va muxlis edilar va hazrati Eshonni tavof qilish uchun doim u kishining ziyoratiga nazru niyozlar olib kelishar yoki yuborishar edi. Hazrati Eshon ularning nazru sovg'alarini qabulqilar va istagan kishilarga sarflab yuborar, aslo biror narsani molu dunyolik uchun zaxira qilishni istamas edilar. Bayt:

*Harchi dar dast oyadam gum kardum,*

*3-onki, dar dasti u chu kardam kardum.*

(Mazmuni: Qo'limda bo'lgan barcha narsani yo'qotdim, Uning qo'lida bo'lgani esa menga asqotdi, foydali bo'ldi. *Ya'ni, Unga qilgan zikru tasbehtarimgina qoldi, dunyoliklardan bo'lgan hech narsa menga vafo qilmadi*).


Aytar edilar, "Meni Alloh bandalarini irshod qilish uchun yuborgan va muridni murodiga dalolat qilish uchun bu maqomga qo'yilganman va nafsni tark qilishga buyurilganman. Shunday ekan, xalq bilan do'stu ulfat tutinishim zarurdir. Chunki, odamlar bilan oshno bo'lmay, ularga aralashmay, qanday qilib ularga manfaat

---

<sup>62</sup> Ushbu va oldingi baytlardan so'zlar tushib qolgan. ( S.S.)

yetkaza olaman va o'zim ham manfaat ko'ra olaman. Demak, shunday ekan, odamlarning nazru niyozlarini qabul qilish menga lozim va vojib bo'ladi.

Aytardilarki, bu toifaning nazru niyozlarini qabul qilsam va ulardan menga ehson yetsa, menga ham quyidagi oyatning hukmicha ularga ehson qilishim vojib bo'ladi.



“Hal jazaul ehsoni illal ehsonu”. Ya’ni, “**Ehson** (ezgulik)ning mukofoti faqat **ehson** (ezgulik)dir (Ar-Rahmon, 60).

Aytar edilar, “Mening ehsonim shudirki, o’z darslarim bilan, bu toifaga saboq berishim, shafqat yuzasidan ularni Xudovandi taolo rozi bo’ladigan yo’lga boshlashimdir. Shuningdek, ularni makruh amallardan qochishga, har bir kimsani o’z qadru holiga yarasha, hafsalasi va toqati miqdorida, Allohdan o’zga narsalardan yuz o’girishga chaqiraman. Toki, bu bilan ularning hayotiga abadiy davlat va beqiyos baxtiyorlik kirib kelsin hamda nafsu havo mashaqqatlaridan kechishlari oson bo’lsin”. Chunonchi aytganlaridek bayt:

*Davlati vasling xayolig’a tushub miskin ko’ngul,*

*Dog’i hijron o’tida mushkullari oson bo’lur.*

Aytar edilar, “Ko’nglimda ba’zida lutfu marhamat yuzasidan **التعظيم لأمر الله** “At-ta’zimu liamrillah” (Alloh amrlariga bo’ysunish) hikmatini mulohaza qilgan holda, bir lahza ham o’z o’rnimda turmasdan shaharma-shahar, qishloqma-qishloq, uyma-uy yursamu **الشفقة إلى خلق الله** “Ash-shafqatu ila xolqillah” (Allohning maxluqlariga shafqat qilishni) mutolaa qilgan holda, Alloh xalqini Haqqa chaqirsam va saboq aytsam, ularni havoyi nafsga muftalo bo’lishdan xalos qilishga jiddu jahd qilsam, degan ishtiyoqlar uyg’onar edi. Lekin bir mone’lik tufayli, bunday qilolmas va maylu rag’batimni amalga oshirolmas edim. Aytardilar: Bu mone’lik shu ediki, men xalq orasida “shayx”lik bilan ma’ruf va mashxur bo’ldim hamda qayerga borsam, odamlar menga izzatu ikrom bilan alohida e’tibor va o’rin ko’rsatishar, menga



nazru niyoz qilib, o'ziga xos hurmat bajo keltirishardi. Men bularni ortiqcha ovoralik, deb hisoblardim. Vaholanki, men ularni ortiqcha tashvishga qo'yishim va qiynalishlariga sababchi bo'lishim durust emas. Bas, shunday ekan, men har kimning uyiga borish va ularni qiyin ahvolga solib qo'yishni o'zimga ep ko'rmadim. Zero, mening asl odatim Alloh g'amu hasratidan dard chekishdan boshqa narsa emas, bu ishq sababidan men hatto o'zimdan begonaman. Men o'zimdan begona bo'lganim uchun, boshqalar bilan oshnolik qilishim durust emas. Men faqat Mahbubning husnu tajalliysiga mastu mustag'raqman. Mening jonim "bu nima?", "u kim?" kabi behuda narsalarga parvo qilmaydi. Zot tajalliysida mening jonimda vahm va g'alat aslo yo'qdir. Biroq kimni ko'rsam, uning ko'nglida zoru xastalik, shikastayu shaydolikdan boshqa holat bo'lmasa edi, deyman. Chunki, mening ko'nglim Xudovandi taoloning lutfi va husn mazharidan boshqa narsa emas. Ba'zi xayolotlarning ajoyib namoyon bo'lishining sababi —benazir Xoliq husni jilvasidan boshqa narsa emas. Oshiq hamisha ishqda xoru zor, hayronu balolarga oshuftayu muhtalodir. Har kimda uning husni nishonasini ko'rsam, ko'nglimning ishi ishq havaslar afsonasini gapirishdan o'zga bo'lmay qoladi. Zero, oshiq hamisha Uning ishqida afsonadir<sup>63</sup> va Mahbub savdosidan o'zga uning orzusi va tamannosi yo'qdir. Chunonchi, aytarlar. G'azal:

*Hayrating devona qildi ham bu holim naylasun,*

*Hasrating usru qilib, begona qoldim, naylasun.*

*Har zamon husning tajalliy aylayur bu jonima,*

*Ul zamon vahmi g'alat bo'lurki, jonim naylasun.*

---

<sup>63</sup> Mashrab o'z muxammaslaridan birida yozadi:

*Ishqida kuymas hech kim, afsona bo'lmag'uncha,*

*Sham'ida yonmas hech kim, parvona bo'lmag'uncha,*

*Suymas sadafni hech kim, durdona bo'lmag'uncha,*

*Adhamsifat dunyodan begona bo'lmag'uncha,*

*Boshg'a olib malomat afsona bo'lmag'uncha.*

*Kimnikim ko'rsam, sening husningga hamdil zorerur,  
Ne qilay husningga mazhardur mabolim, naylasun.*

*Har g'alat tushsa xayolimga sabab husning erur.  
Chunki yoyding husningi, vahmi xayolim naylasun.*

*Kimdakim, ham zoru xoru intizori behad ast,  
Ohu vovaylo bilan, buzdi fig'onim naylasun<sup>64</sup>.*

*Kimdakim ko'rsam nishona husningizdan zarrae,  
Bu ko'ngul afsonodin chiqmas, nigorim naylasun.*

*Vah, Xudoydod, bo'ldi bir afsona ishqing yo'lida,  
Tushti bu savdo boshig'a chunki doim naylasun.*

Aytar edilar, “Mana, ellik yil bo'libdiki, men ishqu muhabbat nog'orasini chalaman va xalqni ta'lim va tarbiya qilaman; mansabu martabaga o'ch va muftalo bo'lib qolishlaridan ularni xalos qilishga intilaman. Shafqat yuzasidan qilayotgan bu ishlarimda Alloh roziligidan boshqa ilinjim yo'q edi. Biroq, shuncha sa'y-harakatlar qilsam-da, biror bir podshoh o'z podshohligidan kechib, bu ilmdan bahramand bo'lishga intilmadi, orzu ham qilmadi, biror mullo o'z mulloligidan kechib, men tanlagan bu faqru fano yo'lini qabul qilmadi<sup>65</sup>. Hech bir dehqon o'z dehqonchiligini

---

<sup>64</sup> Bu bayt qo'lyozmada yo'q, uni boshqa manbadan kiritdik.

<sup>65</sup> Ushbu o'rinda “bu ilm” deganda muallif “hol ilmi”, ya'ni tasavvufni nazarda tutmoqda. (S.S.)

tark etmadi va ko'ngliga mehru muhabbat urug'ini ekishni istamadi. Biror kosib o'z kasbini tashlab, ilohiy sirlardan voqif bo'lishga, sa'yuharakat qilishga urinmadi". Bayt:

*Man ba behuda shudam bisyorgo 'y,*

*V-az sho 'mo yake nashud asrorjo'y.*

(Mazmuni: Men behuda ko'p gapiruvchi bo'lib qoldim. Va sizlardan birortangiz asrorjo'y (sirlarni izlashga intiluvchi) ham bo'lmadingiz.)

### **OLTINCHI BOB: ZIKR TO'G'RISIDA**

Alloh taboraka va taolo marhamat qiladi:

﴿وَأذْكُرَّ رَبَّكَ إِذَا نَسِيتَ﴾

“Vazkur Robbaka iza nasiyta”. «...**unutgan vaqtingizda** (yodingizga kelishi bilan) **Rabbingizni zikr qiling...**» (*Kahf*, 24). Haqni zikr qilganingda, o'zingni mazhar qilib, boshqa har qanday narsalarni unutgin.

Ammo bizning Azizon ustozlarimiz (Alloh ruhlarini shod qilsin) bu borada shunday deganlar: “Zikr uch turli bo'ladi: Birinchisi til zikri bo'lib, bu avomun-nos (oddiy xalq) zikridir. Ikkinchisi dil (qalb) zikridir va bu xoslar (oriflar) zikridir. Uchinchisi sirr zikridir va bu xos ul-xoslar (yetuk avliyolar) zikri bo'lib, bu Allohni mushohada qiluvchi va ahli yaqyn bandalar zikridir. Masnaviy:

*Zikr bar se vajh omad bexilof,*

*To nadoni in suxanro az gazof.*

*Omro nabvadba juz zikri zaban,*

*Zikri xoson az dil omad begumon.*

*Zikri xosul — xos andar sir buvad,*

*Har ki zokir nest, o' xosir buvad.*

(Mazmuni: Shubhasiz zikr uch turlidir, buni aslo yolg'on deb bilma. Oddiy xalq zikri faqat til bilan qilinadigan zikrdir. Xoslar zikri esa faqat qalb bilan bo'ladi. Xosul-xoslar zikri esa sir orqali bo'ladi. Kimki zokir bo'lmasa, u o'ziga zarar qilibdi!)

Aytar edilar, “Kimki til bilan zikr aytsa, shu zikrga ko'nglini ham hozirlasin; zikr aytayotganda, dilini tiliga muvofiq qilsin, o'z sirrini turli xayollardan bo'shatib, fikrini bir joyga yig'ib, bemisl Xoliq zotini mulohaza va mushohada qilishga jamlasin. O'z xotiridan turli vasvasa va Allohdan boshqa fikru xayollarni chiqarib tashlasin. Bunday zikrdan uning qalbida zavq paydo bo'ladi hamda mosivalloh

(Allohdan boshqa narsalar) kuduratlaridan qutuladi.

سُبْحَانَ الَّذِي أَسْرَىٰ

“Subhanallaziy asro” (*Isro*, 1) **“Tunda sayr qildirgan zot tasbeh aytishga (loyiqdir)”**<sup>66</sup> oyatini poklik bilan yod etish-la uning qalbi dunyo mehridan soviydi.

Shundan so'ng, zavqi Xudovand zikrining madadi bilan va visol kechasining davlati hosil bo'lishi natijasida Masjidul Haromdan dilining xos haramiga bog'lanib,

بِعَبْدِهِ لَيْلًا مِنَ الْمَسْجِدِ الْحَرَامِ

“bi'abdihi laylam minal Masjidil Haromi” (*Isro*, 1) asir bo'lgan holda, o'zini muborak sir olami sajdagohi sahnasining eng yuqori va eng

chekkasiga

إِلَى الْمَسْجِدِ الْأَقْصَا الَّذِي بَنَيْنَا لَهُ حَوْلَهُ

“ilal Masjidil Aqsollaziy barokna havlahu” (*Isro*, 1) oyati bashorati tufayli yetkazadi. Shunda, Zot partavining nishonalari va sifot nurlarining tajalliyotlari va quyosh ziyolarining mushohada

etilishi va aniq-tiniq ko'rishi

لِنُرِيَهُ مِنْ آيَاتِنَا

“Linuriyahu min ayatina” (*Isro*, 1) sababli, u kishiga porlay boshlaydi; natijada abadiy inoyat zavqi, mangu saodat (bitmas tuganmas baxt)larga erisha boshlaydi. Chunonchi, inoyatqiladilarki, bayt:

<sup>66</sup> **Isro** — tunda sayr kildirish. Bu Islom tarixidagi mashhur me'roj hodisasi bilan bog'liq bo'lib, Muhammad alayhissalomning hijratdan bir yil oldin Makkadagi Masjidi Harom (Ka'ba)dan Quddusi sharifdagi Masjidi Aqsoga bir zumda, sayr qilib, yetib borishlari bilan izohlanadi (S.S).

*Zavqat biyomad dar dilam, to qudrati g'ayrat biraft,*

*Dar surai "Subhon" buvad, xud laylat ul-isroi ishq.*

(Mazmuni: Zavqing ko'nglimdan joy oldi va g'ayratu rashk kuduratlari (g'am-qayg'ulari) chirkinliklari ketdi. Axir "Subhon"<sup>67</sup> ... surasida isro kechasining ishq bor).

Hazrat Payg'ambar (alayhissalom) buyurdilar:

لكل شيء صقالة وصقالة القلوب ذكر الله

"*Likulli shay'in siqolatun va siqolatul qulubi zikrullohi*", ya'ni "Har bir narsaning sayqal beruvchisi bordir, ko'ngilga sayqal beruvchi narsa Alloh taoloning zikridir". Zeroki, zikr dil oynasini kudurat (g'illu g'ashlardan) va zanglardan tozalaydi va o'z haddi-darajasiga ko'ra, porlash va jilolanish sarhadiga, yetkazadi<sup>68</sup>.  
Bayt:

*Tangrini yodi bilan, sayqal urub, hardam ochar*

*Mosivoning zangidan so'fiy ko'ngilning nurini.*

Aytar edilar, Hazrati Sulton Xoja Ahmad Yassaviy rahmatullohi alayh shunday deganekanlar:

*Til bila ayta-ayta ko'ngilga tushar,*

*Ko'ngil bila ayta-ayta sirga tushar.*

Lekin bu o'rinda "sir bilan ayta-ayta" demaganlar, chunki, unda takalluf o'rtadan ko'tariladi va bandaning borliq hijobi ochiladi va banda o'zini Haq zikriga

<sup>67</sup> Bu yerda "Subhanallaziy" deb boshlanadigan "Isro" surasiga ishora qilinmoqda.

<sup>68</sup> Navoiy hazratlar ilk g'azallaridan birida yozadilar:

*G'ayr naqshidin ko'ngul jomida bo'lsa zangi g'am,  
Yo'qtur, ey soqiy, mayi vahdat masallik g'amzudo.*

va o'z zikriga, shuningdek, o'zini Haq zotining zikrida “*Vazkur rabbaka iza nasiyta*” (... **unutgan vaqtingizda** (yodingizga kelishi bilan) **Rabbingizni zikr qiling...**) (*Kahf*, 24) oyati amriga muvofiq o'zini unutgan holatda his qiladi. Lojaram bu yerda zokir ham, mazkur ham Xudoning o'zi bo'lib qoladi. Bayt:

*Tu dar miyona hech nayi harchi hast O'st,*

*Ham xud “Alast” go'yadu, ham xud “Balo”<sup>69</sup>.*

(Mazmuni: O'rtada sen yo'qsan, nima bor bo'lsa Udir...

Undandir... O'zi ham “alast”, deydi ham “balo” deydi).

Aytar edilar, “Ushbu ma'noning kashfi shunday bir paytda hosil bo'ladiki, qachonki u (zikr) hosil bo'lsa va ko'ngil darichasi o'zini mosivo (Allohdan o'zga o'y-fikrlar) zulmati — qorong'uligidan xoli qilsa va I'zid taolo zikri nuri bilan o'z qalbini to'ldirsa. Chunonchi, inoyat qilganlaridek. Bayt:

*Mosivoning zulmatidin xoli qilg'on ko'nglini,*

*To'layur ushbu vujud, “vazkur” nuridin ko'ngil.*


Marhamat qilardilar: “Hazrati Azizon rahmatullohi alayhning zikr halqa (davra)larida o'tirgan dastlabki vaqtlarimda va zikr tushganimda, hali zikr aytganimga hech qancha vaqt bo'lmasdan yonimda bir uy paydo bo'lar va dilimga zaiflik olib kirar edi. Nimadir sabab bo'lib, menda o'zgacha holat yuz berar, o'zimcha zikrni tezroq boshlasalar-da, menda tinchlik-farog'at paydo bo'lsa, degan fikr uyg'onardi. Lekin ozroq mashqdan so'ng dilimni zikrga oshno qildim. Menda zikrga nisbatan shu daraja ishtiyoq va rag'bat ortardiki, Hazrati Eshon qachon zikrni boshlasalar, men: “Mabodo, zikr qilganlarida meni mahrumlik otashi hasratida qoldirmasinlar”, degan vahmdan halok bo'lardim. Zeroki, harchand men o'zimcha harakat qilmayin, noqisman. Shu jihatdan, ichimda nolayu faryodu vovaylo ko'tarilardi. Chunonchi, aytardilar, Bayt:

---

<sup>69</sup> Bu yerda “Subhanallaziy” deb boshlanadigan “Isro” surasiga ishora qilinmoqda.

*Ey Xudoydod, nechakim istarsen oni yo'li bor,*

*Na'rai faryod ayla, istaki, jonim qaydasen?*

Yana shunday dardilar:  “Fazkuruniy azkurkum”. **“Bas, Meni yod etingiz, Men ham sizlarni yod eturman”**


(*Baqara, 152*) oyatidan menga ushbu ma'no kashf bo'ldi, ya'ni Xudovand jalla zikruhu bu oyat bilan bandalariga shunday marhamat qiladi: “Ey bandalarim, meni zikr qilinglar, bas, men ham sizlarni eslayman. Ya'ni, sizlar ojizlik, qusur, xoksorlik, mehnat va mashaqqatlaringiz bilan meni yod etingiz va meni talab qilishda sa'y-harakat qilingiz. Toki men ham O'z ulug'vorligim, kamoli sifatlarim, kuchu qudratim va ogohligim bilan sizlarni eslay. Ya'ni, dillaringizni mosivoning tamomi kudurat (g'illu g'ash) va zanglaridan poklay (tozalay) va sizlarning sirrlaringizni hozir va o'zimdanda ogoh qilayki, hech bir lahza va fursatda meni yodingizdan chiqarmang”.

*Langu luchu xufta, shakli beadab,*

*So'yi u mapechu, o'ro metalab.*

(Mazmuni: Yalang'och, g'aflatda, beadab holatlarda bo'lib, U tomonga talpinib, uni talab qilmagin. *Ya'ni, uni talab qiladigan bo'lsang, pokiza va astoydil bo'lib unga intil.*)

Payg'ambar alayhissalom marhamat qiladilar:



“*Davimu 'alaz zikri fainnahu miftahul xoyroti*”. Ya'ni, “Doimo zikr qilinglarki, albatta, zikr barcha yaxshiliklar kalitidir”.

**Saj'**: Muhabbat ahlining yaxshiligi bu — barcha lazzatlardan forig' bo'lib, Haq zotining mushohadasiga berilishdir. Shuningdek, Mahbubning jodu ko'ziyu qon to'kuvchi g'amzalaridan oshiqning joni doimo balolarga giriftordir, har vaqt oshiqning notavon ko'ngliga balo va mehnat o'qining zaxmidan minglab ofatlar bordir. Oshiqni

ishq otashida kuydirish va Mahbubning qoshu ko'zlari, zulfu<sup>70</sup> xoli oshiqni o'ldirmoq uchun birlashishining o'zida ham, aslida (Allohning) lutfu inoyati bordir. Chunonchi aytganlaridek. G'azal:

*Ikki olamdin manga behroq erur mehring saning,*

*Barcha darmondin xushodur zarrayi darding saning.*

*Men agar bahri vujuda olimi ilm aylasam,*

*Vah, bas andadur manga bir qatrai ishqing saning.*

*Kechayu kunduz saning darding bilan zor o'ldi dil,*

*Neki men yolg'iz erurman, barcha afgoring saning.*

---

<sup>70</sup> **Zulf** — zulfning tasavvuf adabiyotida bir qancha ma'nolari bor. Jaloliy tajalliy va tariqat mushkilotlari; mutlaq jamol vahdatining to'silishiga sabab bo'ladigan jamoliy tajalliy va jaloliy sifat; zulf — yashirin mohiyatdurkim, uni anglash va idrok qilishga hech kim qodir emas; olamning g'aroyib suratlari; yo'qlik olami.

**Zulf** — vahdat martabasi va Alloh taoloning zotidurki, uning sir-sinoatiga yetmoq mumkin emas. Zulf — g'aybiy huviyyat. Shuningdek, zulf qudrat va jamol tajalliysining sifati bo'lib, u vahdatga to'siqdir. Va so'fiylar istilohida zulf tugal, bo'lak narsalar — aql va his bilan idrok qilinadigan narsalar, arvohlar va jismlar, javhar va arazlarning daraja-maqomlari imkoniyatidan kinoya.

**Zulf** — kufr zulmatidan ham kinoya. Tasavvufda zulfning uzunligi, beqarorligi, gajakligi, egilganligi, parishonligining o'ziga xos ma'nolari bor. Aytaylik, zulfning egilganligi — ilohiy asror demak. Uning uzunligi — borliq mavjudotning kengligi. Beqarorligi — olamning o'zgaruvchanligi va hokazo. XV asrning birinchi yarmida yashab o'tgan mavlono Atoyi bir baytida:

*Har ma'rifatki, shayx ani tahqiq so'zi der,*

*Bilmas muniki, ma'niyi ul-zulfu xol erur, —*

deb tasavvufdagi «zulfu xol» atamalarining ilohiy ma'rifat va haqiqatlarga ishora qiluvchi ramziy ma'nolari borligini ta'kidlaydi.

**Zulf gajagi** — ilohiy sirlarning maxfiyligi; tariqat mushkilotlari; shaqodat (ko'z bilan ko'riladigan, mavjud) olamida ilohiy asorning pinhonligi.

**Zulf halqasi** — ilohiy borliqlar va ashyolarning ayri-ayri holdagi martabalari.



*Bu xayoling tushgali ko'nglumga har lahza, mudom*

*Nolayu afg'on etar, bu xastai zoring saning.*

*Har zamon ishqing bila bo'lsa giriftori ey ko'ngul,*

*To abad topqum saodat, bo'lsa men yoring saning.*

*Ko'ngluma qilding tajalliy tal'atingdin, ey ajab,*

*Bo'ldi bu miskin ko'ngul ovorayu zoring saning.*

*Ey Xudoydod, nechakim sevsang, ani ham yo'li bor,*

*Oqibat ko'rgusidur bu chashmi bedoring saning.*

## **YETTINCHI BOB: HIMMAT TO'G'RISIDA**

Marhamat qilardilar: Hazrati Azizon rahmatullohi alayh xizmatlarida bo'lgan paytlarim edi. Kunlarning birida hazrati Eshon menga va do'stlaringa paxta-zorni yovvoyi o'tlardan va xasu xashaklardan tozalashni buyurdilar. Havo issiq, buning ustiga qorin och bo'lganidan, do'stlarimiz sustkashlik bilan ish qilardilar. Shu sababdan, o'sha kun yerni tozalay olmaymiz, deb xavfsirar edik. Hogoh mening qalbim oshiyonidan (himmat) kabutari parvoz qildi va ruhim osmonida himmat qushi qanot qoqa boshladi. Bayt:

*Himmat omad hamchu to'rg'i tezpar,*

*Har zamon dar sayri xud teztar.*

(Mazmuni: Himmat xuddi tezuchar qush (lochin) kabidir, u har bir hamda uchishini (sayru sulukni) tezlashtiradi).

Men o'zimcha o'yladim: Bu joy bor-yo'g'i bir tanobdan (25 sotix) ko'p emas. Nahotki, biz shu joyni yovvoyi o'tlardan tozalay olmasak. Axir, ko'ngil olamining kengligi haqida Xudovandi taolo hadisi qudsiyda xabar bergandir: “Men yeru osmonlarga, arshu<sup>71</sup> kursiy va lavhu qalamga sig'mayman, lekin mo'min bandaning qalbiga sig'aman”. Chunonchi aytadilar, masnaviy:

*Guft payg'ambarki, Haq farmudaast:*

*Man nagunjam hech dar bolovu past.*

*Dar zaminu osmonu arsh niz,*

*Man nagunjam tu yaqiyn don, ey aziz.*

*Bar dili mo'min bigunjam, ey ajab,*

*Gar maro jo'yi tu dar dilho talab.*

(Mazmuni: Payg'ambar aytdiki, Haq buyurmishdir: Men balandga ham, pastga ham, yeru osmonga ham arshga ham sig'mayman. Ey inson, shuni yaxshi bilginki, men mo'min bandaning ko'ngliga sig'a olaman, agar meni istasang ko'ngillardan istagil!)

Shunday andisha qildimki, iymonni qabul qiluvchi, Yazdon visolining manziliga aylanishi uchun shunday keng maqomni va yuksak jilvagoh qalbni nafsu havoning xasu xashaklaridan, kudurat (g'illu g'ash)laridan, ujbu riyolaridan poklashimiz kerak. Bayt:

---

<sup>71</sup> **Arsh** — (ayvon, osmon, taxt) Ayrim manbalarda ta'kidlanishicha, Arsh to'qqizinchi ko'kdadir. Arsh butun olamlarni bag'riga olgan munavvar bir borliq — kulli makon. Arsh so'fiylar tasavvurida borliq va vujud. Arsh «nafsi kull» ham deyiladi. Arsh koinotning muazzam ruhi bo'lib, tajalliy manbai, ya'ni ilohiy qudrat namunasi. Navoiy yozadi:

*So'fiyi olami qudsiy senu ashob rusul,*

*Arshi a'lo kelib ul xayl uchun xonaqahing.*

(«G'aroyib us-sig'ar», 339, 4)

«Arshi muallo», «Arshi Rahmon», «Arshi ilohiy», «Arshi Yazdon», «Falaki a'zam» - bular Arshga qo'yilgan nomlar. Qalb o'zining sir-sinoati, azamati va fayz mazhari bo'lgani uchun Arshga, Ka'baga qiyoslanadi.

*To naro 'bem zi xoshoki havo xonai dil,*

*Jilvagohi dili mo olami iymon nashavad.*

(Mazmuni: Toki ko'ngil uyidan hoyu havas xashaklarini supurmaganimizcha, qalbimiz jilvagohi iymon olamiga aylanmaydi).

Aytdilar: Nochor o'sha lahzada etagimni yig'ishtirib, oyoq yalang, ochiq qo'l va siniq qalb bilan xas-xashaklarni tozalashga tushdim. Mening harakatimni ko'rib, do'stlarim ham jiddu jahd bilan ishga kirishishdi va tezda yerni o't-o'lanlardan tozaladik.

Bayt:

*Har kiro yak zarra himmat dod dast,*

*Kard o' xurshidro z-on zarra past.*

(Mazmuni: Kimgaki, bir zarra himmat berilgan bo'lsa, u shu himmati bilan quyoshni past qiladi).

Aytdilar: Bu yerni o'tdan tozalash bilan, ko'ngillarni poklashdan ham umidvor bo'ldik va kechayu kunduz bu maqsad yo'lida ishga kirishdik, o'zligimizdanu sustligimizdan, tanballikdan, tanparvarligimizdan bezor bo'ldik. Aytardilar, g'azal:

*O'zgan mutlaq to'ngulub, anga bergin sen ko'ngil,*

*Tangrini vaslin tilasang xoli qilg'il sen ko'ngil.*

*Kechavu kunduz aning yodi bilan bo'lmoq kerak,*

*Ul madad qilsa bo'lur xoli "sivalloh" din ko'ngil.*

*Mosivoning zulmatidin xoli qulg'on ko'ngilni,*

*To'layur ushbu vujudda zikr nuridin ko'ngil.*

*Barcha maqsuddin o'tub, maqsud qilg'il vaslini,*

*Maqsadi asling topilmas, xoli qilmoyin ko'ngil.*

*Ey Xudoydod, o'zinga mutloq bo'lding muftalo,*

*Kechavu kunduz netong qolsun tilagondin ko'ngil.*

Aytar edilar, Hazrati Azizon rahmatullohi alayh zamona ofatlariyu bid'at ahlining qarshiliklari sababidan, Buxoro shahridan Xurosonga safar ixtiyor qildilar<sup>72</sup>. Bu faqirga butunlay ijozat va ixtiyor berib: “Sen shu viloyatda bo'lgin, sening safar qilishingga hojat yo'q”, dedilar. Lekin bir necha kundan so'ng, menda safarga chiqish istagi uyg'ondi va bola-chaqayu ahli ayolim bilan birga safar qildik va borib Hazrati Azizonning xizmatida bo'ldik. Bir necha kundan so'ng esa Hazrati Azizon bizga ijozat berdilar va bizlar o'z viloyatimizga qaytdik. Faqirligu qashshoqlik, tashvishu mashaqqatlarga hamda yo'lning qiyinchiliklariga sabr va shukr etib davom etardik. Qarshi viloyatiga yetib kelganimizda, ayolim va bolalarimning juda och qolganidan, men o'sha joy qozisining oldiga bordim va o'zimning musofirligimni bildirdim. U qozi menga ozroq narsa berdi va men u yerdan qaytdim. Lekin qilgan ishimdan juda pushaymon bo'lib, afsuslandim.

Aytar edilar, Mana ellik yil bo'libdiki, bu voqea esimga tushishi bilan, uyatdan yer yorilsayu yerga kirib ketsam, deyman. Zero, Xudodan boshqaga o'z hojatimni so'rab borib, obro'yimni to'kdim. Bayt:

*Hofiz obi ro'xi xud bar dari har sifla marez,*

*Hojat on behki, bari Qoziyi hojot barim.*

---

<sup>72</sup> Bu yerda gap ustoz Jamoliddin Shayx haqida bormoqda. “Tarixi Roqimiy”da keltirilishicha, uning Buxorodan Xuroson (Hirot)ga ketib qolishiga Shayboniyxonning noto'g'ri harakati sabab bo'lgan ekan.

(Mazmuni: Ey Hofiz, har bir pastkash oldida ko'z yoshi to'kavermasdan, hojatingni Qoziyul-hojot (hojatlarni chiqaruvchi) Allohdan so'raganing yaxshiroqdir).

**Saj':** Zeroki, Xudovand taolo o'z lutfi bilan bizni yo'qdan bor qildi va qanchadan-qancha inoyatlar berdi. Biz bevafoqlikdan, undan boshqaga yuzlandik va o'z hojatimizni undan boshqasidan so'radik. Holbuki, U borliqning bir zarrasini ham bizga qo'ymasdan, azaldan to abadgacha vujud mulkida paydo qildi. Muhabbat va do'stlikdan ko'ksimizni konlarga aylantirdi. O'zining mehru muhabbati bilan oshiqlar qalbini nishon qildi va oshiq qalbi har zamon pora bo'lishga loyiqdir. Chunki, qalb shubhasiz ovora va pora bo'lish uchun yaratilgandir. Vujudi Mutlaq jamoli mushohadasi uchun oshiqqa o'z vujudini tark qilishni odat etdi. O'zining mehri va haqiqatlar sirlarining xayolotlarini muhabbat ahlining qalbiga yashirdi. Oshiqlar bu ma'noni oshkor qilish uchun, o'z vujudlari shahrini vayron qilgandirlar. Haq o'z jamoli tajalliyotini oshiqlar qalbining tubida jilvalantirgandir. Chunonchi, inoyat ila aytadilar, g'azal:

*Ko'pvafo toptim sening lutfingdin, eyshohi jahon,*

*Bevafoqlik mendin o'ldi, avffarmo, jona jon.*

*Qo'ymading lutfu karamdin ey Karimi loyazol,*

*Zorrayi hastlikni menda pok qilding har zamon.*

*Lutf ilan qilding xazina ul azaldan to abad,*

*Mehringizni shod etib, mulki vujudda xush, amon.*

*Hukmi diljoriybulubtur, buko'ngulshahri bino,*

*Ham muvaddat, ham muhabbat, ham muruvvat kon-kon.*

*Lutfungiz qildi irodat, mehringiz qo'ydi vidod,  
Mehringiz sobitligidin bu ko'ngilda ham nishon.*

*Bu ko'ngil ovora bo'lsa ham taqi sadpora ul,  
Yuz hazoron martaba ham arzir ul xud begumon,*

*Nechakim boqsam sanga, ko'rmam seni, sen qaydasen,  
Vaslingiz aytur o'zungni qo'yu anga ko'r ayon.*

*Zoti poking ul saning qilmas taqozo g'ayri hubb,  
Toki ko'rgay ahli a'yon ham bu insonda ayon.*

*Nechakim jahd ayladim, istab seni topmoq uchun,  
Topmadim o'zum bilan o'zumni yetkursam nishon.*

*Ey xayoling tushgali mehring saning bu jonima,  
Quydi asrori haqoyiq ko'nglum ichra ham nihon.*

*Sensizin bir lahza bu tanda jon qilmas qaror,  
Loyiq uldur bu vujudda ham ko'rinsa ul chunon.  
Ey Xudoydod, jahd ayla, toki ko'rgaysan ani,  
Garchi ul munda ko'runmas ham bo'lubtur jona jon.*

Aytar edilar, Bir kuni (ustozimiz) Hazrat Azizon rahmatullohi alayh himmat va beqaydlik (dunyo tashvishlaridan uzilish) to'g'risida gapirar edilar. Hazrati Eshonning sharif suhbatlari va nafasleri ta'siridan, menda o'zgacha kayfiyat hosil bo'ldi va shunday dedim: "Dunyo tashvishlariga bog'lanmasdan yashash, unga bog'langandan ko'ra yaxshiroqdir". Ya'ni, shariatning zohiriy ahkomlarini omonat bilib, tirikchilik tashvishlarini qilib va xalq haqini ado qilgan holda, qalban mosivoga (Allohdan o'zga narsalarga) bog'lanib qolmasdan, nafsu havoga berilib ketmasdan, din va dunyo ishlarini bir-biriga bog'lab olib borgan kimsa maqbul va mo'tabardir. **Saj'**: Agar, oshiq faqat dinu iymonning zohiriy amallariga bog'lanib qolmasa va tanu joni bilan vidolashmasa, mahjub bilan hamdamu hamroz bo'lishi mumkin emas. Chunonchi, inoyat bilan aytarlar, nazm:

*Ey xayolat, dini movu, vasli tu iymoni mo,*

*Lazzati har du jahonro yoftan ehsoni mo.*

*Ey xayolat, vosil omad, dur shud hijroni mo,*

*Buyi tu bar mo rasidu dur shud afsonaho.*

*Ey xayolat, so'xt morovu ham digar toqat namond,*

*Lazzati dardat maro az chunin darmon rahond.*

(Mazmuni: Ey, xayoling — dinimiz, vasling — iymonimiz! Har ikki jahon lazzatini topish — ehsonimiz! Ey, xayoling kirib kelganida hijronlarimiz yiroqlashdi! Sening hiding bizga yetdiyu afsonalar uzoqlashdi. Ey xayoling, bizlarni kuydirdi-yu, boshqa toqat ham qolmadi! Darding lazzati bizlarni shu kabi darmonlardan qutqardi.)

Aytar edilar, Bu ma'noning (Haq asrorini) kashf qilishlik baland himmatlilik va ixlosning kuchliligiga bog'liqdir. Zero, Hazrati Mavlono Rumiy quddisa sirruhu aytganlaridek:

*Jam'i surat bo'chunin ma'niyi jarf,*

*Nest mumkin jez zi sultoni shigarf.*

(Mazmuni: Bunday teran ma'noli barcha suratlarni faqat ajib holatli ulug' sultongina sirriga erishadi).

*Dar chunin masti ri'oyoti adab,*

*Nest mumkin, v-ar buvad, boshad ajab.*

(Mazmuni: Bunday mastlik bilan adab saqlashlik mumkin emas, mumkin bo'lganida, taajjub bir ish bo'lar edi).

Aytar edilar, Hazrati Azizon rahmatullohi alayh bu viloyatdan Xurosonga safar qilganlaridan so'ng, Shayboniyxon bir necha bora meni huzuriga chaqirdi va men bilan birga bo'ling, dedi. Men esa uning suhbatidan qochar edim va uning ko'ziga kam ko'rinar edim. Zero, Payg'ambar alayhissalom marhamat qilganlaridek:

خير الناس أمير يزور الفقير شر الناس فقير يزور الأمير لغرض الدنيا

“Xoyrun nasi amirun yazurul faqiyro, sharrun nasi faqirun yazurul amiyro, lig'orazid dunya”. Ya'ni: “Odamlarning yaxshisi — faqirlarni ziyorat qiluvchi amirdir, odamlarning yomoni — dunyo manfaati uchun amirlarni ziyorat qiladigan faqirdir”. Bayt:

*Shohi dunyo fil-masal chun otash ast,*

*Dur bosh az vay k-az o' duriy xush ast.*

(Mazmuni: Dunyo shohi — xuddi olov kabidir. Undan uzoq bo'lginki, uzoq bo'lish yaxshidir (Podshohlar adolatli va adolatsizga ajratilgan. Yuqoridagi gap asosan johil va adolatsiz podshohlarga tegishli.)



Aytar edilar, “Ammo bir kuni Shayboniyxon huzuriga borishga zarurat tugʻilib qoldi. Chunki, Shayboniyxon biz bilan doʻstlashish maqsadida, uyimiz yaqiniga kelib tushgan edi. Men uning huzuriga bordim: Koʻzim uning chodirlari, askaru sipohlariga tushdi, ularning hashamatu martabasini koʻrdim. Bularning barchasi mening nazarimda bir somon choʻpichalik (xaschalik) koʻrindi. **Sajʼ:** Chunki, menga maʼrifatulloh maydoni fazosiga yoʻl bor edi, shu sabab, ikki olam nazarimda bir somon parchasidek koʻrinar edi. Chunonchi, marhamat qilganlaridek, bayt:

*Maʼrifat maydonida boʻlsam agar bir lahzae,*

*Ikki olam koʻzima chun zarrai maydon boʻlur.*

Bayt:

*Peshi sohibnazaron mulki Sulaymon bod ast,*

*Balki on ast Sulaymon, ki zi mulk ozod ast.*

(Mazmuni: Sohibnazarlar — Oriflar nazarida Sulaymon mulki shamol kabidir. Aslida—mulkdan ozod boʻlgan kishi Sulaymondir).

Aytar edilar, “Menga ushbu holat yuz berganida, banogoh uning<sup>73</sup> barcha saltanatiyu shavkati koʻzimga arzimas va past boʻlib koʻrindi. Oʻzimcha: “Menda kibr paydo boʻldimikan?”, deb oʻyladim. Lekin Alloh taolo ushbu hadisni xotirimga keltirdi va meni shubhadan xalos etdi. Paygʻambar alayhissalom aytadilar:

التكبر مع التكبر صدقة والتواضع مع التواضع صدقة

“*At-takabburu maʼat takabburi sodaqotun, at-tavazuʼu maʼat tavazuʼi sodaqotun*”.

Yaʼni: Takabbur ahliga takabburlik qilish sadaqadir, tavozeʼ ahliga tavozeʼli boʻlish sadaqadir.<sup>74</sup>

<sup>73</sup> Shayboniyxonning (S.S.)

<sup>74</sup> Xalqimizda shunga mos “Egilganga egilgin, boshing yerga tekkuncha, kerilganga kerilgin, boshing koʻkka yetguncha” degan maqol ham bor.

Aytar edilar, Lekin xalq buning teskarisini qiladi. Alloh taolo esa o'z lutfu karami bilan meni xalqning odatlaridan saqladi. Masnaviy:

*Ey takabbur burda nazdi sarvaron,*

*V-ey tavozu' burda tu peshi Xon.*

*Ïn takabbur barxon xo'b astu just,*

*Hiyn makun ma'kus, aksash bandi to'st.*

(Mazmuni: Ey ulug'larga takabburlik qilib, xonlar oldida tavoze qilgan kishi. Bu takabburlik xonga nisbatan yaxshidir, aksini qila ko'rma (ya'ni ulug'larga takabburlik qilma), unda sen bandi bo'lasan.)

Aytar edilar, Karmana viloyatida bo'lgan paytimda, shunday tush ko'rdim: Qo'limga bir qog'oz xat berdilar, unda mening nomimga qutb bo'lishlik bitilgan edi. Men bu tushimni ayrim do'stlaringa aytib bergan edim, ba'zi muxoliflarim ham bu gapni eshitishibdi va menga nisbatan ta'nayu malomat tillarini ishga soldilar. Bu tushning bo'lmag'ur ekanini va haqiqatdan qutb bo'lishligimni inkor qilishar va nizoga borishardi. Men ularning majlisida jim o'tirardim. Chunki, aqllari Mavlono Rumiyl aytganchalik edi. Masnaviy:

*Xar ki, mezi xar bebuyad dar tariyq,*

*Mashhun arza kunam bo in fariq.*

*Harki, bo'yash nest, be biniy buvad,*

*Bo'y on buyist, k-on diniy buvad.*

(Mazmuni: Kimki yo'lda eshak siydigini hidlagan bo'lsa, bu farqli, tushunarli so'zlar bilan (ma'noni) arz qilaman: kimniki, hidi bo'lmasa, uning burni yo'qdur. Hid o'sha hidkim, din hididir...)

Lekin do'stlar va hamdamlar majlisida shunday dedim: Agar Xudoydod qutblik martabasiga bosh egsa va u bilan qanoat qilsa, u Namruddan ham, Shaddoddan ham tubanroq ekan. Nazm:

*Harki, darhardujahonberunimo,*

*Sar furud orad ba juz'i dinu mo.*

*Mo zavol orem bar vay harchi hast,*

*Z-onki, natvon zad bag'ayri do'st dast.*

(Mazmuni: Kimki, ikki jahonda bizdan tashqarida bo'lsa, bizning yo'g'imizda bosh egib kelsin. Biz yo'q bo'lib ketsak, barcha narsa unga bo'lsin. Chunki do'stsiz hech narsaga qo'l urib bo'lmaydi.)

Aytar edilar, qutblikka bog'lanib qolishlik va qutblikni orzu qilishlik ham manmanlikdir<sup>75</sup> va lekin bizga o'zlikni inkor qilish, menlikdan yiroq bo'lish farz va lozimdir. Masnaviy:

*Ey xayolat mulki dil, dar fano gashta mudom,*

*Xoli gashta az xudi, dar mulki vahdat tamom.*

---

<sup>75</sup> Har bir inson duo qilib Allohdan hojatlarini tilashi, Allohdan ulug' martabalarni so'rashi, Allohning valiylaridan bo'lishini orzu qilishi mumkin. Lekin insonlar ko'ziga ulug' ko'rinish, riyo va manmanlik uchun yuqori mansabu martabalar so'rashi joiz emas. Navoiy hazratlari yozadi: "Kimki ilmni vositai joh etar, o'ziniyu xalqni gumroh etar" (S.S).

*Ey xayolat, vah burda zi dil, mutqin shuda,  
Xosu omamro biburda dar dilam ayqan shuda.*

*Ey xayolat sho'r orad dar dilam savdoi ishq,  
Dambadam devona gardonad maro g'avg'oi ishq.*

(Mazmuni: Ey xayoling dil mulkida doim fanoga aylanadi. O'zlikdan qutulib, butunlay vahdat mulkidadir.

Ey xayoling, ko'ngilni olib, ustuvor bo'lgan, xosu omlarimni ketkizib, qalbimdan mustahkam joy olgan.

Ey xayoling, ishq savdosi bois ko'nglimga g'avg'o solgan, ishq savdosi meni dambadam devona qiladi).

Aytar edilar, "Men shunday paytlarda do'stlarimga ta'lim beramanki: Xudovandi taolo bizni o'zining lutfu karami hamda ushbu وَلَقَدْ كَرَّمْنَا بَنِي آدَمَ **“Darhaqiqat, (Biz) Odam farzandlarini (aziz va) mukarram qildik”** (*Isro*, 70) oyati bilan e'zozlab, mukarram qildi. Chunonchi, aytadilar, bayt:

*Odamini, qoyil etdi, qildi xush orif sifat,*


*Husnini yaxshi tanib, qildi oshiq o'ziga.*

Ko'ngildagi aftodalik, siniqlik, kamtarlik sababidan, hoyu havas, hirsu orzu kabi tuban illatlarni oradan ko'tarib qo'ydi, shuningdek, dil olamining keng sahrosida iqomat qilish qobiliyatini va sir vodiysining bepoyon dengizida suzishlikni وَمَلَأْنَاهُمْ فِي الْبَرِّ وَالْبَحْرِ كَثِيرًا **“va ularni quruqlik va dengizga (ot-ulov va kemalarga) mindirib qo'ydik”** (*Isro*, 70) oyati ishorasi bilan inoyat qildi. Bayt:

*Chehraat to did oshiqhar dam o' hayrontar ast,*

*Bo visolat ham zi sirrash mahrami asror shud.*


(Mazmuni: Oshiqchehrangni ko'rishi bilan har lahza hayrati oshadi. Visoling bilan, uning siri bilan sirlarga oshno bo'ldi.)

Bizning ruh qushlarimizni o'zining visol xirmoni donlaridan terib yeydigan qildi va  **“hamda ularga pok narsalardan rizq berdik”** (*Isro*, 70) oyati bashorati bilan, mosivo kirlaridan pokiza bo'lish salohiyatini berdi. Chunonchi, aytadilar, bayt:

*Mosivalloh, ey ajab, tardoman ast dar mulki dil,*

*Xushk gardon az karam, k—andar dilam ag'yor sho'd.*

(Mazmuni: Mosivalloh—Allohdan o'zga narsalardan vozkechish ko'ngil mulkida poklik va soflik keltiradi. Karaming bilan ko'nglimda paydo bo'lgan begona narsalarni aritgil!)

 **“va ularni O'zimiz yaratgan ko'p jonzotlardan afzal qilib qo'ydik”** (*Isro*, 70) oyati fazilati bilan, bizni ko'pgina koinot va maxluqotdan afzal va tanlangan bandalaridan qildi. Bayt:

*Sevmagingdan yor qilding nisbat aylab o'zunga,*

*Men taqi sevsam sani, ahdu vafo qilsam bo'lur.*

Aytar edilar, “Bas, nima bo'ldiki, bizga pastligu mastlik, himmatsizlik va xudbinu tanparastlik ro'para bo'lib, uni tark etmaymiz va asl maqsadimiz bo'lgan Uning diydorini istamaymiz va undan boshqasiga muhtalo bo'lib, bog'lanib qolganmiz. Vaholanki, asl maqsadimiz uchun olamdagi barcha narsani maxfiy va mahv etish bizga sazovorroqdir.

**Saj':** Zeroki, vafo qilish dildorning odatidir, jazba (o'ziga tortish) uning tarafidan sodir bo'ladiki, (shu sabab) oshiq hamisha unga oshuftayu zordir, qalb uning asiri, jigar kabob, fikrlar parishon, uning lutfu inoyatidin oshiq dili dushmanlardan xoli sofdir. Oshiq hamisha uning dardiga giriftor bo'lishdan boshqa chorasi yo'qdir. Chunonchi, shu ma'noda marhamat qilurlar. G'azal:

*Nechakim tortsam jaf o'z arzi o'shal yor ilgidin,*

*Ko'p vafo ko'rdim taqi hamvora dildor ilgidin.*

*Ishqida ne oshiq o'ldum, ham o'zi tortar mani,*

*Ko'rdimu oshufta bo'ldim, ishqida zor ilgidin.*

*Ko'nglumi qildi asiru ham bu bag'rimni kabob,*

*Ko'nglumi sadpora (qildi)<sup>76</sup>, jonni afgor ilgidin.*

*Lutfidin qildi inoyat, bu ko'ngillarga ajab,*

*Qildi bu miskin ko'ngilni xoli ag'yor ilgidin.*

*Ey Xudoydod, ne tilarsen, bo'laning dapdi bilan,*

*Ne tilasang, ul bo'lur, chunki taqi yor ilgidin.*

Aytar edilar, “Birov aslida himmat egasi bo'lsa ham, lekin u himmatni o'z o'rnida ishlata olmasligi, amalda qo'llamasligi va zohir qilmasligi mumkin. Noiloj, bunday odam ushbu ma'nodan benasib bo'ladi, lekin Xudoyi taolo kimga xizmatda tavfiq bersa, xizmat qilishni nasib etsa, bu unda himmatning to'la zohir bo'lishidir. Payg'ambar alayhissalom:

**تفكير ساعة خير من عبادة الثقلين** “*Tafakkuru sa'atin xoyrum min 'ibadatis saqolayn*”, ya'ni “Bir soatlik tafakkur barcha insonlar va jinlarning ibodatidan

<sup>76</sup> Qo'lyozmada “qildi” so'zi yo'q. Shartli ravishda shunday o'qidik (S.S.).

yaxshidir”, deganlar. Mening fikrimcha, bir soat avliyullohlar xizmatida bo’lish ellik ming yil tafakkur va zikr qilishdan yaxshiroqdir. Bu ojiz banda xayoliga shul sababdan bu fikr keldiki, kishi vusul maqomiga yetmayotgan va o’z menligidan uzoqlasha olmayotgan bo’lsa, azaliy Mahbub bilan hamdam va hamnafas bo’lolmaydi. Biroq u avliyolar huzurida ular bilan hamsuhbat bo’lsa, buning natijasida, haqiqatan, Xudoyi taolaga yaqinlashishga va hamsuhbatlikka musharraf bo’ladi<sup>77</sup>.  
Nazm:

*Harki xohad hamnishini bo Xudo,*

*K-o’ nishinad dar huzuri avliyo.*

*Yak zamona suhbatlari Xudo,*

*Behtar ast az sad sola toat beriyo*

(Mazmuni: Kimki Xudo bilan hamsuhbat bo’lishni xohlasa, avliyolar huzuriga borib o’tirsin. Zero, Xudo do’stlarining bir muddatlik suhbatlari yuz yillik riyosiz toat-ibodatdan afzaldir.)

**Saj’:** Zero, oshiq uchun Mahbub ostonasi (tuproq’i) har qanday ipagu shohi (mato)dan yaxshiroq, kecha-kunduz oshiq ma’shuqasi eshigi halqasini qoqmog’i avloroq. Oshiq diliga hamisha Mahbub vafoli dildordir. Bu esa benavo oshiqning himmati va xizmati natijasidir. Chunonchi, buyururlar, bayt:

*Oh oning ostonasini yostonib yotqil ko’ngil,*

*Toki ko’rgaysen oni ham o’ziga dildor etib.*

Aytar edilar, “Kishi Haq taolo bilan, iloji boricha, hamnafas va hamnishin bo’lmog’i kerak. Agar bu davlat unga muyassar bo’lmagan bo’lsa va (riyozatlari) o’z samarasini bermasa, shu davlatga muyassar bo’lgan kishiga ulfat va hamnishin bo’lmog’i lozim. Chunki Haq unday kishining qalbiga muhabbat solgan, unday

<sup>77</sup> Tasavvufiy manbalarda shunday bayt uchraydi: “Avliyo Xudo nestand, Az Xudo judo nestand”. — “Avliyolar Xudo ermas, Xudodan judo ermas”.

oshiqning hijron dastidan nolayu afg'oni bor, (ma'shuq) darmonsiz dardiga muhtalo qilgan, ya'ni uning ko'ngliga o'z muhabbatini solgan. Chunonchi, aytadilar, bayt:

*Hayratam az had guzashtu, hasratam bisyor shud,*

*Dardi bedarmon rasidu hajr be hinjor shud.*

(Mazmuni: Hayratim haddan oshdi, hasratim to'lib toshdi, menga bedavo dard etdi va hajr oshkoro hujum qila boshladi.)

*Chehrat to didi oshiq har dami u hayrontar ast,*

*Bo visolat ham zi sirrash mahrami asror shud.*

(Mazmuni: Oshiq yuzingni ko'rgach, har lahza hayrati oshadi va sening visoling hamda sirringdan ogoh bo'lish uchun yaqinlashaveradi.)

*Vah xayolat, aqlu husham burdu, hayronam bimond,*

*So'xt jonro otashi shavqi tuvdu g'ameyor shud.*

(Mazmuni: E voh, xayoling aqlu hushimni o'g'irladi-yu, hayratga solib qo'ydi, ishqing otashi jonimni kuydirdi-yu, yor g'ami qoldi.)

*Chand so'zi in dilam dar otashi g'am nopadid,*

*Did ro'yat in dilu bas xiravu afgor shud.*

(Mazmuni: Qachongacha bu dilimni otashing o'tida pinhon kuydirasan, bu ko'nglim yuzingni ko'rgan-u, xira va afgor bo'lib qolgan.)

*Ey, zi savdoi g'ami ishqat dilam bechora mond,*

*Sho'rishe omad zi ishqat, kori dil dushvor shud.*

(Mazmuni: Ey ishqing g'ami savdosida ko'nglim chorasiz bo'lib qolgan, ishqingdan ofatlar yetdi va ko'ngil ishi qiyinlashib qoldi.)




*Ey Xudoydod, sharikand vaslu ishqash dar bashar,*

*Mazhari husnash shud in dil muzhiri izhor shud.*

(Mazmuni: Ey Xudoydod, bashariyat vaslu ishqiga sherikdir. Bu qalb husniga mazhar bo'ldi-da, sirlarni izhor qiluvchiga aylandi.

## SAKKIZINCHI BOB: G'AYRAT HAQIDA

Alloh taboraka va taolo Sulaymon alayhissalomdan rivoyat qilgan holda, marhamat qiladi:



“U(ot)larni menga qaytaringlar-chi!» **Bas, u** (qilich bilan otlarning) **oyoq va bo'yinlarini “silash”ga kirishdi**(so'yib qurbonlik qildi)” (Sod, 33).

Qachonki, Sulaymon alayhissalom uchqur otlarni ko'rgach, otlarga mahlii bo'lib, asr namozi vaqtini o'tkazib yubordi. Shunda, Sulaymon alayhissalom buyurib dedi: Ularning barchasini mening oldimga keltiring, qaytaring dedi. Shundan so'ng, ibodat vazifasi va Mahbub xizmati yo'lida g'ayrati toshib, otlarning bo'yin va sonlarini kesib tashladi.

الغیرت سقوط الاحتمال ظنا والضيق عن الصبر نفاسة “Al-g'oyrotu suqutul ehtimali zonnan, vaz-ziyqu 'anis sobri nafasatan”. Ya'ni, “G'ayrat egasining Mahbub nasibasini qizg'anishi jihatidan, sabrning o'rtadan ko'tarilishi va Matlub nafosati jihatidan, qalbning sabrsizlik bilan tang holatga kelishidir”. Ya'ni, g'ayrat sohibining qalbi Mahbub va matlubdan o'zgasiga iltifot qilmasligi bois, uning Mahbub nasibalaridan ozroq qismini ham (qizg'angani uchun) quvvat yuzasidan ham toqat yuzasidan sabr qila olmasligidir. Ammo hazrat Azizon quddisa sirruhu bu borada inoyat birla aytadilar. Bayt:

*Bihishti Adnki, Odam ba gandume bifuruxt,*

*Agar visoli tu nabvad ba nim jav naxaram.*

(Mazmuni: Agar visoling bo'lmaganda Odam bitta bug'doyga sotgan Adn jannatini yarimta arpaga ham sotib olmasdim.)

“Men bemisl Mahbubning bezavol jamoli va husuli visol (visol nasibasi) jannatda bo'lmasa edi, yarim arpaga sotib olmas edim, deb bahosini qimmat aytibdilar, deyman”. Chunonchi, inoyat bilan aytarlar, bayt:

*Sensizin jannatni qilsam xushlug'i ham mehnat ul,  
Sen bilan do'zax ichinda ham taqi kuysam bo'lur.*

Aytar edilar, men zamonaning ko'pchilik xalqini dunyotalab ko'rdim va boshqalarini oxiratning savobu samaralari uchun, huru g'ilmon, xuldu rizvon talabida ranju mashaqqatda ko'rar ekanman, g'ayrat olamining jazbalari menga ustun keldi va menga beixtiyor qiyinchiliklar keltirdi. Men shunday dedimki: “Agar nasib qilib, menga shunday buyuk kuch-quvvat berishsa edi, borib jannatga o't qo'yib kuydirardim va xalqning bihishtni orzu qilgan ko'zlarini noumid qilardim, toki odamlar huru g'ilmonlar, ravzai rizvonlarni orzu qilishdan xalos bo'lsinlar va oliy zot Haq tomonga shoshsinlar”.

**Saj'**: Zeroki, bandaning ko'ngli Mahbub xayoli bilan hayron, shavq o'tiga qovurilgan, hijron g'amida kuygan va erigan bo'lishi, azaliy Mahbub xayolida unga jononu hamdam va “Laylut ul-isro” hikoyati unga doston bo'lishi kerak. Chunonchi buyurdilar, g'azal:

*Ey xayoling tushgali har dam ko'ngil hayron bo'lur,*

*Notavon miskin ko'ngil shavq o'tida biryon bo'lur.*

*Bu jigar ishq o'tida kuydiyu yondi har zamon,*

*Doimo hijron g'amida, dam-badam ham qon bo'lur.*

*Davlati vasling xayoliga tushub miskin ko'ngil,*

*Dog'i hijron o'tida mushkullari oson bo'lur.*

*Jonima yuz jon kirur ishqing fanosida ajab,  
Oh, sening darding taqi bu dardima darmon bo'lur.*

*Maskanu ma'vo qilibmen dardi hijron ko'yida  
Jannat ul Ma'vodin ortuq ham taqi rizvon bo'lur.*

*Bu tamanno tushgali ko'nglunga ul vaqti "Alast",  
Va'da qiling manga bu jonima ham jon bo'lur.*

*Ey, xayoli gul'uzoring qildi ko'ngrimni asir,  
"Laylat ul isro" hikoyoti anga doston bo'lur.*

*Ey Xudoydod, nechakim sevsang, ani ham yo'li bor,  
Ishqida dardi bila bu dardima darmon bo'lur.*

Aytar edilar, lekin Xudovand taolo ilk vaqtlardan oq, o'zining jalolij sifatleri bilan menga tajallij qildi va bir necha kunlar mening ko'ngrimda og'irchilik paydo bo'ldi va o'sha og'irchilik paytleri aytganlarimdan tavba qildim va uzr tiladim. Masnavij:

*Gar kase gustohi in dargah shavad,  
Uzr xohad, boh chun ogah shavad.*


*Xush buvadgustohii devonagon,*

*Xeysh meso'zanad chun parvonagon.*

(Mazmuni: Agar biror kimsa, ushbu dargohga nisbatan behurmatlik qilgan bo'lsa, uzr so'rasin va yana ogoh bo'lsin. Devonalarning gustohlilari esa maqbuldir. Ular parvonalarga o'xshab, o'zlarini kuydirib yuboradilar.)

U kishilar (devonalar) yaxshi nimayu yomon nima bilmaydilar.

Aytar edilar, Xudovandi azza va jalla o'zining Kalomi majidida marhamat qiladi:



**“Agar Alloh bandalarining rizqlarini keng-mo'l qilib yuborsa, albatta, ular yer yuzida tajovuzkorlikka o'tib ketgan bo'lur edilar. Lekin, U O'zi xohlaganicha o'lchov bilan (rizq) tushirur. Albatta, U bandalaridan xabardor va ko'rib turuvchidir (Sho'ro, 27).**

Ya'ni, agar Xudoyi taolo bandalariga rizqni ko'paytirib bersa, ular yerda zulm qilishadi. Lekin Alloh taolo rizqni o'zi xohlagan miqdorida tushiradi. Chunki, Alloh taolo bandalar holidan yaxshi xabardor va ularning har qanday holatlarini ko'ruvchidir. Shuning uchun ham ba'zilarga rizqni kam berishida va ba'ziga ko'p berishida hikmat bor. Shunday hikmat bo'lsa ham, agar biror kishi bir kambagalga yordam qilsa va unga nimanidir hadya qilsa, Allohning hikmatini buzgan hisoblanmaydi, chunki, bu bag'ishlash ham, Xudoning shu bandaga bergan sifatlaridan biridir va Allohning “faqirlarga ehson qilinglar”, degan amrida hikmat borligidir.


Aytar edilar, “Allohning jannatni yaratishida hikmat bor va men “agar imkonim bo'lsa, behishtni yoqib yuborardim”, deb aytgan bo'lsam-da, Xudoning hikmatini buzishga qudratim yetmaydi; g'ayratim jo'sh urganidan bu gapni aytganman va g'ayrat ham Xudovandning bandasiga bergan bir sifatidir. Insonning Allohdan boshqasiga bog'lanib qolishi, ahli g'ayrat nazdida, kufr va zalolat, noto'g'ri va

bid'atdir. Toki, sen bu egriliklarni tark qilmasang, rostlik maydoni uzra javlon qilolmaysan. Bayt:

*Sandin o'zga barchani qo'ydim taqi, sevdim sani,*

*Yolg'onimdin qochmayin, hargiz tuzalmas rostim.*

Naql: Umidvor kishilardan ba'zisi bizning Azizon hazratimiz oldilariga g'ayrat va shijoat bilan kelib, izhori tama' qilar va dunyolikdan bir narsalar so'rardilar. Hazrati Eshon ularga qattiq-qattiq gapirar, g'ayrat bilan sovuq gaplar gapirib, ularni qaytarar va aytardilar: Meni bu lavozimga dunyoviy hojatlarni chiqarish uchun, riyokorlik qilish uchun qo'yishmagan. Balki,



“(Ey Muhammad,) **haqiqatan, Biz Sizni** (qiyomat kuni ummatlarga) **guvohlik beruvchi,** (mo'minlarga) **xushxabar yeltuvchi, va** (kofirlarni) **ogohlantiruvchi qilib yuborgandirmiz**” (*Fath, 8*) oyati mazmuniga ko'ra, meni ham irshod va irsol maqomi uchun, visol xushxabarini yetkazish, mosivoga bog'lanishdan qo'rqitish, molu dunyo, martaba sevgisidan qaytarish uchun qo'yishgan. Odam alayhissalomning yaratilishi ham, hazrati Payg'ambar alayhissalomning yuborilishi ham shu maqsadda edi. Chunonchi, aytdilar:

*Bidoyatdin hidoyat topdi inson,*

*Xudoning fazlidin bandaga ne son.*

*Muhammadni biza qildi payambar,*

*Aning shar'in biza xush qildi oson.*

*Aning dinin biza qildi saodat,*

*Aning shar'i biza xush bo'ldi burhon.*

*Anga tobe' bo'lan davlat topildi,*

*Bashorat birla muxbir bo'ldi Subhon.*

Aytar edilar, Men bu so'zlaringiz uchun yoqa yirtsam, sizlarni xafa qilsam arziydi. Sizlar, Xudodan uyalmay, dunyoviy hojatlaringizni mendan so'raysizlar? Nega men bilgan ma'nolarni mendan so'ramaysizlar?

**Saj':** Vaholanki, mening ko'nglim doimo Mahbub qo'lida asir va siynamning tubi dildorning nazargohidir. Mening qalbim hijronda yonish bilan, uning vasli himoyatidan umidvor. Va ishq mastligi yo'lida muhabbat sharobi va sharbati Yor qo'lidan dam-badam yetib turadi. Mahbub jamolining tajalliysi dahshatidan dilim shubha, gumonlardan xoli, o'zimdagi o'zlik ham ko'zimga be'etibor va begonadir. Dunyo va uning jinsidagi barcha narsa mening nazarimda murdordir. G'azal:

*Bu ko'ngil ishqida bo'ldi, bas, giriftor ilgidin,  
Chorasi qolmay, bitibtur chorayi kor ilgidin.*

*Har zamone ahli dillar ko'nglini zor aylabon,  
Xoli qilmas har zamone ko'nglini zor ilgidin.*

*Lutfidin qildi nazar, bu ahli dillar ko'ngliga,  
Ahli dillar yuzmadi<sup>78</sup> ko'nglini dildor ilgidin.*

*Ey ko'ngil, ichting esa ishqin sharobin dam-badam,  
Bo'lg'usidur sharbati vasli aning<sup>79</sup> yor ilgidin.*

*Hajrining o'tida kuydum, baski, qildim men tama',  
Vaslini jomi bo'lubon anga dilxor ilgidin.*

*Chehrasi qildi tajalliy har taraf sir mulkida,  
Qildi xoli bu ko'ngulni shubhai inkor ilgidin.*


---

<sup>78</sup> Yuzmadi — uzmati.

<sup>79</sup> Qo'lyozmada bu ibora keltirilmagan. Uni boshqa nusxa orqali tikladik.

*Sen qachon loyiq bo'lursen, ey Xudoydod, vasliga,  
Toki uzmassen o'zungni jumla ag'yor ilgidin.*

Naql: Ba'zi o'rinlarda, do'stlardan ayrimlariga nafs xohishlaridan bo'lgan yemoq, ichmoq, kiyim-kechakka bo'lgan istaklari g'olib kelar edi. Bizning hazrati Azizon quddisa sirruhu barcha do'stlarni havoi nafas va orzu-havas qilishdan qaytarar edilar, gohida baqirib, urishib berardilar, malomatlar qilardilar, ba'zan tosh, kesak, qamchilar bilan urardilar va izga solardilar. Aytar edilar, Muso alayhissalom muqaddas zaminda yurganlarida, bir bulut boshlariga soya solib yurardi. Xudovandi azza va jalla u kishining qavmlari uchun asal va bedana qovurdoq yuborardi. Va Xudovandi taolo Muso alayhissalom qavmining shumligidan, ya'ni ular sarimsoq, piyoz, no'xat, ko'kat va boshqa narsalarni orzu qilganlaridan, u qavmdan barcha ne'matlarini ko'tardi. Zero, ular bu qilmishlari bilan, o'z nafslariga zulm qilishdi. Chunonchi, Kalomi majidda marhamat qilinganidek:



**“Shuningdek, ustringizga bulutlarni soyabon qildik, samoviy noz-ne'matlar va (pishirilgan) bedanalar nozil etib, “Sizlarga rizq sifatida berilgan pok narsalarni englar” (dedik). Ular (İsroil avlodi) Bizga zulm qilmadilar, balki o'zlarigagina zulm qildilar” (Baqara, 75).**

Aytar edilar, Sizlar o'zingizga yeyish, ichish, kiyim-kechakni maqsad qilib olgansizlar. Qo'rqamanki, shu bois Alloh taolo bu ne'matlarni barcha xaloyiqqa harom qilmasaydi, ulardan foydalanish va foyda yetkazishdan hammamiz mahrum bo'lib qolmasak edi. Zeroki, ishq yo'liga qadam qo'yishlik oshiqlar ishi va ularning ravishi mehnat va baloni o'ziga olishdir, barcha mosivolardan kechish va nafsu havo orzularini daf' etishdir. Bayt:

*İshqing balosini sohib, aqlu hushimdan ayrilib,*

*Andin o'tub-andin o'tub, andin so'ngin sevmak kerak.*

Bizning Azizonimiz quddisu sirruhuning e'tiroz va afg'on qilishlari kamoli g'ayratdan bo'lib, qahru g'azabdan emas edi. Zeroki, shu e'tiroz va nolai afg'on paytida, yuzlarida g'azab ifodasi sezilmas, hazrati Subhon jamoli mushohadasi vositasida xursand va Yazdon jamolidan xurram bo'lib, go'yo e'tirozlar u kishidan sodir bo'lmagandek ochiq chehrada bo'lardilar. **Saj'**: Zeroki, oshiq hamisha Mahbub visoliga bog'langan, o'zidan kechgan, qo'li mushohada va shodlik etagida bo'lgan, g'amu mahrumligu hijrondan uzilgan. Bayt:

*Sen mening ko'nglimda bo'lsang, ishrati olam mango,*

*Bas, bu g'am nega kerak, tutqil o'zingni ustuvor.*

Hazrati Mavlono Rumiya amirul mo'minin Ali raziyallohu anhudan, naql tariqasida, inoyatqilganidek, masnaviy:

*Man tamom az qaydi hastiy rastaam,*

*Dasti xud bar domani Haqq bastaam.*


*Man namejunbamki, junbonanda ust,*

*Man namego'yamki, go'yonanda ust.*

(Mazmuni: Men tamoman borliq qaydlaridan qutulganman va qo'limni Haq etagiga urganman. Men harakat qilmayman. Harakat qiluvchi Udir. Men gapirmayman, gapirtirguvchi Udir.)

## TO'QQIZINCHI BOB: RIYOZAT HAQIDA

Alloh taolo "Mu'minun" surasida shunday marhamat qiladi:



“Vallaziyna yu'tuna ma atav va qulubuhum vajilatun, annahum ila Robbihim roji'un”. **“Shuningdek, sadaqalarini**



(qiyomatda) **Parvardigoriga qaytuvchi ekanlaridan, dillari qo'rqib turgan holda, beradigan kishilardir**" (*Mu'minun, 60*).

الرياضة تمرين نفس على قبول الصدق

“*Ar-riyozatu tamriynu nafsini ‘ala qobulis sidqi*”. Ya’ni: Riyozat — bu nafsga to’g’rilikni qabul qildirish mashqidir. Ko’p jiddu jahd qilishga nafsni odatlantirish va turli mashaqqatli amallar bilan nafsni poklash, ujb, riyo va nifoqlardan chetlanib, qalbni soflashdir. Qachonki nafs poklansa, ko’ngil soflansa, qabul, niyat, amal va barcha axloq va ahvollar o’z tabiatiga ko’ra, takallufsiz, karohiyatsiz to’g’ri bo’ladi.

Ammo hazrati Azizon quddisa sirruhu bu borada, o’z riyozatlari haqida shunday aytardilar: Ustozimiz hazratlarining xizmatlarida bo’lgan chog’imda, kunduzlari uxlashga va nafsni rohatlantirishga mayl qilmasdim va kechalari bir lahza ham pinakka ketmasdim va doimo vaqtimni nazorat qilardim va azaliy Mahbub xayoli va muhabbat savdosi dardi bilan, riyozatni ziyoda qilardim. Chunonchi, marhamat qiladilar, bayt:

*Ey xayolat, dar dilam sho’r ovarad,*

*Dar riyozat har zamon zo’r ovarad.*

(Mazmuni: Ey xayoling, ko’nglimga sho’ru g’avg’o uyg’otadi. Riyozatda har zamon yanada qiyinchilik, mushkullik tug’diradi.)

Aytar edilarki, uyqusizlik mashaqqati va bu qattiq mehnat menga qiyinchilik keltirardi. Badan zaifligiyu tana beholligidan malul bo’lardim. Aytardilar, bayt:

*Garchi hijron ilgidan bo’ldum mani bedil malul,*

*Sen vale Zoting bilan daf’i malolim qilasen.*

Aytar edilar, gohida kechalari uyqu menga g’alaba qilar edi, tinchimni buzish uchun to’rtta katta tosh keltirib, to’rt tomonimga qo’ygan edim, toki oyoq uzatishim va rohatlanishimga mone’ bo’lsin va g’aflat yo’lini to’ssin. Bayt:

*Sang boyad to padid oyad viqor,*

*Mardumi be sang kay oyad ba kor.*

(Mazmuni: Tog'dek og'ir bo'l, viqoring namoyon bo'lsin.


Toshsiz — viqorsiz odam hech bir ishga yaramaydi).


Aytar edilar, uyqusizlik va bedorlik ranjini tortganim uchun, bemisl jamol mushohadasiga botin ko'zini ochgan edim va undan boshqasini ko'radigan ko'zni yopgan edim. Mosivoni tark etib, nafsga jafo qilib, hoyu havasdan yuz o'girishga sa'y-harakat qilganimdan, zaifu notavon bo'lib qolgan edim. Bayt:

*Men seni ko'rmak uchun jahd aylasam ham dam-badam,*

*Nafsni tark aylabon harchand jafo qilsam bo'lur.*

Aytardilarki: Mosivoning g'am-g'ussasini qalbdan yiroqlashtirgan edim, nafsu

havo kuduratlarini  **“va nafsini havolanishdan qaytargan bo'lsa”** (Noziot, 40) oyati ishorasi bilan poklagan edim;

 **“Ularning yuzlarida sajda asoratidan (qolgan) belgilari bordir”** (Fath, 29) oyatiga ko'ra, menda ichki va tashqi safo (poklanish) hosil bo'ldi, bayt:

*Mosivoning qayg'usi ketmas ko'ngildin, ey ajab,*

*Mosivoning kudratin tashlab, safo bo'lsam bo'lur.*

Aytar edilar, badan zaifligi, tan ojizligi va yashirin kasallikning zo'rayishi sababidan yuzim za'farondek sarg'ayib ketgan edi. Bir kuni hazrati Azizon rahmatullohi alayh menga lutfu ehson qilib, inoyat nazari va shafqat bilan boqib, aytdilar: “Ey birodarlar, hammangiz mening Xudoydodimga qaranglarki, ajab oshiqona chehrasi bordir”. Va aytdilar: Hazrati Eshonning bu lutflaridan menga fayzu barakotlar hosil bo'ldi va menda jiddu jahd va riyozatga mayl yanada ortishiga sabab bo'ldi. Nazm:

*Tu ba tooti umri xud mebar basar,*

*To Sulaymon bar tu andozad nazar.*

*Chun tu maqbuli Sulaymon omadi,*

*Har chi go'yam beshtar z-on omadi.*

(Mazmuni: Sen butun umringni toat-ibodatga sarflagin, toki Sulaymon senga nazar solsin. Sen o'z ishlaring bilan Sulaymonga maqbul bo'lsang, sen haqingda qancha yaxshi gap aytsam bilginki, undan ziyodasiga ham loyiqsan.)

Bizning hazrati Azizonimiz quddisa sirruhuning badanlari doimo zaifu, ozg'in va so'lg'in bo'lib, muborak jasadlarida teri va suyaklaridan boshqa narsa yo'q edi. Bayt:

*Manam dar ishqi tu jismiyyu joniy,*

*Kashida po'ste bar ustixoniy.*

(Mazmuni: Men sening ishqingda jismu jonimni bag'ishladim, terilarim suyakka yopishib qoldi).

Zero, otashin ko'ksining haroratidan hamda hijron o'tining dardidan, nimaiki ovqat tanovul qilsalar, barchasi kuyib ketardi va hazm bo'lishga ham yetib ulgurmasdi. Shu sababli ham hazrati Eshon hojatga kam chiqardilar. Aytardilarki, bayt:

*Kuydimu yondim bu hijron o'tida yakboragiy,*

*Toqatim toq o'ldiyu ko'ngil ishi ovaragiy.*

Aytar edilar, Payg'ambar alayhissalom marhamat qilardilar: Agar hayvonlar odamlar kabi o'lishini hamda o'zlarining so'yilishlarini bilganlarida edi, hech bir hayvon semirmagan bo'lar va semiz molni so'yib yeyishdan siz ham mahrum bo'lardingiz.

Aytardilar: Shubhasiz odamlarning (haromdan) semirish alomati shuki, Alloh taolo marhamat qiladi:

﴿وَلَقَدْ ذَرَأْنَا لِجَهَنَّمَ كَثِيرًا مِّنَ الْجِنِّ وَالإِنسِ﴾

“Va laqod zaro 'na lijahannama kasirom minal jinni val ins”.

**“Jinlar va insonlarning ko'pchiligini jahannam uchun yaratganmiz”**  
(A'rof, 179).

Uning jon dimog'i visol jannati nasimining hidlaridan va hazrati Zuljalol jamoli gulistonidan benasibdir. Va bu oyat bildirganidek:

﴿هُم قُلُوبٌ لَا يَفْقَهُونَ بِهَا﴾

**“Ularda qalblar bor, (lekin) ular bilan angla- maydilar”**. Ularning ko'ngillari ishqu muhabbat lazzati va zavqini topishdan yiroq va g'aribdir. Va bu oyat ochiq bayon qilganidek:


﴿وَهُمْ أَعْيُنٌ لَا يُبْصِرُونَ بِهَا﴾

**“Ularda ko'zlar bor, (lekin) ular bilan ko'rmaydilar”**. Ularning botin ko'zlari g'aybiy jamol mushohadasidan ko'r va qahrga uchragandir.

Va bu oyatda aytilgani kabi:

﴿وَهُمْ آذَانٌ لَا يَسْمَعُونَ بِهَا﴾

**“Ularda quloqlar bor, (lekin) ular bilan eshitmaydilar”**.


Ularning qalb quloqlari haqiqiy ma'nolar olamidan keladigan  ovozni, ya'ni “(Ato etilgan ne'matlardan) **rozi bo'lgan** (va Alloh taolo tomonidan) **ham rozi bo'lingan holingda, Rabbing** (huzuri)ga **qaytgin!** (Fajr, 28) nidosini eshitishdan kar va yopilgandir.

Bayt:

*Hush soateki meshunavam az tu “irji’iy”,*

*Oyad berun zi shavq hamon lahza joni mo.*


(Mazmuni: Sendan “Irji’iy”<sup>80</sup> qaytgil sadosini eshitgan paytim xush soatdir, o’sha lahza shavqdan jonimiz chiqadi).

Bas, bunday insonlar  “Uloika kal an’omi” (**Ular hayvonlar kapidirlar** — *A’rof, 179*) oyatidagi va’idga (qo’rqituviga) ko’ra, xuddi to’rt oyoqli chorva hayvonlari kabi g’aflat bilan kifoyalanib, haqiqatni izlashdan tiyilganlar. Bayt:

*Jamoateki, zi asrori ishq bexabarand,*


*Ba surat odamu, ba ma’no govu xarand.*

(Mazmuni: Ishq sirlaridan bexabar bo’lgan insonlar, suratda odamu, ma’noda esa eshak va mol kapidirlar).



“Bal hum azollu” (**Balki, ular** (yanada)

**adashganroqdirlar.** *A’rof, 179*) ishorasi bilan, ular chorva hayvonlaridan yuz ming marotaba ham gumrohdirlarki, ma’rifatulloh (Allohni tanish) davlatidan, ro’yatulloh (Allohni ko’rish) sharofatidan bebahra va benasibdirlar.

Bu xil insonlar  “Ulaika humul g’ofilun” (**Ana o’shalar g’ofillardir** — *A’rof, 179*) oyati hukmi bilan, doimo g’aflat darajasiga muhtalo va giriftordirlar. Bayt:

*Inoyat bo’ldi Haqdin odamiyg’a,*

*Maorif davlatin hayvon na qilsun?*

<sup>80</sup> (“Fajr”, 28-oyatga ishora).

Aytardilarki: Bizning Azizon hazratimiz quddisa sirruhu osh va arpa nonini yeyishga moyil edilar. Va aytar edilarki: Hazrat Payg'ambar alayhissalomga o'xshash uchun, ovqatim osh va arpa non bo'lishini xohlar edim. Va lekin bunday qilishimga yo'l qo'ymaydilar. Musofirlikda ham muqimlikda ham, ko'pchilik meni huzurlariga taklif qilishardi. Men ham xalq odatiga ko'ra, xalq bilan muomala qilishim zaruratga aylangan edi.

**Saj'**: Chunki, oshiqqa hamisha mehru vafo va Xudoning xalqiga muhabbat odatdir. Saltanati umidida baqo<sup>81</sup> mulkidadir. Chunki oshiqqa Mahbub va unga taalluqli bo'lgan barcha narsalar sevimlidir va yordir. Va hammaga yaxshilik sog'inadigan va o'z vujudidan bezor va o'ziga dushman va ag'yordir. Chunonchi, aytarlar, bayt:

*Oh, vafo qilmoq uchun mulki abadga kirmaga,*

*Bu Xudoydod oni olib, o'zga ham ag'yor erur.*

Va aytardilarki: Payg'ambar alayhissalom nafsning dushmanligiga ko'p joyda guvohlik berganlar va o'zlari doimo arpa non yeganlar. Nafsning dushman ekanligiga va tarbiyat qilishga noloyiqligiga ham guvohlik beribdilar. Zeroki, dushmanni qancha parvarish qilsang, quvvatlanib, seni halokat maydoniga uloqtiradi. Bayt:

*Noni jav haqqan harom astu fusus,*

*Nafsi sagro non dihi, noni sabus.*

(Mazmuni: Arpa noni, (to'yimli non) oqillar nazdida harom va afsuslantiruvchi ne'matdir. Nafs itiga arpa va bug'doy qipig'ini berganing ma'qul. *Ya'ni, bu yerda insonni shahvatlarga undovchi to'yimli non majozan harom deyilmoqda. Aslida maqsadnafsingni tarbiyalash uchun uni qiynaganing yaxshi deyilmoqda*).


Hazrati Azizonimiz quddisa sirruhu orzu-havaslar va ziynatlar bor imoratlarda yashashga moyil emasdilar. Payg'ambar alayhissalomning yashashlariga o'xshab,

---

<sup>81</sup> **Baqo** — orif Allohga oid haqiqatlar bilan bo'lib, o'zida mavjud narsalardan kechadi va baqobiloh martabasiga erishadi. Bu martabada bashariy irodada ilohiy iroda va sifatlar namoyon bo'ladi.

ko'proq vaqtlarini tog'lar va xarobalarda o'tkazar va u yerni vatan qilar edilar. Zeroki, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Makka va Madinada yashadilar va ko'p qiyinchiliklar ko'rdilar.

Xudovand taolo o'zining ulug' kalomida, hazrati İbrohim alayhissalomdan hikoya qilib, Makkaning ziroatsiz joy ekanligini xabar beradi:



**Ey Rabbimiz! Men zurriyotimdan** (bir qismini — o'g'lim İsmoil va uning onasi Hojarni) **Sening xurmatli Bayting huzuridagi ekin o'smaydigan bir vodiya joylashtirdim** (*İbrohim, 37*).

**Saj':** Chunki, oshiqning mehnat va balolarga qanoat qilishdan boshqa orzusi yo'q. Uning Payg'ambar alayhissalomga ergashishga qone' va rozibo'lmagan bir lahzasi yo'q. Marhamat qilganlaridek, bayt:

*Chun faqirlik ne'matin berding va hamqone'lig'in,*

*Ro'zi qil, yo Rab, mani miskina ham tobe'lig'in.*

Hikoyat: Gohida u kishi safar qilsalar, albatta, tog' va dasht yo'llaridan safar qilar edilar. Zeroki, Hazrati Eshonning asl maqsadlari riyozat va o'z nafsini qiynashdan iboratedi. Bayt:

*Nafsi sagro to tavoni gushmol,*

*To nayandozad turo andar zalol.*

(Mazmuni: To qudrating yetguncha nafs itiga tanbeh ber, toki seni zalolatga boshlab qo'ymasin).

Aytar edilar, qish kunlarining birida, buxorolik do'stlar xilvat va suhbatga targ'ib qildilar. Biz ularning iltimosiga ko'ra, Ajirim yo'li bilan Buxoroga yo'l oldik, yo'lning hammasi tog' va cho'l orqali o'tar edi. Shu kun juda ko'p qor yoqqan va havo ham sovuq edi. Biz bu sovuqdan qo'rqmas edik. Yo'l ozuqamiz Samarqand toshiga ko'ra, dahsar (o'lchov birligi) bug'doy bo'lib, uni qovurib olgan edik. Biz uch kishi edik. Har birimiz kuniga u bug'doydan bir siqim yeb, shomga qadar yo'l

yurardik. Ichimizda qarilikdan tishsiz, bug'doy chaynashga ojiz do'stimiz ham bor edi. U qovurmochni ikki tosh orasiga qo'yib tuyar edi. Sahroda esa ba'zan tosh ham topilmasdi.

**Saj':** Zeroki, oshiqning ko'ksi Mahbub shavqi otashidan hamisha kuyishi lozim, uning holi mehnatu mashaqqat, riyozatu balo va yo'qlikdan xarob va ko'zi giryon bo'lishi va havoi nafsdan yiroqda bo'lmog'i lozim. Chunonchi, aytalar, bayt:


*Shavqing bila bag'rim kabob,*

*Yo'qluk uchun holim xarob.*

*Men na qilay sandin taqi,*

*Mandin sango demak kerak.*

Hikoyat: Azizon hazratimiz quddisa sirruhu badanlarining zaifligi, tanlarining notovonligi, qarilikning quvvatsizligiga qaramasdan, riyozat va mashaqqatdan bir zum to'xtamas, bir nafas bekor turib qolmas edilar. Zero, aytganlaridek, banda o'z borlig'idan qutulsa, o'zining menligini o'rtadan ko'tarsa, Alloh taoloning sifatleri bilan sifatlanadi. Xudoyi taoloning sifatlaridan biri shuki, u doimo ish-faoliyatdadir. Marhamat qilinganidek:



**“U har kuni faoliyatdadir”** (*Ar-Rahmon, 29*).

Mufasssirlar, “yavm”dan maqsad, payvastalik va doimiylikdir, deyishgan. Ya’ni, kechayu kunduz faoliyatda bo’lishlikdir, maqsad “kun” (“bo’l”) degan amrni xos qilish emas, deyishadi. Zohirda bu toifaning har doim ish bilan mashg’ul bo’lish alomati shudirki, ularning botinlari asosiy ishga bog’langan va botinan bir nafas ham bekor qolishmaydi. Bu ish — mosivoni inkor qilib, Haq zotini isbot etishdir.



**Saj’:** Zeroki, doriyu darmondan qat’iy nazar, oshiq hamisha hijron dardidan nolayu afg’onda. Uning Zoti poki majruhlar jonining chorasidir. O’z fazli bilan Rahim va Rahmondur, oshiqning ishi mahrumlik otashidan kuyib yonmoqdir. Bayt:

*Íshqida bilgilu ko’rgil, turmag’il bir lahza sen,*

*Dardiga chun oyin o’ldung xush fig’oni qilsa sen*

*Hargizin darmon tilamas ahli dillar dardiga,*

*Vaslingiz darmondur, ul vaslin inoyat qilsa sen.*

*Chorae yo’qdur zamone vaslingizdin oshiq,*

*Dardinga darmon erursen, chorag’a ham chora sen.*

*Vah, menga ne had turur, qilsam tamannoyi visol,*

*Íshqingiz xosiyati mundoq kerak ham qilsa sen.*

*Ey Xudoydod, ishq ilan kuygil, taqi yong’il mudom,*

*Xush yaroshur, o’zung uzub, joningni ham qo’ysa sen.*

Hikoyat: “Bizning Hazrati Azizonimiz quddisa sirruhu ishga kirishsalar, jiddiy ishga sho’ng’ib ketardilarki, yeb-ichishga fursatlari bo’lmasdi. Yozning uzun va jazirama kunlarida, ertalab ishga mashg’ul bo’lsalar to xuftongacha, ba’zida yarim tungacha ishlar edilar. O’n-o’n besh kishi loy tayyorlar, shu loylarning hammasini Hazrati Eshonning o’zlari muborak qo’llari bilan devor urardilar, notekis kesaklarni tekislardilar va devor (paxsa) orasiga qo’yardilar. Bitta kesakni to’g’irlash uchun, garchi zaif va qari bo’lsalar-da, besh-olti marotaba turib-o’tirar edilar. Ísh tugasin yoki imorat bitsin, deb ishlamasdilar, balki maqsadlari riyozat va mashg’ul bo’lish edi.

**Saj’:** Chunki, oshiqning hijron mehnati zahmatidan ko’ngli afgordir va muhabbat mehnatining dardidan qalbi zor, u o’zining vujudidan bezor, Mahlubning talabida hamisha nolayu zordir. Muhabbat ahlining odati, barcha olamni ag’yor — begona bilish,

ularning orzulari raqiblar orasidan uzoqlashish va dil-afgorlikdir. Chunonchi, marhamat qilganlaridek (g'azal):

*Vah, sening hajring bilan afgordurmen, qaydasen?*

*Men hamisha dardinga dilyordurmen, qaydasen?*

*Men taqi hamvora ko'rdum dardin o'zumga base,*

*Men taqi ham o'zima bezordurmen, qaydasen?*

*Garchi bu vasling sening soldi meni o'zdin yiroq,*

*Istaram har lahza ham zordurmen, qaydasen?*

*Sensizin bir lahza bu tanda jonim ne kerak,*

*Barcha olamga taqi ag'yordurmen, qaydasen?*

*Ey Xudoydod, bu raqiblar olamining olami ul,*

*Bevafolar ichra, bas, afgordurmen, qaydasen?*

Hikoyat: Hazrati Eshonimiz quddisa sirruhu gohida o'z hammomlariga xas-xashak tashirdilar. Hazratning hammomlari devori kesakdan, yeri (sahni) pishiq g'ishtdan yasalgan edi. Hazrati Eshon nopok joylardan va hojatxona atroflaridan to'rvalarini xasga to'ldirib, muborak kift (yelka)lariga ko'tarib kelar va hammomning oloviga to'kar edilar. Va bu ishdan hech uyalmas edilar. Maqsadlari dildor roziligi bo'lgani uchun bunday ishlardan orqilmasdilar. Aytarlar, bayt:

*Ey ko'ngil, nola-fig'on qilgil oning ishqida,*

*Nechakim tortsang jafo arzir o'shal dildor uchun.*

Hikoyat: Hazrati Eshon quddisa sirruhu eskirib vayronaga aylangan imoratlarni tiklash bilan mashg'ul bo'lganlar, "mening bunday ish bilan shug'ullanishim zarurat yuzasidan edi", derdilar. Sababi, agar uyda o'tirsam, oldimga keladigan muxoliflar suhbatidan siqildim, jamoatxonada (xonaqohda) esa kishilarning hujumidan va dunyoga bog'langan kimsalarning muomalalaridan siqilar va o'zim bilan o'zim urishar edim. Eski imoratlar bilan shug'ullanishimdan yaxshiroq qochadigan joy topa olmadim. Tama' ahli va biror narsa ilinjida bo'lganlar oldimga kelsalar, ularni jamoatxonaga yuborardim, ular bizning ish bilan mashg'ul bo'lganimizni ko'rib, tezda bizdan qochardi va bizning ishimiz oson ko'chardi. Bayt:

*Ishq xud zi avval charo xuni buvad,*

*To go'rezad, harki beruni buvad.*

(Mazmuni: Nega ishq dastlab qon yuttiruvchi, mushkul bo'lib ko'rinadi? Chunki ishqdan begonalar undan uzoqlashishlari uchun shunday ko'rinadi.)

**Saj':** Zeroki, oshiq doim Habib vasliga sabablar izlaydi, hijron dastidan nolayu afg'on bilan dunyoga jar soladi. Va hijron mashaqqatlari uni qiynab ovora qiladi. Ayriliq dardining azobidan va mahrumlik kunining qorong'uligidan jahonda hech kim bilan dardlasholmaydi. Habib oftobi nurining yorishishiga muntazir bo'ladi. Umrini uning mojarolariga baxshida qiladi. Xaroba burchagida xomush va Habib lutfidan sir olamiga sho'ng'iydi. Chunonchi, buyururlar, g'azal:

*Eymahat, ro'yat nadidam mubtaloyam man zi hajr,*

*Nolavu afg'on kunon peshat biyoyam man zi hajr.*

(Mazmuni: Ey oy yuzingni ko'rmadim, hijron tufayli balolarga yo'liqqanman. Hijrondan qochib, nola va afg'on qilib, huzuringga boray.)

*Quvvatam gar buda boshad bexi hijron barkanam,  
Aslu faslashro bar andozam, namonam man zi hajr.*

(Mazmuni: Kuchim yetganda hijron ildizini tag-tubi bilan qo'porardim va shu orqali hijronning aslini, unga mone' bo'lgan narsalarni ham chetga otib, hajrdan qutulayin.)

*Ey firoqat so'xt morovu siyah shud ro'zi mo,  
Mubtalogashtamdamodam, vah, chisozammanzi hajr.*

(Mazmuni: Ey firoqing bizlarni kuydirgan va kunlarimizni qora qilgan Yor! Kundan-ko'nga sening ishqingga mubtaloman. Hijron azobiga qanday yo'l topay!)

*Oftobi tal'atatro jilva kun chun ruh namud,  
Tiyragiyu mehnati g'am ham namondam man zi hajr.*


(Mazmuni: Quyoshdek yuzingni ochib, jilva qil, to ruhim ko'tarilsin. Zero qorong'ulik, g'am-mehnatda va hijron azobida qolib ketganman!)

*Ey Xudoydod, dar g'ami hijroni o' xomush nishin.  
Taky kunbar lutfi O', tokay binolam man zi hajr.*

(Mazmuni: Ey Xudoydod, uning hijron g'amida bo'lsang-da, xomush o'tir va Uning lutfiga suyan, tokaygacha hijrondan noliyverasan!)

## **O'NINCHI BOB: SOLIH AMAL BAYONIDA**

Alloh taolo marhamat qiladi:



“*Faman kana yarjuu liqoa Robbihi fal ya’mal ‘amalan soliha*”. **“Bas, kimki Parvardigori bilan muloqotda bo’lishdan umidvor bo’lsa, u holda ezgu amal qilsin...”** (*Kahf, 110*).

Ya’ni, kimki Parvardigorining jamolini ko’rishni xohlasa, bas, aytgin, u solih amal qilsin. Qalbini mosivo kudurat (zang va tashvish)laridan poklasin va bir lahza ham talab qilishdan bo’shshmasin.

Ammo Hazrati Azizonimiz navvarallohu marqadahu (Alloh qabrlarini munavvar qilsin) bu haqda shunday inoyat qilib aytadilar, Men Xudoyi taoloning ushbu hadisi qudsiysidan umidvormanki, marhamat qiladi: “Ey bandam, agar sen menga yaqin bo’lishni istasang va men tomon yursang, agar-chi senda yerning qillobi qadar gunoh bo’lsa ham, men sening o’sha gunohing miqdoricha mag’firat va ehson bilan senga peshvozchiqaman”.

Muhaddislar “qillobul arz”dan maqsad:

1 — yerning vaznicha, 2 — yerning hajmi, ya’ni eni va bo’yicha deganlar. Bayt:

*Ne tilab topdi malak, ne o’rgulib doim falak,*

*Ul inoyatki Haqdin bo’ldi odam o’g’liga.*

Quyidagi hadisi qudsiyda ham umidvorlik izhori va sa’yu harakatdan bahramand bo’lishlik orzusi bor ediki, Rasululloh sallalloh alayhi vasallam shunday marhamat qilganlar:

من تقرب إلي شيرا تقربت إليه ذراعا ومن تقرب إلي ذراعا تقربت إليه باعا

“*Man taqorroba ilayya shibron, taqorrobtu ilayhi ziro’an va man taqorroba ilayya ziro’an taqorrobtu ilayhi ba’an*”. (Ya’ni, agar kimki menga bir qarich yaqin kelsa, men unga bir gaz yaqinlashaman, kimki menga bir gaz yaqin kelsa, men unga bir quloch yaqin boraman.)

Aytardilarki, bandaning Alloh tomon borishi uning o’zahvoliga yarasha bo’ladi, lekin Xudoyi taoloning uning huzuriga kelishi cheksiz va bepoyondir. Bu yerda qadam

va quloch deb tayin qilinishi noqislar (avomlar) tushunchasiga muvofiq aytilgandir. Zero, Uning “qadam va qulochi”ning haddi va poyoni yo’qdir. Bayt:

*Ey xayoli zoti pokat, vah, bari az movuman,*

*Tu kujovu, man kujo, farq omada bo Zul-minan.*

(Mazmuni: Ey pok zotingni xayoli, ey voh, manmanlikdan xolidir. Sen qayerdasanu men qayerdaman, buni ne’matlar sohibi (Alloh) ajratib qo’ygan).

Va (Hazrati Azizonimiz) ushbu hadisi qudsiydan ham shod, xursand va hayajonda bo’lardilarki, Xudovandi azza va jalla buyuradiki: “Men bandamning ko’ngliga u erishishi mumkin bo’lgan narsani talab qilishni solaman”. **Saj’**: Biz hamisha uning mehru muhabbatini o’zimizning tor qalbimizda joylaganmiz, uning do’stligini Payg’ambar alayhissalomga va sahobai kiromlarga ergashish bilan ko’ksimizning yashirin xonasiga qo’yganmiz, “Lam yazaliy” sharobidan mastlik tamannosi qilganmiz va illatlarni daf’ etganmiz, ko’nglimizni Haqdan boshqasidan sof qilishni orzu qilganmiz va uning jamoli tajalliylaridan o’z qalbimiz bog’larini munavvar qilishni xohlaganmiz. Usiz bir lahza yashashni ham maqsadsiz deb hisoblaymiz, Usiz Adn jannatida bo’lishlikni azobning o’zginasi deb bilamiz, U bilan do’zaxda ham shod va xushnud bo’la olamiz, Uning ishni otashida kuyib yonishni orzu qilganmiz va Uning visoli va diydorini umid etganmiz, xullas, bu davlat bizga Uning inoyati bilan hosil bo’lajak va hajrida yongan dil unga vosil bo’lajak. Inoyat qilganlaridek, hikmat:

*Tushgali mehring ko’ngilga xush saodatdur manga,*

*Ul azaldin to abad ko’rkluk irodatdur manga.*

*Do’stluqdin xalq qildi, Mustafoni —mujtabo,*

*Do’stluk bobinda bir lutfe ishoratdur manga.*

*Ichgali la’ling sharobindin ko’ngul mast o’lg’oli,*

*Mazhari vojib bo’lubon daf’i illatdur manga.*

*Ishqingiz chun sof qildi bu ko'ngilni g'ayrdin,  
Do'stluk birla muhabbat xush mavaddaddur manga.*

*Chun tajalliy topdim endi, sandin o'zga ne qilay,  
Har zamon ich olami xush qasri jannatdur manga.*

*Sensizin bir soat tiriklik, bas, xush emas,  
Sen bilan ham barcha olam ko'yi vahdatdur manga.*

*Sensizin bo'lsam bihishtda g'ayri mehnat yo'qdur ul,  
Sen bilan do'zaxda bo'lsam qayda mehnatdur manga.*

*Ey Xudoydod, dam-badam kuygilu yongil ishqida,  
Oqibat vasli aning yaxshi inoyatdur manga.*


Va aytardilarki: Men Mavlono Jaloliddin Rumiyl masnaviysidan bir baytni mulohaza qildim va kalomullohning barcha ma'nosini va Rasullulloh sollallohu alayhi vasallam hadislarining mazmunlarini o'sha baytda topdim. Ubaytushbudir:

*Dar talab zan doimo tu har du dast,*

*K-in talab, dar rohi neku ragbar ast.*

(Mazmuni: Talab yo'lida doimo ikki qo'lingni harakatga keltir! Zero, bunday talab qilishlik yaxshilik yo'lidagi bir rahbar kabitdir).

Zeroki, Maliki allom kalomining oyatlari ham va Payg'ambar alayhissalom hadislarining mazmuni ham va ahlulloh so'zlarining ma'nolari ham amru nahiydan tashqari emas. Mazkur baytda har ikkala ma'no ham o'rin olgan. Chunki, cheklashdan maqsad, talab qilishdan tashqari bo'lgan narsalarni tark etish va chetlashtirish kerak. Amrlarni bajarishga buyurishdan maqsad, visol davlatining hosil bo'lishi va jamoli bokamolning mushohadasidir. Va bu maqsad va niyat talabsiz hosil bo'lmaydi. Zeroki, Xudoyi azza va jalla buyuradi:




**“Menga duo qilinglar, Men sizlarga (duolaringizni) mustajob qilay”** (*G'ofr, 60*). Ya'ni: Visol talabida irodat yo'li tuprog'iga qadamlaringizni yetkazing, to'la ixlos va e'tiqod bilan sa'yu himmat ko'rguzing. Talab yo'lidan borib asl maqsadingizga yeta olasiz va azaliy Mahbubning xos haramida o'zingizni mahram ko'rasiz. Mosivoning muhabbatidan o'zingizni tiya olasiz. Chunonchi, inoyat birla aytarlar, bayt:

*Barchasi tark aylabon istab sani topsa bo'lur,*

*Jumlaning hubbin qo'yubon ham sani sevsa bo'lur.*

Nahiy (qaytarilgan) barcha narsalardan o'zini tiyish ham talab davlatisiz hosil bo'lmaydiki, Xudoyi azza va jalla buyuradi:



**“Shunday. (Lekin) senga Bizning oyatlarimiz kelganida, ularni unutding. Bugun sen ham ana shunday unutilursan”** (*Toho, 126*)

Ya'ni: Ey banda, senga bizning buyruq va oyatlarimiz keldi. Sen ularni unutding, shu kabi sen ham bugun unutilgansan.



Ya'ni, sen ﴿وَأَوْفُوا بِعَهْدِكُمْ﴾ “*Va avfu bi'ahdiy*” (**ahdinga**

**vafo qilingiz...** — Baqara, 40) halqasiga yo'l topa olmading, bizning visol va liqoimizni talab qilib, oshiqmading. Nochor ﴿أَوْفِ بِعَهْدِكُمْ﴾ “*Ufi bi'ahdikum*” (**toki Men ham sizlarning ahdingizga vafo qilay...** — Baqara, 40) doirasidan yiroq qolib ketding va manhiyot (qaytarilgan) ishlar zulmatiga muhtalo bo'lding va bizning muloqot chashmamizdan mahrum va mahjuru yiroq bo'lib qolding. Bayt:

*In talabgori ajoyib junbeshist,*

*In talab dar pohl Haqq mone' kashist.*

(Mazmuni: Bu talabgorlik ajoyib bir harakat, tebranishdir. Bu talab, Haq yo'lidagi to'siqni olib tashlashlikdir!)

Aytdilarki, Buxoro azizlaridan biri mendan so'radi: Sizning silsilangizda bo'lgan azizlar har yili ikki yoki uch marotaba xilvat o'tirishadi, nega siz har hafta xilvatga kirasiz? Va men shunday javob berdimki, xilvatga kirishdan maqsad shuki, qalbimiz haramini ag'yor (begonalar)dan xoli qilaylik va dilimizda uning fikru zikridan bo'lak hech narsani qoldirmaylik. Bayt:

*Tangrining vaslin tilasang, xoli qilg'ilsenko'ngil,*

*O'zgin mutlaq to'kulib, ango bergin sen ko'ngil.*

Toki sirrimizning basirat ko'zini uning jamoli tajalliyining nuri bilan munavvar qilaylik va o'z xotirimiz oynasidan kudurat (g'illu g'ash) zanglarini aritaylik. Bayt:

*Sen mening ko'nglumda bo'lsang, tal'ating ko'rguz mango,*

*Ko'nglim ichra bu jamoling har zamon oyinavor.*

Agar xilvat asosiy maqsad uchun bo'lsa, bu xilvatdan ko'zlangan ma'no hosil bo'ladi va majruh ko'ngil dildorga vosil bo'ladi. Aksincha bo'lsa, Mahbub jamolidan uzoq va firoq mehnati bilan mahjur (ayriliq va hijronda) bo'ladi. Bas, agar visol davlati hosil bo'lsa, demak bu davlat xilvatdan hosil bo'lgan bo'ladi. Lozimdirki, biz tezroq xilvat o'tirishimiz kerak, chunki “liqoulloh” sharobidan va “baqoulloh” mushohadasidan aslo to'yish mumkin emas. Balki dam-badam ko'zlar qonli yoshga to'ladi va (visolga) tashnalik ortib boradi. Chunonchi, buyururlar, bayt:

*Az labi la'lat sharobi garchi xurdam dambadam,*

*Hargizam seri nashud, tashna bimondam dambadam.*


(Mazmuni: Garchi la'li labingdan dam-badam sharob ichsam-da, hech to'ymadim. Aksincha, tashnaligim har lahza ortib boraverdi).

Agar bu maqsadimiz qo'lga kiritilmagan bo'lsa va Mahbub ko'z o'ngimizda o'zining jahonni yorituvchi chehrasidan pardani ko'tarmagan bo'lsa, nega biz tin olishimiz va talab qilishdan forig' bo'lishimiz kerak? Bu ma'no xilvatda o'zni “mosivalloh”dan yiroq qilish bilan hosil bo'ladi. Bayt:

*Ey Xudoydod, bir zamon forig' bo'linma lutfidin,*

*Nechakim qilsang tamanno, anda topqoning bo'lur.*

**Hikoyat:** Bir paytlar hazrati Azizonimiz quddisa sirruhu bemor bo'ldilar. Bir necha kun isitmalab yotdilar, shifo topganlaridan so'ng, aytardilar: Ilgari bemor bo'lgan vaqtlarim ruh badanni tark etishini, Zulminan tarafga qaytishni:



“Ya ayyatuhan nafsul mutmainnah, irji'iy ila Robbiki roziyatam marziyyah”  
ya'ni: “**Ey xotirjam** (sokin) **jon!** (Ato etilgan ne'matlardan) **rozi bo'lgan** (va Alloh taolo tomonidan) **ham rozi bo'lingan holingda, Rabbing** (huzuri)ga qaytgin!”

(*Fajr*, 27-28) hukmi bilan tezroq jon taslim qilish ilinjida edim, lekin bu safar rozi bo'lmadim. Sababi, hazrati Muso alayhissalom hodisalarini eslab, bir necha kun yashashni istab qoldim.

Aytishlaricha, hazrati Muso alayhissalom voqeasi shunday bo'lgan: U kishi jon uzilish paytida, jon berishni kechiktirganlar, shunda Xudoyi azza va jalla so'rabdi: Ey Muso, nima sababdan jon berishni kechiktirmoqdasan? Muso alayhissalom javob beribdilar: Ey Xudoyim, Sening bezavol jamoling visolini mushohada va muoyana qilish shu dunyo hayotida muyassar bo'ldi, xohlaymanki, bu davlat yanada ko'proq qo'lga kiritilsa va visolingning pardasiz mushohadasi yuzlansa, deymen. Shuning uchun ham, umrim uzunroq bo'lishini istayapman...

Aytar edilar, Men ham bu istakning ko'proq amalga oshishi uchun bu olamning mehnatu mashaqqatlari va aylanuvchi falakning ofatu balolarini qabul qildim va yana bir necha kun hayotim uzayishini xohladim. Marhamat qilganlaridek, bayt:

*Ey Xudoydod, nechakni istarsen, oni yo'li bor,  
Na'ravu faryod ila istaki, jonim qaydasen.*

Bayt:

*Ki badast oyad turo ganju guhar,  
Dar talab boyad ki boshi garmtar.*

(Mazmuni: Talab yo'lida jiddiyroq bo'lishing kerak, o'shanda ganju gavharlarni qo'lga kiritasan).

Aytardilarki, kimgaki talab davlati nasib qilsa va u mashaqqatu qiyinchiliklarga chidasa, shubhasiz, u matlubiga yetishibdi va maqsadi hosil bo'libdi. Zero, Payg'ambar alayhissalom bir hadisi qudsiyda shunday naql qilganlar:

من طلبني وجدني ومن وجدني عرفني ومن عرفني أحبني ومن أحبني  
عشقتني ومن عشقتني أنا قتلتته ومن قتلتته أنا ديتته

*“Man tolabaniy vajadaniy va man vajadaniy ‘arofaniy va man ‘arofaniy ahabbaniy va man ahabbaniy ‘ashiqaniy va man ‘ashiqaniy ana qotaltuhu va man qotaltuhu ana diyatuhu” —“Kim meni talab qilsa, topadi, kimki topsa meni taniydi, kimki meni tanisa, do’st tutadi, kimki menido’st tutsa, menga oshiq bo’ladi, kimki menga oshiq bo’lsa, men uni qatl qilaman va kimniki qatl qilsam uning diyati (hun bahosi) men bo’laman”.*

Ya’ni, uni o’zinning barkamol jamolim mushohadasidan bahramand qilaman va jahonni tutuvchi husnim bilan xursandu malomat va g’aromat (tovondorlik, pushaymonlik, azob, qiynoq) ko’chasida giriftor qilaman, uning jonini qudrat qo’lim bilan farmon rishtasiga bog’layman. O’zimdanda boshqasini uning himmat nazarida nomaqbul va noma’qul qilaman, jahonso’z ishq yo’lida kechayu kunduz kuyib-yongani uchun, muhabbat yo’lida uning martabasini ziyoda qilaman. Chunonchi, inoyat bilan aytarlar, hikmat:

*Nechakim ta’rif etarmen, borsen mohim taqi,  
Husningiz olamni tutdi adl ilan shohim taqi.*

*Husningizning mulkida taxt nihonu, sen malik,  
Podshohi lam yazalsen to abad yorim taqi.*

*Husningizning vasfini qilmoq menga ne had erur,  
O’zumi qurbon qilay husninga ham jonim taqi.*

*Ne qilay, sendin u kun maqsud bilmas bu ko’ngul,  
Jon fido qilsam sangavu ham dili zorim taqi.*

*Ey Xudoydod, kechavu kunduz yugurgil, tinmagil,  
Oh, aning ishqida kuydi bu dili zorim taqi.*

Aytar edilar, Xudoyi taoloni talab qilishni (izlashni) go’yo Muhit daryosi ostidan baliq oyoqlarining izini qidirayotgan kishiga o’xshatishadi. U kishi o’sha izni topib, shu iz orqali baliqni topmoqchiday. Holbuki, baliqning oyoqlari yo’q va hech qanday

izi ham bo'lmaydi. "Muhit"ga sho'ng'ish, o'zini halokatga cho'ktirish bilan teng va bu ahvolda baliqni izlashdan hech qachon bo'shamaydi. Kechayu kunduz tinmay izlashi kerak bo'ladiki, u baliq o'z lutfi karamidan kelib qolib, bu kishi bilan hamroh va dardkash bo'lsin. Chunonchi, aytarlar, bayt:

*Kechayu kunduz chu tinma, istamakda bo'l mudom,  
Toki, o'tru kelsa ul xud hamdami jondur ko'ngil.*

Zeroki, Hazrati Payg'ambar alayhissalom buyu- radilar:

من طلب وجد وجد

"Man talaba va jadda, vajada". Ya'ni, kishi biror nimani chin dildan izlasa va qattiq harakat qilsa, shu narsani topadi. Bayt:

*Man talab kardam visolat ro'zu shab,  
Yoftam in ast hukmi "man talab".*

(Mazmuni: Men kecha-yu kunduz vaslingni talab qildim va bundan "Kim izlasa topadi..." hadisini anglab oldim (Bu o'rinda "Kim jiddu jahd qilsa, topadi", hadisiga ishora qilingan.))

**Saj'**: Zeroki, oshiq doim, dam-badam Mahbub ishqida kuyib yonadi, o'zini mehru muhabbat o'tiga soladi. Kechayu kunduz talab qilishda sa'y-harakatini yanada oshiradi. Nochor Mahbub ham unga lutf yuzasidan in'om etadi, inoyat yuzasidan uni o'ziga vosil aylab, unga jilva qiladi. Chunonchi, inoyat birla aytarlar, bayt:

*Ey Xudoydod, dam-badam kuyg'ilu yong'il ishqida,  
Oqibat vasli aning yaxshi inoyatdur manga.*

Aytar edilar, Agar biz yuz ming yil tilimizni hamd aytishga bag'ishlasak va talab ahlining matlubi bo'lmish Allohning hamdiga har qancha himmat ko'rsatsak-da, bir nafas bo'lsa ham, talab davlatining uhdasidan chiqdikmi yoki yo'q, ma'lum emasdir.

**Saj':** Zero, oshiq uchun bu talab va Habib visoliga kuchli rag'bat ko'rsatish ulkan davlatdir, Oshiqning talab yo'lida to'g'ri yurmoqligi Uning kamoli inoyatidandir. Oshiq uning orzusi va talabida mahvu mustag'raq har qanday qo'rquv va umiddan forig'dir. Tolib uchun har ikki jahonning hosil va mahsuli ishqdir va unga yor va mahramdir. Bayt:

*Davlati uzmo bo'lubdur bu mening haqqimda bas,*

*Hosili ikki jahon mahsul o'lur ishqida, bas.*

*Ey Xudoydod, husnini har necha tafsir aylasang,*

*Vasf qilmoqdin desa bo'lmas munda bas<sup>82</sup>.*

---

<sup>82</sup> Ushbu misradan so'z tushib qolgan. (S.S.)




سماهر و سقوط طلال آن از احتیار معتبره و انا حضرت  
 غزبان ما قدس ستره درین باب از واقعات خند جانین  
 میفرمودند که حضرت پیغامبر علیه السلام فرموده اند  
 ان الله ابلاء علی الانبیاء ثم الاولیاء ثم الاهل  
 قال امشعل یعنی محکم ترین بلا بر پیغامبر است  
 و بعد از آن بر اولیاست و بعد از آن بر کسان است  
 و همانست باین دو طایفه پیشتر داشته باشد و نیز  
 جای این دو طایفه تنها آن است که در روند آن  
 و یاور در سر و یاور و پاداشته باشند بلکه محکم ترین بلا  
 ایشان و در دلی و رحمان ایشان

اللهم صل علی سید الخلق محمد و آله وسلم  
 غرض نقیشت که با زمانه که هر سترانی پیغم بقای  
 در کد را ای کریم کرده ما هر آن روز حشر بود ما  
 ۱۳۳۱  
 فی غرة شهر ذی الحجة  
 من جملة العلماء بحکمته  
 ابن محمد زکریا

بسم الله الرحمن الرحیم و بیعتین  
 آن است که چون ایشان از خود فانی باقی بجای سبجانی  
 و زنده بجایات انجاء دانی شده اند باقی خلق عالم همه  
 نزد ایشان مرده کاندند و ایشان با مرده کان صحبت  
 میباید داشتند و عمر که بشنود و این بلا صعب ترین  
 بلا است زیرا که عاشق همیشه با عشق حبیب  
 مبتلا و زار است و شقیقت آن بمرگشسته و از ماسوخ  
 نیز است و باور و معشوق سعادت مند و تا ابد  
 باقی و پایدار است و از انزل عنایت الله او را مره بان  
 و دایم بخدمت و یار است و آدم را خدا او نه از روی لطف  
 و کرم بر که نید و هر لحظه در حق او عنایت و بشارت و اخبار  
 و نظر عاشق بلطف خداوند است و جمیع عالم بر نزد او  
 مرده و ناقابل و اخبار است چنانکه میفرماید که است  
 ایشانک عشقینک من کوب او ز یکا نزار ابادی خوش


## O'N BIRIHCHI BOB: ILM HAQIDA

Alloh taboraka va taolo shunday marhamat qiladi:



“...va ‘*allamnahu mil ladunna ilman*”. Ya’ni: **“Biz unga O’z dargohimizdan ilm berdik”** (*Kahf*, 65).

Biz xos bandamizga, ya’ni, Xizr alayhissalomga ta’lim berdik. Unga ilmi laduniy (o’z jonibimizdan bo’lgan xos ilm) ato qildik.



“*Al-’ilmu mo qoma bi dalilin yarfa’ul jahla*”. Ya’ni, ilm deb, dalil bilan doim va sobit (mustahkamlangan) bo’lgan va nodonlik asosini yo’q qiladigan narsaga aytiladi.

Ammo hazrati Azizonimiz quddisa sirruhu bu to’g’rida, o’z ahvollaridan shunday naql qiladilar: “Karmanada bo’lgan paytimda, u yerning xujayinlari tarafidan menga nisbatan ziddiyatchilik paydo bo’ldi. Men fitnadan qutulish maqsadida, u yerdan ketib, Samarqand viloyatida yashay boshladim. Oradan bir oz muddat o’tgach, bir joyda, fitnaga sabab bo’lgan u yerning xojalaridan biri bilan uchrashib qoldim. Men u kishining oldida ozroq hadis o’qidim. U kishiga o’zimni yaqin olib, shunday dedim: Men sizning shogirdingiz bo’lib, huzuringizda hadisdan saboq olgan bo’lsam-da, mening ilmim sizning ilmingizdan ko’p ekanini aytaymi? Chunki, men Payg’ambar sollallohu alayhi vasallam hadislaridan birini o’qib, uning ma’nosiga amal qildim va shu tufayli, dunyodan qo’l yuvdim va Alloh taoloni talab qilish yo’lida o’zimni bag’ishladim va Uning fikri-zikridan boshqasini ko’ngildan chiqarib tashladim. O’sha hadis ushbu dirki, qolan nabiy alayhissalom:



الدنيا ملعونة وملعون ما فيها إلا ذكر الله تعالى

“*Ad-dunyo mal’unatun va mal’unun ma fiha illa zikrullohi ta’ala*”. (Dunyo va uning ichidagilar ham la’natlangandir, faqat Alloh taoloning zikrigina bundan mustasno).

*Hadaf la’nati Xudoy omad,  
Dunyovu harchi hast dar dunyo.*

*G’ayri zikri Xudoki sohibi zikr,  
Dar du olam ba rahmat ast avlo.*

(Mazmuni: Dunyo va undagi barcha narsalarga Xudoning la’nati yog’ilgan. Illo faqat Xudoning zikri bundan mustasnodir. Shuning uchun ham har ikki olamda zikr sohibi rahmatga loyiqroqdir).

Aytar edilarki, men u kishiga yana shunday dedim: Siz ushbu dunyoni mazammat qilgan va Haq taoloni madh qilgan barcha hadislarni o’qigan va bilgan bo’lsangiz-da, dunyo aloyiqlariga, nafsu havo orzulariga berilib, daryo mavjlaridek parishon va mubtaloyu giriftor bo’lib qolgansiz. Vaholanki, Payg’ambar alayhissalom siz haqingizda shunday deganlar:

علمائنا أمنائنا إذا لم يميلوا إلى الدنيا وإذا مالوا إلى الدنيا فهم سرق سرق

“*’ulamauna umanauna, iza lam yamiluu ilad dunya va iza maluu ilad dunyo fahum suruqun, suruqyn*”. “Ya’ni, Bizning ulamolarimiz, modomiki dunyoga mayl qilmabdilar, bizning aminlarimiz — ishonchli kishilarimizdir. Bas, qachonki ular dunyoga moyil bo’lsalar — o’grilardir, o’g’rilardir!”

Aytardilar, men u kishiga bunday dedim: Demak, ma’lum bo’ldiki, mening ilmim amal yuzasidansizning ilmingizdan ko’proq ekan. Hazrati Shayx Fariddidin Attor rahmatullohaytganlaridek: *Har ki ilme doradu nabvad bar on,*

*Boshad on kas az shumori ablahon.*

*Gar amal bo' ilmi to' payvand nest,  
Jubbayu dastor donishmand nest.*

*Qilu qol roh nadonad hech so'y,  
Ma'rifat hosilkun, eybisyorgo'y.*

(Mazmuni: Kimdagi ilm bo'lsa-yu, unga amal qilmasa, ablahlar sirasiga kiradi. Agar amaling ilming bilan payvast bo'lmas ekan, sening jubbayu dastoring donishmandligingni bildirmaydi. Dedi-dedilar bilan hech yerga yo'l topolmaysan, ko'p gapirgandan ko'ra ma'rifat hosil qilgin.)

Aytar edilar, u odamga yana shunday dedim, men sizga shogird bo'lishimning boisi shul ediki, Payg'ambar alayhissalomaytadilar:

من تعلم حرفاً تأبداً رقاً

“*Man ta'allama harfan taabada riqqon*”. Kimki, birovdan bir harf o'rgansa, abadiy shu muallimga qul bo'ladi.

Aslida, bizning hamsoyamiz bo'lganingiz uchun, men sizning rioyangizni qilishim va sizga ehtirom ko'rsatishim vojib edi. Xohladimki, qo'shnichilik haqiga yana biror narsa qo'shib, sizning g'ulomingizga aylansam va qo'shnichilik haqini bajo keltirsam. Shuning uchun, sizga shogirdlik ham qildim. Aslida, mening ilmim siznikidan qolishmas edi va o'sha ilmni bilmasligimdan men zarra qayg'urmas edim.

**Saj':** Zero, menga jamol mushohadasining davlati oldida, olam ilmi, ulug' muallim va boshqalar, himatim nazarida zarra kabi ko'rinadi. Uning visolisiz ikki olamning ilmi menga yor bo'lmas. Chunonchi, inoyat bilan aytarlar, bayt:

*Sen bilan bu ilmi olam zarra ko'runur mango*

*Sensizin kavnayn ilmi bo'lg'usi yo'q manga yor.*

Aytar edilar, men hokimi voliylardan biriga shunday dedim: Botin ahli zohir ahlini “mim” harfining halqasiga o’xshatishgan. Hazrati Shayx Attor rahmatullohi alayhaytganlaridek:

*In jahonam halqayi “mim”e buvad,  
Kay chunin joyi maro bime buvad.*

(Mazmuni: Bu jahon “mim” harfining halqasi — aylanasi kabidir. Shunday yopiq joyda bizga qachon qo’rqinch bo’lishi mumkin.)

Bas, sizlarga bu “mim” halqasida qancha ilm hosil bo’ladiki, olamga olimlik da’vo yoydingiz va kibr yuzasidan ilm o’rgandingiz, holbuki, Payg’ambar alayhissalom siz haqingizda shunday buyurganlar: Alloh taolo qiyomatda uch toifa odamga shunchalik azob beradiki, hech kim unday azoblanmas:

- 1-Shayxi zoniy — zinokor chol;
- 2-Maliki kazzob — yolg’onchi podshoh;
- 3-Olimi mutakabbir — kabrli olim.

Bayt:

*Chist donish, onki pay berun bari,  
To bidoni, k-az hama nadontari.*

(Mazmuni: Seni asl yo’ldan chetga burib yuboradigan ilm, ilm emas! Agar ilming shunday bo’lsa, sen barchadan nodonroqsan.)

Va bu faqiru, haqir banda Hazrati Eshonning muborak so’zlari ma’nosi shunday bo’lsa kerak (vallohu a’lam), deyman. Toki banda o’ziga o’zi muhtalo ekan, bandalik vujudi mavjudot va koinotning bittasi, xolos. Undan ortiq emas. Bandaning sifati ham mavjudot va koinot jumlasidandir. Chunki, sifat zotga tobe’dir. (Shu jihatdan) Bandaning ilmi ham uning sifatlaridan biridir. Zohiriy ilmning barcha kengligini “mim”ning halqasi demoqdalar. Bas, zohiriy ilm qo’rqinch va vahima joyidir, chunki, uning turar joyi “mim” halqasidadir. Bayt:

*Poyi istidloliyon cho'bin buvad,*

*Poyi chobin saxt be tamkin buvad.*

(Mazmuni: Dalil izlovchilarning oyoqlari yog'och oyoq kabi bo'ladi. Yog'och oyoq juda ham ishonchsiz, qarorsiz.)

Lekin banda o'zligidan foniy bo'lsa va unda Haq taolo boqiyiligi alomati paydo bo'lsa, banda bilan Haq jalla va 'alo zoti o'rtasida ikkilik sifati qolmaydi va menu senlik yo'qoladi. O'shanda, uning nazdida, barcha olam ilmi bir zarra ham bo'lmaydi, olam kengligi ham "mim" halqasidan kichikroq bo'lib qoladi. Lekin avomning idroki uchun bunday o'xshatish qilganlar. Bayt:

*Ey berun az vahmi qol u qili man,*

*Xok bar farqi manu tamsili man.*

(Mazmuni: Ey, mening gap-so'zlarimning ishtibohlaridan chetda bo'lgan Zot! Mening ustimga va keltirgan misollarimga tuproq sochilsin!)

Aytardilarki: Men inobat qilishimdan oldin tasavvuf ahli kitoblarini mutolaa qilar edim va haqiqat ahlining so'zlaridan baholi qudrat ma'nolar chiqarardim. Va u so'zlarning mazmuniga amal qilish uchun himmat ko'rsatardim. Lekin inobat qilganimdan so'ng, tasavvuf ahli risolalariga ehtiyoj topmadim. Zero, Hazrati Azizon rahmatullohi alayhning ta'lim va talqinlarini o'zimga saboq deb bildim va boshqaning so'ziga e'tibor qilmadim.

**Saj':** Chunki, muhabbat oshiqqa doimo vahimalarni tark qilishni talab qiladi va tajalliy nuri bilan Habib tomonga yuzlanadi va aqlni tamoman barbod beradi va ishq xayolini uning ko'ksida paydo qiladi. Aytilganidek:

*Ey xayolat, tarki in avhom kard,*

*V-az tajalliy zoti xud ibhom kard.*

*Ey xayolat, aqli kul barbod dod,*

*Íshqi Xudro dar darun muhkam nihod.*

(Mazmuni: Ey xayoling, bu gumonlarimni tark qildirgan va tajalliysi bilan o'z zotini yopib qo'ygan Zot! Ey xayolini aqli kulni shamolga sovurgan va o'z ishqini ko'ngillar tubiga mahkam joylagan Zot!)

Aytar edilar, Men hazrati Azizon alayhir rahma huzurlarida bo'lganimda, zohiriy ilmni o'rganishni mutlaqo tark etgan edim va jadal ilmni o'rganishga harakat qildim. Kalomulloh tafsirini va Payg'ambar alayhissalomning hadislarini bilishni orzu qilardim. Lekin olimlarning darslariga qatnashish menga og'ir, shu istak doimo xayolimda edi. Bir kun Hazrati Azizon rahmatullohi alayhning buyruqlariga ko'ra, hadis kitoblardan birini keltirdim va dars boshladim. Birinchi uchragan hadis bu edi, qolan nabiyyu alayhissalom:

الدنيا عفاف وكفاف

Nabiy alayhissalom aytdilar, “*Ad-dunyo ifofun va kufofun*”. Ya'ni, dunyo ifofdur va kufofdur.

Aytardilar, menga ifofdan, ya'ni taomdan, boshqaga muhtoj bo'lmaydigan miqdorda bor edi va kufofdan, ya'ni kiyim-kechakdan, avratni yopadigan va issiq-sovuqdan to'sadigan darajada mavjud edi.

Aytar edilar, bu hadisni o'qiganimdan keyin, tafsir va hadis o'qishlikni ham xotirimdan chiqardim. **Saj'**: Chunki, Alloh taolo kalomi tafsirini va Payg'ambar alayhissalom hadislarini o'qish va o'rganishdan shu narsa ma'lumki, o'sha bilgan oyat va hadislarining mazmuni bilan amal qilish lozim va menga shu kifoya edi. Va mening ko'nglim jaholat kudurat (g'illu g'ash) laridan sof edi. Chunki, oshiq ma'shuqdan boshqa barchasidan bezor va mosivoning barcha kudurat (g'illu g'ash)laridan pok va qobili asrordir. Va qilu qol ilmi uning nazdida bee'tibordir. Bayt:

*Otashi ishqat zi g'ayrat so'xt har g'ayreki bud,*

*Sof shud az g'ayr aknun qobili asror shud.*

(Mazmuni: Ishqing otashi g'ayratda qalbimdagi sendan o'zga barcha narsalarni kuydirib tashladi, u sof bo'ldi va endi sirlarni qabul qilishga tayyor bo'ldi.)

Aytar edilar, Hazrati Azizon rahmatullohi alayhning hayotlik chog'larida, u kishining gaplariga ergashar va unga amal qilar edim<sup>83</sup>. U kishining vafotlaridan so'ng, Alloh taoloning kalomi va Payg'ambar alayhissalom hadisi muboraklariga ergashib amal qiladigan bo'ldimki, Payg'ambar alayhissalom buyuradilar: "Men olamdan o'tsam-da, o'rnimga sizlar ergashadigan ikki narsani rahnamo qilib qoldirayapman, biri Allohning kalomi, ikkinchisi mening sunnatimdir". Bayt:

*Ey xayolat Mustaforo barguzid andar jahon,*

*Sunnati uro bamo karda chunin dorul amon.*

(Mazmuni: Ey xohishi Mustafoni jahon uchun tanlagan Zot, uning sunnatini biz uchun omonlik uyi, manbai qilding!)

Aytar edilar, Husn sohiblariga zohir bo'lgan bu husn Xudovand azza va jalla husni mazharidir va bu husn sohiblarini ko'rish bilan, kishida o'zgacha kayfiyat hosil bo'ladi. Lekin gohida bu husn sohiblarini ko'rish bilan, kishi oshufta (beqaror) va muftalo bo'ladi yodardu hasratda o'rtanadi. Va uning ko'ngli mahbub mehriга ovora va ruhi parvozda. Chunki, azaldan o'z mehrini oshiq qalbiga qo'ygandir. Shuning uchun ham oshiq Haq taoloning mahramiga aylanadi. Va ko'ngil har lahza mahbub hajridan pora-pora, oshufta va shaydo bo'ladi. Oshiq qalbida kecha-kunduz mahbubning xayolidir. Shuning uchun ham, oshiq nolayu g'avg'oga ulfat bo'lib qoladi. Chunonchi, aytarlar:

*Kuydimu yondim bu ishqing o'tilan, men ne qilay?*

*Ko'nglimi ovora qildi mehrilan, men ne qilay?*

*Ulazaldin mehrini qo'ydi ko'ngilga, chora yo'q,*

*Toki bo'lg'ay bu ko'ngul asror ilan, men ne qilay?*

*Pora-pora bo'ldi ko'nglim hajr ilan ham, chora yo'q,*

*Ishqini xosiyati mundoq bilan men ne qilay?*

---

<sup>83</sup> Chunki, komil shayxlar hamisha oyat va hadisga qattiq amal qilishni tavsiya qilganlar (S.S.).

*Sen o'zing qo'ydung ko'ngulga ishq o'tin yakboragi,  
Bo'lmadi ko'nglum amone vasl ilan, men ne qilay?*

*Zor bo'ldum dam-badam, oh, ul sening ishqing bilan,  
Mubtalobo'ldi bu ko'nglum dard ilan, men ne qilay?*

*Necha ko'p ohu fig'on qilsam yarashur dam-badam,  
Mehriduroshubi g'amfaryod ilan, men ne qilay?*

*Kechavu kunduz xayoling tushgali bu ko'ngluma,  
Ey Xudoydod, mehidur g'avg'osilan, men ne qilay?*

Aytar edilar, banogoh (to'satdan) bu zohiriy husn sohiblarining birortasiga bog'lanib va mubtalo bo'lib qolishlik shu sababdandurki, Alloh azza va jalla o'z husnini bu zohiriy husnlarga yashirib qo'ygandir. Va bu zohiriy husn egalarini bu zohiriy olamda namoyon qilib qo'ygandir va o'zining mehru muhabbatini uning qalbiga solib qo'ygandir. Va odamning ahvolini xilma-xil qilib qo'ygandir, goho o'z husnini inson qalbida pinhon tutadi, gohida tajalliy qiladi va husnini zuhurga keltiradi. Bayt:

*Gohe daruni pardai izzat nihon shavad,  
Gohe hazor parda bidarad ayon shavad.*

(Mazmuni: Gohida izzat pardasi ichida yashirin turadi, gohida minglab pardalarni yirtib, ayon bo'ladi.)

Aytar edilar, men zohiriy ilm bilan mashg'ul bo'lgan chog'imda, mantiq ilmini o'rganishga ham harakat qilganman. Kulliy va juz'iy (umum va xususiy) masalalar bahsiga yetganimda, aytdilarki: Vojib ul-vujud zoti ham "kulliy"lar qatoridandir. Vaholanki, ko'pchilik bu tushuncha (kulliy mafhumi) haqida: "Boshqa bir sherikka ega bo'lishi mumkin", deb talqin qilganlar. Bunday tushunish menga aslo xush kelmadi. Shundan so'ng, bu ilm (mantiq) bilan shug'ullanmay qo'ydim. Chunki, mening qalxim qavl (so'z) ahlining xayollaridan malul va menga devonalik g'olib kelib, xotirim aql egalarining ta'birlaridan mushavvash bo'ldi. Bayt:

*Harchi g'ayru sho'rishu devonagist,*

*Andarin pah duriyu begonagist.*

(Mazmuni: Har nimaki, haqiqiy g'avg'o-yu devonalikdan chetda bo'lar ekan, yo'ldan uzoqlashtiradi va begona qiladi).

Aytar edilar, men mantiq ilmini o'qib yurgan bir talabadan, mantiq qanday ilm, u nimani o'rgatadi, deb so'raganimda, u menga: Mantiq ilmi zehnni xato fikrlashdan saqlaydigan ilm, deb javob berdi. Men u tolibi ilmga shunday dedim: Mantiq xato fikrlashdan qanday saqlasinki, Vojibul vujud zotini "kulliy" qabilidan hisoblaydi va bu mafhumni "shirkat (sherik) voqe' bo'lishiga mone'lik qilmaydi", deb izohlaydi<sup>84</sup>.


Bayt:

*Ilmi din fiqh astu tafsiru hadis,*

*Harki varzad g'ayri in gardad xabis.*

(Mazmuni: Din ilmi fiqh, tafsir va hadisdan iborat. Bulardan boshqasi bilan shug'ullangan odam yomon va razil kimsadir.)

Aytar edilar, ahli kalom masalalaridan biri shuki, ularning ba'zilari: "Alloh taolo mahol narsalarga qodir emas", deb aytishadi. Xususan, men kalom olimlaridan ushbu ibora haqida so'radim va aytdim: Axir Alloh azza va jalla Qur'oni karimda o'zining qodirligi haqida




**“Albatta, Alloh har narsaga qodirdir”** (*Baqara, 109, 148, Nahl, 77, Nur, 45, Ankabut 20, Fotir, 1*) deya ta'kidlab aytgan. Bas, shunday ekan, sizlar Allohning qodirlik sifatini inkor qilish va uni yo'qqa chiqarishdan uyalmaysizlarmi?

<sup>84</sup> Ya'ni, so'z va tushuncha o'rtasida ziddiyat borligini payqashmaydi (S.S).



Aytmoq lozimki, Xudo hakim zotdir, o'ziga o'xshash yana bir ilohni yaratib qo'yishi hikmatdan emas. Chunonchi, O'zining Kalomi majidida shunday marhamat qiladi:




**“Agar ikkisi (Yer va osmon)da Allohdan o'zga ilohlar bo'lganida, har ikkisi buzilib ketgan bo'lur edi”** (*Anbiyo, 22*). Musannifdan:

*Agar budi bajuz. Izid yadi qudrat Xudoero,*


*Har oina shudi fosid du kavnayn az ixtilofotash.*

(Mazmuni: Agar Yaratgandan boshqa yana bir Xudoning qudrat qo'li bo'lganida edi, albatta ixtiloflar, qarama-qarshiliklar tufayli ikki dunyoda fisqu fasodlar ko'payib ketgan bo'lar edi.)

Aytar edilar, Menda Qur'on tafsirini yozish ishtiyoqi paydo bo'ldi. Yozmoqchi edim. Lekin e'tikofda, oxirgi dahaning uch kunida, bir hofizi Qur'onga kalomullohni boshidan oxirigacha xatm qilib ber, deb aytdim. U o'qidi, men tingladim. Qur'oni karimning:



**“Qur'on o'qilganda, uni tinglangiz va sukut saqlangiz!”** (*A'rof, 204*) oyati karimasi hukmiga ko'ra, boshqa narsani gapirishdan sukut saqladim. Va:




**“Shoyad (shunda) rahm qilingaysizlar!”** (*A'rof, 204*) oyati bashorati bilan, Qur'on ma'nosining kashfikim, ulug' rahmatdir, umidvor bo'ldim. Har bir oyat o'qilganda, ma'nosini kashf qilishga e'tibor berardim. Tariqat va haqiqat yuzasidan oyatning qanday ma'nolari borligiga diqqat qilardim. Zeroki, ularning zohiriy ma'nosi po'st va botiniy ma'nosi mag'zidir va men mag'izning talabgori edim. Bayt:

*Man zi Qur'on bargiriftam mag'zro,  
Po'stro peshi xaron andoxtaam.*


(Mazmuni: Men Qur'onning mag'zini chaqib oldim va po'stlarini eshaksifat odamlar oldiga otdim.)

Aytar edilar, bu uch kun mobaynida, Qur'ondagi oyatlar mazmunining har birini mulohaza qilib, uch narsada, ya'ni **zikir**, **tavakkul** va **sabrda** butun Qur'on ma'nolari jamuljam ekanini angladim. Shu asosda, o'z tafsirimni mazkur uch narsaga — zikir, tavakkul va sabrga muxtasar bog'ladim. Bu kamtarin va shikasta banda shunday fikrdaman: Zikrda muxtasarlik shu jihatdan bo'ladiki, va'dayu va'iydga, amru nahiyya va mazmunan shularga yaqin holatlarga oid oyatlar zikrga bog'liqdirki, sarkash nafsni ammoralik martabasidan lavvomalik tomoniga boshlaydi. Lavvomalikdan esa itmiynon (xotirjamlik) maqomiga yetishtiradi va o'z Parvardigori tomon qaytishga hozir bo'lishi uchun tarbiyalaydi. Toki, banda barcha rizq va ne'matlarni undan deb bilsin va ularga shukr bajo keltirsin va Haq taoloni rozi qilish yo'lida, harakat qilishga qudrati yetsin. Natijada u, muti' bandalar va bo'ysunuvchilar ipini ushlovchilardan bo'lishga qodir bo'lsin va jannat ne'matlari hamda visolu liqo ne'matlarini saqlay olsin. Chunonchi, o'z Kalomi sharifida marhamat qilgandek:



“**Ey, xotirjam (sokin) jon!** (Ato etilgan ne'matlardan) **rozi bo'lgan** (va Alloh taolo tomonidan) **ham rozi bo'lingan qolingda, Rabbing (huzuri)ga qaytgin! Bas,** (solih) **bandalarim (safi)ga qo'shilgin va jannatimga kirgin!** (*Fajr*, 27-30).

Itmiynin bu — ko'ngilda Xudoyi taolo zikrining qaror topishi va mosivo vasavasalarining undan uzoqda bo'lishidir. Chunonchi, marhamat qilinganidek:



“Ular iymon keltirgan va qalblari Allohning zikri bilan orom oladigan zotlardir. Ogoh bo'lingizki, Allohni zikr etish bilan qalblar orom olur”. (*Ra'd*,

28) Darhaqiqat, Allohga iymon keltirgan kishilarning qalblari Allohning zikri bilan mashg'ul bo'lganda orom oladi va xotirjamlikka erishadi.

Aytadilarki, nafs —dilning mahkumidir va dil uning podshohi va hokimidir. Va hazrat Payg'ambar alayhissalom marhamat qiladilar:

الناس على دين ملوكهم

“An-nasu ‘ala dini mulukihim”. Ya’ni, “Odamlar o’z podshohlari dinidadirlar”.

Bas, shunga asosan, Maliki allom bo’lgan Haq taolo oyatlari mazmuniga muvofiq doim Allohning zikrida bo’lish lozim. Chunoschi, marhamat qilinganidek:

أذْكُرُوا اللَّهَ ذِكْرًا كَثِيرًا ﴿٤١﴾

“Uzkurulloha zikron kasiron” **“Allohni ko’p zikr qilinglar (Ahzob, 41)**<sup>85</sup> Aytadilarki, “zikri kasir” ya’ni “ko’plab zikr”ning ma’nosi shuki, kishi, toki unga xayrot (yaxshiliklar) eshiklari ochilguncha va Zot mushohadasi davlati hosil bo’lguncha biror nafas ham zikrdan xoli bo’lmasligi lozim. Payg’ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) marhamat qilganlaridek:

داوموا على الذكر فإنه مفتاح الخيرات

<sup>85</sup> Qur’oni karimning saksandan ortiq oyatlarida zikr qilishga buyuriladi. Shu oyatlardan ham ma’lum bo’ladiki, zikr har bir mo’min-musulmon hayotida muhim ahamiyatga ega. XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan Qo’qonlik shoira Xoniy (1884-1967) o’z g’azallaridan birida shunday yozadi:

*Zikrdan ayrilso kas, jonu tani bekordur,*

*Chunki suvdin ayrilur bo’lsa ketar joni balig’.*

(Devoni Xoniy, 236 b- varaq) (S.S.). Ashraf o’g’li Rumiyning ham shunday satrlari bor:

*Ey Allohim, meni Sendan ayirma,*

*Meni aslo jamolingdan ayirma.*

*Baliqning joni suv ichra tirikdur,*


*İlohiy baliqni suvdan ayirma!*

“Dovimuu ‘alaz zikri fa innahu miftahul xoyrot”. Ya’ni: “Davomli zikrda bo’ling, chunki bu zikr barcha yaxshiliklarning kalitidir va ko’ngilni barcha kudurotlardan poklanishi va yorishishiga sababchidir”. Bayt:

*Mosivoning zangidin so’fiy ko’ngulning nurini*


*Tangrini yodi bilan sayqal urub hardam ochar.*

Ammo tavakkulga umumlashtirib ta’rifberish shuki, Alloh kalomi har bir oyatining zohiriy hukmiga, ya’ni shariat hukmiga amal qilishdir. Chunonchi, marhamat qilinganidek:



“Fastaqim kama umirta”. Ya’ni: “**Bas, buyurilganingizdek to’g’ri bo’ling!**” (Hud, 112).

Maqsudning talabidan keyin, bemisl Zot mushohadasiga erishmoqdirkim, bu haqiqat manzilining boshidir. Asl maqsad va visol bashorati tavakkulda hosil bo’ladi. Zero, Allohning o’zi buyurgandir:




“*Va mayyatavakkal ‘alallohi fa huva hasbuhu*”. Ya’ni: “**Kimki Allohga tavakkul qilsa, bas, (Allohning) O’zi unga kifoya qilar**” (Taloq, 3).

**Mujda:** Uning (oshig’imizning) ruh qushini o’zimizning visol xirmoni donlari bilan to’ydiramiz. Va biz bilan muloqot qilish sharbatidan, uning joniga abadiy hayot bashoratini yetkazamiz. Chunki, uning ko’ngil afgorligini O’zimizning mehru muhabbat dardi dog’idan, deb bilamiz. Shubhasiz, hijron mehnatidan so’ng, O’z visolimiz marhamatini uning miskin diliga yetkazamiz. Ishq savdosining cheksizligidan, uning vujudini O’z vujudimiz bilan yaqin qilib, uni o’zligidan xalos qilamiz. Va kechayu kunduz jiddu jahd qilganidan, do’stlik davlatini unga inoyat qilib, uni O’z tomonimizga chorlaymiz. Va ostonamizda yana o’zimiz dildorlik umidi bilan uni hamisha siylaymiz.

## O'N IKKINCHI BOB: MA'RIFAT XUSUSIDA

(Hazrati Azizonimiz) Bu mazmuni juda ko'p takror qilardilar. Alloh taolo marhamat qiladi:



“*Va ma xolaqtul jinna val insa illa liya'budun*”. **“Men jin va insni faqat O'zimga ibodat qilishlari uchungina yaratdim”** (*Vaz-Zoriyot, 56*).

Bu oyatning zohiriy ma'nosidir. Ma'rifat ahli (hol sohiblari) shunday fikrdalarki, oyatdagi “liya'buduni” (ibodat qilishlari) aslida “liya'rifuni” (tanishlari) ma'nosidadir. Ya'ni: “Men inson va jinlarni Meni tanishlari uchungina yaratdim”.

Va aytdilarki, bu so'zning “liya'buduni” lafzi bilan keltirilganiga sabab shuki, aslida ma'rifat ibodatsiz hosil bo'lmaydi.

Va marhamat qildilar: Bu o'rinda o'z vaqtida ado qilinadigan zikr va hol iroda qilingan. **Saj'**: zero, ibodatdan maqsad Zuljalolni tanimoqdir va ko'ngil yuzini bezavol Mahbubga yuzlantirmoqdir. Zero, har bir odam irfon sifatini qabul qilganda kamolga yetadi va azaliy Mahbub husnini tanimoq uchun unda ishq muhabbat darhol hosil bo'ladi. Unga berilgan inoyatni malak ham, falak ham topa olmasdan, sarsonu sargardondir. Lekin bu ma'noga yuz keltirmoq Zuljalol hazratining roziligidir. Kimki, uni mushohada etishni orzu qilsa, o'z qo'liga ma'rifat oynasini olib, undan foydalanishi shartdir. Hikmat:

*Bu namozu ro'za hech maqsud emasdur bandaga,  
Juz magar andin tonib, yuz evirgay Tangriga<sup>86</sup>.*

*Odamini qobil etdi, qildi xush orif sifat,  
Husnini yaxshi tanitib, qildi oshiq o'ziga.*

<sup>86</sup> Shoir demoqchiki, namozu ro'zani asl maqsad deb bilmaslik, ibodatning zohiriga o'ralashib qolmaslik kerak. Namozu ro'zani ado etish bilan birga, ixlos va ishq bilan Haqqa oshiq bo'lmoq lozim. Shundagina asl maqsadga erishiladi (S.S.).

*Ne tilab topdi malak, o'rgulub doim falak,  
Ul inoyateki Haqdin bo'ldi Odam o'g'liga!*

*Gar tilasang sen taqi olsang bu ma'nidin nasib,  
Rostlik birla yurub, kirgil azizlar yo'liga!*

*Bu Xudoydod ar ko'ray desang kishi diydorini,  
Ma'rifat ko'zgusiga boqsun olib o'z qo'liga!*

Ma'lum bir vaqt menga bemorlik yuz tutib, bir necha kun to'shakda yotib qoldim va Azizonimiz rahmatullohi alayhning suhbat va majlislariga qatnasha olmadim. Men hovuz bo'yida ko'rpa-to'shak qilib yotar edim. Hovuz va hazrati Azizon rahmatullohi alayhiing haramlari hamda jamoatxona orasida bir devor bo'lib, devor o'rtasida bir daricha ochilgan edi. Qachonki, hazrati Azizon uylaridan jamoatxonaga borayotganlarida, darichaga yaqinlashishlari bilan, u kishining muborak yuzlariga ko'zim tushar va ishtiyoq kuchliligidan bemorlikning mehnatu qiyinchiliklari yodimdan butkul chiqib ketar edi. Va g'amga to'la siynam hijron otashidan jo'sh urar va mahubni ko'rmaganligim sababidan, betoqat va beqaror bo'lardim. Va bu holda majruh dilimga nasihat qilib, taskin berar edim. Chunonchi, inoyat bilan aytadilar, bayt:

*Kuydimu yondim hijron ilgidin yakboragi,  
Toqatim toq o'ldiyu ko'ngil ishi ovoragi.*

*Nechakim pand aylaram, sabri bila ham yor bo'l,  
Xomush o'lg'il, s o'zlama, behtar sanga sadporagi.*

Shuningdek, o'sha mehnat va qayg'uda hamisha nolavu afg'on qilardim. Hazrati Eshonni uzoqdan ko'rish bilan ham qanoatlanardim. Bayt:

*Ey ko'ngil, kel-kel saninglan nola afg'onaylalik,  
Qone' o'lg'i ham yiroqdin qilsa sen nazzoragi.*

Aytar edilar, Har qachon Hazrati Azizon rahmatullohi alayh o'sha joydan o'tayotganlarida, Hazrati Eshonga mening holim ayon bo'lganligi uchun, lutfu

marhamat yuzasidan biror bahona bilan mazkur daricha oldida ozroq turib qolar edilar. Toki men Hazrati Eshonning muborak yuzlariga borib o'z g'amgin ko'nglimni yorishtiray, majruh dilimga ularning xushbo'y tarovatlari bilan taskin beray. Chunonchi, marhamat qilganlaridek, bayt:

*Ey ajab, dilbar, ko'ngil olmoq uchun jahd aylading,*

*Oldingu lutfing bilan qilding base g'amxoragi.*

Zeroki, mendagi muhabbat va visol talabi yetuk bo'lgani bois, hazrati Eshon lutf, tarahhum va inoyat nazari bilan mening holimga boqardi va mening g'amnok jonimni o'z visol hujrasida mahram qilardi. Chunonchi, buyururlar, bayt:

*Ey Xudoydod, istamaklik davlati chun sanda bor,*

*To abad bo'lg'ungdurur ul yor bilan yakboragi.*

Hikoyat: Bir kuni hazrati Azizoni kalon rahmatulloh jamoalarida bizning Azizonimiz quddisa sirruhu, "chiroq keltiringlar", deb dod solib qoldilar. Xizmatkorlar chiroq keltirib, xonani yoritishgach, Hazrati Azizonimiz quddisa sirruhu Azizoni kalon rahmatullohi alayh hazratlarining yaqinlariga borib, biroz muddat Hazrati Eshonning muborak yuzlariga tikilib qoldilar. Biroz vaqt o'tgach, behush bo'lib yiqildilar. Yana biroz muddat o'tgach o'zlariga keldilar.

**Saj':** Zero, oshiqda ma'shuq ko'nglining mehri zor-zor va bir zum mahbub jamolini ko'rmasa, uning dili afgor. Harchand, dilga hijron dardiga sabr qilishni tushuntirsalar ham, dil beixtiyor, beorom va beqaror. Va vasl hijronsiz bo'lmas, oshiqning ko'ngli butunlay boshqalardan mosivo va bezor. Oshiqning hijronida dod-voy qilishiga sabab — firoq lashkari qo'lida uning notavon ko'ngli xoru zor. Va oshiq har zamon visol talabida, chunki uning ko'ksi hijron dastidan afgor. Chunonchi, inoyat bilan aytarlar, hikmat:

*Tushgali mehring ko'ngulga zor bo'ldi bu ko'ngil,*

*Bir zamone ko'rmadim, afgor bo'ldi bu ko'ngil.*

*Gar ko'ngil rozi bo'lub, sabr aylasa hajri bilan,*

*Nechakim sabr aylasam afgor bo'ldi bu ko'ngil!*

*Vasl hijronsiz emasdur, netayin, g'am yo'lida,  
Ishqida ham barchaga ag'yor bo'ldi bu ko'ngil!*

*Hajrida afg'on qilib, kuydum raqiblar dardidin,  
Shoh vaslingni yubor, bas, xor bo'ldi, bu ko'ngil!*

*Ey Xudoydod, vaslini qilg'il tamanno dam-badam,  
Garchi furqat ilkida afgor bo'ldi, bu ko'ngil!*

Bizning Hazrati Azizonimiz quddisa sirruhu mazkur behushlikdan o'zlariga kelgach, Azizoni kalon rahmatullohi alayh shunday debdilar: “Siz menga qancha mushtoq bo'lsangiz, men ham sizga shuncha mushtoqman va bu ishtiyoq meni tez-tez kuydiradi”. Bayt:


*Oshiqon harchand mushtoqi jamoli dilbarand,  
Dilbaron bar oshiqon az oshiqon oshiqtarand.*

(Mazmuni: Oshiqlar dilbar jamoliga qanchalik mushtoq bo'lsalar, dilbarlar ham oshiqlarga ulardan ko'ra oshiqroqdirlar).

*Bedilonro dilbaron justa bajon,  
Jumla ma'shuqon shikori oshiqon.*

(Mazmuni: Bedil — oshiqlarni dilbarlar jon bilan izlab yurishadi, barcha ma'shuqlar oshiqlarni tuzoqqa ilintirish payidadirlar).

Chunonchi, Alloh taolo azza va jalla marhamat qiladi:



*Yuhibbuhum va yuhibbunah*” **“ularni Alloh sevadigan va ular ham Uni sevadigan”**(Moida, 54). Ya'ni, avval Alloh taolo bandalarni sevadi, undan keyin bandalar Uni sevishadi. Bas, demak muhabbatning asli avvalo Uning tarafidan bo'ladi. Albatta, Uning muhabbati cheksiz va farovondir. Agar o'xshatish jihatidan oladigan bo'lsak, Uning muhabbati yuz minglab bandalarning muhabbatidan ziyodaroq. Chunonchi, aytadilarki:



*Ey xayoli zoti pokat, vah bari az mouman,  
To' ko'jovu, man ko'jo, farq omada bar Zulminan.*

*Ey xayoli zoti pokat ham munazzah az xayol,  
Kunhi tu natvon shinoxtu, ham turo nabvad misol.*

(Mazmuni: Ey pok zotingning xayoli naqadar manmanlikdan yiroqdadir. Sen qayerda-yu men qayerda, Sen ehson sohibi bo'lganing uchun oramizda farq bor! Ey pok zotingning xayoli, sen barcha xayollardan munazzah — poksan. Sening zoting aslini tanish mumkin emas, sening timsoling ham yo'q!)

Aytadilar, toki, shayx va murid o'rtasida oshiq va ma'shuqlik nisbati kamolga yetmas ekan, muridning murshiddan fayz olishi va u murid hargiz xavfu xatarlardan omonda bo'lolmaydi. **Saj'**: Chunki, ishq aql binosini yelga sovuradi va unga bexudlik va devonalik keltiradi, o'zligidan va borligidan begona qiladi va dardu g'amga hamxona qiladi. Chunonchi, marhamat qilganlaridek:

*Sening ishqing mani devona qildi,  
O'zumdin uzdiyu begona qildi.*

*O'zumni ne qilay, ikki jahonda  
Yuzini sham'ig'a parvona qildi.*

*O'zining tal'atidin qildi zohir,  
Manga xud neki bor afsona qildi.  
O'zini dardini soldi ko'ngilga,  
Vujudimni mening vayrona qildi.*

*Xudoydod naylasun mulki vujudda,  
O'zini dard ilan hamxona qildi.*

Va Aytar edilar, shayx va murid o'rtasida bu nisbat hosil bo'lgandan keyin, pinhoniyy sir va sen biladigan ramz yuzaga keladi. Bayt:

*Sirrest dar in siyna, ki lab mahrami on nest,  
Gar sar biravad sirri tu bo kas nakushoyam.*

(Mazmuni: Bu ko'ksimda bir sir borki, labim ham unga sirdosh bo'la olmaydi (ya'ni bu sirni ifodalay olmaydi), agar boshim ketsa ham sening sirringni hech kimga aytmayman.)

Aytar edilar, murid uzoq muddat shayxining suratini xotirasida saqlab yurishi va hech vaqt uning surati yodidan va tasavurridan xoli bo'lmasligi kerak. Toki, bu hol davom etib, shayxiga nisbatan muhabbat hosil bo'lsin. Va oshiqlik sifati yuzaga kelsin va abadiy saodat va doimiy ne'matlarga sababchi bo'lsin hamda cheksiz aysh, ko'pdan-ko'p zavqlar hosil bo'lsin. Va azaliy mahbubning diydori sir olamida bevosita namoyon bo'lsin. Va o'zlikning barcha qaydlaridan xaloslik topsin. Va unga mushohada quyoshi hamda g'aybiy jamol muoyana (ochiq-oydin) jilvalansin. Va jon tilini begona narsalarni gapirishdan xomush qilsin. Va lohut olamining<sup>87</sup> shahsuvorini o'z vujudining mulkida hamisha hoziru nozir bilsin. Chunonchi, hikmat:

*Sen mening ko'nglumda bo'lsang, jumla olamayshibor,  
Sensizin bir dam menga bu tanda jon ne ishga yaror?*

*Garsening-lan cho'lda bo'lsam, cho'l o'lur bo'ston manga;  
Sensizin bo'stonda bo'lsam manga yo'qur g'ayru nor.*

*Sen mening ko'nglumda bo'lsang, o'zgani sevmon dame,  
O'zgani sevmakligim sendin o'kun anda na bor.*

*Sen bilan bu ilmi olam zarra ko'runur manga,  
Sensizin kavnayn ilmi bo'lg'usi yo'q manga yor.*

---

<sup>87</sup> Manoqibi Hazrat G'avsul-A'zamda shunday keltiriladi: "Mulk deb olami maloikani ayturlar va jabarut deb olami arvohni ayturlar, lohut deb olami Zotni ayturlar. Ey aziz, olami zohir misoli bir yerdur, va olami malakut misoli suffadur va olami jabarut misoli taxtdur... Mulk — misoli muhrdor martabasida va malakut misoli amir martabasida, jabarut misoli vazir martabasida, Lohut podshohi haqiqiyning dargohidur va harami Zotdur".

*Sen mening ko'nglumga bo'lsang, barcha olam xushligi,  
Sensizin xushluk manga ne ish yarar? Bee'tibor.*

*Sen mening ko'nglumda bo'lsang, javharedur bu vujud,  
Sensizin nega yararmen, g'ayr bo'lmoq zoru xor.*

*Sen mening ko'nglumda bo'lsang, boqiyqolg'um to abad,  
Sensizin bo'lsam fano zahri bilan bas xoru zor.*

*Sen mening ko'nglumda bo'lsang, topilur anda hayot,  
Sensizin bo'lsam, hayotim bo'lg'usidur bemador.*

*Sen mening ko'nglumda bo'lsang, demasam hech movuman,  
Sensizin bo'lsam, manga ham qotilur dushvorlor.*

*Sen mening ko'nglimda bo'lsang, sevaram hardam seni,  
Ochilur ko'nglim ko'zi ko'rmak uchun ham zor-zor*

*Sen mening ko'nglimda bo'lsang, tal'ating ko'rnur manga,  
Ko'nglum ichra bu jamoling har zamon oyinavor.*

*Sen mening ko'nglimda bo'lsang, bas, muborak umr erur,  
Sensizin kechgan umredur yoda ovoravor.*

*Sen mening ko'nglumda bo'lsang, ishrati olam manga,  
Bas, bu g'am nega kerak, tutgil o'zingni ustuvor.*

*Sen mening ko'nglumda bo'lsang, ko'rinur ham davlatim,  
Vah, seni ko'rmak uchun har dam bo'lurmen beqaror.*

*Sen mening ko'nglumda bo'lsang, koshifi asrorsen,  
Har zamon ochar yuzumga shevai dildorlor.*

*Ey Xudoydod, tark ayla, ba'd az in hech aytmagil.*

*Aytmaging nega kerak, hozirturur ul shahsuvor.*

Va aytar edilar, qachonki murid shayxning suratini tafakkur va tasavvur qilsa, Haq jalla va 'aloni tafakkur va tazakkur (eslash) qilish hosil bo'ladi. Va vujud fanosining maqomida sobitqadam bo'lsa, shayxning suratini tasavvur qilishga ortiqcha ehtiyoj qolmaydi. Chunki, o'zini suratsiz Zotga yetkazadi, hi jron xonumonini visolning zavqu shavq olovida kuydiradi. Va firoqning navbati o'tib, visol onlari yetib keladi. Chunonchi, buyururlar, hikmat:

*Ul azaldin ishq o'ti tushdi ko'ngilning mulkida,*

*To abad bo'lg'usidir har dam xayoling mulkida.*

*Kuydimu yondim bu hijron o'tida men dam-badam,*

*Sobit ayla, ey ko'ngil, bir dam visoling mulkida.*

*Furqating bechora qildi, choraе yo'qdir manga,*

*O't yoqgil bir zamon ushbu firoqing mulkida.*

*Vah, firoqing navbati ketsinu borsin to abad,*

*Qolmasun bir zarraе ushbu vujudning mulkida.*

*Ey, xayoli guluzoring doimo bo'lsin muqim,*

*Sobit aqdome bo'lub tursun bu ishqing mulkida.*

*Ey Xudoydod, navbati ishqing kelibtur, turma hech,*

*Sobit o'lg'ul ishqida, chunki kiribsan mulkida.*

Aytar edilar, Hazrati Shayx Shahobiddin Suhravardiy o'zining "Avoriful ma'orif" kitobida shunday deb yozgan: "Agar biror kishi xuddi xilvat ahliga sodir bo'lganidek, menga ham ma'nolar sirlari kashfi ayon bo'lsin va mukoshafa eshiklari ochilsin, degan orzu-xayol bilan xilvatga o'tirsa va shu maqsadda xilvatnishinlik qiladigan bo'lsa, o'zi

adashgan va boshqalarni ham to'g'ri yo'ldan adashtirgan bo'ladi. Ya'ni, o'zi gumrohdir va boshqalarni hamchohga yetaklaydi".

Aytadilar, gumroh bo'lib, boshqalarni ham gumroh qiluvchi kishi ishqdan boshqasiga iqtido qilgan bo'ladi, ma'nolar va sirlarni kashf bilishni o'z maqsadi deb biladi-yu, asl maqsad, ya'ni Mahbub jamolining mushohadasidan yiroq tushadi. Chunki, haqiqatning asli shuki, ishq bilan Alloh Boriy taolo o'rtasida oriflar farq va tafovut qilmaganlar. Bayt:

*Tu ba har shash g'alate xojaki dar vahdati yor,  
Ishqu oshiq, mayu soqiyu, dilu dildor yakest.*

(Mazmuni: Yor vahdatini anglashda sen oltita narsani tushunmading: axir bilmaysanmi, bu yo'lda ishq ham, oshiq ham, may ham, soqiy ham, dil ham, dildor ham birdir.)

Zeroki, oshiq bilishi lozimki, uning Ma'shuq zotidan boshqa maqsadi bo'lmasligi kerak, toki jonni ma'shuq rizosi uchun fido qilsin. Bayt:

*Ne qilay sendin u kun maqsud bilmas bu ko'ngil,  
Jon fido qilsam taqiyu ham dili zorim taqi.*

Aytar edilar, hazrati Sulton Xoja Ahmad Yassaviy rahmatullohi alayh shunday deganlar, bayt:

*Orif, oshiq jon mulkida alam tortsa,  
O'n sakkiz ming qamug' olam g'ul-g'ul bo'lur.*

Aytar edilar, bu baytning ma'nosi shuki, agar ishqni orifning ichidan tashqariga chiqarishsa va faraz qilaylik, bu ishqqa jon ato etsalar, o'n sakkiz ming olamga g'ulg'ula tushadi, bundan har kim ogoh bo'ladi. Zeroki, Xudovand azza va jalla zuhurga keladi. Ishq— Boriy taolo zotidan boshqa narsa emas, degan ma'noga hazrat Yassaviyning mazkur baytlari to'lig'icha dalolat qiladi. Chunki, inoyat qilurlar, bayt:

*Ishqing mani dilshod etib, g'ayr ilkidin ozod etib,  
Sonsiz edim hamson kuyub, ma'shuqi andoq kerak.*

Zeroki, tavhid ahli e'tiqodicha, Hazrati jalla va 'alo Zotidan boshqa biror bir mavjudot hisobda yo'q va ko'zga ham ko'rinmaydi. Qachonki, kishi ishq davlati tufayli, yo'qlik martabasidan borliq martabasiga keladigan bo'lsa, e'tiborsizlikdan e'tibor topadigan bo'lsa, shubhasizki, ishq — Boriy taolodan boshqa narsa emas...

**Saj'**: Hamma olamda undan tashqari biror bir mavjud narsa yo'q, ikki dunyoning hosilu mahsulidan foyda yo'q va ishq davlatidan boshqa ikki olamda foydaliroq narsa yo'q. Uning husnining jilvasi ko'ngillarni g'orat (talon-toroj) qilish uchundir. Bas, oshiqqa shu yetarli, Uning ishqiga muhtalodir. Ishqu oshiqning maqsadi mukammal maqsaddir. Va bu har qanday foydadan yaxshiroq va oshiqqa ma'shuq husnini ta'riflashdan to'xtab qolish loyiq emas. Chunki, uning husnini haddu nihoyati yo'q. Shu ma'noda aytadilar, hikmat:

*Davlati uzmo bo'lubtur bu maning haqqimda bas,  
Hosili ikki jahon mahsul o'lur ishqingda, bas!*

*Harnakim hosil bo'lur ikki jahon ichra, biling,  
Maqsadi jumla maqosidda saning husnungda bas!*

*Husningiz qildi tajalliy, ko'nglum olmoqlik uchun,  
Mubtalo bo'ldi bu ko'nglum, ishq ilan holimda bas!*

*Husningiz ko'rgan kishi sizdin u kun hech istamas,  
Nechakim sevma, ko'ngul, sen-sen anga savdovu bas!*

*Ey Xudoydod, husnini har necha ta'rif aylasang,  
Vasf etmakdin tinma, desa bo'lmas munda, bas!*

Alloh taolo Kalomi majidida ishora qilibdirki, ishq uning zoti pokidan boshqa narsa emas. Chunonchi, marhamat qilinganidek:

إِنَّا عَرَضْنَا الْأَمَانَةَ عَلَى السَّمَوَاتِ وَالْأَرْضِ وَالْجِبَالِ فَأَبَيْنَ أَنْ يَحْمِلْنَهَا  
وَأَشْفَقْنَ مِنْهَا وَحَمَلَهَا الْإِنْسَانُ

“*Inna ‘aroznal amanata ‘alas samavati val arzi val jibali fa-abayna ay yahmilnaha va ashfaqna minha va hamalahal insanu*”. **“Biz (bu) omonatni osmonlarga, yerga va tog’larga taklif etdik, ular uni ko’tarishdan bosh tortdilar va undan qo’rqdilar. Inson esa uni zimmasiga oldi”** (*Ahzob, 72*). Va bu omonatdan maqsad ishqu muhabbatdir<sup>88</sup>.

Tahqiq ahli aytganlaridek, bayt:

*Chist osmon bori amonat natavonist kashid,  
Qur’ai kori fol ba nomi mani devona zadand*<sup>89</sup>.

(Mazmuni: Hatto osmon ham omonat yukini ko’tara olmadi (Omonat yukini ko’tarish uchun) qur’a tashlanganida folni men devona tomon burib yubordilar (ya’ni omonat yukini banda o’z zimmasiga oldi.))

Hadisi qudsiydan ma’lum bo’lishicha, Xudovand azza va jalla oshkor qilgandirki, U yerlarga va osmonlarga sig’maydi, bularning bari uni ko’tarishdan ojizdirlar va u mo’min bandaning qalbiga sig’adi. U misli yo’q Xoliq zotidir va “kun fayakun”, deb buyruq beruvchidir. Demak, Xudovand zoti va ishq orasida lafziy tafovut va iboratdagi o’zgarishdan boshqa farq yo’q. (Zotan, haqiqiy ishq Alloh ishqidir) Bayt:

*Jumla yak zotand ammo muttasif,  
Jumla yak harfu iborat muxtalif.*

(Mazmuni: Barchasini zoti bir, ammo sifatleri turlicha. Barchasi bir harfdir, lekin iboralari turlicha).

**Saj’:** Chunki, oshiqqa ikki olamning zuhuridan maqsad Mahbub dardidir. Jumla borliq, yeru osmon va avvalu oxir oshiq uchun murod, matlubning dardidir. Uning ishq dardidan barcha olam jinlari qochuvchi va bechora odam u ma’noga joni bilan xaridor. Va hajrda yonishu kuyish bilan, oshiq hamisha qovurilgandir. Chunki

<sup>88</sup> Oyatdagi “omonat” so’zini mufasssirlar turlicha talqin qiladilar. Jumladan, “Allohning amru nahiylari, shariati islomiyadagi toat-ibodatleri”, deganlar ham bor. (S.S.).

<sup>89</sup> Bu bayt Hofiz Sheroziy devonida quyidagi shaklda ham uchraydi:

*Osmon bori amonat natavonist kashid,  
Qur’ai kor banomi mani devona zadand.*

oshiq ko'nglida Mahbub dardidan boshqa narsa yo'q. Va ma'shuq unga hamdamu joniga jondir. Chunonchi, g'azalda bu mazmuni turkiy til bilan talqin qiladilar. G'azal:

*Zohiru paydo bo'lubturmen sening darding bilan,  
Avvalu oxir ko'rinmas juz sening darding bilan.*

*Jumlai ajnosi olam qildi ishqingdin ibo,  
Uljihatdin hech kishi bo'lmas sening darding bilan.*

*Neqilay, ishqing sening, eydo'st, hijronsiz emas,  
Kuysayu yonsa kerak, oshiq taqi darding bilan.*

*Kechayu kunduz tilarmenkim, seninglan bo'layin,  
Xush umrdur, bu umr, kechsa sening darding bilan.*

*Bu Xudoydod, naylasun, ko'ngulda yo'q juz nolasi,  
Ohu vovaylo qilur har dam ko'ngil darding bilan.*

Aytar edilar, kishi namoz, ro'za, zakot, haj kabi ibodatlarni o'zi uchun qiladi. Xudovand azza va jalla bularning baridan pok va xolidir. Lekin Xudovandga xos bo'lgan va kishiga daxli bo'lmagan narsa bu — Xudovandning ishq muhabbatidir.

**Saj':** Zero, aniq va ravshan bo'ladiki, ishq va Hazrati Haq taolo sifati o'rtasida ikkilik sifati yo'q ekan. Oshiqning vujudi Haq jalla va 'alo zotida g'oyib va noayondir<sup>90</sup>. Demak, oshiqqa muhabbat dardi ixtiyoriy emas va u muhabbatning xaridoridan boshqa narsa emas.

**Saj':** Chunki, ishqning xosiyati, o'zidan bezor bo'lmoqlik va jonu tandan voz kechmoqlik, ixtiyorsiz bo'lmoq, ikki olam balo va mehnatini o'ziga qabul qilish va jon-jon, deb xaridor bo'lmoqdir. Va joni zaif va notavon bo'lsa-da, har lahza do'st visoliga talabgor bo'lmoq va aqlu hushdanu ul-buldan voz kechish va bezor bo'lmoq. Oshiqning shevasi (ravishi) kuymog'u yonmoq, majruhu afgor bo'lmoq. Mosivodan xalos

<sup>90</sup> Ya'ni, oshiqning Alloh ishqiga butunlay g'arq bo'lganiga ishora qilinmoqda (S.S.).



bo'lgach, tavidga qadam qo'ymoq va Mahbub bilan teng va baravar bo'lmoq<sup>91</sup>. Va har doim xomushlikni odat qilmoq va Mahbub mushohadasiga intizor bo'lmoq. Chunonchi, inoyat qilganlaridek, hikmat:

*Ishqing erur xosiyati o'zluksin o'zma kerak,*

*Jonni fido ham qilibon tandin taqi so'lmoq kerak.*

*Ishq eliga kirmoq uchun, shoh ishqilan bo'lmoq uchun,*

*Ranju balolar lashkarin, o'zga olib ko'rmak kerak.*

*Ishqing meni qildi xarob, shavqing bila bag'rim kabob,*

*Har necha jon za'fi bila ko'rmak uchun, o'pmak kerak.*

*Ishqing balosini solib, aqlu hushumdin ayrilib,*

*Andin o'tub, andin o'tub, andin so'ngin sevmak kerak,*

*Ishq o'tida bag'rim kabob, yo'qlik uchun holim xarob,*

*Men ne qilay, sendin taqi mendin senga demak kerak.*

*Ishq o'tida lojaram ham kuygulu pishg'il mudom,*

*Oshiqlari qoidadur, ishq o'tida kuymak kerak.*

---

<sup>91</sup> Ya'ni, o'rtada oshiq va ma'shuqlik paydo bo'lmog'i (S.S.).

*Ishqing meni dilshod etib, g'ayr ilkidin ozod etib,  
Sonsiz edim, ham son qo'yib, ma'shuqdin andoq kerak.*

*Oshsq bo'lub jon kechgali, sabru qarorim ketgali,  
Ma'shuq ilan hamroz o'lub, mahkam ani sevmoq kerak.*

*Ishqing meni sof ayladi, chiqdim kuduratdin tamom,  
Soflik bo'lib ishq bilan ham o'ziga kelmak kerak.*

*Ishqing meni qildi madad, dushmanlarimga qildi had,  
Tark etibon g'ayri Ahad ham o'zini solmak kerak.*

*Holi dilingni, ey Xudoydod, necha aytsang ham bo'lur,  
Xomushlig'ing behroq erur, bu shevadin kuymoq kerak.*

Aytar edilar, kishi qanday amal qilsa, u amal o'zi uchundir; chunki, Xudovand taolo bandaning toat, ibodatidan behojat va mustag'niydir. Lekin shunday amal borki, unga bandaning daxli bo'lmay, Xudovandning o'ziga xos bo'ladi. U amal misli va monandi yo'q Zotning muhabbatidir.

Men haqir, shikasta aytamanki, muhabbatga kishining shu jihatdan daxli yo'qki, haqiqat ahlining ko'plari ishq va muhabbatni bir narsa deganlar<sup>92</sup>. Shundan ma'lum bo'ladiki, ishq va hazrati Xudovandi taoloning o'rtasida begonalik sifati yo'q. Demak, ilohiy muhabbat bu —kishi (oshiq) tarafidan sodir bo'lgandan keyin, oshiqning vujudi Xudovand zotidan boshqadir. (Chunki inson maxluqdir, Xoliq tomonidan yaratilgandir.)


---

<sup>92</sup> Ba'zi so'fiylar istilohida: "Kamolot darajasiga yetishgan ilohiy muhabbatni ishq deyilar" (Manoqibi hazrati G'avsul-A'zam).

Va agar bu kishining vujudida muhabbatga (Alloh tomonidan bo'ladigan ishq va jazbaga) daxl qilishlik bo'lsa edi, Xudovand zotiga bu kishi vujudining sherik bo'lishi lozim kelardi. Holbuki, (aslo unday bo'lmaydi) Uning (Allohning) zoti (yakkayu yagona, bemisl va bemonand) sherik bo'lishlik sifatlaridan xoli va pokdir.

### O'N UCHINCHI BOB: HUSNI XULQ TO'G'RISIDA

Alloh taolo marhamat qiladi:



“*Va innaka la'ala xuluqin 'azim*”. “**Albatta, Siz buyuk xulq uzradirsiz!**”  
(*Qalam, 4*).

واجتمعت كلمة الناطقين في هذا العلم أن التصوف هو الخلق

“*Vajtama'at kalimatun notiqina fi hazal ilmi annat-tasavvufa huval xuluqu*”. “Bu ilm, ya'ni tasavvuf ahli ushbu so'z (tasavvuf) ma'nosi axloqdan iborat ekanligiga ittifoq qilishgan”.

Ammo bizning Hazrati Azizonimiz qaddasa ruhahuning husni xulqlaridan biri shu ediki, barcha kishilar — qul va ozod, turku fors, arabu ajam u kishining nazdlarida barobar edi. Hamma u kishini sharaflar va ehtirom ko'rsatishar edi. Hazrat barchaning ko'ngliga qarar edilar.

*Bo xalqi Xudo mazoji oshiq,*

*Chun shiru shakar buvad muvofiq.*

(Mazmuni: Oshiqning mijozi Xudoning xalqiga xuddi sut va shakardek muvofiq keladi.)

Hammaning so'zi va fe'lini yaxshilikka yo'yar edilar. Chunki, Payg'ambar alayhissalotu vasallam marhamat qilganlaridek:

## حمل المؤمن على الصلاح

“*Hamlul mu’mini ‘alas solahi*”. Ya’ni, **“Mo’min bandaning ishi yaxshilik ustidadir”**.

Aytadilar, bu iborada masdar (haml) foilga izofa qilingan. Ya’ni, mo’min barcha narsani yaxshilikka yo’yadi. Agar masdarni maf’ulga izofa deb tushunsak, uning ma’nosi, mo’minning barcha ishlarini yaxshilikka yo’yish kerak bo’ladi, deganidir.

**Saj’:** Chunki, oshiqning ko’ngil mulki doimo turli savdolarga to’la va xayoli jononning mehru muhabbatidadir. Garchi har bir kishining aybu xunari uning munavvar ko’nglida ayon bo’lsa ham, olamning yaxshiyu yomonligi uning himmat nazarida barobardir. Bayt:

*Ey, xayoing tushgali har kimsaning ko’ngligakim,*

*Bo’ldi yakson jumlası hamonki, a’yon anga.*

Aytadilarki, menga bir kun, falon so’fiy, falon so’fiy bilan janjal qilibdi, deyishdi. Men shunday dedim, so’fiyga birov bilan urishish yarashmaydi, zero, janjal qilish husni xulq egalarning odati emas, aksincha, so’fiy doim o’z nafsı bilan urush qilishi kerak. Agar mosivodan uning ko’ngli tang bo’lsa-da, (so’fiy) o’z qahru g’azabini nahang kabi yutib yuborishi kerakdurki, Payg’ambar alayhissalom aytdilar:

## رجعنا من جهاد الأصغر الى جهاد الأكبر

“*Roja’na min jihadil-asg’ori ila jihadil akbari*”. Ya’ni: **“Biz kichik jihoddan katta jihodga qaytdik”**. Katta jihod bu — nafsning hoyu havas, turli xil lazzatlarni orzu qilishiga qarshi turish, yo’l qo’ymaslikdir.

**Saj’:** Zero, bularning barchasi o’zlikka tegishli fikru xayollardir. O’zlik esa abadiy Mahbub jamolini ko’rishga mone’lik qiladi. Holbuki, oshiq o’zligi va borligi xayollariga muhtalo bo’lib qolishi kerak emas, aksincha hamisha jamol mushohadasi maqomida bo’lishi lozim. Balki, ishqu muhabbat podshohining taxti ostida uning dili

ag'yordan xoli (bo'sh), uning aql mamlakati vayronu xoru zor va oshiq dili abadul abad Habib ishqiga giriftor bo'lishi lozim. Va oshiq Mahbub jamoli jilvasiga besabrlik va betoqatlik bilan intilishi va uning ko'ngli Dildor jilvasiga loyiq bo'lishi kerak. Va hamisha u rahmu shafqat va mehribonlikni faqat yor tarafidan orzu va umid qilishi, kechayu kunduz ma'shuq xayolini istab yurishi va Habib visolini istash harakatida, xuddi pargor (sirkul)ga o'xshagan bo'lishi va mahbub tal'ati uning nazarida, xuddi nur va olov kabi porlab turishi kerak. Hikmat:

*Harzamon ko'nglum tilar, ko'rsamki, yorim qaydasen,*

*Hajr elidin uz meni, sultoni borim, qaydasen!?*

*Bu vujudum mulkida ishqing solibdur taxtini,*

*Kishvari aqlim buzub, ayturki, shohim qaydasen!?*

*Mubtalo bo'ldi ko'ngil ishqing bilan ham to abad,*

*Jilva ko'rsatding manga, eyshohi rohim, qaydasen!?*

*Joyi husnuning sening asru yaroshur ko'ngluma,*

*Rahm etib qilg'il tajalliy, mehribonim, qaydasen!?*

*Kechayu kunduz xayoling maskanu ma'vo qilib,*

*Dam-badam istar sani, ketmas xayolim, qaydasen!?*

*Tal'atingdin har zamon choqlur ko'ngulning ko'ziga,*

*Na'rayu faryod etar, ey nuru norim, qaydasen!?*

*Ey Xudoydod, istamakda bul havoyingni qo'yub,*

*Istionat sendin, ey Sultoni borim, qaydasen!?*

Aytar edilar, insof ahllaridan biri men haqimda shunday debdi: falonchining valiylik belgisidan biri shuki, uning oldiga hamma uchun yo'l bor, u hech kimdan

xavfsiramaydi va hech kimni o'zidan uzoqlashtirmaydi. Barchaga yaxshi muomalada bo'ladi, yomonu yaxshiga birday yaxshilik qiladi. Bayt

*Har ki oyad go'iyovu, harchi xohad ko' ba ko',*

*Hoyu huyi hojibi darbon badin dargoh nest.*

(Mazmuni: Har kim bu dunyoga biror so'z aytuvchi bo'lib keladi va xohlaganini ko'chama-ko'cha kezib topadi. Bu dargohda "hoyu-huy" zikrini nazorat qilib turuvchi (qo'riqchi eshik og'asi) yo'qdir.)

**Saj':** Zeroki, oshiq hamisha muhabbat otashida kuyib, yonadi. Va manmanlik va riyo, birovning aybini ko'rish va birovdan ayb izlashdan o'zini xolis tutadi. Va o'zligini o'rtadan ko'targani uchun, hech kimga yomon gapirmaydi va hech kimni o'zidan uzoqlashtirmaydi. Chunonchi, inoyat qilganlaridek, bayt:

*Íshqida o'tida lojaram ham pishg'ilu, kuygil mudom,*

*Oshiqlara qoidadur, ishq o'tida kuymak kerak.*

Hikoyat: Qachonki, hazrati Eshon quddisa ruhahuning oldilariga ba'zi tamagirlar kelib, biror narsa umidvor bo'lsalar, o'sha toifani ketkazish uchun shunday derdilar: Bizning ham sizlar kabi, ehtiyojlarimiz bor, zero, ahli ayolimiz va bolalarimiz nafaqasi bizga vojibdir, bizda ham biror kasb va daromad yo'q. Har kunlik, har haftalik va har oylik xarajatlarini erinmasdan hisoblab, o'sha tama' ahliga gapirib berardilar. Toki, tama' ahlining so'ragan narsalardan mahrum bo'lganliklari uchun qalblari o'ksimasin, deb shunday derdilar. Hazrat Payg'ambar alayhissalom aytadilar:

الكلمة الطيبة صدقة

“*Al-kalimatut-toyyibatu sadaqatun*”. Ya'ni, tilanchiga berguday narsa topmasangiz, **yaxshi gapirib qaytarish ham sadaqadir.**

Chunki, o'z o'rnida shirinso'zlik sadaqadir. Qachonki, tamagirlarni o'zlaridan uzoqlashtirgach, aytar edilar, mening u toifa oldida o'zimning kam daromad va kam hosilligimni aytishim, Xudodan nolish yoki shikoyat qilish va Xudoning taqdiriga noroziligim emas, balki garchi kasbim va harakatim bo'lmasa-da,

Xudoning ne'matlari menga juda to'kisdir. Xudoning berganiga sabr-qanoat qilish, yo'qlik va faqirlikka ko'nikish, Xudoning lutfi bilan, menga osonroqdir. Va mening dilimda qazovu qadarga rozi bo'lish tavfiqi bo'lganidan xursandman. Chunonchi, aytarlar, bayt:

*Man az kujo az vay shikoyat xud kunam dar har g'ame,*

*Roziyam harchi rasad z-o' bar dili afgori xud.*

(Mazmuni: Men har bir g'amim uchun qayerdan ham undan shikoyat qilaman, chunki men xasta ko'nglimga kelgan barcha qiynoqlarga roziman.)

Aytar edilar, lekin mening bu toifaga, ularning o'z hollariga qarab muomala qilishim va gapirishim kerak. Va kasbni va sa'yu harakatni rizq hosil qiluvchi, deb ko'rsatishim lozim. Zero, ular o'zlarining shu maqomlariga (tamagirliklariga) muhtaloyu giriftordirlar va shu narsaga suyanib qolganlar, ularning fahmu idroklari shu fikr bilan torayib qolgandir. Va Payg'ambar alayhissalom marhamat qiladilar:

كلموا الناس على قدر عقولهم

“*Kallimun nasa 'ala qodri 'uqulihim*”. Ya'ni: **Odamlarga ularning aqlari darajasida gapiring.**

**Saj'**: Zeroki, mahlubning fikru xayoli ko'ngillarni shubhaga solib qo'ygan va ishq g'avg'osida, o'z ishqini vayron oshiqning qalbiga solgandir. Va mehribonligidan o'z ishqini dilu jonlarga joylashtirgan va o'z mehrini parishon (oshuftahol, sarosimadagi) oshiqlar ko'ngliga jo qilgandir. Va har birini jon fido qiladigan maqomga solib qo'ygan va ushbu dilda g'avg'oyu harakatlarni yashirin qilib qo'ygan va o'z shavqi otashini muhiblar qalbiga o'rnashtirgandir. Va uni (oshiqni) xalq orasida boshqalardek yaratgan. Va o'z ishq savdosining fikrini uning joniga solib qo'ygan. Chunonchi, inoyat birla ayturlar, hikmat:

*Ey xayolat aqlu husham dar gumon andoxta,*

*Sui oshiq chashmi tu tir az kamon andoxta.*

(Mazmuni: Ey xayoling aqlu xushimni gumonga solgan! Sening ko'zing oshiq tomon kamondan o'q otmoqda.)

*Mehri tu jonso'zu, tundu, ishq tu bas dilgudoz,  
Oshiqonro dar navozish tarki jon andoxta.*

(Mazmuni: Sening mehring jonlarni yoquvchi va chars, ishqing dillarni kuydiruvchi. Oshiq'larga marhamat ko'rsatish uchun jonlarini tark qildiradi.)

*Ishqi tu bar go'shai dil mehribonihon namud,  
Sho'rishi ko'shish dar in dil bas nihon andoxta.*

(Mazmuni: Sening ishqing ko'ngil go'shasiga mehribonliklar ko'rsatdi, tug'yonli harakatlaringni, bu ko'ngilga pinhon solib qo'ygansan.)

*Nogahon savdoi ishqat chun fitoda dar dilam,  
Otashi shavqat dar in dil begumon andoxta.*

(Mazmuni: Ishqing savdosi nogahon ko'nglimga tushdi, shavqing olovi bu dilimga shak-shubhasiz kirib keldi.)

*Ey Xudoydod, fikr kun ham bar sari g'avg'oi ishq,  
Dar miyoni xalq fikrati xush ba jon andoxta.*

(Mazmuni: Ey Xudoydod, ishqiy g'avg'olarda bo'lsang ham fikr fil, zero xalq orasida yaxshi fikrlashni jonga solgandir.)

Aytar edilar, Hazrati Azizon rahimahulloh menga to'liq ijozat bergan vaqtlarida, mening haqimga shunday duo qildilar: "Har kim senga qarshi tursa, yiqilsin, har kim sen bilan birga kirsa, chiqsin; har kim senga egrilik qilsa, qiysaysin". Bas, shundan so'ng, bu mukofot olamida (ustozning bu aytganlarini) tajribada ko'rdik: Dardkashlardan kimki men bilan nizolashgan bo'lsa, yiqildi.

Aytardilar: U sohibi davlatning nafasleri vositasi ta'sirida, ko'pchilik odamlarni ko'rdim, qachonki, menga nisbatan e'tiroz bildirib, ishimga shubha bilan



qaraganlarida, zohirda ko'ra, cho'loq, shol, kar va boshqa dardlarga chalinardilar. Ichki dunyosi qandayligi esa Xudoga ayondir.

Aytardilar: Husni xulq va tavfiq yuzasidan "Qanday yaxshi bo'lardiki, mendan zohiriy holatlarda ham, botiniy jihatdan ham hech kimga zarar va ziyon yetmasa, degan gap xotirimga keldi va duoga qo'l ko'tarib: "Xudovando, barcha xalqni mening zohirimdan ham, botinimdan ham omonda, zarar va zahmatsiz saqla", deb duo qildim.

Shundan so'ng, Hazrati Eshondan hech kimga zarar yetmadi va hech kim zohirda ham, botinda ham u kishidan ziyon-zahmat ko'rmadi.

**Saj':** Zero, u kishining ko'ngil podshohi hukmi boshqa a'zolariga o'tardi. Va Xudoning lutfi ehsonidan Hazrati Eshon zotlarida alomatlar bor edi. Shuning sababidan ham, haqiqiy muhabbatu muvaddat (do'stlik) va muruvvat u kishida ko'p-ko'p edi. Chunonchi, aytar edilar, bayt:

*Hukmi diljoriy bo'lib turbu ko'ngil shahri taboh,  
Ham muvaddat, ham muhabbat, ham muruvvat kon-kon.*

Naql. Do'stlarimizdan bo'lgan bir guruh birodarlarimiz shunday deyishdi: Hazrati Eshon quddisa ruhahu Karmana viloyatida bo'lgan vaqtlarida, bizning qishloqdan hech kim Hazrati Eshon ruxsatlarisiz bir qultum suv ichishga hadlari sig'mas, agar ruxsatsiz suv ichadigan bo'lishsa, ularga biror dard yetar yoki baloga yo'liqishar va bu holat tajribadan o'tgan edi. Biroq lutfu karam yuzasidan, mazkur duoni qilganlaridan so'ng, xilvatda ham, omma oldida ham, xalqning kamchiligini kechirar va hech kim sho'xlik va beodobligidan zarar ko'rmaydigan bo'ldi.

**Saj':** Zeroki, Hazrati Eshon qalblarini Mahbub husni tajalliysiga bag'ishlagan, siynalarining ichini haqiqat sirlarining koni deb bilgan, qalbida lutfu inoyat binosini mahkam qilib qurgan, Mahbub sirrini muhofaza qilish uchun (o'zidagi) bashariyat xususiyatlarini yopgan, ajoyib sirlar maydonida turgan, azaliy sirdan voqif bo'lgan, jon ko'zini Mahbub jamolini mushohada qilish uchun o'zlik va manmanlikdan tozalagan, ishqu muhabbat otashida kuyganlaridan, har ikki olamni xaloyiqqa tashlab qo'ygan, visol orzusida, yakto bo'lgan Mahbubga loyiq bo'lish uchun, xohlagan paytda jonidan kechish maqomiga yetishgan edilar. Hikmat:

*Husnidin qildi tajalliy, ko'nglumi olmoq uchun,  
Ma'dani asror qildi lutfini yoymoq uchun.*

*Maxzani qildi haqoyiq sirrini anda nihon,  
Bulajab dome qilibon sir qushin olmoq uchun.*

*Maxzani hubbi qilibon, sohib asror etgali,  
Qo'ydi bu miskin ko'ngulga o'zini bo'lmoq uchun.*

*Kiydururxil'atbasharliq toki mahfuz o'lg'adeb,  
O'zini Xoliqlig'in insonda xud qo'ymoq uchun.*

*O'zini ko'rsatmagin qildi taayyun odama,  
Toki, fahm etgay bu odam, xalqinin topmoq uchun.*

*Naylasun bu odam o'g'li, tilamak ham istamak,  
O'zidin uzulubon ham ul sari boqmoq uchun.*


*Ne qilay ikki jahonni — sensizin, ey guluzor,  
Barcha olamdin kechib, ishq o'tig'a yoqmoq uchun.*

*Íshqingiz qildi tajalliy, bu ko'ngul mulki taboh,  
Shohi vasling taxtini bir damda ham urmoq uchun.*

*Ey Xudoydod, tarki jon qilg'il, aning vaslin tilab,  
Qil tamanno ba'd az in loyiq anga bo'lmoq uchun.*

## O'N TO'RTINCHI BOB: VAJD<sup>93</sup> XUSUSIDA

Alloh taboraka va taolo marhamat qiladi:



“*Va robotna ‘ala qulubihim iz qomu faqoluu Robbuna Robbus samavati var arzi lan nad’uva min dunihi ilahan, laqod qulna izan shatoto*”. **“Biz ularning dillari (iymonlarini) quvvatlantirdik — o’shanda ular (zolim shoh qarshisida) turib dedilar: “Bizning Rabbimiz osmonlar va Yerning Parvardigori. Bizlar Undan o’zga “iloh”ga sira iltijo qilmaymiz. Aks holda, nohaq so’zni aytgan bo’lurmiz (Kahf, 14).**

Ya’ni, Ashobi Kahf ahlini o’sha davr hukmdori Daqyonus qarshisida qalblarini qo’rqmas qilib qo’ydik, toki butlarga sig’inishni tark qilishdi va Zuljaloli val-ikrom dargohiga yuzlanishdi. Ularning yo’llarini yoritgan va g’urur olami (bu dunyo)dan xulud (abadiy) olamga yuzlantirgan nur — jazba nuri edi.

الوجد لهب من شهور عارض مفلق

**“Vajd shunday nurli olovdiki, o’zidan shu’lalar chiqarib, alanga oladi”.** Bu mukoshafa zohir bo’lishidirki, to’satdan alanga oladi va o’zegasini larza va iztirobga soladi.

Ammo bizning hazrati Azizonimiz navvara marqadahuning ba’zi kayfiyatlaridan biri shu ediki, hazrat Eshon ma’rifat haqida gapirayotgan vaqtlarida va sirlar daryosining durlarini ipga tizayotganlarida, goh-gohida o’zlarining muborak davrlariga bog’liq hikoyatni aytayotganlarida, bor quvvatlari bilan na’ra tortib yuborar va so’zlarini

<sup>93</sup> **Al-vajd** — botinda paydo bo’ladigan rahmoniy iztirob, hayajon, shavq. **Vajd** — ishq va muhabbat. Oshiq qalbida tabiiy bir ravishda tug’iladigan ilhom, surur va tajalliylar. Hujviriy: «Vajdning mohiyatini izohlamoq imkonsizdir. Zero, vajd haqiqiy ko’rish (kashf)dagi alamdurki, alamni qalam bilan tasvirlashning imkoni yo’q», deydi.

yakunlar edilar. Va bu holat vajdu hol tug'yonining kamolotidan va zilol suvga tashnaligidan sodir bo'lardi. Bayt:

*Har zamon na'ra urar dil iztirobidan mudom,  
Shavq tashnalig'da der, obu hayotim qaydasen?*

Va gohida pinhoniylar sirlar aytishda va ma'nolarni fosh qilishda sayha tortib (faryod chekib), ovoz chiqarardilar. Lekin Hazrati Eshonning bunday sayha chekishlari avvalgi vaqtlarda ko'proq, oxirgi paytlarda esa kamroq sodir bo'lar edi. Va gohida sayha tortib yuborganliklarida, "bu sayhani o'z ixtiyorim bilan tortmoqdaman, va lekin ko'pincha men beixtiyor sayha tortaman", deb aytardilar.

Aytar edilar, Ibnul vaqt (vaqtning o'g'li) bilan abulvaqt (vaqtning otasi) orasidagi farq shuki, ibnul vaqt sayha qilish va beixtiyor na'ra tortish vaqtini poylaydi. Va lekin Abul vaqt doimo vaqt sohibidir va unga na'ra tortish ham sabr qilish ham ixtiyorlidir.

Va lekin vajd ahlining nazdida, taskin (xotirjamlik, sokinlik) va tamkin (vazminlik, bosiqlik) e'tiborliroqdur. Chunonchi, buyururlar, bayt:

*Ey Xudoydod, sabr etib tur, nola afg'oning qo'yub,  
Dam-badam hajr o'tida har necha biryondir ko'ngil.*

Aytar edilar, Vaqt sohibi shuki, vajd mahalida o'z ahvolidan shunday voqif va xabardor bo'lib turadiki, agar uning hovuchi to'la tariq donlari bo'lsayu, samo<sup>94</sup> va raqs chog'ida, undan ozrog'i to'kilsa, undan qanchasi to'kilgani-yu, qanchasi qolganini bilishi kerak. Agar shunday bo'lmasa, uning vajdu holiga unchalik e'tibor yo'qdir. Bayt:

*Donishe dar ayni nodonist in,  
Mantiqut tayri Sulaymonist in.*

(Mazmuni: Donishmandligimiz ayni nodonlikdir. Bu xuddi Sulaymonning qushlar tiliga o'xshash...)

---

<sup>94</sup> **Samo' va raqs** — zikru samo' payti so'fiylarning zikr aytib, vajd holida raqs tushishlari. Mavlaviya tariqatida zikrusamo' raqslari e'tiborli holatlardan biri hisoblangan.

Aytar edilar, takalluf yuzasidan oyoq-qo'lini huda-behudaga qimirlatish haromdir. Taskin holatida, uni haddan oshirib yuborish ham avomning ishidir. Nazm:

*Betakalluf chun daroyad rad makun,  
Holi mastonro ba jahli xud rad makun.*

*To nako 'bi az takalluf dastu poy,  
Donki in fisqast dar rohi Xudoy.*

(Mazmuni: Kishi takallufsiz kirib kelsa, uni qaytarma, nodonliging tufayli mastlar holini inkor qilma. Sen ham takalluf bilan qo'l-oyog'ingni qimirlatma. Chunki bunday qilish Xudoning yo'lida gunoh (riyo) sanaladi).

**Saj':** Zeroki, oshiq "Alast"<sup>95</sup> mayidan hamisha mast va behushdir va vajd va vasl Buroqiga minib olgan, bir vaqtning o'zida unga bu yopinchiq yelkasidadir va unga o'z borlig'i o'sha vaqtda, butunlay yo'qlik olamidadek va esdan chiqqandek. Va ravoyih (gulu rayhonlar) bo'stoni hurlarining har biri u holdan hayratda va ularning aqlari shu xayol bilan behushu hayrondir. Chunonchi, inoyat birla aytarlar, bayt:

*Chin "Alast" xamrin ichib, minsam Buroqing vaslig'a,  
Hamchunin mastonalardek ham havro<sup>96</sup> hayron bo'lur.*

Hikoyat. Qachonki, hazrati Azizon quddisa sirruhu xilvat va suhbatlarda samo'ga tursalar, odamlar yopirilib kelib, davrani toraytirib qo'yishardi. Do'stlardan ba'zilari, davra kengligini saqlab qolish niyatida, olomoni yopirilib kelishdan qaytarar edilar. Hazrati Eshon, navvara marqadahu, buyurar edilar: Samo' paytida, vajd ahlini qiyinchilikka solish joiz emas. Bas, shunday ekan, agar biz odamlarni yopirilib kelishdan qaytarsak va davraning kengligini saqlab qolmoqchi bo'lsak, vaqtni boy beramiz. Zero, bunday holda oraga qiyinchilik tushadi. Agar hammani o'z holiga qo'ysak va ustimizga bostirib kelishidan qaytarmasak, samo' qilishimiz qiyin kechadi. Lekin yaxshisi, o'zimizni himoya qilib, har bir kishini o'z holiga qoldirsak va tanu jonimiz bilan

<sup>95</sup> «Men Rabbingiz emasmanmi?» (A'rof, 172) oyatiga ishora.

<sup>96</sup> Havro — hurning ko'pligi.

haqiqiy ma'nolar olamiga yuzlansak va g'ayb sadosi va nidosini jon qulog'imiz bilan tinglasak, qanday ajoyib bo'lardi. Chunonchi, buyururlar, bayt:

*Bu Xudoydod tan bila ham jon bila sevdi sani,  
Bu sevukluk olamin o'zga duo qilsam bo'lur.*

Aytar edilar, men samo'ga turgan paytimda, zaminu osmon, arshu kursi — barcha-barchasini raqsu samo'da ko'rardim. Va kamina haqiru shikasta shunday fikrdaman, buning sababi shuki, tavhid ahlining fikricha, vujud aslida birdir. Barcha mavjudotning vujudi Haq jalla va 'alo vujudidan ayri emas. Va orif vujudi hamda Haq taolo zoti orasida begonalik sifati yo'qdir. Bas, shunday ekan, qachonki orifga vahdoniyat jazbalaridan jazba yetishar va subhoniylar lam'alardan lam'a (porlash, yarqirash) yetishar va shavqu vajd holatidan samo'ga kirishar ekan, albatta, barcha borliqni samo'da ko'rishi muqarrardir. Chunki, uning vujudi bilan borliq vujudi o'rtasidagi o'zgalik sifati vahdoniy nurlar partavi vositasida yo'qqa chiqadi. Vohid jamolining hayrati vositasida, juz'iy va kulliy narsalar vahdat (birlik) sifati bilan raqamlanadi. Chunonchi, buyururlar, bayt:

*Hayrating ko'nglumga tushti, qo'ymadi juzviyukull,  
Bu ko'ngulning olami yakson bo'lubtur, ne qilay?*

Aytar edilar, Hazrati Eshon umrlarining oxirlarida o'rinlaridan turishlari qiyin bo'lib qoldi. Ammo zikru samo' paytida kayfiyatlari o'zgarib, uchqur shamoldek sakrab turar, samo' va raqsni xuddi yumalovchi (koptok)dek bajarardilar. Bayt:

*Samo' oson buvad bar s o'fii garm,*

*Chu otash hast, jo'shidan chi kor ast?*

(Mazmuni: Otashqalb so'fiyga raqsu-samo' oson bo'ladi. Zero olov bo'lgan joyda qaynash hech narsa emas-da).



**Saj':** Chunki, oshiq ko'ngli Mahbub jamoli tajalliysidan xarob, uning jigari dildor shavqi otashidan kabob, shu sababdan, tanu joni zaifligiga qaramay, doim holi vajdu titroq va iztirob. Chunonchi, inoyat birla aytarlar, bayt:

*İshqingmeni qildi xarob, shavqing bila bag'rim kabob,  
Harnecha jonza'fibilanko'rmakuchunkuymakkerak.*

Aytar edilar, Hazrati Eshon raqsu samo' vaqtida hargiz nay, borbad va boshqa sozlarning ovozigiga berilmas edilar. Va qachonki, ularga vaqt g'olib kelganida va samo' uchun o'rinlaridan turganda, har bir kimsaning samo' maqomi holatini saqlashi uchun bor ovozlari bilan shovqin solardilar. Va jon lomakonga ko'chishi uchun ohu nola va vovaylo qilardilar. Va shavq maydonida, Habib visoli uchun "hoy-huy", "hoy-huy" derdilar. Chunonchi, inoyat birla aytarlar, bayt:

*Ey oshiqon, ey oshiqon, pehlat ba sui Lomakon,  
Javlani vasli o' kunid az hoy-huyu hoy-huyi ishq.*

(Mazmuni: Ey oshiqlar, ey oshiqlar, lomakon (makonsiz Alloh) tomonga ko'chishni boshlanglar. Ishqning "hoyu huy"i bilan uning vasli tomonga javlon qilinglar).

Aytar edilar, lug'atda "samo'" so'zining ma'nosi eshitmoqdir. Va bunday charx urishni va harakat qilishni shu sababdan samo' deganlarki, (bu holatda) quloq va jon haqiqatlar olamidani  "Irji'iy!" ("Rabbingiz (huzuri)ga qayting!")<sup>97</sup> ovozini eshitadi va ruh bulbuli liqo (yuz ko'rishish) va visol bo'stonida  "Vadxuliy jannatiy"<sup>98</sup> (va jannatimga kirgin!) va'dasi sirriga yetadi.

Chunonchi, inoyat birla aytarlar, bayt:

*Husningizning lolazori chun havas bo'lsa manga,  
Yuz tuman ming jonim o'lsa, bori jononing erur.*

Aytar edilar: Bas, shunga ko'ra, ruh asl vatani bo'lgan yuqori olamga rag'bat ko'rsatadi va tana (jism) xok (tuproq) olamida vatan tutib qoladiki, bu ham uning beasl va bebunyod ekanligidandir. Bas, ruh va tan orasidagi munoqasha (kelishmovchilik, tortishuv) tufayli, charx urib, raqs tushish taqozo etiladi. Bayt:

*Parvonavor gashtani so'fiy bahri chist,*

<sup>97</sup> Fajr surasining 28-oyatiga ishora.

<sup>98</sup> Fajr surasi 30-oyatiga ishora.

*To jon fidoyi do 'st ko 'nad holati samo '.*

(Mazmuni: Samo paytida do'stga jon fido qilish uchun so'fiy parvonadek charx urib aylanadi.)

**Saj':** Zeroki, oshiq hamisha Mahbub vafosiga zoru zordir. Va jon abadiylik mulkida istiqomat qilish uchun har zamon besabru beqarordir. U azaliy Mahbubdan boshqasidan xoli, uzilgan va bezordir. Va k o ' ngilu jonu tan — har biri, uning muqaddas ruhi uchun begonadir. Chunonchi, inoyat qilib aytarlar, bayt:

*Oh, vafo qilmak uchun mulki abadga kirmaga,  
Bu Xudoydod oni olib o'zga ham ag'yor erur.*

Aytar edilar, gohida xilvatxonada hazrati Azizonimiz quddisa ruhahaning ahvollari o'zgacha bo'lib, samo'dagi jazavalari haddidan oshib, xilvatxonadan chiqib ketardilar. Do'stlar xilvatni davom ettirardilar. Ukishi esa ahliyalari (oilalari) huzuriga borar va biroz muddat har xil mavzuda hikoyalar aytardilar. Toki, u holatdan biroz taskin topib, so'ngra do'stlari oldiga qaytib, zikrga va tasbehga mashg'ul bo'lardilar. Chunonchi, Hazrati Payg'ambar alayhissalomdan naql qilinganidek, qachonki, ul zotga vahdoniy kayfiyat va rabboniy jazba g'olib kelganida, hazrati Oyshai Siddiqa raziyallohu anhoga aytar edilar, “Kallimini yo humayroi”, ya'ni: “Ey qizil yuzginam, menga gapiring”, der edilar. Va bu so'z (humayro) kichraytirish ma'nosida bo'lib, muhabbat yuzasidan aytilgan edi. Chunki, Oysha onamiz xushchaqchaq qiz edilar. Hazrat Oyshaning gapirishlaridan maqsad hazrati Payg'ambar alayhissalomning ruhoniyyat holatidan bashariyyat holatiga qaytishlariga sabab bo'lgan. Hazrati Shayx Farididdin Attor rahimahulloh aytadilar, nazm:

*Dar shudan gufti “Arrihno yo Bilol”,  
To burun oyam az in ziyqi xayol.*

*Boz andar omdan oshufta o',  
“Kallimini yo humayro” gufta o'.*

(Mazmuni: Payg'ambarimiz (s.a.v.) kirib kelib “Ey Bilol, bizga xushbo'ylik tarat, toki bu g'amgin xayollardan forig' bo'lay”, derdilar. Gohida oshuftahol bo'lib, kirib



kelganlarida; “Gapirgil, ey qizil yuzligim”, deb Oisha onamizga murojaat etardilar. Mavlononing “Masnaviy”sidan keltirilgan mazkur baytlarda hazrat payg’ambarimiz (s.a.v.) uchun turli holatlar bo’lishiga ishora qilingan).

Zeroki, oshiq hamisha Habib ishqiga giriftor va raqiblar ta’nasiyu malomati va yomonliklaridan forig’dir. Ko’proq vaqti bashariy istaklarni tark etib, hazrati Subhon zoti tomonga qaytadi. Lekin bashariyat holiga kirish ham ajoyib va g’aroyibdirki, u jamol tajalliysini ko’paytiradi va habib sirlarini kashf etishga ko’maklashadi. Chunonchi, inoyat birla aytarlar, bayt:

*Ne jihat bo’ldi manga kelmoq basharliq sorig’a,*

*Ya’ni, ul sirri nihon taqi yechilsa ishqida.*

Aytar edilar, ko’proq vaqtlar shunday bo’lardiki, hazrati Azizonimiz quddisa sirruhu xilvatda ko’p yig’lar va bu muhib mushtoqlar ko’nglini qonu xastalar, jigalarini afgor qilib yuborardilar va toliblarni o’zlik pardasi bulutidan bezor etardilar. Bayt:

*Ey, tufayli xandai tu oftob,*

*Giryai tu korfarmoi sahob.*

(Mazmuni: Ey, saning kulging, oftobni charaqlatadi va yig’ing, bulutlarni junbushga keltirib yuboradi.)

Aytar edilar, soyil (Haq yo’lini istovchi)lardan biri men haqimda shunday deganini eshitib qoldim: “Agar unga visol davlati hosil bo’lganida edi, bunchalik yig’larni edi. Chunki, yig’i, qayg’u-g’am alomatidir va tabiiyki, qayg’u visol va vajd onlarida emas, balki unga erishilmaganda, undan uzoqlashganda (firoqda) hosil bo’ladi”.

Aytar edilar, men u soyil (gado)ning bu dag’dag’asiga shunday javob berdim: Visol davlatining hosil bo’lishidan va barkamol jamol mushohadasidan keyin ham yig’lash lozim, chunki, azaliy mahbub husni jamolining chek-chegarasi yo’q va uning lutfi ehsonining intihosi yo’q. Va bu kishining qanoat qilib, talab va orzudan to’xtab qolishi mumkin emas. Bas, shunday ekan, mahbub mushohadasiga qanchalik erishilsa, bunday kishining yig’isiyu nolayu afg’oni yanada ko’payadi.

**Saj’:** Chunki, oshiq firoq dastida doimo bechoradir. Va firoq dardini talab maqomida istashlik darmondir. Benavolik va hijronda yor vaslidan chora izlash darkordir. Mahbub husni tajalliysiga asir va yor talabida muhtaloyu hayrondir. U g’ayr (boshqalar) suratiga muhtalo bo’lib qolishdan qutulish yo’lini izlovchi. Va har zamon Mahbubi azaliyga vosil bo’lish va o’zligidan jiddiy qochuvchidir. Uning uchun Mahbub jamolini ko’rish joniga oromdir. Va har zamon Mahbub mushohadasi bilan giryonu nolon. Va hamisha ishqning dardu o’rtanishiga talabgor va Mahbub tarafiga nigarondir. Chunonchi, buyururlar, hikmat:

*Furqating qildi meni bechora, jonim qaydasen?*

*Dardinga darmon tilarman, mehribonim qaydasen?*

*Benavo qildim<sup>99</sup> seningsiz, chora ham hech qolmadi,*

*Chorae qilg’il menga, ey chorasozim, qaydasen!?*

*Husningiz qildi tajalliy ko’ngluma, bo’ldim asir,*

*Ístabon bo’ldim seni, ey dilnavozim qaydasen!?*

*Naqshi g’ayringbirla qolibturbuko’ngul muhtalo,*

*O’ynay o’ tqil meni, ey pokbozim qaydasen!?*

*Qo’ymag’il “man” ni manim birla, o’zungga tut mani,*

*Rahnamo bo’lg’il manga, ey rahnamoyim qaydasen!?*

*Sabretib, bo’lgilmening dardim bilan, dersen manga,*

*Har zamon ko’rsam seni, darmoni dardim qaydasen!?*

*Har zamon mehring bilan husnungga ko’nglim ovlayur,*

*Ovlag’il vasling bilan, ey mehribonim qaydasen!?*

---

<sup>99</sup> Qo’lyozmada “qildim”, lekin mazmunan “qoldim” to’g’ri keladi.

*Yo'q edim bor aylading, yuz ming inoyat aylabon,  
Ham taqi ko'rguz O'zungni, dilraboyim qaydasen!?*

*Ey Xudoydod, istagil har lahza oning dardini,  
Ohu vovaylo bilan deyim: Xayolim qaydasen!?*

Aytar edilar, muoyana (ayonlashish, tajalliy) paytida va visol chog'ida kamoli shavq va visol kayfiyati bilan yig'lash va siqtash ixtiyorsizdir va oshiq ko'zidan har lahza qon yoshlari to'kiladi. Chunonchi, inoyat birla aytarlar, bayt:

*Ey, xayolat didaam har lahza xunbor ovarad,  
Har zamon in giryaam dar vasli ham yor ovarad.*

(Mazmuni: Ey xayoli ko'zimdan qon yoshlar oqtirgan, har zamon bu yig'lashim yor vasliga yetaylaydi.)

(Bu holatni) misol tariqasida shunday tushuntirar edilar: Biror kishi uzoq vaqt ko'rmagan do'stining uyiga borsa, bir necha muddat undan yiroqda, mehnatu alamda bo'lganidan va firoq o'tida kuyganidan, bu kishida yig'lab yuborish ixtiyorsiz sodir bo'ladi. Chunki, u o'tgan mashaqqatli kunlarini eslash jarayonida, shu holatga tushadi. Bayt:

*Baro'zi vasli tu az shomi hajr metarsam,  
Ki zahr medihad ayyom dar navolai mo.*

(Mazmuni: Sening vasling kunida hajr shomidan qo'rqaman. Chunki ayyom bizning luqmamizga zahar solib turadi.)

Har kun yig'lashlik holati xoslarning maqomidir. Lekin visol muddatining ketib qolishidan qo'rqib yig'lashlik va bir holdan boshqa bir holga o'tib qolish xavfidan yig'lashlik ham borki, bayt:

*Baro'zi vasl medon charo har dam kasham ohe,  
Kudurathoi hijron ast, ki dil mekunam berun.*

(Mazmuni: Vasl kunida nima uchun har dam oh chekishimni bilasanmi? Bu oh bilan men hijron keltirgan g'amginliklarni ko'nglimdan chiqaraman!)

Bu xildagi yig'i — avom yig'isidir va bu yig'i sohibi hali kamolga yetib ulgurmagan, chunki uning yig'isi qo'rquv sababidandir.

Va Hazrati Xoja Abdulloh Ansoriy rahmatullohi alayh buyuradilar:

ليس في مقام أهل الخصوص وحشة الخوف: “Laysa fi maqomi ahlil xusus vahshatul-xavfi”. Ya'ni, **ahli xoslar maqomida qo'rqinch xavfi yo'qdir**. Chunki, Haqdan yiroqlik maqomida bo'lgani uchun, uqubatdan qo'rqishlik nafs ahliga tegishlidir. O'zlaridagi kayfiyatdan (holatdan) qo'rqanlari uchun, makrdan qo'rqishlik qalb arboblari xosdir. Sir arboblari va mushohada<sup>100</sup> va muoyana arboblariga bu qo'rquv yo'qdir.

**Saj'**: Zeroki, ular garchi zohirda firoq dashtida ovora ko'rinsalar-da, shaklda tuproqdan bo'lgan tana bilan bo'lsalar-da, lekin ma'noda hammalari Habib vaslidan shod va shukronadalar. Dunyoda hammalari o'zidan kechgan va Jononga payvastadirlar. Bizning Azizonimiz quddisa ruhahu aytganlaridek, bayt:

*Dar biyoboni firoqash gar biyaftad in dilam,*

*Nest g'am, chun vasli Xudro hamrohi jon soxta.*

(Mazmuni: Agar bu ko'nglim firoqi biyobonida holdan toysa hech boki yo'q. Chunki yor vaslini jonga bog'lab qo'ydi...)

Aytar edilar, yig'i agar dardu qayg'udan bo'lsa, ko'zdan oqqan yosh jigardan paydo bo'ladi, agar yig'i dardsiz bo'lsa, ko'zdan oqqan yosh ko'zning o'zidan paydo bo'ladi, chunki bunday yig'ida ichki harorat bo'lmaydi va bunday yig'i raqib yig'isidir. Bayt:

*Ey Xudoydod, bu raqiblar olami tang olam ul,*

*Bevafolar ichra bas afgordurman, qaydasen?*

<sup>100</sup> **Muroqaba** — Mushohada; biror narsaga diqqat ila nigoh tashlamoq, Alloh yodiga berilib, dunyoga taalluqli xayol, o'tkinchi mayllardan forig' bo'lmoq. Tasavvufda muroqaba ikki xilga ajratilgan, biri avomning muroqabasi bo'lib, bunda Haqqa tolib kishi Allohning amrlarini ado etadi. Uning o'z ahvolidan ogoh va talabgor ekanini anglab, ayni shu mulohazadan g'ofil qolmaydi. Ikkinchisi — murokabei xavos. Bunda solik muhabbat jazbasi bilan Allohning sirri bo'lgan ahadiyatni davomli tarzda barcha ashyoda mushohada va mulohaza qiladi hamda shu jarayonda ashyoni tamoman esdan chiqaradi.

Aytar edilar, jigarning o'rtanishi va dil haroratidan bo'lgan yig'ining alomati shulki, ko'z yoshi issiq va kuydiruvchi bo'ladi. Agar ko'z yoshi sovuq bo'lsa, u bedard kishilarning yig'isidir. Dardahlining yig'isi "Az-zohiru unvonul-botin", ya'ni: "**Zohir botinning belgisidir**", ishorasiga ko'ra, jonning harorati va kuymog'idandir. Va oshiq doimo beixtiyor va betakalluf, giryonu nolondir va oshiqning yig'isi g'ayb jamoli mushohadasidan hayron bo'lgani uchundir. Zeroki, hayratu hasrat dardi bedavo darddir. Chunonchi, inoyat birla aytarlar, hikmat:

*Ey, jamoling ko'rgali sezon erurmen zor-zor,  
Hajr o'tida qo'ymag'il, biryon erurmen zor-zor!*

*Kechayu kunduz xayoling, vah, meni qildi asir.  
Bu asirlik holida giryon erurman zor-zor!*

*To sening husning tajalliy qildi xasta ko'nqlima  
Usru ko'p afg'on bilan nolon erurmen zor-zor!*

*Men qachon kelgay edim, ishqing meni kelturmasa,  
Men sanga oshiq bo'lub, hayron erurmen zor-zor!*

*Ey Xudoydod, men taqi hayronligimda zoru-xor,  
Hayratingda dardi bedarmon erurmenzor-zor!*

## O'N BESHINCHI BOB: MUSHOHADA BAYONIDA

المُشَاهَدَةُ سُقُوطُ الْحِجَابِ بِنَا

"Al-mushahadatu suqutul hijabi bina". Mushohada — maqsad yo'lidagi hijob (parda)ning nazarimizdan ko'tarilishidir. Ya'ni, beshaku begumon Mahbub zotining aybunuqsonsiz yuzidan niqobning ko'tarilishidir.


Ammo hazrati Azizonimiz quddisa sirruhu bu to'g'rida, o'z davrida sodir bo'lgan voqeani shunday hikoya qiladilar: Hazrati Azizon (Shayx Jamoliddin)


rahimahulloh tiriklik paytlarida, menda shunday hodisa yuz berdi; sir — nihonxona eshiklarini mening yuzimga ochardilar va bemonand Xoliqning olamni yorituvchi jamolini, sir olamida, ochiqchasiga menga ko'rsatardilar. Bu bilan dam-badam mening hayrat va hasratimni ko'paytirar edilar. Sir yuzasidan mahram bo'lganim uchun, menga sirlarini yashirishni buyurardilar. Bayt:

*Chehraat nodida oshiq har dam o' hayrontar ast,*

*Bo visolat ham zi sirrash mahrami asror shud.*

(Mazmuni: Chehrangni ko'rmasa-da, oshiqning har damda hayronligi oshaveradi. Visoling va sirringa oshno bo'lish tufayli u mahrami asror bo'ldi).



“*Falamma tajalla Robbuhu lil jabali ja'alahu dakkan*”. “**Rabbi toqqa tajalliy** (kichik bir ko'rinish) **qilgan edi, uni maydalab tashladi** (*A'rof, 143*) bashorati bilan hijronning tog'dek g'amini pora-pora qilib, siynam borgohidan bir bo'lagini olib tashladilar. Va meni o'zining borlig'idan  “*Va xorro Musa so'iqon*”. “**Muso** (ham ta'sirlanib) **behush holda yiqildi**” (*A'rof, 143*) ishorasi bilan, meni behush qilar edilar. O'zimni yo'lda yiqilib yotgan holda ko'rar edim va ruhim kalimi Alloh taolo bilan so'zlab aytardiki: “Ufavvizu amriy ilayka”<sup>101</sup>, **ya'ni, o'z ishimni va inon-ixtiyorimni Senga topshirdim**. Chunonchi, aytadilar. Bayt:

*Ey xayolat gavhari yakdonavash heche namond,*

*Chun kalimulloh az xud raftu juz heche namond.*

(Mazmuni: Ey xayoling, gavhari yakdonadur, undan boshqa hech narsa qolmadi! Xuddi Kalimulloh — Muso (a.s.) o'zidan ketganidan keyin hech narsa qolmagani kabi).

Bayt:

*Har zamon hayronlig'im asru bo'lubtur netayin,*

<sup>101</sup> “*Va ufavvizu amri ilallohi...*” (**Men o'zimni Allohga topshirarman**) G'ofir surasi 44-oyatga ishora.

*Jonu dilni oxip ham taqi obdon ango<sup>102</sup>.*

Aytar edilar, men tushimda Hazrati Risolatpanoh solallohu alayhi vasallamni nihoyat go'zal kamoli husnda, latofatda, noziklik va malohatda ko'rdim. Zeroki, aytishlaricha: Mahbub jamoli mushohada oynasida ko'ngil ravshanligining miqdoriga qarab nur sochadi. Bayt:

*Ba qabri oynai husni to' menamoyad ro'y,*

*Darig'ki, siynai mo nuhufta dar zangast.*

(Mazmuni: Sening husning oynasi (ko'ngil) holatiga qarab chehrasi namoyon bo'ladi. Afsuski, bizning ko'ksimiz zanglar ostida pinhon qolib ketgandir.)

Aytadilar: (Men yuzlanib) shunday dedim: Ey Rasululloh, bunday barkamol jamolni va bezavol husnni ko'rgan kimsa kofir holida qolishi mumkinmi? Nega yuz minglab joni bo'lsa, jonon yo'lida nisor qilmaydi?" Hazrati Eshonning bu so'zlari mehru muhabbatlarining kamol topganidan edi.

**Saj':** Zeroki, oshiq agar o'z foydasini bilsa, yuzini adam mulkidan boshqa tarafga burmaydi. Va g'aybiy jamolni mushohada qilishda basirat ko'zini g'ilay va ko'rlar kabi ko'rishdan saqlaydi. Liqoulloh talabi lazzatlaridan huzurlanadi va himmat nazarini huru g'ilmonlar tarafga burmaydi. Azalu abad va avvalu oxirni jamol mushohadasida bir xil ko'radi. O'zining ruh to'tisi tumshug'ini har lahzada dilnavoz Mahbubning shakar sochuvchi lablari tomon tutadi. Chunonchi, inoyat qiladilar, hikmat:

*Bilmadim, mulki adamdin chiqmag'aydim har sori,*

*Lozimi ishqi bo'lubon tursaydim men bir sori.*

*Gar Xudoni tilasang, ko'rmakligil bilgil yaqin,*

*Boqmag'ay zinhor ham ahvalu a'var sari.*

*Men Xudoni istamakdin lazzate topdim tamom,*

*Boqmag'aymen hargizin ham jannatu ham hur sari.*

---

<sup>102</sup> Misradan so'z tushib qolgan (S.S).

*Kim sening yuzingni ko'rsa, naylasun jannatni ul,  
Boqmag'ay hargizda ul ham avvalu oxir sari.  
Ne tilarsen bu Xudoydoddin hamisha umrida,  
Moyil o'l, har lahza ul lablari shakkar sari.*

Hikoyat: Ba'zi kaltafahm mashoyixlar hazrati Eshonning muborak suhbatlariga kelar va muborak majlislarida o'tirar edilar. Ular hazrati Eshonning sabrli va halim ekanliklarini ko'rib, g'alati ahvolga tushardilar. Va Hazrati Eshonning ahvollarini ham xuddi o'zlarining ahvollariga o'xshatib, ahvolu kayfiyatlari to'g'risida Hazrati Eshon huzurida gapirib berishardi va buni o'rtaga iliqlik kiritish hamda o'zlarini hol va zavq ahli, deb bildirish uchun aytib berishardi. Chunonchi, Mavlono Rumi quddisa ruhahu aytganlaridek, masnaviy:

*To tu mebini azizonro bashar,  
Donki, merosi Iblisàst in nàzàr.*

(Mazmuni: Toki sen aziz insonlarni oddiy bashariyat ahlidan desang yanglishasan va bilginki, bunday qarash, Iblisdan qolgan merosdir.)

*Peshi binoyon xomo'shi nofi tu,  
Bahri in omad xitobi "Ansitu"<sup>103</sup>.*

(Mazmuni: Ko'zi ochiq — ulug' insonlar oldida xomush turishing sening foydangdir. Shu sababdan ham Qur'onda: "**Jim bo'linglar!**", xitobi kelgan-da!)

*Peshi bino burdai sargini xushk,  
Ki bajuz inro bidoni nofi mushk.*

(Mazmuni: Dononing oldiga quruq tezakni olib borasan, uni mushk olinadigan ohu kindigi, deb o'ylaysan.)

<sup>103</sup> (*Qoluu ansituu...* — "Jim bo'linglar"). Ya'ni, "Ey Muhammad) eslang, huzuringizga bir guruh jinlarni Qur'on tinglasinlar, deb yuborgan edik. Bas, qachonki, ular hozir bo'lishgach, (bir-birlariga): "Jim bo'linglar", — dedilar. Bas, qachonki, (tilovat) tugatilgach, ular o'z qavmlari oldiga ogohlantiruvchi bo'lgan hollarida qaytib ketdilar" (*Ahkof, 29*) oyatiga ishora.



*Jarro, ey gandamag'zu ganda bix,  
Zeri bini binhiyu go'yi ki ux.*

(Mazmuni: Ey ahli noqis va ildizi bo'sh inson, chiroqni burning tagiga qo'yasanu, yana "uf" deya noliysan!)

*Ux-uxe bardoshti, ey gichu koj,  
Toki kolo'i badat yobad rivoj.*

(Mazmuni: Ey xotiri parishon, toki yomon matoing rivojlanib qolishi uchun "uf-uf"ingni qo'ymaysan.)

*To firebi on mashomi pokro,  
V-on xaranda gulshani aflokro.*

(Mazmuni: Qachongacha u pok dimog'li va falaklar gulshanini sotib oluvchini aldaysan!)

Lekin Hazrati Azizonimiz quddisa sirruhu kamoli sabru hikmat bilan u toifaning hikoyatlarini eshitardilar va u guruhning kayfiyati, zavqu holi to'g'risida, biror so'z aytmay, sukut saqlar edilar. Bayt:

*Hilmi o' xudro agarchi go'l soxt,  
Xeshtanro andake boyad shinox.*

(Mazmuni: Uning yumshoqligi, uni soddaga aylantirgan bo'lsa-da, o'zini ozgina bo'lsa ham tanimog'i lozim!)

Lekin ba'zida u toifaning hayosiz va insofsizligi haddidan oshib ketardi. Hazrati Azizonimiz quddisa sirruhu esa yaqinlari majlisida va odamlar huzurida ayrim hikoyatlar keltirar hamda ba'zi sirlardan voqif qilardilar. Bayt:

*Hilmi Haq garchi madoroho kunad,  
Chunki az had bigzarad rasvo kunad.*

(Mazmuni: Haqning hilmi (bandaga nisbatan yumshoqligi) unga madorlar bersada, agar banda haddidan oshsa rasvo qiladi).

Misol tariqasida, aytar edilar: Agar dunyoning barcha rohat va lazzatlarini jamlab, oxirat rohat va lazzatlari yoniga qo'yib tenglashtirsalar, oxirat lazzatlari oldida dunyo lazzatlari bir tomchidek bo'lib qoladi, oxirat lazzatlari esa ummon va Muhit daryosidek bepoyon bo'ladi. Agar dunyo va oxirat rohat-farog'atini birjoyga to'plashsa va uning muqobilida benazir Xoliq jamoli mushohadasi va **“Kun fayakun”** buyrug'i sohibining muoyana diydori qo'yib tenglashtirilsa, bu dunyoyu oxirat lazzatlari bir zarra bo'lib qoladi. Liqoulloh (Alloh diydorini ko'rish) lazzati go'yo olamni yoritib turuvchi quyosh kabidir. Chunonchi, buyuradilar, bayt:

*Ma'rifat maydonida bo'lsam agar bir lahzae,  
Ikki olam ko'zima chun zarrayi maydon bo'lar.*

Aytar edilar, albatta, (oshiq uchun) hol va kayfiyatini izhor qilish, o'zining hozir va birgaligini namoyon qilish haqiqiy pastlikdir. Bunday da'vo va dag'dag'a qilish xudbinlik alomatidir. Zeroki, bu sifatlar “o'zlik”ka tegishlidir, o'zlik esa borliq (menlik)dir. Bu toifa (so'fiylar) nazdida, hech narsa “menlik”dan yomonroq emas. Aytadilar, bayt:

*Zarraye gar ta'mi hasti boshadat,  
Kofiriyu butparastiy boshadat.*

(Mazmuni: Agar senda zarracha borliq ta'mi va mazasi bo'lsa, demak sen kofiru butparastsan.)

Va shu narsa ham aniqki, kishida zarracha bo'lsa-da, manmanlik qusuru nuqsonidan qolgan bo'lsa, bu kishi bemisl jamol mushohadasi va turli rohatu lazzatlardan hamda **فريق إلى الله ينظرون** “*Fariqun ilallohi yanzurun*” Ya'ni: **“Bir guruh kishilar Alloh jamoliga nazar soladilar”**, mujdasi va shodliklaridan mahrum va benasib bo'ladi. Chunonchi, inoyat birla aytarlar, bayt:

*Men seni sendin tilarmen, o'zlugimdin uzulub,  
O'zlugimdin uzmayin, hargiz tapolmon men seni.*

Toki, bu kishi o'zligiga muhtalo ekan, uning vujudi mavjudot va maxluqotlarning biridan ortiq emas va o'zining lazzatu huzur-halovatidan gapiradi. Lekin kimki, g'aybiy quyosh nurlari bilan munavvar bo'lsa, uning vujudi va huzuri kichik zarralardan bir zarradir.

Bas, bunday kimsa lazzatlardan qutulgan va unday kishini “g’arra” (mag’rur) deyishadi. **Saj’**: Zero, oshiqqa Mahbub doimo oromi jon, Mahbub visolisiz oshiq dilining ishi nolayu fig’on. Oshib uchun ma’shuq xayoli boshqalarning visolidan afzaldir. Oshiq hamisha Adn jannatiyu ravzai rizvon lazzatlariga beparvo, Sharq quyoshi uning himmatli nazari oldida xuddi soyabondekdir. Olam ishlari uning oldida boshdan oyoq afsonadir. Butun olam unga hayron, u esa ma’shuq jamoliga hayron va ishqu muhabbat sirlarini o’zida yashirgandir. Va ishqu muhabbatning kuyish va yonishlariga sabr qilmoq oshiqlarning tanlagan yo’lidir. Chunonchi, aytarlar, g’azal:

*Ne maro be tu qaroru, ne maro oromi jon*

*Ne maro ham toqatat, ne ham maro sabri nihon.*

(Mazmuni: Sensiz menda na qaror boru na jon oromi. Na toqatim boru, na yashirin sabrim.)

*Ro’y tu gashta nihonu, bo’i tu monad valek*

*Vah xayolat mar maro beh az visoli digaron<sup>104</sup>.*

(Mazmuni: Yuzing yashiringan, lekin xushbo’yliging qolgan. Oh, sening xayoling menga boshqalar visolidan afzaldir!)

*Be tuam rizvon naboyad, be tuam jannat chi kor,*

*Be tuam xurshedi xovar dar masal chun soyabon.*

(Mazmuni: Sensiz menga rizvon darkor emas. Sensiz jannatni nima qilay?! Nima ham qilardim! Sensiz menga Sharq quyoshi xuddi soyabon kabidir.)

*Be tuam afsona boshad in hama olam fusus*

*În hama olam ba man hayronu man hayroni on.*

(Mazmuni: Sensiz bu jozibakor olam afsonadir. Bu olam menga hayronu men unga

---

<sup>104</sup> *Vah xayolat tar maro beh az visoli digaron.* İzoh: Xudoydodning barcha forsiy g’azallaridagi “Ey xayolat” (Ey xayoling) deb boshlanuvchi iborani ayni ushbu misra izohlaydi. Ya’ni shoir bu o’rinda Xudoga “Xayoling meni o’rtagan, ozurda qilgan” murojaatlari bilan o’z muhabbatini ifodalagan. Shuningdek bu ibora Xudoydodning hamisha tafakkurda bo’lgan oriflardan ekanligini anglatadi.

hayronman.)

*Chand noli ey Xudoydod, dar g'ami hijroni o',*

*Sabr bo dardi hijronu mayovar bar zabon.*

(Mazmuni: Ey Xudoydod, qachongacha uning hijron g'amida noliysan! Dardu hijroniga sabr qilda, ularni tilingga keltirma!)

Aytar edilar, men ma'rifatullohdan gapirar ekanman, u kishining so'zlaridan meni masxara qilish hidi kelib turardi va uning aytayotgan hikoyasi men uchun afsonadek tuyulardi. Chunki, men ko'rganimni so'zlayman va u esa eshitganini aytadi. Zeroki, har nima desam o'z boshimdan o'tkazgan va ko'rgan voqealarni gapiraman. U esa odamlarning gapini eshitib olib, ularning ishini ko'rmasdan, ahli ayon zavqi va shavqining chegarasiga yetib bormasdan gapiradi. Masnaviy:

*Harfi darveshoni bad zi didi base,*

*To gumon oyadki, hasti tu kase.*

(Mazmuni: Yomon darveshlarning gaplarini ko'rgan bo'lsang kerak albatta, ular "sen hali odammisan?" deya murojaat qilayotgandek bo'lishadi.)

*To ba kay aksi xayoli lomi'a,*

*Jahd kun, tu gardi sohib voqi'a.*

(Mazmuni: Qachongacha yorishgan bir nurning soyasi bo'lib yurasan. Harakat qil, toki voqealar egasiga aylangaysan (Bu baytda inson qandaydir kichik bir holatlarga mahliyo bo'lmasdan, haqiqiy orifona voqealarni mushohada qilishga chaqirilgan.))

Hikoyat: Qachonki, hazrati Azizonimiz quddisa ruhahu mushohada to'g'risida suhbat qilsalar, ma'nolar daryosidan marvaridlar shodasini tizgandek gapirardilar. Hazrati Eshonning so'zlari qaynoq, a'zolari to'lqinlanar edi. Bayt:

*Jo'shi nutq az dil nishoni do'stist,*

*Bastagii nutq az be olatist.*

(Mazmuni: Nutqning chin ko'ngildan qaynab chiqishi do'stlik alomatidir. Nutqning bo'lmasligi esa ma'rifatsizlik alomatidir).

Aytar edilar, harchand men jim bo'lay va holu kayfiyatimni yashiray, gapirmay turolmasdim va mening gapimni eshitishga birovning toqati chidamaydi, chunki mening gapim xalqning odatidan tashqari va ularning tabiatiga va holatlariga muvofiq emas. Qanchalik o'zimga o'zim so'z bersam-da, lekin ichimda nimadir kuyib-yonib borayotganidan, mushohada otashi ko'ngil chirog'imni yoqayotganidan aslo jim tura olmasdim. Bayt:

*Dilki, dilbardidagi monad turush,  
Bulbuli, guldidagi monad xamush.*

(Mazmuni: Dilbarni ko'rgan ko'ngilda uning ta'siri qoladi. Gulni ko'rgan bulbul xomush bo'lib qoladi.)

Aytar edilar: Gohida men gapirmasam go'yo ichim chok-chok bo'lib yirtilayotgandek vahimaga tushaman va bu majruh tanim g'ayrat o'tida kuyib kul bo'ladigandek va tuproq kabi sochilib ketadigandek tuyuladi. Bayt:

*Gar hamego 'yam suxan aybam makun,  
Mebiso 'zam gar namego 'yam suxan.*

(Mazmuni: Agar so'z aytсам, sirni oshkor qilsam ayb qilmagin! Chunki men ichimda borini gapirmasam kuyib ketaman!)

**Saj':** Zero, oshiqqa hamisha ma'no va sirlar ayon. Sir aytish borasida, uning boshidan oyog'igacha zabon. (Shunday ahvolda) sirlar kashfi haqida indamay, sabr qilib, jim o'tirishga qani imkon?

Chunonchi, buyuradilar, bayt:

*Ey Xudoydod, necha so'zlarsen bu sirru ma'nilarin,*

*Demasam bo'lmas, bo'lubtur kashfiasroring manga.*

Hikoyat. Hazrati Azizonimiz quddisa ruhahuga mushohada davlati tashrifining rostligidan va muoyana hosil bo'lishidan gapirishi kuchli dalilga asoslangan edi. Bayt:

*Chun suxan rafti haqiqat bar zaborash,*

*Az ra'yi qalbiy xabar dodi bayonash.*

(Mazmuni: Qachonki soʻz haqiqatan tilga kelsa, u qalbning raʼyidan, maylidan xabar berib, oʻz soʻzini bayon qiladi).

Zeroki, u kishining gaplaridan kuygan jigarning va qovurilgan yurakning hidi kelib turardi. Bayt:

*Ey, jamoling koʻrgali soʻzon erurmen zor-zor,*

*Hajr oʻtida qoʻymogʻil biryon erurman zor-zor.*

Hikoyat. Avom xalqdan baʼzilari Hazrati Eshonga nisbatan notoʻgʻri harakat qilishar va baʼzi ishlarda u kishiga zahmat yetkazib qoʻyishardi. U kishi gohida ularga shafqat yuzasidan inoyatlar qilardilar.

Misra:

*Ehson yoʻli tuzildi, iymon yoʻli buzildi.*

Vaqtiki, banda mushohada va muoyana maqomiga yetar ekan الإحسان أن تعبد الله تعالى كأنك تراه “*Al-ehsanu an taʼbudulloha taʼala kaannaka tarohu*”. Yaʼni, “**Ehson goʻyo sen Xudoni koʻrib turgandek Unga ibodat qilishingdir**”, vaʼdasiga binoan, u oʻzining barcha soʻz va feʼli Xudodan ekanligiga hech shubha qilmaydi. فإن لم تكن تراه فإنه يراك “*Fain lam takun tarohu fainnahu yaroka*”. Yaʼni: “**Agar sen Xudoni koʻrmasang ham, albatta u seni koʻradi**”, soʻzining tasdigʻi bilan, oʻzini beixtiyor Uning qudrat qoʻlida koʻradi. Chunonchi, inoyat qilganlaridek, bayt:

*Chehrasi tajalliy har taraf sir mulkida,*

*Qildi xoli bu koʻngilni shubha ango ilkidin.*

Aytar edilar: Bas, nega endi har kim oʻzi uchun menga taklif qiladi va mening gapim va feʼlimni ayni maslahat deb biladi. Vaholanki, mening ishim har zamon hazrati Xudovand mushohadasiga bogʻlangan va undan boshqasiga ham ixtilotdadirman<sup>105</sup>. Xabarlarda keltirilganidek:

قلب المؤمن بين أصبعين من أصابع الرحمن “*Qalbul moʻmini bayna isbaʼayni min*

<sup>105</sup> Ixtilot a. Aralashish, qotishish, bordi-keldi qilish. Ixtilot qilmoq — bordi-keldi qilmoq, aralashmoq. (Navoiy asalari lugʻatidan).

*asobi'ir Rahmoni*". Ya'ni: **“Mo'minning qalbi Rahmon barmoqlaridan ikki barmog'ining orasidadir”** hadisiga asosan, mening qalbim doim Hazrati bemisl va bemonand (zotning) doimo ikki barmoqlari orasidadir. Va mening qalbimni:

يقلبه كيف يشاء

“*Yuqallibuhu kayfa yashou*” — **“Uni qaysi tomonga xohlasa aylantiradi”** mazmuniga muvofiq munkirlarning dalil va so'z yo'llari bog'langandir. **Saj'**: Zeroki, sadoqatli oshiq hamisha habib mushohadasi va sir olamida orzu va iqomatda bo'ladi. Va jon yorining visoli va liqosi uning uchun yaqin kunlarda kelajakdir. Uning ishining maslahati Mahbub qo'lida va raqib ta'nasidan forig' bo'ladi. Marhamat qilganlaridek, bayt:

*Orzum bor, har zamon sir mulkida bo'lsam muqim,*

*Ko'rsam oni har zamon, maslahatim ham on bo'lur.*

Aytar edilar: Hadisda keltirilishicha, agar jannat ahli bu hayoti dunyoda mushodada ahli bo'lmagan bo'lishsa va hayotlik paytlarida ularga bu davlat hosil bo'lmagan bo'lsa, jannatda ham ularga Xudoning jamolini ko'rish bir martadan ortiq bo'lmaydi.

Aytar edilar, men bu hadis haqida shunday dedim: U toifaga liqoulloh dunyoda

وَمَنْ كَانَتْ فِي هَذِهِ أَعْمَى

“*Va man kana fiy hazihi a'ma*” — **“Kimki, bu (dunyo)da ko'r (gumroh) ekan...”** (*Isro*, 72), taqdiri bilan qalb ko'zi ochilmagan bo'lsa, doimiy ahli mushohada va muoyanadan bo'lmasa va bu maqsad yo'lida urinib, ko'rmagan bo'lishsa, bihishtda Xudoni ko'rish davlatiga bir marotaba erishadi. Va bu davlatning davomli bo'lmasligining sababi shuki:

فَهُوَ فِي الْأَخِرَةِ أَعْمَى

“*Fa huva fil axirati a'ma*”.

— **“Bas, u oxiratda ham ko'r va butunlay yo'ldan ozuvchidir”** (*Isro*, 72), oyatining hukmi bilan, ularga ma'lum qilishadiki, shunday abadiy davlat va doimiy saodatdan mahrum qolishadi. Va maqrum va mahjurlik otashi hasratida yonishadi.

وَأَضَلَّ سَبِيلًا

“*va azollu sabilan*”. Ya'ni **“va yo'llarini yo'qotuvchilar”** ishorasi bilan, ne'mat lazzatlariga, jannat mevalariga ular uchun yo'llar yopiq bo'ladi. Chunonchi, marhamat qiladilar, bayt:

*Ey Xudoydod, jahd ayla munda vasl topmoq uchun,*

*Oxirat ko'rgon va'dadir, anda ango bo'lsa bo'lur.*

## O'N OLTINCHI BOB: YAQIYN VA HAYRAT HAQIDA

Va aytar edilarki: Xudovand taolo lufu karami ila oyat va hadislar bilan o'zining zoti vahdoniyatini bizga ma'lum qildi. Jumladan, shunday marhamat qildi:

﴿لَا إِلَهَ إِلَّا أَنَا﴾ “*La ilaha illa ana*”, ya'ni: “(«Ey payg'ambarlarim! Insonlarni ogohlantiringlarki, **Mendan o'zga iloh yo'q**” (*Nahl*, 2). Va Hazrati Payg'ambar alayhissalom ham bu ma'noni hadisi qudsiy orqali xabar berdilar:

﴿مَنْ لَمْ يَرْضَ بِرِضَائِي فَلْيَطْلُبْ رَبًّا سِوَايَ﴾ “*Man lam yarza birizoi falyatlub Rabban sivoya*”. “**Kimki Mening roziligimga — taqdirimga rozi bo'lmasa, o'ziga Mendan boshqa Xudo topsin**”, ya'ni Xudoyi taoloning qazoyi qadariga rozi bo'lish farzdir. Chunki, undan o'zga Iloh bo'lishi mumkin emas.

Oli Imron Surasining: ﴿شَهِدَ اللَّهُ أَنَّهُ لَا إِلَهَ إِلَّا هُوَ وَالْمَلَائِكَةُ﴾ “*Shahidallohu annahu la ilaha illa huva val malaikatu*”, ya'ni: “**Adolatda (barqaror) turib, Alloh guvohlik beradi: «Allohdan o'zga iloh yo'qdir». Farishtalar ham** (buni ta'kidladilar)” (*Oli Imron*, 18) oyati guvohligida, bizni mushriklik va gumrohlik da'vosidan qutqardi. Chunonchi, aytadilar, bayt:

*Sen mening ko'nghimda, demasam hech mouman,*

*Sensizin bo'lsam, manga ko'p qotilur dushvorlar.*

﴿وَأُولُوا الْعِلْمِ قَائِمًا بِالْقِسْطِ﴾ “*Va ulul 'ilmi qoimam bil qist*” (**va ilm egalari ham** (buni ta'kidladilar) (*Oli Imron*, 18) oyati bilan, O'z Zotining yakkayu yagonaligi yo'lida to'g'ri va sobitqadam ayladi.

﴿إِنَّ فِي ذَلِكَ لَآيَاتٍ لِّقَوْمٍ يَعْقِلُونَ﴾ “*Inna fi zalika la ayatil liqovmiy ya'qilun*”. “**Albatta, bunda anglyadigan qavm uchun alomatlar bordir**” (*Ra'd*, 4) oyatining xushxabari bilan, falaklarning aylanishida, yer olamining o'zgarishida, quyosh va oyniing ziyo taratishida, Zuhra va yulduzlarning nur sochishida oqillar uchun dalil va hujjatlar bor deb, bizni o'z inoyati bilan oqillar qatoriga qo'shdi va bizga o'zining yakkayu yagona Zotini idrok qilish bashoratini yetkazdi. Bayt:




*Jon chu dar tan raftu tan z-u zinda shud,*

*Aql dodash, to bad — o' binanda shud.*

(Mazmuni: Jon tanaga kiringach, tana u bilan tirik bo'lganidek, insonga aql berdi, toki u bilan ko'ruvchi (Yaratuvchini tanuvchi) bo'lsin.)

Aytar edilar: Men bu aqliy va xabariy bashoratga qoniqib qolganim yo'q, balki “*Laysal xabaru kal muoyana*”, ya'ni. “Eshitilgan xabar ko'rilgandek bo'lmaydi”, hikmatiga amal qilib, ilmimni ko'paytirishni istadim. O'zimdagi aqliy va naqliy ilmu ma'rifatimga

qanoat qilmasdan,  “*Faman kana yarju liqoa Robbihi*” (**Bas, kimki Parvardigori bilan muloqotda bo'lishdan umidvor bo'lsa... Kahf, 110**) oyati hikmatidan umid qilib, sa'yu harakatlar qildim va benazir Xoliq jamoli mushohadasini orzu etdim. Chunonchi, aytadilar, bayt:

*Barchani tark aylabon, qildim tamanno ko'rgali,*

*Ohu vovaylo bilan giryonu nolondur ko'ngil.*

Qo'limni ahli dillar etagiga urdim. Bayt:

*Pir boyad, pohro tanho marav,*


*Az sari umyo darin daryo marav.*


(Mazmuni: Yo'lga yolg'iz kirmagil — pir kerakdir. Ko'r-ko'rona, bu daryodan kechmagil!)

*Pir kerak yo'llarda, yolg'iz yurmagil,*

*Ko'r bo'lib daryoga o'zni urmagil<sup>106</sup>.*

<sup>106</sup> F. Attor ijodidan, J. Kamol tarjimasini.

Murshidi komil buyrug'i bilan va:  “*Fal ya'mal 'amalan solihan*” (...u holda ezgu amal qilsin... *Kahf, 110*) farmoniga ko'ra, qalbni isloh qilishga va botil nafsdan fasod (yomonlik)larni yo'qotishga urindim. Chanqoqlik va ochlik

sharbatini ichdim. Va:  “*Vala yushrik bi'ibadati Robbihi ahada*” (...va Parvardigoriga ibodat qilishda hech kimni (Unga) sherik qilmasin! *Kahf, 110*) tanbehiga asosan, boshqaga ibodat va bandalik qilishni o'z ko'nglimdan yiroq qildim. Zot mushohadasida mosivolarni sherik qilishdan o'zimni xalos etdim. Himmatimga yarasha, Zoti ahadiyat inoyati bilan, mushohada va muoyana maydonida g'avg'oyu to'polon (harakat)qildim.

**Saj':** Kechayu kunduz azaliy Mahbub ishqida zor-zor kezdim. Va uni dam-badam ko'rishga giriftor bo'ldim. Va Usiz bir daqiqa ham umrimni o'tkazmoqchi emasman. Zeroki, uning mehnatu hijronidan afgor bo'lib, jumla olamdan begona va Mahbubga yor bo'ldim. Mahbub jamolini mushohada qilgach, asiru beqaror bo'ldim. Chunonchi, buyururlar, hikmat:

*Kechayu kunduz, sening ishing bilan zoram senga,*

*Ko'rgali ham dam-badam, asru giriftoram senga.*

*Ne qilay men sensizin, umrum kerakmas bir zamon,*

*Bag'rimi qon aylading, ishqingda afgoram senga!*

*Bag'rimi sadpora qilding, hajr ilan, eymohro'y,*

*Bo'lmagil begona mendin, men taqi yoram senga!*


*Ko'rmagimdin bir zamon qilding bu ko'nglumni asir,*

*Ne balolig' kun edikim, asru afgoram senga!*

*Ey Xudoydod, ishqida kuygilu yong'il har zamon,*

*Qilmading sabru qarore, nechakim zoram senga!*

Aytar edilar, menda bechun jamolini mushohada qilishda biror taraddud (ikkilanish)


qolmadi va har zamon unga hozirmanki:  “*Vujuhuy yavmaizin nazirotun ila Robbiha nazirotun*”. (U **Kunda ba'zi yuzlar yashnovchi, Parvardigorlariga boqib turuvchidir**) (*Qiyomat*, 22-23). Bu oyat mazmuniga ko'ra, qiyomat kunida ba'zi bandalarga mushohada davlati hosil bo'ladi. Tasavvuf ahlining fikricha, g'aybiy jamolni mushohada qilishlik bu dunyoda sir ko'zi bilan hosil bo'ladi... Bayt:


*Digaronro va 'dai fardo buvad,*


*Oshiqonro naqdi ham injo buvad.*

(Mazmuni: Boshqalar uchun (diydor ko'rish) qiyomatda va'da berilgan bo'lsa, oshiqlar uchun bu dunyoda naqd qilingandir...)

Chunki, ahli mushohada aytishadiki, qiyomatning qoyim bo'lishi bu dunyoda ham bizga ravshandir. Qiyomatning zuhuri sirlarning zohir bo'lishi uchundir,

marhamat qilinganidek:  “*Yavma tublas-saroiru*”, (**Sirlar fosh qilinadigan kuni** (*Toriq* 9), ya'ni Qiyomat kunda barcha sirlar oshkor bo'ladi. Va

bandaga ham hayotlik chog'ida oxirat ahkomlari:  “*Kallo lav ta'lamuna 'ilmal yaqiyn*” (**Yo'q! Agar** (dunyoparastlik oqibatini) **aniq ilm bilan bilganingizda edi** (uni do'st tutmas edingiz) (*Takosur*, 6) hukmiga ko'ra, aniq va ravshan

bo'ladi. “*Lataravunnal jahiyma*”  (**Qasamki, albatta, sizlar do'zaxni ko'rasizlar!**) (*Takosur*, 6) ishorasi bilan hatto pardalar ko'z oldidan ko'tarilganda ham, uning (mushohada ahlining) ishonchi bir zarra ortmaydi. Chunonchi, Ali karamallohu vajhahu Aytadilar, “Lav kushifal g'itoumazdattu yaqinan”. Tarjima: “Agar pardalar ko'tarilganda ham ishonchimdan hech narsa ziyoda bo'lmaydi”. Jahannamning abadiy hayotini shu qadar yaqin bildimki, o'rtadan parda olib tashlanganda ham ishonchimni bir zarra ortirmaydi”.


Aytar edilar, lekin bu ko'rishlik men seni va sen meni ko'rishing kabi emas, balki pinhona ko'rishishdir. Chunonchi, buyururlar, bayt:

*Ey xayolat aqlu husham dar gumon andoxta,*

*Karda ro'yat jilvae, dardi nihon andoxta.*

(Mazmuni: Ey xayoling aqlu hushimni gumonga solgan, yuzingni jilvalatib, ko'nglinga pinhona dard solding!)

Zeroki, u ko'rishlik oshkora va zohir bo'lganida edi:



“Fallama tajalla Robbuhu liljabali ja'alahu dakkan”

**(Rabbi toqqa tajalliy** (kichik bir ko'rinish) **qilgan edi, uni maydalab tashladi** (*A'rof, 143*) hukmi bilan, bu kishining vujudi somon xas-xashagidek pora-pora bo'lib, titilib ketgan bo'lardi. Bayt:

*Yak tajalliy kard husnash Turro bigdoxt O',*

*Yak tajalliy digar kardi jahon bigudoxti.*

(Mazmuni: Husnining bir tajalliysi bilan u Tur tog'ini kuydirib yubordi. Agar yana bir marta tajalliy qilganida butun dunyoni eritib yuborardi).

Aytar edilar, Xudoyi azza va jalla hakimdir. Ya'ni, o'z jamolini bir marta ko'rsatish bilan, uning vujudini yo'q qilib yuborishni hikmat ko'rmadi, shuning uchun ham pinhon ko'rinadi va doimiy ko'rinadi.

**Saj':** Zeroki, oshiqning dili Mahbub jamoli mushohadasini ko'rishdan hamisha hayron bo'ladi va oshiqning hayrati har lahza turlicha va o'zgacha bo'ladi. Mushohada hayratining ortishi oshiqni besabr, beqaror, chidamsiz va betoqat qilib qo'yadi. Ahli hayrat qoshida kulliy va juz'iy (katta va kichik) narsalar hammasi bir xil bo'lib qoladi. Hayrat ahlining hayronligigachora yo'q. Zeroki, bu (ma'shuq) Hakimdir. Jonon bo'lgani uchun, ahli hayratning Xudovandi olamning taqdiridan gina qilishlari munosib emas. chunki, ahli hayrat Jononning munisidirlar. Hikmat:

*Hayratingda bu ko'ngil hayron qolibdur, ne qilay.*

*Hayratingdin hayratim hayron qolibdur, ne qilay?*

*Hayrating eltti meni sonsiz taraf hech bo'lmadim,*

*Hayratingdin tug'di hayrat, tug'qusidur, ne qilay?*

*Hayrating qilg'usidur hamdam, vale noahlmen,*

*Hayratingda ham qaroru sabr yo'qdur, ne qilay?*

*Hayrating ko'nglumga tushti, qo'ymadi juzviyu kull,*

*Bu ko'ngulning olami yakson bo'lubdur, ne qilay?*

*Hayrating asru buzubtur bu vujudning olamin,*

*Hayrating xosiyati mundoq bo'lubdur, ne qilay?*

*Hayrating hayron qilibtur ahli dillar ko'nglini,*

*Taqdir birla bu hayronliq solibdur, ne qilay?*

*Hayrating hayronligi etti hasrat hayrat bilan*

*Shevai qullukda xud hayronlig'idur, ne qilay?*

*Chunki oshiqlik ishi vobastadur hayrat bilan,*

*Hayrating ham shirkatda andoq qilibdur, ne qilay?*

*Ey Xudoydod, hayratingdin qillmagilhargiz gila,*

*Kimki ahli dil bo'lur, hayrat angadur, ne qilay?*


Aytar edilar, men do'stlarimga bu paytlarda shunday saboq berganman: har bir qillinadigan ishda shariatga rioya qilish kerakki, bu o'zini tashqi tomondan pok tutishdir. Har bir ish va uning zohiriy hukmlarini shariat taqozosiga ko'ra bajarish lozim va Payg'ambar alayhissalomning: *"Ash-shari'atu aqvoli"*, ya'ni: **"Shariat mening aytganlarimdir"**, degan qavllariga amal qilish kerak. Va bu borada tariqat mulohazasiga (qarashlariga) ham amal qilish lozim; ya'ni, o'z ko'nglingni Hazrati Boriy taolo tomonga jamlash kerak. Va bunday ishni bajarishga tavfiqni U beradi, deb e'tiqod qilish kerak. Chunki, bunday amal Hazrati Payg'ambar alayhissalomning amallaridir. Chunonchi, marhamat qilib: *"Vat-tariqatu af'oli"*, ya'ni: **"Tariqat mening ishlarimdir"**, deganlar. U amrda haqiqat mushohadasini ham ko'ra bilish lozim, ya'ni mazkur amrni Xudoyi taoloni xuddi ko'rib turgandek bajarish lozim. Chunki, bu Payg'ambar alayhissalomning holatlaridirki, aytganlar: *"Al-haqiqatu holi"*, ya'ni: **"Haqiqat mening holimdir"**.

**Saj'**: Zeroki, oshiq dam-badam ma'shuqing vahdatini orzu qiladi va o'zining zohir va botinini daryo yuzidek tiniq qiladi. Va Mahbubning mushohadasidan umidvor bo'ladi. Va hikmat olamida Mahbubga yor va hamdam bo'lgisi keladi. Va yorning jahonga oro berguvchi jamolini tomosha qiladi. Chunonchi, inoyat bilan aytganlaridek, hikmat:

*Dam-badam qildim tamanno vahdatingdin men zaif,*

*Toki bo'lg'aysen mango, hikmat bilan, yori qadim.*

Men yoshlik chog'imda shunday rivoyat eshitgan edim: Agarkimsa Xudoyi taolo yo'lida bir narsa bersa, Xudoyi taolo uning badaliga o'n beradi. Va agar o'n narsa bersa, uning evaziga yuzta beradi. Agar bu kishi Xudoning roziligi uchun yuzni bersa, evaziga mingni beradi. Agar bu kishi Uning rizosi uchun mingni bersa, evaziga Xudoyi taolo diydorini nasib qiladi. Va aytar edilar, Men bu ma'noni ushbu oyat mazmunidan chiqardimki, marhamat qilinadi:



“Masalullazina yunfiquna amvalahum fi sabilillahi kamasali habbatin ambatat sab’a sanabila, fi kulli sunbulatim miatu habbah. Vallohu yuzo ifu limay yashau. Vallohu vasi’un ‘alim”. **“Alloh yo’lida mollarini ehson qiluvchilar (savobining) misoli go’yo bir donga o’xshaydiki, u har bir boshog’ida yuztadan doni bo’lgan yettita boshog’ni undirib chiqaradi. Alloh xohlagan kishilarga yanada ko’paytirib (savob) beradi. Alloh (karami) keng va bilimdonidir”** (Baqara, 261).

Aytar edilar, biriga o’n, o’niga yuz berishi mazmunini ushbu oyatdan chiqardim, marhamat qilinadi: “Man jaa bil hasanati falahu ‘ashru amsaliha”. **“Kimki (bir) hasana (savobli ish) qilsa, unga o’n barobar (ko’paytirib yozilur)”** (An’om, 160). Bu oyatshu ma’noni aniq bayon qilgan.

Aytar edilar, ming bergan evaziga diydor nasib bo’ladi, mazmunini esa: “Vallohu vasi’un ‘alim” **“Alloh (fazlu karami) keng va biluvchidir”** (Baqara, 261) dan chiqarib oldim. Zeroki, Xudoyi taolo O’zining Vosi’ sifati bilan zikr qilarkan, muqarrarki, bundan maqsad lutfu inoyatining cheksiz, mukammal ekanligini izhor qilishdir. Va Uning lutfu ehson manzili, bepoyon inoyatlari dilning xos haramidagi keng mahramxonasidan tashqarida bo’lmay, u joy Zotning jilvagohidir. Chunonchi, O’zi marhamat qilganidek: “Men yeru osmonlarga, Arshu Kursiga sig’mayman, bas, mo’min bandaning qalbiga sig’a olaman”. Demak, U Zotning lutfu inoyati cheksizligi shuki, mollarini infoq-ehson qilganlarning evaziga o’z diydorini mo’min bandaning qalbida

“Masalullazina yunfiquna amvalahum fi sabilillah”

**“Alloh yo’lida mollarini ehson qiluvchilar (savobining) misoli...”** xabari bilan jilvalantiradi. Ya’ni, Uning talabida zohirda jismu jasadlari bilan sa’y-harakat qilgan va undan yetti boshog’ unib chiqishi uchun muhabbat urug’ini o’zlarining dillariga ekkan

kimsalarni: “Kamasali habbatin ambatat sab’a sanabila”

oyati ishorasi bilan siylaydi. Yetti boshog’dan maqsad, ma’rifatullohning yetti vodiysidir va har bir boshog’da: “Fi kulli sunbulatim miatu habbatin” b ashorati bilan, yuztadan don paydo bo’ladi, bundan maqsad, har vodiya

yuztadan ruhiy maqom va manzillar bor. Uni qasamyod qilib: وَاللَّهُ يُضَاعِفُ لِمَنْ يَشَاءُ  
 “Vallohu yuzo’ifu limay yashau” oyati bilan ikki hissaga ko’paytirish sifati tajalliysi natijasining ko’pligidan bayon qiladi. Demak, ularning dillari jilvagohini va sir olamlarini kengaytiradi va ruhlarini: وَاللَّهُ وَاسِعٌ عَلِيمٌ “Vallohu vasi’un ‘alim” mubolag’asi bilan dono qiladi. Bundan maqsad, barkamol jamolni mushohada qilish va zavolsizilmni o’rgatishdir.

**Saj’:** Zeroki, oshiqqa dildordan boshqa jonajon yo’q. Lekin uni izhor qilmaydi. Va oshiqning barcha dardlariga yor dardidan boshqa davo yo’q. Ishqu muhabbat dardidan boshqa oshiqning jigarini afgor qiladigan narsa yo’q. Va agar barcha olamning dardi oshiq ko’ngliga bo’lsa-da, hali kamdir, ko’p emasdir. Va Oshiq ko’nglida nigorning ishqu muhabbati savdosidan boshqa savdo yo’q. Oshiq hech vaqt yorning dardidan ayro emas. Chunonchi, inoyat bilan aytadilar, hikmat:

*Ul azaldan tushti ko’nglum to abad mehring bilan,*

*Jumla dardim davosidur saning darding bilan.*

*Dardingiz afgor qildi bu ko’ngulni har zamon,*

*Jumla dardlarning davosi xush erurdarding bilan.*

*Dardingiz bisyor bo’ldi bu ko’ngul mulkida, do’st,*

*Bu ko’ngul xush yaroshur ham taqi darding bilan.*

*Dardinga darmon tilomon, bulajab mung erur ul,*

*Bulajab savdo erur mendin taqi darding bilan.*

*Ey Xudoydod, dard ilan bo’lg’il mudom ishqi uchun,*

*Zohir ayta ham o’zungni doimo darding bilan.*



Aytar edilar, Hazrati Shayx Farididdin Attor demishlar. Bayt:

*İshqro bo kofari xeshe buvad,*

*Kofari xud mag'zi darveshi buvad.*

(Mazmuni: İshining kofir bilan qarindoshchiligi bor. Haqiqiy kofirlik darveshlikning mag'zidir (*kofir deyilishidan maqsad, dunyo va uning jilvalariga e'tibor bermasdan fa'qat mashuqini sevishdir*).

Va aytar edilar: Bu baytning ma'nosi shuki, shariat ahlining iymoni, Xudoyi taoloni ko'rmasdan ishonish va uning hukmlarini qabul qilishdir.

Ahli tariqatning ham o'ziga xos iymoni bo'lib, u botin (qalb) o'zi bilan (ma'shuqning) bemisl jamolini muoyana ko'rmoqdir. Bu xildagi iymon esa surat ahli (zohirparastlar) nazdida, kufri pushaymonlik, azob hamda nadomat va malomat sababchisidir. Bayt:

*G'aromatast nazar bar mahvasheki, nadid,*


*Miyoni jilvai surat, jamoli ma'niro.*


(Mazmuni: Mahvashiga nazar solib, suratining jilva qilishidan — jamolining ma'nosini tuymaslik ziyonkorlikdir).

Bayt:

Naylasun miskin Xudoydod, ishq *sobit o'lg'oli*

Dinu iymoni sen-o'qsen, kufr ila hamxonadur.


Aytar edilar, ey, mening huzurimda Maliki allomning kalomi (Qur'oni karim)dan dars o'quvchilar. Albatta, lutf ko'rsating va himmatli bo'ling va bu kalomi sharifni mening huzurimda o'qishdan malul bo'lmanglar va ko'proq o'qinglar. Chunki, menda Allohning inoyati bilan basirat ko'zi ochilib, g'ayb narsalarni ko'radigan ko'zim yanada kengaydi. Qulog'im va hushim:  "bi yasma'uu" ishorasi orqali

Xudovand azza va jalla eshitadigan va sir ko'zim  "bi yabsuruu"<sup>107</sup> Uning nuri bilan ko'radigan bo'ldi. Bayt:

*İzzati ishqing vujudda sobit o'ldi dam-badam,*


*G'ayrdin o'zin sohibon, g'ayrni xor etgali.*

Va tavhid daraxtining otashin shu'lası nurlaridan:




"İnnani anallohu lo iloha illo ana". **"Darhaqiqat, Men Allohdirman! Mendan o'zga iloh yo'q!"** (Toho, 14) oyatining sadosi hurmati, Haqdan boshqasini qalbim to'ridan daf

etdim va berkitdim. O'z zohirimning junbushga kelishi va sokin bo'lishini:



"Fa'budniy". **"Bas, Mengagina ibodat qil"** (Toho, 14) buyrug'i bilan Haq jalla va 'aloning toat va ibodatiga moslashtirdim. Botiniy toat va ibodatimni:



"Va aqimus-salota lizikri". (**va Meni zikr qilish** (eslash uchun) **namozni ado qil!** (Toho, 14) amri bilan Alloh taolaga xos qildim va yana uning fikru zikriga mashg'ul bo'ldim. Chunonchi, buyurar edilar, bayt:

*Ahli dilasru quyubtur ko'nglini ishqing bilan,*

*G'aflati g'ayring ketibon sanga bedor etgali.*

Aytar edilar, siz mening oldimda Maliki allom kalomini o'qiyotganingizda, goho sizni orada ko'rmay qolaman, shu lahzalarda Kalomi majidni Haq jalla va 'alodan eshitayotgandek bo'laman. Bayt:

*Ham az-u bishnav suhanho oshkor,*

*Ham az-u monad vujudat poydor.*

(Mazmuni: Ham undan oshkoro so'zlar eshit! Ham undan vujuding poydor bo'lib qoladi.)

Aytar edilar, siz bilan gaplashayotgan birvaqtning o'zida, o'z Xudoyim bilan ham

<sup>107</sup> ("Bi yabsuruu" va "bi yasma'uu") so'zlari valiyilar haqida aytilgan: "Men uning ko'radigan ko'zi va eshitadigan qulog'i bo'laman" mazmunidagi hadisi qudsiydan olingan (S.S.).

tillashaman va bu oshkora suhbat u maxfiy suhbatga mone' bo'lolmaydi. Zeroki, bu zohir tilda siz bilan gaplashaman, u botin til bilan unga hikoyat qilaman. Bayt:

*Du zabon dorem go'yo hamchu nay,  
On yake pinhonastu bor labhoi vay.*

(Mazmuni: Xuddi nayga o'xshab ikki tilga egamiz. Ulardan biri Uning lablari orasida yashiringandir.)

**Saj'**: Zeroki, oshiq hamisha Mahbub bilan giriftor va uning mehru muhabbati dardi bilan dilafgor, ma'shuqdan boshqasi bilan oshiq kam savdolashadi. Va Mahbub zulfining halqasi sargardon oshiq uchun o'z tomoniga tortuvchi va o'zgaralar bilan muloqotga mone' bo'luvchi bo'yinturuqdir. Va visol gulistoni tarafidan go'yo bulbuldek zorli nolalari bordir. Chunonchi, buyururlar, hikmat:

*Saning ishqing bila boldim giriftor,  
Saning darding bila qildim dilafgor.*

*Saning zulfing mening halqimda<sup>108</sup> tushti,  
Saning mehring erur jonimda nochor.*

*Saning savdong jon bog'ida bo'lsa,  
Qilur ul hamchu bulbul nolavu zor.*

*Ajab mehring seni tushti ko'ngulga,  
Hamisha nolavu afg'on qilur zor.*


---


<sup>108</sup> Halqum ma'nosida (S.S).

*Xudoydod hiddatinda<sup>109</sup> g'arqa bo'ldi,*

*Qutuldi barcha g'amdin joni afgor.*

Aytar edilar, xalq suhbatidan siqilgan, tang holga tushgan paytimda, bir muddat xalq orasidan uzoqqa ketib qolardim. Bir necha kun do'stlar bilan tog'da bo'lardik. Bir kuni namozga niyat qilib: “Ro' ovardam ba qibla, qiblai man ba jihati Ka'ba” (Yuzimni Ka'ba tomon bo'lgan qiblaga qaratdim) degan gapimdan uyalib ketdim, chunki


men sharqu g'arbni  “*Va lillahil mashriqu val-mag'ribu*” “**(Mashriq ham, Mag'rib ham Allohnikidir)**” (*Baqara, 115*) oyati ishorasiga ko'ra, Xudoyi taologagina xos deb bilganman. Va qaysi tarafga yuzlansam:

 “*Faaynama tuvallu fasamma vajhullohi...*” “**(Bas, qaysi tarafga yuzingizni qaratsangiz, o'sha tomonda Allohning “yuzi”<sup>110</sup> mavjuddir)**” (*Baqara, 115*) oyatining ishorasi bilan, shu tarafni “Allohning yuzi” dan xoli, deb bilmadim va (har tarafda) Hazrati yakto, bemisl zotining mushohadasini ko'rardim. Chunonchi, inoyat bilan aytardilar, bayt:

*Yo'q edim, bor aylading, yuz ming inoyat aylabon,*

*Ham taqi ko'rguz o'zungni dilraboyim qaydasan.*

Va Payg'ambar alayhissalomning:



“*Li ma'allohi vaqtul la yasa'uni fihi malakum muqarrobun va la nabiiyum mursalun*” (“**Menda shunday lahzalar bo'ladiki, (Alloh qurbati sababidan) oraga muqarrab farishta ham, mursal payg'ambar ham sig'maydi**”). Hazrat payg'ambarimiz alayhissalom qavllari bashoratiga ko'ra, menda shunday bir lahzalar bo'lardiki, u paytda: “Fihi malakun muqarrabun” ishorasi bilan, ruhlar olamidan bo'lgan muqarrab farishta ham oraga sig'olmas va “valo nabiiyun mursalun” imo-

<sup>109</sup> Hiddat a. — tezlik, o'tkirlik, keskinlik; qizg'inlik, g'azab.

<sup>110</sup> Yuqoridagi oyat mutashobih oyatlardan biri bo'lib, majoziy ma'noda talqin qilinadi. (—S.S.).

ishorasiga ko'ra, vujudolamidan bo'lgan mursal nabiy ham oraga kirishdan mahrum edilar.

Bayt:

*Birav, ey aqli nomahram, ki bo visoli do'st,*

*Chunon xush xilvate doram ki man ham yatimi mahram.*

(Mazmuni: Ey nomahram aql, nari ket! Men do'st visoli bilan shunday xush xilvatga egamanki, go'yo men mahramning yetimi, arzandasiman).

Bas, shunday bo'lgach, o'z qiblam sifatida Ka'baga yuzlanishga uyalaman, zeroki u avomlar qiblasidir. Xoslar qiblasida esa mutlaqo do'stning yuzidir. Bayt:

*Shud ro'yi do'st qiblai mo, k-o' imomi shahar,*

*To dar namozi xesh bamo iqtido kunad.*

(Mazmuni: Do'stning yuzi biz uchun qibla bo'ldi, u shahar imomiga aytinglar, namozini bizga iqtido qilib o'qisin.)

**Saj':** Zeroki, oshiqning ko'ngli bir nazar (boqish) bilan Mahbub qo'lida giriftor va uning jonu ko'ngli hamisha majruhu afgor. Uning (ko'ngli) Ka'bayu, butxona — umuman undan boshqa barchasidan xolis va bezor. Va Mahbubi azaliy ishqida kechayu kunduz nola qiluvchiyu beqaror. Va Mahbub har zamon uning joniga qasd qiladiki, unga hijron o'tida nochor yonishu kuyish bor. Va Yorning la'li (labi)dan oquvchi zilol (pokiza, toza) chashmaga doim tashnayu zor. Va Azaliy mahbub jamoli mushohadasida hayronu giryon, zaifu xor. Va jannatu huru g'ilmon hamda ikki jahon lazzatidan mahrumu bebahrador. G'azal:

*Bir nazar tushmak bila, bo'ldim giriftoring sening,*

*Ko'nglumi olding, bording, joni sitam afgorman.*

*Beqaror o'ldum saning ishqing bilan, ey mohro'y,*

*Kecha-kunduz bo'libman nolalan zoring sening.*

*Sabru oromim ketibtur, ne qilay, ishqing bilan*

*Bu ko'ngilda yo'qturur, juz nolavu ohinz sening.*

*Jonima qasd aylading, qilding bu bag'rimni kabob,*

*Tushti bu ko'nglum ichinda o'tu hijroning sening.*

*Tashnadurmen, ichmaka la'li labingdin ber zulol,*

*Obi hayvondin to'kuldi la'li serobing sening.*

*Bulajab hayronlig'im husnungga bo'ldi ne qilay,*

*Nechakim husnungga boqtim asru hayroning sening.*

*Jannatul ma'vo kerakmas sensizin bir lahzae,*

*Bu Xudoydod naylasun, sensiz bu rizvoning sening.*


Aytar edilar, muoyana va mushohada ahliga shunday bir qisqa vaqt bo'ladiki, unda na she'rsig'adi va nashoirning o'zi. "Li ma'allohi vaqtun" iborasi shu ma'noni bildiradi. Lekin qachonki, u kishi bu holatdan insonlik holiga qaytsa, she'rxonligu baytxonliklarga kirishadi.

**Saj':** Zeroki, U jamolning hayrati oshib vujudini vayron qilgan, uning dil mulkidan boshqa narsalarni yo'q va namoyon qilgan va o'zining hayratida bunday xosiyatlarni yashirib qo'ygan. Chunonchi, buyururlar, bayt:

*Hayrating asru buzubtur bu vujudning olamin,*

*Hayrating xosiyati mundoq bilan, men ne qilay.*

Aytar edilar, qachonki men Xudovand azza va jalla to'g'risida gapirar

ekanman:  “*Va nahnu aqrobu ilayhi min hablil varid*”  
**“Biz unga bo’yin tomiridan ham yaqinroqdirmiz”** (“*Qof*”, 16) oyatini mulohaza qilsam, U mening jon tomirimni tortadi. Benazir Xolis jamoli mutolaasi, mening Xudoyi azza va jallaga nisbatan so’zlarim g’oyiblikda sodir bo’lmasligi uchun, meni qo’yib yubormaydi. Albatta, Xudovand jalla zikrahuga xitob qilishni xohlayman. Va agar gohi so’zning taqozosiga ko’ra gapirayotgan vaqtimda, Xudovandi karimni g’oyiblikda yodga oladigan bo’lsam, bunday eslashdan o’zim sharmanda bo’laman.

**Saj’:** Zeroki, doimiy mushohada tufayli g’oyiblik yo’li yopilgan. Undan boshqasiga do’st bo’lishdan qalbidagi rishta uzilgan. Chunonchi, marhamat qiladilar, bayt:

*Sen mening ko’nglumdabo’lsang, sevaram har damsani,*

*Ochilur ko’nglum ko’zi ko’rmak uchun ham zor-zor.*

Aytar edilar, Hazrati Azizonimiz rahimahulloh xizmatlarida bo’lgan paytimda, bir kuni majlisda Xoja Muhammad Porso hazratlarining shunday naql qilganlarini aytdilar. Kishi biror amalni bajarar ekan, u ishidan savob yoki qandaydir evaz (badal) kutishi kerak. Aksincha, qilgan ishi havoga sovurilgan bo’ladi. Shunda, Hazrati Azizon majlisa ahlidan so’radilar, aslida qilingan amaldan oxirat savobi, huru g’ilmon va boshqalarni umid qilmaslik kerak (ya’ni, xolis Alloh uchun ibodat qilish kerak, demoqchilar — S.S.). Vaholanki, nega hazrati Xoja Muhammad Porso rahmatullohi alayh qilingan amalning biror ajri yoki evazi bo’lishi kerak, deb aytganlar? Shunda men, gustohlik yuzasidan, shunday javob berdim: “Qilingan amaldan dunyo va oxirat va jannat bog’larini umid qilmaslik lozim. Ammo bemisl va bemonand Xoliqning mushohadasini umid etish va “Kun fayakun” amri sohibining jamolini orzu qilish farzi ayndir. Hazrati Muhammad Porsoning gaplari shu ma’nodadir. Bunday umid ajr va evazni umid qilishlikdir”. Bayt:

*Xayoli ro’yi tu har porso, ki qibla nasoxt,*

*Hama iyodati o’ro gunoh mexonand.*

(Mazmuni: Sening yuzing xayolini qibla qilib olmagan har bir taqvodorni ziyorat qilishni barcha gunoh deb biladi.)

Aytar edilar, Hazrati Azizon mening bu gapimdan juda shod va xushhol bo'ldilar. Men haqimda lutf va karam ko'rsatdilar.

**Saj':** Zeroki, bu javob mendan emasdi va unga mening aqlim ham yetmas edi, buning ustiga, sabru oromu bardoshim ham mening qo'limda emasdi. Chunki men, Mahbub jamolini ko'rmaslikdan, hamisha hijron dardida bo'lardim. Va ko'nglim mulkini ishq mamlakati podshohi va shavq lashkari sipohiga vaqf etgan edim. Va Ma'shuq xayoli aqlim ko'zini tikib qo'ygan. Muhabbat savdosi olovini jon mulkimda yoqqan edi. Sabru xomushlik garchi menga yaxshi bo'lsa-da, lekin ishq buyruqchisi meni gapirishga buyurar edi. Aytardilar:

*Ey xayolat aqli maro sarnagun andoxta,*

*Sabru oromu qaroramro ba gil darboxta.*

(Mazmuni: Ey xayoling, aqlimni ostin-ustun qilib yubordi, sabru oromu qarorimni loyga qorishtirib tashladi!)

*Garchi nanmoyad ba chashm<sup>111</sup> tal'ati zeboi tu,*

*Vah tamannoi tu ham bo dardi hijron soxta.*

---

<sup>111</sup> Chashm (ko'z)ning tasavvufda turli ma'nolari bor. Ashyo (narsalar)da Haqni mushohada qilish. Bu mushohadakorlik layoqati basariy sifat, deb ta'bir qilinadi. Ya'ni, solik nazaridan biror narsani chetda qoldirmaydigan foydali va zararli narsalarni nazorat qilib turuvchi, uning barcha yaxshi va yomon ahvoliga taalluqli basariy sifatlar. Navoiy yozadi:

Qotil ko'zungki o'ttutur elni boqib turub,

Boqmas manga, ko'zum nechakim tursa telmurub.

(«Badoe' ul-vasat», 66, 1)

Chashmi purxumor — solikning o'zida sayr qilishi.

Chashmi jodu — ilohiy jazbalar.

Chashmi nargis — kamol ahli pinhon tutadigan oliy martabalar.

Chashmai hayvon — ma'rifatning manbai va asosi, Haq ma'rifati.

Chashm va abru (qosh) va jamol — solik qalbiga quyiluvchi g'aybiy ilhomlar.



(Mazmuni: Garchi sening go'zal chiroying ko'zlarga oshkor bo'lmasa-da, sening vasling orzusi, hijron dardiga solib qo'ydi.)

*Mehri tu chun mulki dil bigirift mar ushshoqro,*

*Shohi shavqat chun sipohi so'yi oshiq boxta.*

(Mazmuni: Mehri oshiqlarning ko'ngil mulkini ishg'ol qilgan, shavqing podshohi oshiqlar tomonga qo'shin jo'natgan).

*Ey xayolat didayi aqlam nihon andoxta,*

*Vahki, savdoi ruxat dar mulki jon andoxta.*

(Mazmuni: Ey xayoling, aqlim ko'zini berkitgan. Voh ki yuzing savdosi jonim mulkiga g'ulg'ula solgan.)


*Ey Xudoydod, sabr kun, xomo'sh nishin mardvor,*

*Sirri mardonro nayobi juz zabon andoxta.*

(Mazmuni: Ey Xudoydod, sabr qil, mardlarcha xomush —jim o'tir. Zero, tilingni tiymasdan eranlar sirini bila olmaysan!)

## **O'N YETTINCHI BOB: FANO TO'G'RISIDA**

Alloh taboraka va taolo shunday marhamat qiladi:



“(Yer)

**yuzidagi barcha mavjudot foniidir. Ulug'lik va ikrom sohibi bo'lmish Rabbingizning “yuzi” boqiy qolur”** (Ar-Rahmon, 26-27).

Ya'ni, yer yuzida mavjud bo'lgan har bir jonzot borki, yo'qlik va fano olamiga yuz tutishi haqdir. Azal va abad sifati Zuljaloli val ikrom bo'lgan Zotgagina xosdir.

الفناء اضمحلل ما دون الحق في الحق

“*Al-fanou izmihlolu mo dunal Haqqi fil Haqqi*” ya’ni: **“Fano Haqdan boshqa narsalarning Haqda yo’q bo’lishidir”**.

Bizning Azizonimiz quddisa sirruhu bu borada, o’z boshlaridan o’tgan voqeani shunday hikoya qiladilar: Hazrati Azizon rahimahulloh dorul-fanodan dorul-baqoga rihlat qilganlarida (vafot etganlarida), mening tushimga kirdilar va ishora berdilar. “Qaniydi, Xudoyi taolo meni yo’qdan bor qilmaganida va bu bekorchi vujudni menga baxsh etmaganida yaxshi bo’lardi”, deb orzu qilardim. Chunonchi, inoyat bilan aytadilar, bayt:

*Bilmadim, mulki adamdin chiqmog’oydim har sari,*

*Lozimi ishq bo’lubon tursadim men bir sari.*

Aytar edilar: Bu tushning ta’biri menga juda qiyin bo’lgan edi. Zeroki, zohiran, mening bu orzuim Allohning qazoyu qadaridan tashqarida ko’rinar edi. Va hech kim bu tugunni mening dilimdan yecholmasdi. Lekin bir kun (maylot yoki milot)<sup>112</sup> kitobini mutolaa qilayotib, ushbu hadisga ko’zim tushdi.

قال النبي عليه السلام ليت رب محمد لم يخلق محمدا

Payg’ambar alayhissalom aytadilar: **Qaniydi, Muhammadning Rabbi Muhammadni yaratmaganda edi”**.

Vaqteki, bu hadisni o’qidim, o’z o’ylovimning haqiqatidan xabardor bo’ldim va qiynab yurgan narsadan xalos topdim.

**Saj’:** Chunki, kishi to o’zligidan kechmas ekan, uning Dildori bilan hamdam bo’lishi va uning yor alomatlaridan xabar topishi qiyindir. To o’zidan kechmaguncha va soflanmaguncha ag’yor qo’lidan qutulishi mushkul. Toki, vahdoniyat Zoti nuridan nishona hosil qilmasa, har qanday begona illatlardan qutulishi mushkuldir. Mahbubning ishorati yoki bashorati bo’lmasdan turib, har qancha sa’yu harakat qilmasin, yorga vosil bo’lishi mushkul. Va qazo sarhadidan to qadarning intihosigacha, do’st visolisiz yo’l bosib o’tsa, majruh ko’ngilga sabru qaror dushvor. Va har qancha visol davlatining tashrifini hosil qilsa-da, zor ko’ngilning qanoat qilib, orom olishi mushkul. Kimki, Mahbub jamoli jilvasini o’z ko’nglida ko’rgan bo’lsa,

<sup>112</sup> Bu qanday kitobligini bilmadik. (S.S)

uning Xudodan boshqasi bilan do'st bo'lishi mahol. Kimdaki, hayratu hasrat hosil bo'lgan ekan, uning jabru-jafu, xoru zorlik maydonidan qaytishi og'ir. Va kuygan oshiqning, notavon qalbini yor hijroni otashiga tashlab qo'yishga rozi bo'lishi mushkul. Chunonchi, bu ma'nolarni bayon etish uchun marhamat qiladilar, hikmat:

*O'zlugingdin uzmayin, anga bo'la olmas ko'ngil,*

*O'zinin mutlaq qo'yolmay ham nishon bo'lmas ko'ngil.*

*O'zlugimdin uzsam, ango tamanno qilsa men,*

*G'ayrdin to sof etmay, o'zgingdin sochmas ko'ngil.*

*Nuri zotingdin nishon topsa kishi k-u zarrae,*

*To abad hargiz kudurat qayg'ulan qolmas ko'ngil.*

*Nechakim eldim-yugurdim, o'zlugimdin ey ajab,*

*To ishorat bo'lmayin, sendin vafo ko'rmas ko'ngil.*

*Az qazo to ba qadar bo'lsam toki ham izdasam,*

*Sensizin birlahza, bir dam qaror etmas ko'ngil.*

*Kechavu kunduz yugurdim, qaydasen, deb tinmayin,*


*Topdim oxir davlati uzmo, vale tinmas ko'ngil.*

*Tal'ati zebong agar qilsa tulu' dil haddida,*

*G'ayrig'a ag'yor o'lub, sendin u kun sevmas ko'ngil.*

*Hayrating asruoshibtur, hasrating hambegumon,  
Nechakim tortsam jafoishqingda ham yonmas ko'ngul.  
Ey Xudoydod, ishq ilan kuyg'ilu yong'il har zamon,  
Ne qilay, hajr o'tig'a sabru rizo bermas ko'ngil.*

Aytar edilar:



«Biz esa unga sizlardan ko'ra yaqinroqdirmiz, lekin sizlar (buni) ko'rmassizlar» (*Voqea*, 85) oyatidan menga shunday ma'no kashf bo'ldiki, Xudoyi taolo marhamat qiladi: Menda bovujud ilm, qudrat, hikmat va izzat bo'lsa-da, sizlardan har bir insonga yaqinman. Ya'ni sizlarning har birlaringizning o'zligidan — zohiriy vujudidan ko'ra, Man—Xudovand yaqinroqman. Lekin sizlar ko'rmaysizlar. Bayt:

*Ey darig'o, hech kasro nest tob,*

*Diydaho ko'ru, jahon pur oftob.*

(Mazmuni: Hay darig', jahon to'la oftobu, ko'zlar ko'r, uni ko'rishga hech kimning tobi yo'q).

Va aytardilar: Bu ko'rolmaslikning sababi shuki, sizning nazaringiz o'z-o'zingizga tushibdir. Bu o'zni ("men"ni) ko'rish pardasi jahonni yorituvchi oftob va jonga fayz beruvchi jamolni ko'rishdan to'sib qo'ygandir. Uning yorishgan oydek ruxsori sizning nazar ayvoningiz oldidan uzoqlashgan va ko'ngil xonangiz vayronu joysiz qolgan. So'ngra, uning lutfi o'zini namoyon qilgan. Shundan so'ng, oshiqhijron mehnatidan yig'i, nola, «hoyu-huy»ga tushgan. Lekin oshiqning ichiyu tashi dilnavoz yorning ishqumuhabbati tufayli, ruhafzo bo'lgandir. Hikmat:

*Parda shud az abri hijron bar ruxi mahru man,*

*Toli'i farxunda andozad ruxash bo ruyi man.*

(Mazmuni: Hijron buluti oy yuzligim chehrasiga parda bo'ldi. Baxtli tole' yuzini yuzimga bosaman...)

*Chunki rafti ey moham, az peshi ayvoni nazar,*

*Xonai dil mond vayron, rahm ovar suyi man.*

(Mazmuni: Ey oy yuzligim, sen nazar ayvonidan ketib qolganing uchun ko'nglim xonasi vayron bo'lib qoldi, menga rahm qilgil!)

*Omada bo sad karam lutfat namudi behisob,*

*Mond az g'avg'oi hajrat, har zamon hoy— huyi man.*

(Mazmuni: Yuz xil marhamatlar bilan kelib, behisob lutf ko'rsatding. Hajring g'avg'osidan har zamon "hoyu-huy" imdan boshqa narsa qolmadi!)

*Bahri altofat namud in shevai lutfu kapam,*

*Bingar in chashmam damodam xun bar ruyi man.*

(Mazmuni: Bu lutfu karam shevasi — odati iltifotlar dengizini namoyon qildi. Yuzimga dam-badam qon yoshlar sochayotgan ko'zimga qara!)

*Ey Xudoydod, ar bijuyi az darunu az berun,*

*Juz muhabbat, v-az g'ami ishqat nayobi bo'yi man.*

(Mazmuni: Ey Xudoydod, agar yorni tashqaridan yo ichkaridan izlasang ham, muhabbatdan va ishqing g'amidan boshqa narsaning hidini topolmaysan.)

Aytar edilar, qish faslida bir guruh do'stlarimiz bilan kelishib, Karmanadan Buxoroga qarab yo'l oldik. Niyatimiz (ustozim) Hazrati Azizon rahimahulloh Karmanaga tashrif buyurib, manzilimizda biz bilan bir muddat xilvatda o'tirsalar, degan fikr edi. Qachonki, Hazrati Azizon rahimahulloh huzurlariga yetib borganimizda, hamrohlarim mendan

tezroq arzimizni u kishiga aytishga undashardi. Men u jamoatga shunday dedim: “Muridlik shuki, u o’zini o’likdek hissiz vaixtiyorsiz qo’yib qo’ysin, zohir va botinini shayxining tasarrufiga topshirsin va o’zining orzuyu murodlaridan tamoman kechsin va shayxning maslahatiga quloq tutsin va o’zini hargiz o’rtada bor deb bilmasin. Bas, agar bizning xotirimizga kelgan narsa haq bo’ladigan bo’lsa, albatta bu ma’no Hazrati Eshonning xotirlaridan ham o’tadi. Agar bu fikr u kishining muborak xotirlaridan o’tmasa, bu istaklarimizni Hazrati Eshonning muborak xotirlariga eslatishdan hech foyda yo’q”. Bas, nochor, bu ma’noni izhor qilishdan tilimizni tiydik va fikrlarimizni yetkazishdan xomush bo’ldik. Hazrati Azizon rahmatulloh lutfu karam yuzasidan, shu paytning o’zida, ulovlarini egarlashni va Karmana tomonga yo’l olishni buyurdilar. So’ngra esa istaganimizdek, manzilimizga tashrif buyurib, bizni xursand etdilar, xilvat va suhbatlar qildilar.

**Saj’:** Zeroki, toki kimda zarracha xudbinlik bo’lsa, bas, bu kishi bevafo va muhtalo. O’zlik (xudbinlik) qaydidan (bandidan) ozod va xalos bo’lgan kishining odati esa lutfu vafo. Kishi doimo o’ziga-o’zi jaf qiladi, lekin Xudo tarafidan lutfu inoyat bo’ladi. Xudodan boshqasiga do’stlik va muhabbat o’ta noahllikdandir. Lekin Haq taoloning lutfi bandaning nuqsonlarini kechiruvchidir. Va bizni yaratgani, uning lutfi kamolidan va bizga nisbatan uning inoyati behad cheksizdir. Shu bois ham, oshiq hamisha uning visoli va jamolini orzu va tamanno qiladi. Chunonchi, inoyat birla aytarlar, hikmat:

*Bevafolik olami mandin mango, mandin mango,*

*Lutfdin qilmoq vafo sandin sango, sandin sango.*

*Ko’p jafolar ko’rsatdim ham o’zima, ham o’zima,*

*Ko’p inoyatlar bo’lub sandin sango, sandin sango.*

*Necha noahllik qiloyin, sevmakim g’ayringni men,*

*Haddi yo’q muncha inoyat lutf ilan sandin sango.*

*Do 'stluqdin xalq qildinz ham taqi lutfing bilan,*

*Barcha olamdin inoyat ham taqi sandin mango.*

*Ey Xudoydod, ishqida qilg'il tamanno vaslidin,*

*Vaslini jumla xaloyiqqa tila, andin mango.*

Aytar edilar, holatimning boshlang'ich davrlarida, Xudoyi azza va jalla xotirimga shu istakni solgan ediki, xaloyiqning ko'ziga doim e'tiborsiz, xoru zor ko'rinsam, hech kim biror joyda men haqimda gapirmasa, hech kim meni suhbatiga tortmasa, majlislarda o'tirib tursamu hech kim menga parvo qilmasa va majlislarda menga tayinlangan joy bo'lmasa. Bayt:

*Xush davlatest, ey dil, benomu benishoni,*

*Ey koshki, nabudi, nomi manu nishon ham.*

(Mazmuni: Ey ko'ngil, benomu benishonlik qanday yaxshi davlatdir. Ey koshki, ham nomu, ham nishonim bo'lmasa edi!)

**Saj':** Mening bu orzularim shu sababdan ediki, hamisha boshimda ishqu muhabbatning savdosi bore di. Va mening qalbim dardu alam, nolayu afg'on va hasratlardan vovayloga to'la edi. Mening dunyoda borligim xolis shu orzu, shu istakka bog'liq edi. Bu istak azal-azaldan xotiramda huvaydo edi va abadiy shunday boqiy bo'lib qoladi. Zeroki, oshiqqa ruhoniyyat olamidanda insoniyyat olamiga kelishlik, Haq taolo asrori kashfining ortishi uchundir. Lekin bu ma'noni izhor qilish basirat ahliga loyiq. O'zlik dardini davolash uchun ko'p riyozatlar va fano lozimdir. Chunonchi, buyururlar, hikmat:

*Qo'ymag'il hargiz bu savdo ham, bu savdo ishqida,*

*Qilmag'il xoli ko'ngilni dardidin aslo ishqida.*

*Bolmag'im ushbu jahonda ne jihat erdi manga,*

*Ikki olam ichra men bo'lsam huvaydo ishqida.*

*Men azaldin yor uchun tushtum bu savdo yo'lig'a,*

*To abad bo'lsam taqi hayronu paydo ishqida.*

*Ne jihat bo'ldi manga kelmak basharliq sorig'a,*

*Ya'ni ul sirri nihon taqi ochilsa ishqida.*

*Ey Xudoydod, sirri dilni ochmag'il har xirag'a,*

*Ko'p riyozatlar keraktur, ko'p fanoyo ishqida.*

Aytar edilar, Hazrati Azizonimiz (Shayx Jamoliddin) xizmatlarida bo'lgan paytlarimda, do'stlardan biri meni tushida ko'ribdiki, men vafot etibman va meni dafn etishibdi. Va u do'stim mening qabrimni belgilash uchun ko'p bayroqlar jamlabdi. Ular bu tushlarini Hazrati Azizon rahimahullohga aytishganida, hazrati Eshon aytibdilarki, Mavlono Xudoydodga fano davlati hosil bo'libdi, u bayroqlar uning mashhurlik belgisidir. Musannif qalamiga mansub, bayt:

*Manki gumnomi tamanno menamudam solho,*

*Garchi gum gashtam vale mashhur gashtam dar fano.*

(Mazmuni: Men yillar davomida gumnomlikni orzu qilardim. Garchi gumnom bo'lsam-da, lekin fano dashtida mashhur bo'ldim).

**Saj'**: Zero, umrimning ibtidosiyu intiqosi jonon dardi bilan va uning yo'li g'ubori (changi)jonim ko'ziga to'tiyo va har bir dardimga darmondir. Hijron ilgidan hamisha mening majruh dilimga mujda (xushxabar) yetkazuvchidir. Meni yo'qlik olamidan borliq olamiga keltiruvchi Hazrati Subhon. Va azaldan Uning mehri jon orasidadir.



Ma'nolar va sirlarni kashf qilishda mening qalbim misli bulbuli hazordoston. Va bu ma'nolarning hammasi mening shuhratimga dalil va nishon. Chunonchi, aytadilar, hikmat:

*Muntahoi umrum o'ldi, oh, sening darding manga,*

*Jismu jonimga shifodur to'tiyo garding manga.*

*Hajringiz afgor qildi, bu ko'ngilni har zamon,*

*Vaslingiz qildi inoyat, mehrini solding manga.*

*Yo'q edim, chun bor qilding, ko'p inoyatlar qilib,*

*Davlatim haddin oshibdur, ko'p inoyoting manga.*

*Ul azaldin tushti mehring bu ko'ngil shahri aro,*

*To abad bo'lg'usidur boqiy saning mehring manga.*

*Bu Xudoydod, necha so'zlagay bu sir ma'nilarin,*

*Demasam bo'lmas, bo'lubtur kashfi asroring manga.*

Aytar edilar, men ko'p shogirdlarimga zikrga, suhbatga va xilvatga ijozat bergan edim. Va bu ijozat berishimning ma'nosi, ularning ishi bitdi va irshod olishlik darajasiga yetdi, degani emasdi. Balki, ularga ijozat berishim shu sababdan ediki, silsilamiz mashoyixlari turkiy ibora bilan aytganlaridek: "Ijzatliq tog' oshar", ya'ni, kimniki ijozati bo'lsa, tog'ning tepaliklarini qo'poradi va hech bir tog' bu insonning vujudidan ko'ra kattaroq va dovonlari qo'rqinchliroq emas. Bayt:

*Quvvat az Haqq xohamu tavfiq lof,*

*To ba dandon barkanam in ko'hi Qof.*

(Mazmuni: Quvvatni Haqdan istayman, Undan tavfiqni so'rayman. Toki, bu ko'hi Qofni tishim bilan sug'urib olsam!)

Va men bu shogirdlarimni nafasim va ijozatim barakotidan, o'z sa'yu

harakatlarini ziyoda qilib, zohiran mendan uzoq bo'lsalar ham botinlari bilan mashg'ul bo'lishlarini istayman. Vag'ayrat qilsinlarki, Alloh jamolining mushohadasiga mone' bo'ladigan "menlik" va "o'zlik" pardalarini o'zlaridan yiroq etsinlar. Sir olamida o'zlarini Mahbubga vosil qilib, undan boshqasidan nafrat qilsinlar. **Saj'**: Zeroki, Mahbub vasli jonning jonidir, lekin zohirda bunday ko'rinmaydi. Va har zamon oshiq jigarini pora-pora qiladiki, xuddi zohiran oshiq bilan yor, hamdam emasdek. Mahbubning unga g'amxo'r emasligidan, oshiqning hajrda kuyib yonishdan o'zga chorasi yo'q. Mahbub o'zining visol va'dasiga iqrar emas va oshiq hajr mulkini xarob qiladi. Va oshiqning ko'zlari bir lahza ham qonli yoshdan xoli emas. Oshiq o'zligidan kechmas ekan, Dildorning vafo qilishidan umid yo'q. Shuning uchun, (chin) oshiq o'z borlig'idan bezor bo'lmagan bir lahza ham yo'q. Hikmat:

*Jonajon bo'lding ko'ngilga, lekin izhor o'lmading,*

*Bag'rimi sad pora qilding, ko'ngluma yor o'lmading.*

*Ne qilay, sandin topilmas vasl juz hijron vale,*

*Yondimu kuydum saning hajringda, g'amxor o'lmading.*

*Vah, bu hijron mulkini yiqsam, taqi qilsam xarob,*

*Oh, meni ul va'dai vaslingga iqrar o'lmading.*

*Oshiqingning shevasidur ham balovu dardi g'am,*

*Ey ko'zum, hajrinda har dam nega xunbor o'lmading.*

*Ey Xudoydod, o'zlugungdin uzmayin, bo'lmas vafo,*

*Ne uchun bu o'zlugungdin taqi bezor o'lmading.*

Aytar edilar, o'z nafsinni xor qilish uchun, hazrati Azizon rahimahullohning

hayotlik paytlarida, menda Buxoro ko'chalarida somon tashish, hojatxonalar va iflos ko'chalarni najosatdan tozalash istagi paydo bo'ldi. Bu niyatimni hazrati Azizon rahimahullohga arz qilganimda, hazrati Eshon shunday dedilar: “Sening foniyl bo'lishing uchun, Buxoro ko'chalarida gadoylik qilishni buyurgan bo'lar edim, chunki gadoylik qilish, xas-xashak tashishdan ogirroqdir”.

Aytar edilar, ey koshki, men bunday niyat qilmasamu bu istaklarimni hazrati Eshonning huzurlarida gapirmasam edi. Va hazrati Eshonning amrlariga ko'z tutsam edi. Bayt:

*Tu dar miyona hech naiy, har chi ast O'st,*

*Ham xud "Alast" go'yadu ham xud "balo".*

(Mazmuni: Sen o'rtada hech kim emassan! Har nima bo'lsa asli Udir! U o'zi ham “Alast” deydi ham “Balo” deydi!)

**Saj’:** Chunki, modomiki oshiq mutlaqo o'zligidan qutulmas va barcha xaloyiqdan behojat bo'lmas ekan, har qanday xayolu orzulardan forig' bo'lmas ekan, u liqo (jamol) mushohadasining hayratidan xabar topishi mumkin emasdir. Bayt:


*To nagardam az xudu az jumlai olam judo,*

*Kay xabar yobam zi tu, peshat shavat hayroni dil.*

(Mazmuni: To o'zlikdan va jumla olamdan judo bo'lmagunimcha, sendan qachon xabar topaman-u, qachon huzuringda qalbim hayratga to'ladi.)

## **O'N SAKKIZINCHI BOB: TAVHID XUSUSIDA**

Alloh taolo marhamat qiladi:



“Shahidallohu annahu la ilaha illa hu”

(“Adolatda barqaror turib, **Alloh guvohlik beradiki: Allohdan o'zga iloh yo'qdir**” (Oli Imron, 18). Ya'ni, Alloh guvohlik beradiki, U o'z Zotida qoyim va hech kim u bilan sherik emas. Alloh Zoti uchun tavhid lozimdir.

التوحيد تنزيه الله عز وجل عن الحدث “*At-tavhidu tanzihulloha azza va jalla anil hadasi*”.

Ya’ni, Tavhid — aziz va jalil Haq taoloning qadim zotini keyin paydo bo’ladigan har qanday ismvarusumlardan pokvamuqaddas bilmoqlikdir.

Va ammo bizning hazrati Azizonimiz quddisa sirruhu bu borada, o’z boshidan kechirganlarini shunday hikoya qiladilar: Bir kuni hazrati Azizon rahimahulloh ma’rifatullohdan aytardilar va mosivoni (Allohdan o’zga narsalarni) nafyi isbot qilar, barcha borliqning foni ekanligini izhor qilar va Haqning yakkayu yagonaligini va zotining barcha aybu nuqsondan pokligini oyat va hadislar orqali isbot qilar edilar. To’satdan, zoti vahdoniyat jazbalaridan bir jazba, nurli quyosh shu’lalaridan bir shu’la mening qalbidan paydo bo’ldi va beixtier, butun a’zolarimdagi sokinlik ixtiyori qo’limdan ketdi. Va tilim takallufsiz so’z ayta boshladi, qalbim vahdat jazbasi havosidan titray boshladi va shunday dedim: Uning vujudidan boshqa mavjudlik yo’q. Bayt:

*Jahdi on kunki, tu xudro bishnosi ba yaqiyn,*

*Ki ba g’ayri tu darin dor nadidam Dayyor.*

(Mazmuni: Sen o’zingni yaqindan bilishga jiddu jahd qil! Zero bu dunyoda o’zingdan boshqa intiluvchini ko’rmayapman!)

Va bu xokisor va faqir banda shunday deyman: Hazrati Eshon so’zlarining ma’nosi, vallohu a’lam (Xudo bilguvchiroq) shunday bo’ladi: Qachonki, banda men va senlik sifatini o’zidan uzoqlashtirsa va uning vasfini o’rtadan ko’tarsa va Tavhid yoqasidan chiqarsa, u paytda, xoh o’ziga nisbat bersin, xoh Haqqa nisbat bersin, maqsad bitta bo’ladi. Chunonchi, inoyat qiladilar, masnaviy:

*Ey xayolat vorahond, oh maro az xudi,*

*Zoti pokat pok gardonid maro az duiy.*

(Mazmuni: Ey xayoling, oh, meni o’zimdan xalos qildi. Pok zoting meni ikkilik fikridan pokladi).

*Ey xayolat dar firoqam vo namonad yak zamon,*

*Hiylohoi vasl kun, maro z-xud xush vorahon.*

(Mazmuni: Ey xayoling bir lahza ham meni firoqqa tashlab qo'ymagan, vasl choralarini qilib, meni o'zligimdan chiroyli qilib qutqar).

*Ey xayolat otashi savdo fikanda dar dilam,*

*Suxt g'ayri tuvu ham hechi namonda dar dilam.*

(Mazmuni: Ey xayoling, savdo olovini ko'nglimga soldi. o'zingdan boshqasini kuydirib, ko'nglimda biror narsani hamqoldirdi).

*Ey xayolat rahbari vaslam shuda dar mulki dil,*

*Ronda, burda xayoloti hama az mulki dil.*

(Mazmuni: Ey xayoling, ko'ngil mulkida vaslimning rahbari bo'ldi. Dil mulkidan barcha xayollarni haydab, chiqardi.)

Va aytdilar: Lekin hazrati Azizon zohirda bu ma'noni oshkor qilishdan meni man' qildilar va botinimga ham himmat ko'rsatdilar, toki o'zimni ko'ngil xonasidagi sirlarni yashirin saqlash doriga osay. Va xomushlik xanjari bilan tavidni izhor qiluvchi tilimni kesdim. Va hoyu havasning malomat toshlari yog'ilishidan qo'rqmadim. Chunonchi, aytdilar, bayt:

*Bas, birlik da'vosin qilg'on uchun Mansurdak,*

*Oqibat badnom o'lub, bar dor bo'ldum na qilay.*

Sukr<sup>113</sup> (mastlik)ning musaffo jomidan no'sh qildim (ichdim), lekin sahv (hushyorlik) libosi bilan sukr chehrasini yopdim. Bayt:

---

<sup>113</sup> **Ashobi sukr** — sukr (mastlik, ilohiy jazba) ahli — majzublar. **Sukr**, ya'ni mastlik bu — vahdat va tavid bodasidan, malakutiy nurlar tovlanishi — haroratidan bo'lgan mastlikdir. Avliyolarning har xili mavjud, ba'zilar sukr arboblari bo'lib, mastlik holatida pokiza dillaridagi ilohiy sirlarini ochib tashlashadi. Boshqa bir sukr ahli esa agar mastlikda aytib qo'ysalarki: men daryo bulog'I chashmasiman, uning bexud (o'zida emas)ligidan ajablanmaslik kerak. (Lohijiy, sharhi, Gulshani roz. 29.)

*Na z-xesh bosham ogoh va na z-qatra na zi mavj,*

*Dar bahri jarfi bexudiy ar g'utayi xo'ram.*

(Na o'zimdanda, na qatrayu na mavjdan ogohman, bexudlikning chuqur dengizida agar sho'ng'isam, ayb qilmangiz).

*Orifonki, jomi Haq no 'shidaand,*

*Rozho donistavu po 'shidaand.*

(Mazmuni: Haq jomidan may ichgan oriflar ko'p sirlarni bildilaru yashirdilar.)

Aytardilar: Alloh taoloning inoyati va hazrati Azizon rahimahulloh himmatining barakoti bilan bu xatarli vodiyan o'tdim va sirlarni yashirin saqlash maqomiga ko'tarildim. Bayt:

*Toki tu dam mezani hamdam nai,*

*Toki tu mo 'i mondai mahram nai.*

(Mazmuni: Toki sen dam urarkansan, hamdam emassan. Toki sen bir tola sochdek ajralib qolsang mahram emassan.)

Aytardilarki: Shayx Mansuri Halloj rahmatulloh shunday degan ekanlar: "Agar Shibliy ham men ichgan maydan ichsaydi, menga o'xshab dor boshida g'avg'o qilar edi". Lekin Shayx Shibliy alayhir-rahma ham aytibdiki: "Mansurga ichirishgan maydan men ham ichgandim".


Shayx Junayd rahmatullohi alayhdan Mansur (Halloj) haqida fatvo so'rashganda, aytgan ekanlarki: "Hushyorning gapi gap, mast gapining e'tibori yo'q". Bayt:

*Sharobi la'l meno 'sham, bagirdi yor megardam,*

*Suxan mastona meguyam, vale hushyor megardam.*

(Mazmuni: La'lining sharobidan ichib, yorning atrofida parvona bo'laman. Mastona so'zlar aytsam-da, lekin hushyor bo'laman!)

Aytar edilar, bir so'rovchi kishi mendan: "Xudoyi taoloning ilmi qanday ilmdurki, barcha mavjudotning ashyolarini ihota qiluvchidir va hech bir narsa uning ilmi ihotasidan tashqarida emas. Chunonchi, marhamat qilinganidek:



"*Innahu bikulli shay'in muhim*". (**Ogoh bo'lingizkim, albatta, U barcha narsani ihota etuvchidir!**) (*Fussilat, 54*) degani nima? Va men bu savolga shunday javob berdim: Arap inson ahvoli haqida mulohaza qiladigan bo'lsa, o'tmishdan hozirga qadar, o'zining barcha qilmishi va so'zlarini, harakatu sukunatini ihota qilib

oluvchidir. Shuningdek, barcha mavjudot va borliq Xudoyi taolo tomonidan bo'laklarga bo'lingandir. Demak, asliga nazar tashlasangiz, Alloh taolo zotidan boshqa hech bir mavjudlik yo'q. Shunday ekan, Xudoyi azza va jalla o'zining kamoli va qudratining mukammalligi bilan ihota qilib turishi muqarrardirki, o'z Zotining sifatlari va ahvollariga Alim va Muhit bo'ladi. Bayt:

*Ey xayolat jumlai af'olu aqvoli hama,*

*Nestand az tu judo, dar mazhab aqvoli hama.*

(Mazmuni: Ey xayollaring barchaning so'zlari va fe'llari bo'lgan, hammaning so'z va mazhablarida sen borsan va ular senday ayri emas.)

Aytar edilar, toki banda o'zining g'ofilu ogohligidan ogoh ekan va podshohning izzat haramidan mahrum ekan, u mehnatu mashaqqat va yo'l azoblariga muhtalodir. Bayt:

*Agar hushyori masturi, zi sirri in suxan duri,*

*Miyoni rahravon ko'ri, nadoni arz, az samo duri.*

(Mazmuni: Agar hushyorliging pinhon bo'lsa-yu bu so'z sirridan uzoqda bo'lsang, rohravlar o'rtasida ko'rdirsan, Yerdanmi, samodanmi yiroqligingni bilmaysan).

Chunki, g'aflat va ogohlik hodislik (paydo bo'luvchilik) sifatlaridan emas. Banda o'zligidan qutulsa, tavhid sifati bilan sifatlanadi va Haqning qadimiy sifatlaridan tajalliy partavi (nuri) unga jilvalanadi. Muqarrardurki, Haq zotining nuri va sifat tajalliysining partavi banda vujudidagi hodis sifatlarini kuydirib yuboradi va yo'q qiladi. Bayt:

*Chun tajalliy kard avsofi qadim,*

*Vasfi hodisro biso'zonad kalim.*

(Mazmuni: Qadim sifatleri bilan tajalliy qilganida, kalomi — yangilik vasflarini kuydirib yuboradi).

**Saj':** Chunki, oshiq doimo ishqu muhabbat qo'lida bechora va uning joni muhabbat otashida kuyib eriydi va jigari yuz poradir. Xudovandning lutfu inoyati azaldan bechora odam tomonga yo'naltirilgandir. Oshiq jabru jafodan qo'rqmaydi va ul oyniing dastidan (qalbi) pora ekanligini aytmaydi. Va oshiqning notavon dilida

Mahbub g'amzasining o'qidan teshiklar ochilgandir. Oshiq qanday chora topsinki, doimo ishq muhabbat dastidan yonib kuyadi, uning o'zlik sifati yo'qolgan va ovoradir. Buyuradilar, hikmat:

*Sening ishqing mani bechora qildi,*

*Bag'irni kuydurub ham pora qildi.*

*Inoyati bo'lub lutfidin, ul*

*Qamuq olamdin odam sori qildi.*

*Nechakim ko'rsam ul javru jafosin,*

*Demasam hargiz ul mahpora qildi.*


*Banogoh otti ul g'amza o'qini,*

*Bu oshiq ko'nglini sad pora qildi.*

*Xudoydod naylasun, ishq o'tida ul,*

*Kuyub, yonib taqi ovora qildi.*

Aytar edilar, banda shunday bir maqomga yetadiki, jahon xalqining yaxshiliklari va yaxshilar:



“*In ahsantum, ahsantum lianfusikum*” (“**Agar** (shunday keyin) **ezgu ish qilsangizlar — o'zlaringizga ezgulik qilgan bo'lursizlar**”), oyatining shartiga

ko'ra va olam xalqining yomonliklari va yomonlar “*va in*



*asa'tum falaha*” (“Agar yovuzlik qilsangizlar ham o’zlaringiz uchundir”) (*Isro*, 7) oyati hukmiga muvofiq, uning nazdida barobar bo’ladi.

Chunki, u tavhid tajalliysining partavida hayron va uning ko’ngli Mahbubning ruhafzo (jonbaxsh) jamoli tarafiga nigorondir. Chunonchi, aytarlar, bayt:

*Hayrating ko’nglumga tushti, qo’ymadi juzviyu kull,*

*Bu ko’ngilning olami yakson bo’lubtur, ne qilay?*

Aytar edilar, bir kishi zohiriy olamda bir sohibjamolga bog’lanib qolsa, boshqa birov shu sohibjamolga oshiq bo’lishini istamaydi. Lekin haqiqiy ishqkim, hazrati Ahadiyat va Zoti samadiyat ishqiy ekanligi uchun, (oshiq) biror kishining Xudovandi azza va jalladan boshqaga bog’lanishini xohlamaydi. Bayt:

*Onho, ki ba juzro’yi tujoye nigaronand,*

*Ko’tahnazaronand, chi ko’tahnazaronand.*

(Mazmuni: Sening yuzingdan boshqa joyga qaraydiganlar, qanday past nazardirlar, past nazardirlar.)

Aytar edilar, zohiriy ishqda rashk va raqobat shu sababdan bo’ladiki, bu kishi foniy bo’lmagani uchun, xudbinlikka oid rashk va hasad kabi yomon sifatlar unda mavjud bo’lib, undan yuzaga keladi. Lekin haqiqiy ishqda azaliy Mahbub jamolining partavi

**صِبْغَةَ اللَّهِ** “sibg’otalloh” (“Allohning “bo’yog’i”... (Baqara, 138) ishorasi orqali, o’zi

bilan yakrang qiladi va: **وَمَنْ أَحْسَنُ مِنَ اللَّهِ صِبْغَةً** “*Va man ahsanu minallohi sibg’otan*” (“Allohnikidan yaxshiroq “bo’yoq” (din) bormi?!” (Baqara, 138) bashorati bilan, u kishini barcha yomon sifatlardan xalos etadi. Natijada, barcha oshiqlar va ma’shuq o’rtasida ikkilik sifati ko’tariladi. Va g’ayrat yuzasidan, xaloyiqning Haqdan boshqasiga bog’lanmasligi matlub va marg’ub sanaladi. Bayt:

*Olam xalqi bir bo’lsa —oshiqlarning orzusi,*

*Yo’lda karvon ko’b bo’lsa, karvon xalqi sevarlar.*

**Saj’:** Chunki, muhabbat ahlining muhabbat o’tida kuyishga toqati yo’q. Va ularning Mahbub visolidan boshqa xursand bo’ladigan narsalari ham yo’q. Hijronda mahzun oshiqqa hargiz mahram ko’ngil bo’lmaydi. Oshiq muhabbatda ixtiyorsizdir, chunki, uning boshidan ma’shuq savdosi aslo ketmaydi. Va hech bir dalil oshiqni ma’shuqqa ishqchalik mustahkam yetaklay olmaydi. Oshiqning munis joniga Mahbub visolidan boshqa dam-badam uchrashib turadigan ulfat yo’q. Oshiqning g’am chekishi va hijron azobi, shu sababdan, unga mehnat va alam emas. Chunki, visoldan keyin, oshiqning qarori Mahbubdan boshqasi bilan hamdam bo’lmaslikdir. Chunonchi, inoyat bilan aytarlar, g’azal:

*Ey mahi bas mehrubon, dar g’am maso’zon behadam,*

*Zud vasli xud ravon, noshod sozi bo xudam.*

(Mazmuni: Ey mehribon oy yuzligim! G’amda behad kuydirma! Tezda vaslingga yetkaz, meni o’z boshimcha mahzun qilma.)

*Hajri tu mehnat marovu, vasli tu osoyisham,*

*Be tuman nolonu zor, bo tu man bas xurramam.*

(Mazmuni: Hajring mehnatu mashaqqatim, vasling osoyishu rohatim! Sensiz men nolonu zor, sen bilandir xursandligim!)

*Hajri tu kamtar shavad, boqadri toqat mar-mar,*

*Vasli xud iysor kun, dar ishq tu bas oinam.*

(Mazmuni: Mening toqatimga ko’ra, menga hajringni kamaytir. O’z vaslingni iysor qil. Ishqing, rohu ravishim, odatimdir).

*Chun kunam dar ishqat in dili miskin moro vo girift,*

*Man nakardam inchunin ham, balki az savdo shudam.*

(Mazmuni: Ishqing yo’lida nima qilsam ham bu miskin qalbim meni tutdi. Men bunday ishlar qilmadim, balki ishqing savdosidan shunday bo’ldim.)

*İshq har dam mekushoyad so'i ma'shuqam rahe,*

*Vasli tu rahbar shavad maro bar on dambadam.*

(Mazmuni: İshq har damda ma'shuqam tomonga yo'l ochadi. Sening vasling rahbar bo'lib, dam-badam meni u yo'lga boshlaydi).

*Lutfi tu behad shudu ham, vasli tu bisyor gasht,*

*Hajri bepoyon rasid, bo tu man bolo shudam.*

(Mazmuni: Sening lutfing behadu bo'ldi, vasling esa behisob bo'ldi! Poyonsiz hajring yetdi, sen bilan men yuksaldim!)

*Ey Xudoydod, g'am maxo'r az otashi hijron base,*


*Rohati vaslash rasad, go'yoki doim dambadam.*

(Mazmuni: Ey Xudoydod, hijron otashidan g'am yema, go'yoki dam-badam vaslining rohati yetib turibdi).


Hikoyat. Ba'zan hazrati Eshon quddisa sirruhu muborak oyoqlarini uzatib, ma'riftullohdan hikoya qilardilar. O'tirgan holatlarida, oyoqlari og'rigani uchun, muridlari oyoqlarini uqalab qo'yishardi. Hikoyatga muvofiq oyat o'qiganlarida, xotirlariga kelib qolsa, oyoqlarini yig'ib olardilar. Lekin u oyatni uzr vositasida o'qirdilar. Ammo biror hadis o'qisalar, (hushyor tortib) albatta oyoqlarini yig'ib olardilar. Va aytardilarki, bandaning Xudovandi azza va jallaga nisbatan shunday bir holati bo'ladiki, bandalik qaydidan va har turli sharmandalikdan tamoman qutulib, Haq Taoloning sifatlari bilan sifatlanadi. Bas, bandalikning barcha odoblaridan xalos va parvosiz bo'ladi. Zeroki, Xudovand taboraka va taolo har qanday suratdan pok va munazzahdir, turli suratlarda tajalliy qiladi. Lekin kishining Payg'ambar alayhissalomga nisbatan muhabbati har qancha barkamol bo'lsa ham, u muborak zotda bashariyatlik xususiyati bordir. Bandaning Xudovandga nisbatan yaqinligi va gustohligi Payg'ambar alayhissalomga nisbatan bo'lishi mumkin emas. Chunki, Xudoyi taolo beniyoz va behojatlikda mukammaldir. Payg'ambar alayhissalomda esa bashariy ehtiyojlar bor va bashariyatda odobga rioya qilish vojibdir.

## O'N TO'QQIZINCHI BOB: BAQO HAQIDA

Alloh taolo marhamat qiladi:




“*Vallohu xoyrun va abqo*” (“Alloh(ning savobi) **yaxshiroq va (azobi) boqiyroqdir**” (*Toho*, 73). Ya’ni, fano xalqiyatlik (yaratilganlik) rusumi, odatiga ko’ra, xalqning sifatidir, baqo esa Haqning sifatidir. Bu oyatga ko’ra ijthod qilinadi

(ma’no chiqariladi):  “*Vallohu xoyrun va abqo*”. Ya’ni, “**Xudoyi taolo yaxshiroq va boqiyroqdir**”. Boqiylikning afzalligi esa ma’lum va mashhurdir.

Baqo — boqiylik sifati bilan qoyim bo’lgan narsaning ismi. U zohiriy va tashqi ko’rinishlari mahv bo’lib, soyadek yo’q bo’lib ketadigan fanodan so’ng kelishi bilan, e’tiborga molik.

Ammo hazrati Azizonimiz bu to’g’rida boshidan kechirganlarini shunday bayon qiladilar: Hazrati Payg’ambar alayhissalom buyuradilar:



“*Inna ashaddal balai ‘alal anbiyai, summal avliyai, summal amsali fal amsali*”. Ya’ni, balo (imtihon)ning qattiqrog’i Payg’ambarlarga, so’ngra avliyolarga, keyin bularga yaqin va o’xshash kishilarga tushadi.

Aytar edilar: Bu uch toifadan avvalgi ikki toifaga azob qattiqrog’ bo’ladi va ularga yetadigan azob tish og’rig’i yo bosh og’rig’i yoki oyoq og’rig’i kabi emas, balki ularning eng qattiqbalolari davosiz darddan iboratdir.

Allohumma salli ‘alo sayyidil xalqi Muhammadin va olihi va sallam. (Allohim, maxluqotning eng ulug’i Muhammadga, ahli baytiga va sahobalariga salotu salom yubor!)

## XOTĪMAĪ KĪTOB

Bayt:

*G'araz naqshest, k-az mo boz monad,*

*Ki hastiro namebinam baqoye.*

(Mazmuni: G'araz bizdan qoladigani bir naqsh- yozuvdir, chunki borliqni baqosiz (foni) ko'ryapman.)

*Darguzor ey Karim, kardai mo,*

*Madaron ro'zi hashr, pardai mo.*

(Mazmuni: Ey Karim (karamli Alloh), bizdan o'tganini kechir. Mahshar kuni pardamizni yirtib, sharmanda qilma!

*1331 hijriy, zilhijja oyining birinchi kuni. (1913 yil milodiy 31 oktyabr). Qad tammama fi yadi ahqaril ibad Muhammad Ashur ibni Nurmuhammad g'affarallohu lahumo. (Va nihoyat, bandalarning eng ojizi Muhammad Ashur Nurmuhammad o'g'li (ushbu manoqib)ni yozib tugalladi. Alloh ikkalovini ham mag'firat qilsin!)*

*Allohning lutfi bilan kamina Sayfiddin Sayfulloh ushbu manoqibning tarjimasi va izohlarini oxiriga yetkazdim. Alloh taologa beaded hamdu sanolar, sevimli Payg'ambarimizga salotu salomlar bo'lsin!*

06.04.2017 / 09.07. 1458

## MA'RĪFAT ASRORĪ DONĪSHMANDĪ

Tasavvuf islom olamida keng tarqalgan, O'rta va Yaqin sharq mamlakatlari madaniyati tarixida chuqur iz qoldirgan falsafiy-diniy va ma'rifiy oqimdir. U o'z davri uchun Tangri, inson va barcha maxluqot uyg'unligi ramzi bo'lgan Oliy haqiqat va go'zallik dunyosini kashf qildi. Demak, Alloh taoloni bilish olam mohiyatini bilishga harakat qilish demakdir. Bunday intilishlar esa har bir shaxsning axloqiy va ma'rifiy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'rta asrlar Markaziy Osiyo ijtimoiy hayoti, ilmiy-ma'rifiy va madaniy tariqqiyotida yorqin iz qoldirgan mutafakkir alloma Hazrat Shayx Xudoydod Vali (q.s.) islom dinining insonparvar mohiyatini chuqur idrok etar ekan, butun ongli hayoti va ilmiy salohiyatini shu din asoslarini targ'ib etish va uning asosida jamiyatni tarbiyalash ishiga bag'ishladi.

Hazrati Shayx yassaviya tariqati asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy kabi, islomning muqaddas kitobi Qur'oni karim mazmuni va shariat ahkomlarining targ'ibotchisi edi. Oddiy xalqning islom ma'rifatini egallashi uchun jon kuydirgan shaxs edi. Ammo, o'zining xos suhbatdoshlari, muridlari davrasida esa ma'rifat sirlarini chuqurroq bilishga, uning mohiyatini qalban teranroq his etishga chorlovchi alloma edi. Bu ma'no Hazratning har bir so'zida, asarida, amalida aks etar edi. Alloma hayoti va faoliyati tafsilotlariga bag'ishlangan «Hazrat Xudoydod Vali maqomatlari» asari ham bu haqda kengroq ma'lumot beruvchi manbalardan biridir. U hanuzga qadar fan tadqiqot ob'ekti bo'lganicha yo'q.

Muhammad Ashur ibn Nurmuhammad tomonidan 1331 hijriy (1913 yil milodiy) yilda ko'chirilgan qo'lyozma nusxa alloma avlodlaridan bo'lmish Samarqand davlat me'morchilik-qurilish instituti professori, texnika fanlari doktori Sayyidmaqsud Razzoqovning shaxsiy kutubxonalarida saqlanadi.

Asar matni bo'yi 25 sm, eni 18 sm bo'lgan sahifa o'rtasida bir ustun qilib joylashtirilgan. Matn Movarounnahrning och sarg'ish rangli qog'oziga qora siyoh bilan yozilgan, lavh va jadvallar ko'zga tashlanmaydi. Alohida ajratib ko'rsatilgan so'z va iboralar qizil siyoh bilan yozilgan. Sahifalar hoshiyalarida ba'zi o'rinlardagina ruboiylar joylashtirilgan. Asosiy matn 247 sahifa bo'lib, oxirgi sahifada kotibning nomi keltirilgan. Ya'ni, «1331 hijriy yilda Muhammad Ashur ibn Hormuhammad (g'affarolloh) ko'chirdi», deyiladi. Matn go'zal nasta'liqda yozilgan bo'lib, har sahifada 15 qatordan joylashtirilgan.

Birinchi betda «basmala»dan so'ng, «va bihi nasta'in» kalimasi keltirilgan. Shundan so'ng, kitobning mazmuni haqida ma'lumot berilgan. Asar fors-tojik, turkiy va arabiy tillardan istifoda etilib yozilgan. Birinchi sahifaning o'ziyoq shu uch tilda yozilgan kalimalar va gaplardan tashkil topgan. Chunonchi: «On ast, ki chun ishon az xud foniyu, boqiy ba baqoi subhoni va zinda ba hayoti jovidoni shudaand. Va

boqiy xalqi olam hama nazdi ishon murdagonand va ishon bo murdagoni suhbat meboyad doshtan va umr guzoshtan va in balo sa'btarin balohost».

Mazmuni : «Ishqning ma'nosi shuki, ular (ishq ahli) o'zlaridan foniy va Haq subhonahu va taolo sifatleri bilan boqiy va abadiy hayotga erishib tirikdirilar. Olam ahlining qolganleri esa ularning nazdida o'liklar kabidir va ular o'liklar (ishqsizlar) bilan hamsuhbat bo'lishleri kerak va bu balo (ya'ni hamsuhbat bo'lishlik) eng og'ir balodir».

Shundan so'ng, saj' san'ati bilan, oshiqona jumlar bitilgan: «Zeroki, oshiq hamesha bo ishq habib (do'st, yor) muhtalovu zor ast va sheftai on juz ba gashtavu az mosivo bezor ast va bo dar ma'shuqi saodatmand va to abad boqiyu poydorast va az azal inoyatulloh o'ro mehrubon va doim hamdamu yorast. Va Odamro xudovand az ro'i lutfu karam barguzida va har lahza dar haqqi o' inoyat ba bashorat axbor ast. Va nazari oshiq ba lutfi xudovand ast va jami'i olam ba nazdi o' murda va noqobilu ag'yor ast». Keyingi satrlar «Hikmat» sarlavhasi bilan boshlangan to'rt baytli turkiy tilda yozilgan she'rdir. Birinchi bayt ushbu:

*Ey sening ishqing mani ko'p o'ziga zor ayladi,*

*Xush muborak jazbakim, barchaga bezor ayladi.*

Asar mazmuni asosan forsiy tilda bayon etilgan. Turli voqea, hodisalar vositasi bilan, Hazrati Shayxning o'z muridleri, suhbatdoshleri pand-o'gitlar berganlikleri hikoya qilinadi. Matn o'rtalerida esa saj', bayt, hikmat, g'azal, naql, hikoyat sarlavhaleri bilan turkiy va forsiy tillarda badiiy yaratmalar ham joylashtirilgan. Qur'oni karimdan iqtiboslar, hadisi sharifdan namunalar, qissalarga murojaat etish (masalan, 7-sahifada Yusuf alayhissalom qissalari e'tibor tortiladi) hollari biror voqea yoki hikmatli pand, o'git tahlili vositasida uchraydi. 8-betda keltirilgan:

*Ey habibi mehrubon, dar ishq hijron soxtiy,*

*V-az baroi dardi hijron vasl darmon soxtiy, —*

matla'i bilan boshlanuvchi 5 baytli na'tdan so'ng, 9-sahifa o'rtalerida, Hazrati Shayx hayotiy sanalari va tafsilotleri (biografiya) keltiriladi. Keyingi sahifada Hazrati

Shayxning Samarqanddagi turbatlari haqida ma'lumot bor. Ba'zi sahifalarda shayxning o'z zamondoshlari bo'lmish turkiy shayxlar bilan bo'lgan munosabatlari haqida ham ma'lumotlar bor. Chunonchi, 25-sahifada Shayxga bir masala xususida murojaat qilgan shaxsning nomi keltirilgan: «Hazrat Mavlono Qoraqumiy (sallamahulloh, ya'ni Alloh uni salomat asrasin - D.S.) inoyat namuda in mas'alaro javob navishta az baroi man firistodand».

Asarning 45-betdan keyingi qismlarida bir qator fiqhiy masalalar tafsiri boshlanadi. Ammo, nazarimizda, ushbu tafsilot qandaydir fiqh olimi kitobiga yozilgan sharhdir. Chunki, fikrimizcha, tafsir keltirilgan boblar tanlab olingan. Masalan, 47-s: «Al-babur-rabi' fit tavakkul. Qolallohu "Fatavakkalu in kuntum mo'miniyn" (Agar Sizlar haqiqiy mo'min bo'lsangiz, har ishingizda tavakkul qiling). Ushbu tavakkul sharhiga bag'ishlangan bobdan so'ng, riyozat talqiniga bag'ishlangan 9-bob sharhi keltiriladi (101-b.). Umuman, asarda faqirlik, saxovat, himmat, ilm, vajd, mushohada, fano va balo kabi masalalar bayonqilinadi.

Asarning asosiy mazmuni butun borliqni yaratgan Allohning sifatlarini, tajalliysini, Uning bandalariga bo'lgan cheksiz himmati, latofatini ko'rsatish asosida boradi. Adib tasavvufiy tushuncha va istilohlardan foydalangan holda, ishq ahli ahvoliyyatini o'ziga xos tarzda talqin qilishga urinadi. Misralardagi tasvir, ifodalar Mashrab, So'fi Olloyorlarning talqin va tasniflariga monand. Xudo diydorini chin dildan istash va bu borada bori mavjud va mavjudlikdan voz kechish ahvolotlari ichki dard bilan ifoda etiladi.

Asarda so'fiylikning axloq qoidalari haqida ko'plab

fikrlar bayon qilinadi. Bu o'rinda Adib shayx tilidan «Chunonchi, buyuradurlarki» degan jumlar bilan Hazrat Azizon fikrlarini bayon qiladi: «Va buyurar edilarki, bir kun menga arz etdilarki, falon so'fiy, falon so'fiy bilan janjal qilibdi, deyishdi. Men shunday dedim: So'fiyga birov bilan urishish yarashmaydi, zeroki, janjal qilish husni xulq egalaringning odati emas, aksincha so'fiy doim o'z nafsini bilan urush qilishi kerak. Agar mosivodan uning ko'ngli tang bo'lsa-da, (so'fiy) o'z qahru g'azabini nahang kabi yutib yuborishi kerakdur».



Adibning fikran maqsadi dastlab inson o'zini anglashi, shundagina, Xudoni, borliqni anglash lozim ekanligi haqida boryapti. Adib o'z fikrida davom etarkan, ishq ahli ahvollarini ham o'zgacha talqinlaydi. Uning fikricha, ularning tashqi ko'rinishlari kishi ko'ziga xomush va achinarli ko'rinsa-da, aslan ular quvonch mukofoti bilan rag'batlangandirlar: «Saj': Zeroki, agar ular zohirda firoq dashtida sargardonlar, ammo ma'no jihatdan barchalari habib vaslidan shokir va quvonchdadirlar».

Adib boshqa so'fiy ijodkorlar singari tavhid falsafasini ilgari suradi: «Vujud (borliq) aslida birdir, bas barcha borliqning mavjudligi Haq taolo vujudidan boshqa emas». Shoir fikricha, ko'rinib turgan neki narsa borki, uning barchasi Allohing mazharlaridir.

Kitobning so'nggi 247-sahifasida, asosiy matn tugagandan so'ng, payg'ambar Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamga salovoti sharif va xotima o'rnida, forsiy tilda ikki bayt keltiriladi. Sahifaning ikki chetida muhr o'rnida kotibning nomi va kitob ko'chirilgan sana ko'rsatilgan.

Turkiston xalqlari orasida shunday qo'shiq so'zlari uchraydi:

*Borar bo'lsam Turkistonni yo'liga,*

*Ikki pir ushlagay ikki qo'limdan.*

Ikki pirdan biri — Xoja Ahmad Yassaviy, biri — Xoja Bahouddin Naqshband (q.s.)dirlar. Bu pirlar o'tgandan keyin esa ularning maslakdosh davomchilari avom (oddiy xalq) orasida dinni, xavos (xos kishilar) orasida esa ma'rifat asrorini yoyishda davom etadilar. Shayxlarning har biri bir allomai davron edilar. Shayx Bobo Xudoydod Vali bu donishmandlar orasida, XV asrda ma'rifat asrorining yetuk donishmandi sifatida namoyon bo'ladilir.

Hazratning manoqiblarida keltirilishicha, «Ishq», «Faqr»,

«Saxovat», «Tavakkul», «Ishfoq» kabi boblarda tasavvufiy tushunchalar chuqur falsafiy mushohadalar va hayotiy misollar orqali tushuntirib beriladi. Buyuk shayx Xoja Ahmad Yassaviy ma'rifat ilmini hikmatlar orqali yoygan bo'lsalar, Bobo Xudoydod Vali bu tushunchani ilmiy nuqtai nazardan sharhlab, izohlab tushuntirib

berdilar. Shu tariqa, mashhur tariqatning ilmiy-nazariy asoslarda boyishi va taraqqiyoti uchun xizmat qildilar. Ushbu manqibni sharh va izohlar bilan to'ldirib, ixlos va e'tiqod bilan mukammal tarjima qilgan adabiyotshunos olim Sayfiddin Sayfullohga tashukkur bildiraman.

Maqomotda ko'rib o'tilganidek, milliy mafkuramizning asosiy masalalaridan biri bo'lmish, har tomonlama yetuk shaxs tarbiyasi uchun zarur bo'lgan ma'rifiy mavzularda so'z yuritiladi. Binobarin, bu asar millatimiz va vatanimizning kelgusi taraqqiyoti uchun foydali. Uni nashr etib, jamoatchilik va keng o'quvchilar ommasi e'tiboriga havola etganlardan Alloh rozi bo'lsin.

**DILOROM SALOHİY,**

*filologiya fanlari doktori, professor*

#### **BA'ZI SO'FIYLIK TARIQATLARI HAQIDA**

**Yassaviylik (jahriylik)** — tasavvuf tariqatlaridan biri. Markaziy Osiyoda vujudga kelgan. Tariqat asoschisi turkistonlik Ahmad Yassaviy (1105-1167)dir. Bu tariqat ustozlari Yusuf Hamadoniy va hampirasi Abduxoliq G'ijduvoniy ta'limoti asosida yuzaga kelgan. Uning ta'siri shimolda Qozongacha, g'arbda Bolqon yarim oroligacha yetib borgan. Alisher Navoiy Ahmad Yassaviyni «Turkiston ahlining qiblai duosidir», deb ta'riflagan. Ahmad Yassaviy o'z ona tilini birinchi bo'lib tariqat tili maqomiga ko'targan. «Devoni hikmat»dagi har bir so'z va har bir ibora islom haqiqatlari bilan sug'orilgan, muqaddas, nurli va ilohiydir. «Qalbingda Alloh bor, Allohga chekin», deydi shoir. Uzlatga chekinmoq demak, o'z-o'zingga chekinmoq demakdir. Avval botinni anglamoq, tarbiyalamoq darkor, bunafsni poklashdan boshlanadi.

Yassaviylik tariqatining ahkomlari tavhid, shariat va sunnatga mutlaq bog'liqlikligi bilan e'tiborga molik. Yassaviylikda yuksak maqomlarni egallash uchun, murid pir rahnamoligida shariatdagi o'nta maqomni, tariqatdagi o'nta maqomni, haqiqatdagi o'nta maqomni va ma'rifatdagi o'nta maqomni bosib o'tishi kerak. Yassaviylikda murid va pir adablariga jiddiy

ahamiyat berilgan, zikrlar jahriy qilingan. Shu bois yassaviylik jahriya tariqati hisoblanadi.

**Naqshbandiylik** — Hazrat payg'ambarimiz va Abu Bakr Siddiqdan davom etib kelayotgan, sunnatga bog'langan va xojagon hamda yassaviylik g'oyalariga asoslangan bo'lib, Bahouddin Naqshband (1318-1389) uni takomillashtirgan. U to'rt tamoyil asosiga qurilgan — shariat bilan zohirni poklash, tariqat bilan botinni poklash, haqiqat bilan qurbi ilohiyga erishmoq, ma'rifat bilan Alloha erishmoq. Shuningdek, tariqatga kirgan har bir darvish rioya qilishi lozim bo'lgan o'n bir asos ham bor.

Bahouddin Naqshband «Az-zohir lil-xalq al-botin lil Haq», ya'ni zohirda xalq, botinda Haq bilan bo'lib, tasavvufiy hayot kechirishga chaqirgan. Amallarni bajarish barobarida, mehnatni tark etmaslikni, halol kasb bilan shug'ullanib, halol luqma yeyishni doim targ'ib qilgan. Xoja Bahouddin Naqshband: «Bizning tariqimiz suhbatdur va xilvatda shuhratdur va shuhratda ofat. Xayriyat jam'iyatdadur va jam'iyat suhbatda, bu shart bilaki, bir-biriga nafy bo'lulgay», deydi. Xojagon-naqshbandiylik tariqatining qoidalari — “Hush dar dam”, “Nazar bar qadam”, “Safar dar vatan”, “Xilvat dar anjuman”, “Yodkard”, “Boz gasht”, “Nigoh dosht”, “Yod dosht”, “Vuqufi zamoniy”, “Vuqufi adadiy”, “Vuqufi qalbiy”. Muridlarni maxfiy zikrga undagan, Shuning uchun ham, naqshbandiya xufiya tariqat deyiladi.

**Kubraviylik** — (tariqat asoschisi Najmiddin Kubro (1145-1221)) Kubraviylik tariqatida tasavvufning tamal qoidalari “Usuli ashara”, ya'ni o'n asosga jamlangan bo'lib, ular — tavba, zuhd, Allohga tavakkul, qanoat, uzlat, doimiy zikr, tavajjuh, sabr, muroqabadir. Kubraviya tariqatidan quyidagi shohobchalar ajralib chiqqan: Firdavsiya, Nuriya, Rukniyya, Hamadoniyya, Ig'tishoshiyya, Nurbaxshiya, Zahabiyya, Ne'matullohiyya.

**Qodiriylik** — (tariqat asoschisi «G'avs ul-a'zam» Abdulqodir Jiyloniy (1077-1166) ĩroq, Pokiston, Markaziy Osiyoda, jumladan, Farg'ona vodiysida tarqalgan. Qodiriylik tasavvufiy ta'limotida saxovat, rizo, sabr, ishorat, g'urbat, sayohat, faqr, junli libos kiyish maqomlari bor. Tariqatning zikr tartibi «Zikri davron» bo'lib, alohida (zikri xafiy) va umumiy (zikri jahriy) zikr tushilgan.

**Junaydiylik** — (asoschisi Junayd Bag'dodiy (vaf.297/909 y.) tasavvufda sahv (hushyorlik) ta'limotini ilgari surgan va keyin vujudga kelgan tariqatlarga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Junayd Bag'dodiy tasavvuf ta'limotida ratsional bilish (aqliy bilish) nazariyasiga asos solgan hamda uni nazariy-ilmii qarashlar bilan boyitgan.

**Mavlaviylik** — (tariqat asoschisi Jaloliddin Rumi (vaf. 672/1273 y.) Eron, Turkiyada keng tarqalgan. Tariqat ishq, jazba, samo' va safoga asoslangan.

**Hakimiylik** — (tariqat asoschisi Hakim at-Termiziy (vaf. 296/908 y.) valiylik, karomat masalalarini tahlil etgan va tasavvuf ta'limotiga falsafaning kirib kelishiga zamin yaratgan. Alisher Navoiy Hakim at-Termiziyi ikkinchi tabaqa, ya'ni oriflik davri so'fiylari qatorida zikr etgan. Hakimiya dastlab zohidlar, darvesh, qalandarlar yig'ini davrasi, majlisi tarzida tashkil topgan.

**Qassoriylik** — (tariqatning asoschisi Hamdun Qassor (vaf. 271/884 y.) Nishopur shayxlarining piri) malomat yo'lini keng targ'ib etgan va keyinchalik malomatiylik oqimining vujudga kelishiga zamin bo'lgan.

**Malomatiylik** — IX asrda Nishopurda vujudga kelgan va keyinchalik Movarounnahr va Turkistonga ham tarqalgan. Tariqatning asosida insonning Alloh qarshisida tamomila faqir ekani va o'z amallarida sidqidildan ixlosmand bo'lish g'oyasi yotadi. Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat»da Yusuf Husayn Roziyning tariqi malomat tavrada bo'lib, xalqni o'zidan mutanaffir qilmoq va elning qabulini o'zidan buzmoqda mohir ekanligi zikr etilgan. Aksariyat so'fiylar «xafa ham bo'lma, xafa ham qilma», kabi axloqiy tamoyillarni hayotining mazmuniga aylantirib, har qanday holatda aybni o'zlaridan qidirib, o'zlarini malomat qilganlar.

**Nuriylik** — (tariqat asoschisi Abulhusayn Nuriy (vaf.295/907 y.) tasavvufda faqr, iysor va suhbat yo'lidan borgan, uzlatni yoqlamagan.

**Rifoilylik** — (tariqat asoschisi basralik so'fiy Sayyid Ahmad Rifoiy (vaf. 578/1182 y.)) Yaqin Sharq, Eron, Turkiyada keng tarqalgan. Shoziliylik (Shayx Abul Hasan Mag'ribiy (vaf. 654/1256 y.) asos solgan) Shimoliy Afrikada keng tarqalgan yirik so'fiylik tariqatidir. Badaviylik (misrlik Sayyid Ahmad Badaviy (vaf. 675/1276 y.) tashkil etgan) Misr, Afrikada tarqalgan.

**Chishtiylik** — (tariqat asoschisi Xoja Abu Ishoq Shomiy (vaf. 491/1097 y.)) Hindistonda tarqalgan. Tariqat yo’li shariat, tariqat, haqiqat bosqichidan iborat. Shuningdek, faqr, qanoat, riyozat, samo’ga amal qilinadi. Chishtiylikning keng yoyilishida Shayx Nizomuddin Avliyo (vaf. 726/1325 y.)ning ta’siri katta bo’lgan.

**Hallojylik** — Foris ismli so’fiyning qarashlarini o’z ichiga olgan. U Mansur Halloj (858-922)ning yo’lidan borgan va uni talqin etishda adashgan. Al-Hujviriyy bu ikki maktabga munosabatini bildirib, «Abu Hulmon va Forisning kimligidan qat’i nazar, kimki Allohning birligi va haqligiga qarshi gapirar ekan, uning dinga hech qanday aloqasi yo’qdir», deb nafaqat tasavvuf, hatto dinga aloqasi yo’qligi, ularning ruh masalasida adashganliklarini e’tirof etgan.

**Hululiylik** — Tasavvufning botil tariqatlaridan. Damashqlik Abu Hulmon (vaf. 329/950 y.) hulul (bu dunyodagi go’zallikning har qanday ko’rinishi Allohning timsolidir, deb Allohni muayyan narsalar va shaxslarga o’xshatish) va shariat amallariga bepisandlik hamda ruhlarning tanadan-tanaga ko’chib yurishini e’tirof etishdir.

## **SHAYX XUDOYDOD VALINING QISQACHA TARJIMAI HOLI**

Yassaviya tariqatining yirik vakili, mutasavvif olim va shoir, o’z zamonasining qutbi, Hazrati Azizon Shayx Xudoydod Vali 866 hijriy (1461 milodiy) yilda Karmana (hozirgi Navoiy viloyati hududida) yaqinidagi Saranj (Sharanj) tog’ mavzesida tavallud topgan.

Bu zotning asl ismi Xudoyberdi, padari buzrukvor hazrati Azizon Ortiq Shayx Xorazmning orif kishilaridan bo’lgan.

Hazrati Azizon Shayx Xudoydod Vali ota-onadan yosh yetim qoladi. Boshlang’ich maktab ta’limini olgach, Samarqanddagi Javzoniya va Ulug’bek madrasalarida, keyin Buxoroda Mulla Muhammad madrasalarida tahsil oladi.

Shayx Xudoyberdi ilm va riyozat yo’lida ma’naviy pir izlab, Yassaviya tariqatining mashhur vakili Shayx Jamoliddin Azizon huzuriga borib, unga murid tushadi. Manbalarda keltirilishicha, Shayx Jamoliddin Azizon Shayx Xudoyberdiga “Xudoydod” deb nom beradi va u Shayx Xudoydod Vali nomi bilan mashhur bo’ladi.

Shayx Xudoydod Vali piridan so'ng, yarim asr mobaynida tariqat peshvosi sifatida faoliyat yuritadi. Uning tarbiyasida 50 dan ortiq murid tariqatning nufuzli vakillari bo'lib voyaga yetadi.

Hazrati Azizon Shayx Xudoydod Validan, tariqat yo'lidagi ishlaridan tashqari, risolalar va qator she'riy manzumalar meros bo'lib qolgan.

Hazratning nufuzi o'z davri hukmdorlari nazdida ham baland bo'lib, Shayboniyxon, Jonibek Sulton, Bobur Mirzo, Abu Sa'idxon, Ubaydulloxon kabi hukmdorlar Shayxni o'zlariga pir bilib, maslahatlariga amal qilishgan.

Hazrat yashagan davrda mashhur tariqatlar orasidagi munosabatlar mustahkam edi. Hazrati Azizon Shayx Xudoydod Vali ham naqshbandiya va kubraviya tariqatlarining yetakchilari Hazrati Maxdumi A'zam hamda Maxdumi Xorazmiylar bilan do'stona munosabatda bo'lgan.

Shayx Xudoydod Vali haqida qator tarixiy manbalarda keng ma'lumotlar berilgan. Ilmiy merosi 25 dan ortiq noyob qo'lyozmalarda jamlangan. Ayni paytda ular xalqimiz madaniyati va ma'rifatining durdonalari sifatida o'rganilib, chop etilmoqda.

Hazrati Azizon Shayx Xudoydod Valining farzandlari bo'lib, qizlari Bibi Hadiya va Bibi Mahzunalardan avlod qolgan.

Shayx Xudoydod hazratlari 939 hijriy (1532 melodi) yilda Samarqand viloyati, Jomboy tumani, G'azira qishlog'ida vafot etgan.

Ul zotning tarixiy faoliyatlari, boy ma'naviy va adabiy meroslari xalqchilligi bilan yurt ravnaqi, tinchligi hamda osoyishtaligini ta'minlash, pok axloqiy va umuminsoniy qadriyatlarni yuksaltirish yo'lida xizmat qilmoqda.

**Sayfiddin SAYFULLOH,**

*filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

## SHAYX XUDOYDOD VALI ILMIY MEROSI

### AVLODLAR NIHOHIDA

Hazrat Sulton ul-Orifin Xoja Ahmad Yassaviy tariqatining yetuk namoyandasi, dunyo ilm ahliga mutasavvif shoir va olim deb tanilgan Hazrat Azizon Shayx Xudoydod Valining nisbat darajalari, nufuzi, tasavvuf olimlari — murshidlari nazdida juda baland bo'lgan<sup>114</sup>.

Shayx Xudoydod Vali 1461-1532 yillarda yashab ijod qilgan. Pirlari Hazrat Azizon Shayx Jamoliddin Xurosonga Shayboniyxon tomonidan surgun qilingandan keyin, pirlarining irshodlari bilan, Milodiy 1484 yildan yarim asr davomida ushbu tariqatga rahbarlik qilganlar. Bu davr mutaxassis olimlarining ta'kidlashlaricha, Yassaviya tariqatining va O'rta Osiyoda ilm-fan rivojining eng yuksak darajaga erishgan davri hisoblangan.

Keyingi yillarda Shayx Xudoydod Vali qoldirgan boy ma'naviy, madaniy va adabiy merosni o'rganishda yangicha qarashlar shakllanib, qiziqish tobora ortib bormoqda. Xususan, xalqimiz ma'naviyatida o'chmas iz qoldirgan ulug' adibning asarlarini asl manbalardan o'qib-o'rganish ishlariga, ijodiga xolis baho berish va targ'ibot tashviq etishga keng yo'l ochilmoqda. Jumladan, bu borada bobokalonimiz haqlarida ul zotning avlodlari va xalqimizda e'zozlab saqlangan 25 dan ziyod nodir qo'l yozmalar, chop qilingan kitoblar va tarixiy hujjatlar, nodir manbalar mavjudligi ma'lum bo'ldi.

---

<sup>114</sup> **Hujjat uz-zokirin** — 584 bet. Muhammad Sharif al-Husayniy al-Alaviy Buxoriy tomonidan mil. 1666-1667 yillarda yozilgan qo'lyozma.

“Davoviyini Yassaviyho” to'plamiga kirgan “Hujjat uz-zokirin” nomli qo'lyozma Zakiy Validiy To'g'on. Turkiya milliy kutubxonasida saqlanayotgan Rashid Afandi nusxasi. “Lamahot min nafahot-ul quds”. Muhammad al Olim as-Sodiq al-Alaviy — Olim shayx tomonidan mil. 1625 yilda yozilgan asar. O'zFA Sharqshunoslik institute — No 495.

Hujjat uz-zohirin li raddil — munkirin. Manaqib — qo'lyozma — 344 b. mil. 1871 yilda ko'chirilgan. Samarqand viloyati «Ma'naviyat va nafis san'at tarixi» muzeygohi. Hisob raqami — 1451.

Alisher Navoiy. Asarlar. 15 —tom. — T.: 1968, 153 — bet.

Muhammad Tohir Eshon Xorazmiy “Silsilai Xojagoni Haqshband”. Tazkira.

Hazrat tavalludining 535 yilligiga bag'ishlab 1997 yil 2 mayda, 540 yilligiga bag'ishlab 2001 yil 24 avgustda, 545 yilligiga bag'ishlab 2006 yil 17 noyabrda, 550 yilligiga bag'ishlab 2011 yil 4 noyabrda respublikamiz mutaxassis olimlari ishtirokida ilmiy amaliy anjumanlar o'tkazildi.

Bu buyuk mutasavvif ijodkorning ilmiy merosi haqida gapirganda, bizningcha, uning tarixiy xizmatlarini bir qancha jihatdan baholash kerak.

Birinchidan, Xudoydod Vali islom dinining yetuk allomasi, Yassaviya tariqati yo'nalishida shariat ahkomlarining targ'ibotchisidir. Zero, u o'z hikmatlari vositasida xalqlarni iymonu e'tiqodga da'vat qilib, ularning islom ma'rifatini egallashlarida beqiyos hissa qo'shgan maslak sohibidir.

Ikkinchidan, Piri Turkiston Xoja Ahmad Yassaviy asos solgan turkiy tasavvuf yo'lini egallab, targ'ibot qilgan va rivojlantirgan. Natijada, 50 nafar nufuzli muridlarni komillikka erishtirgan yo'l boshchi shayx Valilar qutbidir.

Uchinchidan, Ahmad Yassaviy boshlagan o'zbek tasavvuf she'riyatini rivojlantirgan mutasavvuf shoirdir. Shayx Xudoydod Vali hikmat va g'azallari xalqchil, sodda, ravon, ko'p ma'noli va yod olishga qulay she'rlar bo'lib, asrlar mobaynida turkiy xalqlarning ma'naviy-ma'rifiy kamol topishida muhim o'rin tutganligi shubhasizdir.

To'rtinchidan, O'rta Osiyoda keng tarqalgan naqshbandiya, kubraviya va qodiriya tariqatlarining do'stona munosabatlari rivojida asosiy ko'prik vazifasini o'tagan. Beshinchidan, Xudoydod Validan keyin ham uning hikmatnavislik an'anasi yaqin kunlarga davom etib keldi va taniqli shogirdlari tomonidan Yassaviya hikmat maktabi ilg'or vakillari sifatida rivojlantirildi. Shuning uchun ham, turkiy til — tariqat tili maqomiga ko'tarilib, ular she'rlaridagi har bir so'z, har bir ibora islom haqiqatlari qadar muqaddas, nurli va ilohiy ko'p ma'noli xususiyatlarga egadir.

Bu borada Hazrat Xudoydod Vali hayoti va ilmiy-adabiy merosini o'rganish va uni targ'ibot qilishda, yosh avlodni tarbiyalashda B. Valixojaev, B. O'rinboev, N. Komilov, S. Mirzaev, I. Haqqulov, S. Rafiddinov, Z. Muqimov, S. Inoyatov, K. Kattaev, I. Salohiy, D. Salohiy, A. Narzullaxon o'g'li, A. Qandahorov, A. Obloqulov,



N. Rajabov, A. Abduhamidov, Suyundiq Mustafo Nuratoy, U. Saidov, M. Shukurov kabi olimu fozillarning hissalarini kattadir. Ular keyingi chorak asr davomida Hazrati Azizon Shayx Xudoydod Vali qadamjolarini obodonlashtirish, uning ilmiy va tasavvufiy merosini to'plash, nashr etish, xalq orasida buyuk alloma asarlarini keng targ'ib-tashviq qilish sohasida bir qator xayrli ishlarni amalga oshirdilar. Shuningdek, bu borada O'zFA Samarqand bo'limi, Samarqand Davlat universiteti, Samarqand Davlat arxitektura qurilish instituti va boshqa Respublikamizning ilmiy muassasalarining xizmatlari katta.

Shunday qilib, yassaviyshunoslikda amalga oshirilgan tadqiqotlarni chetlab, Shayx Xudoydod Vali hayoti va ijodi bo'yicha diqqatga sazovor biror ish qilish mushkul. Galdagi vazifa esa mana shu tadqiqotlarga suyanib va ul Hazratga o'rin ajratilgan qadimiy asarlarni o'rgangan holda, Shayx Xudoydod Vali yashagan davr ijtimoiy, madaniy, adabiy muhiti, uning hayoti va ijodini o'rganishni yangi bosqichga ko'tarish hisoblanadi. Bu borada maxsus kutubxona muzey va ilmiy markaz tashkil qilish yo'lida fidokorona ishlar olib borilmoqda. Hazratning maqomatlari tarjima qilinib, ularni g'azallar va hikmatlar devoni sifatida chop qilish, oliy va o'rta ta'lim dasturlari hamda darsliklarga kiritish ishlari davom ettirilmoqda. Quyida Hazrat bobokalonimiz haqida yozilgan asarlar, maqolalar, hujjatlar ro'yxatini keltiramiz.

**Sayyid Maqsud RAZZOQOV,**

*texnika fanlari doktori, professor*

## **HAZRAT SHAYX XUDOYDOD VALI HAQIDAGI ADABIYOT VA MA'LUMOTLAR**

### **I. Hazrati Azizon Shayx Xudoydod Vali va Hazratning mashhur avlodlari hayoti, faoliyatlari, fazilatlari batafsil keltirilgan qo'lyozma va chop qilingan asarlar**

I.1. Kitob ul-mubohot. Hazrati Azizon Shayx Xudoydod Vali tomonlaridan yozilgan. Qo'lyozma.

I.2. Manoqibi Shayx Xudoydod Vali. - 288 b. XVI asrda Hazratning farmonlari bilan, o'zlarining rahbarliklarida xalifalari Mavlono Sayyid boshchiligida tayyorlangan. Qo'lyozma G'aziradagi avlodlaridan No'monxoja ibn Valixoja ibnAbduxoliqxojada saqlangan.

I.3. Manoqibi Shayx Xudoydod Vali. - 248 bet, kotib Muhammad Ashur Hurmuhammad o'g'li tomonidan hijriy 1331, milodiy 1913 yilda ko'chirilgan. Zayniddin Mamarizo ibn Nazarqosimda saqlangan qo'lyozma.

I.4. Hujjat uz-zokirin. - 584 bet. Muhammad Sharif al-Husayniy al-Alaviy Buxoriy tomonidan hijriy 1077, milodiy 1666-1667 yillarda yozilgan qo'lyozma. Kotib Qo'zi Muhammad Buxoriy tomonidan G'azirada hijriy 1214-1225, milodiy 1790-1810 yillarda kitobat qilingan.

I.5. "Davoviyni Yassaviyho" to'plamiga kirgan "Hujjat uz-zokirin" nomli qo'lyozma. Zakiy Validiy To'g'on Turkiya Milliy kutubxonasida saqlanayotgan Rashid Afandi nusxasi.

I.6. Lamahot min nafahot-ul quds (Muqaddas xushbo'yliklardan yorliqlar). Muhammad al-Olim as-Sodiq al-Alaviy Olim shayx tomonidan hijriy 1034, milodiy 1625 yilda yozilgan asar. O'R FA Sharqshunoslik instituti, inv. № 495. (to'liq ro'yxati hijriy 1249, milodiy 1833-1834 yillarda ko'chirilgan. inv. № 3590. 1909 yil G'ulom Husayn Orifjonov matbaasida Toshkentda chop qilingan. - 288 b. Kitob dunyoning ko'pgina mamlakatlarining milliy-davlat kutubxonalarida saqlanib, o'rganiladi).

I.7. Hujjat uz-zohirin li radd il-munkirin. Manoqib- qo'lyozma. - 344 b. Hijriy 1288, milodiy 1871 yilda yozilgan (ko'chirilgan). Samarqand viloyati "Ma'naviyat va nafis san'at tarixi" muzeygohidagi hisob raqami - 1451.

I.8. Muzakkir ul-ahbob (Do'stlar yodnomasi) Hasanxoja Nisoriy tomonidan hijriy 973, milodiy 1566 yilda yozilgan. 36-37 betlar. Ismoil Bekjon tomonidan forschadan tarjima qilinib, Toshkentda 1993 yilda chop etilgan.

I.9. Jome' ul-maqomot (Maqomotlar to'plami). Abdul Baqo ibn Xoja Bahovuddin tomonidan hijriy 1026, milodiy 1617 yilda yozilgan. 1795 yilda hattot-kotib tomonidan ko'chirilgan. Qo'lyozma O'zFA Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

I.10. Silsilat us-sodiqin va anis ul-oshiqin. Do'st Muhammad ibn Navro'z Ahmad

ibn Xush Muhammad ibn Adil Muhammad al-Koshiy tomonidan yozilgan qo'lyozma. O'zFA Sharqshunoslik instituti, inv. № 622, 106, 107-bet.

I.11. Tuhfat ul-zoirin (ziyoratchilarga tuhfa). Nasriddin al-Buxoriy tomonidan yozilgan. Buxoro matbaasida hijriy 1328, milodiy 1910 yilda chop qilingan.

I.12. Samariya. Abu Tohirxo'ja tomonidan yozilgan. O'zFA Sharqshunoslik instituti, qo'lyozma inv. №600. Forschadan Abdulmo'min Sattoriy tarjimai. – T.: “Kamalak”, 1991 y. 5-81-b.

I.13. Ravoyih ul-quds (Muqaddas xushbo'y hidlar). Maqsud ibn mir Nasriddin al-Husayn an-Naqshbandiy tomonidan yozilgan. 77—78; 300-303-b.

I.14. Tarixi Roqimiy, “Sayyid Roqim”, Mir Sayyid Sharif Roqim tomonidan hijriy 1113, milodiy 1701 yilda yozib tugatilgan. O'zFA Sharqshunoslik institute, qo'lyozma, inv. №7711.

I.15. Buyuk siymolar, allomalar xotiralari va davrlar voqe'liklariga bag'ishlangan esdalik-mulohazalar. Tarixnavis-hattot Muhammad Olim Muftiy tomonidan yozilgan. Risola. Samarqand viloyati “Madaniyat va nafis san'at muzeygohi”da saqlanadi hisob raqami №5553/2

I.16. Ravzat ar-rizvon va haqiqat al-g'ilmon. Badriddin ibn Abdu Salom al-Kashmiriy tomonidan yozilgan. O'zFA Sharqshunoslik instituti, inv. №2094.

I.17. Rashohat ayn ul-hayot. Faxriddin Ali ibn Al Husayn Voiz Qashqariy tomonidan yozilgan. – T.: 1897, 1911. 33-bet.

I.18. Qonuni sultoni. Xalifa Abdul Xayr Xoja Sudur ibn Husayn Xoja tomonidan yozilgan qo'lyozma.

I.19. Maqomoti Mahdumi A'zam. Xoja Abdul Baqo ibn Abdulxoliq tomonidan yozilgan qo'lyozma. XVII asrda yozilgan.

I.20. «Manba' ul-abhor fi riyozil-abror» (Yaxshilar bog'laridagi dengizlar manbasi.) Sulton Ahmad Mahmud Haziniy tomonidan hijriy 995 (milodiy 1586) yilda suls xatida yozilgan. Hajmi 81 varaq. Turkiyaning Sulaymoniya kutubxonasida yagona nusxada saqlanmoq

## BEŞİNCİ BÖLÜM

### SONUÇ

#### 5.1. Sonuç

Görüldüğü gibi “Ulu Evliya, Şeyh Hudâyâd-ı Velî” eseri Hudâyâd-ı Velî'nin yalnızca menkıbe ve eserleriyle ilgili bilgileri içermekle kalmayıp , birçok peygamber ve onunla birlikte Hoca Ahmed Yesevî başta olmak üzere, birçok mutasavvıfların hayatlarından da örnekler vermektedir. Aynı zamanda Doç Dr. Seyfeddin Seyfullah, bu eserde, Yesevîlik geleneğiyle ilgili önemli bilgiler ve anekdotlar paylaşmıştır. Müellif , anlattığı konularla alakalı görüşlerini açıklarken âyet ve hadislerden deliller getirmesi görüşlerini ne kadar sağlam bir temele dayandırdığını göstermektedir. Bu âyet ve hadisler Arapça olarak verilmiş olup hepsi Özbekçe'ye aktarılmış ve açıklanmıştır.

Eser tasavvufi bir mahiyet taşımaktadır. Bu yönüyle özellikle 15. yy. da Orta Asya'da İslâm dininin yayılıp gelişmesinde katkısı çok büyüktür. Ayrıca eser, Yesevîlik geleneğinin eski yapıtlarından olması ve dini-tasavvufi bir mahiyette bulunması buna ek olarak da Çağatay Edebiyatı'nın ilk örneklerinden sayılması bu eserin ne kadar öneme sahip olduğunu bir başka göstergesidir. Ayrıca eserde eski Türkçe özelliğinin görülmesi eserin ne kadar eski bir döneme ait olduğunu gözler önüne sermektedir.

Çalışmamızın en önemli yanı, Türk Dili'nin, tarihi akış içinde yaşanan medeniyet daireleri çevresinde nasıl zenginleştiğini ve edebiyat dili haline geldiğini ortaya çıkarmak, kadim devirlerde bir ve beraber yaşayan soydaş halkların gerek edebiyatında gerekse kültürlerindeki ortaklıklarının yitirilmediğini göstermek ve Orta Asya'daki Türk Tasavvuf sahasını daha iyi tanımamızı sağlamıştır.

Orta Asya coğrafyası başta olmak üzere, bize unutturulan veya hiç bilmediğimiz, dilimize ve medeniyetimize hizmet etmiş, bir çok önemli şahsiyetin, Anadolu coğrafyamızda, ilim ve bilim dünyasında daha çok tanınmaları yolunda bu

çalışmayla katkı sağlamaktayız. Tezimizin daha nice çalışmalara öncülük etmesi asıl hedeflerimiz arasında bulunmaktadır.

Özbekistan'ın kültürel zenginliğini tanınmasını ve iki ülke arasındaki ilişkilerin güçlenmesi için kanımızca Özbek Türkçesinin üzerinde daha çok durulması ve çalışılması gerekmektedir. Böyle bir çalıma yapmak istememizdeki en önemli sebep buydu.

Her ne kadar Özbekistan Türkleri ve Türkiye Türkleri aynı soydan gelseler dahi soydaş olan halkları birbirlerine yabancı hale getirdikleri için edebiyatımız da bu tesirin altına girerek iki medeniyet de birbirlerine mahrem kalmıştır. Bu gibi eserlerle bu durumun önüne geçmek, iki kardeş medeniyetin birbirlerini daha iyi tanımaları için yapmış olduğum çalışmanın önemi gerçektende önem arz etmektedir.

## KAYNAKÇA

ABDULLAYEV: Muhammet:(1999) “**Ubeydullah Han'ın Hayat ve İcadına Dair Malûmatlar**”: Türk Dünyası Araştırmaları Dergisi, Sayı 120, s. 133-144.

ALGAR, Hamid: (2006), “**Kübreviyye**” TDV İslâm Ansiklopedisi, Cilt 32, s.500-5006, İstanbul

ALGAR, Hamid: (2006), “**Nakşibendiyye**” TDV İslâm Ansiklopedisi, Cilt 32, s.335-342,İstanbul

ALİŞİK, Gülşen Seyhan: (2009) “**Yesevî Takipçisi Olarak Ubeydullâh Han**”, Türkbilig-Türkoloji Araştırmaları Dergisi, Sayı 18, s. 13-33.

ANADOL, Cemal: (1994). **Anadolu’yu Aydınlatan Güneş: Pîr-i Türkistan Hoca Ahmed Yesevî ve Yesevilik**, Kamer Yayınları, İstanbul

ATALAY, Besim: (1970) **Abuşka Lugati veya Çağatay Sözlüğü**, Ayyıldız Matbaası, Ankara.

AZAMAT, Nihat: (2001), “**Kâdiriyye**” TDV İslâm Ansiklopedisi,. Cilt. 24, s.131-136 İstanbul

BARTHOLD, W.: (1945) “**Çağatay**”: *MEB İslam Ansiklopedisi*: İstanbul, C 3, s. 269a.

BİRİŞİK, Abdülhamit: (2007) ,“ **Rahmet**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt 34, s. 419, İstanbul

BOZKURT, Eshabil: (2014), **Hoca İshak Ata ve Hadikat’ül Aifin İsimli Eseri** . Yayınlanmış yüksek lisans tezi, Fatih Üniverstesi, İstanbul

CANPOLAT Mustafa: (2002), “**Çağatay Dili ve Edebiyatı**”, Türkler Ansiklopedisi, Yeni Türkiye Yayınları, C 8, Ankara.

COŞKUN Volkan: (2000), **Özbek Türkçesi Grameri**, TDK Yayınları, Ankara

ÇAĞRICI, Mustafa: (1989), “**Ahlak**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cil 2, s. 1-9, İstanbul,.

ÇAĞRICI, Mustafa: (1993), “**Cömertlik**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cil 8, s. 72-73, İstanbul.

ÇAĞRICI, Mustafa: (2012), “**Tevekkül**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cil 41, s. 1-2, İstanbul.

ÇELEBİ, İlyas: (1998) “**Hızır**”, TDV İslam Ansiklopedisi, İstanbul, C 17, s. 406

ÇETİN, Osman: (1998), “**Horasan**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cil 18, s. 234-241, İstanbul.

ÇETİNDAG, Yusuf : (2011) “**Aşk Üzerine**”, Kitabevi yayınları, İstanbul, s.17

DEMİR, Osman: “**Yakîn**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cil 43, s271-273, İstanbul 2013.

DEMİRCİ, Mehmet: (1998), “**Himmet**” TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt 18, s. 56-57, İstanbul.

ECKMANN, Janos: ( 2013), **Çağatayca El Kitabı**, Çev: Günay KARAAĞAÇ, Kesit yayınları, İstanbul,s.17.

ERASLAN, Kemal: (1993),“**Çağatay Edebiyatı**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, C 8, İstanbul.

ERASLAN, Kemal:( 1986), “**XV. Yüzyıl Çağatay Edebiyatı-Çağatay Edebi Dilinin ve Edebiyatının Teşekkülü**”, *Büyük Türk Klasikleri*: İstanbul C 3, s. 60a.

ERASLAN,Kemal, TOSUN, Necdet: (2017), “**Yesevî'nin Fakr-nâmesi ve ilk Farsça risalesi**”, Ahmed Yesevî Üniversitesi, Ankara

ERSÖZ, İsmet:( 1991), “**Ashab-ı Kehf**”, TDV İslam Ansiklopedisi, İstanbul, C 3, s. 466.

HARMAN, Ömer Faruk : (2006), “**Mûsâ (A.S.)**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt.31, s. 207-213. İstanbul

HASAN Nadirhan: (2007), “**Âlim Şeyh ve Lemehât Min Nefehâti'l- Kuds isimli eseri**”, İlmî ve Akademik araştırma Dergisi, sayı 18.

HASAN, Nâdirhan: (2009) “**Yeseviliğe Dair Bazı Kaynak Eserler Hakkında**”, Turkish Studies.

HÖKELEKLİ, Hayati: (2002), “**Kıkançlık**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt 25,s.496-497, Ankara

KARA, Mustafa: (1995), “**Fenâ**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt 12, s. 333-335, İstanbul

KARA, Mustafa: (1995), “**Hakîm Ata**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt 15, s. 183, İstanbul.

KAŞGARLI, MAHMUD: ( 1941), “**Dîvan-u Lugati’t-Türk**”, Çeviren: Besim Atalay, Atatürk Kültür, Dil ve Tarih Yüksek Kurumu, Türk Dil Kurumu Yayınları, C 3, Ankara.

KATTAYEV, Kamilhan: (2007), “**Şeyh Hudâyâdâ Veli Taihi**”, Semerkand Şehrinin 2750 yılına bağışlandı, Semdu Neşri, Semerkand.

KÖPRÜLÜ, M. Fuad: (1966), “**Türk Edebiyatında İlk Mutasavvıflar**”, Diyanet İşleri Başkanlığı Yayınları, Ankara.

KÖPRÜLÜ, M. Fuad: (2004), “**Türk Edebiyatı Tarihi**”, Akçağ Yayınları, Ankara.

KÖPRÜLÜ, M. Fuad: (1945), “**Çağatay Edebiyatı**”. MEB İslam Ansiklopedisi. C 3, İstanbul.

KÖPRÜLÜ, M. Fuad: (1993), “**Ahmed Yesevî**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, I, 210-215, I-XIII., İstanbul.

KUT, Günay: (1989), “**Ali Şîr Nevâî**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, c.2 449-453, İstanbul

KUTLUER, İlhan: (2000) “**İlim**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt 22, s.109-114 İstanbul.

KÜÇÜKAŞCI, Mustafa Sabri , Bozkurt, Nebi: (2004), “**Mescid-i Harâm**”, “TDV İslâm Ansiklopedisi cilt. 29, s. 273-277, Ankara.



TATCI, Mustafa, (2016), “**Dîvân-ı Hikmet**”, Hoca Ahmed Yesevî ,Ankara: Hoca Ahmet Yesevi Uluslararası Türk-Kazak Üniversitesi, (Hoca Ahmet Yesevi Uluslararası Türk-Kazak Üniversitesi İnceleme - Araştırma Dizisi; Yayın No: 29

MARUFOV, Z.M: (1981), “**Özbek Dilinin İzahlı Lugati**”, (Kiril), Moskova.

NEVÂYÎ, Alî Şîr: ( 1996), **Nesâyimüel-mahabbe min Şemâyimiél-fütüvve**: Hazırlayan: Kemal ERASLAN, Ankara, LIV+493 s. Atatürk Kültür, Dil ve Tarih Yüksek Kurumu Türk Dil Kurumu Yayınları: 608. S.49

ÖNGÖREN, Reşat,(2004): “ **Mevlânâ Celâleddîn-i Rûmî**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt: 29, sayfa: 441-448, İstanbul.

ÖNGÖREN, Reşat,(2011): “**Tarikat**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt: 40, sayfa: 95-105, İstanbul

ÖNGÖREN, Reşat: (2013), “**Zikir**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt: 44, sayfa: 409-412, İstanbul.

ÖZGÜDENLİ, Osman Gazi: (2003), “**Mâverâünnehir**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt: 28, sayfa: 177-180, Ankara.

ÖZLER, Mevlüt: (2012), “**Tevhid**” TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt 41, s.18-20 İstanbul.

ŞAHİNOĞLU, M. Nazif : ( 1991) , “**Ferîdüddin Attâr**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt 4, s.95-98 İstanbul.

TEKCAN, Münevver : (2006), “**Hakîm Ata'nın Ahir Zaman Kitabı**” , bilig, Bahar, sayı 37, s.21

TOGAN, Zeki Velîdi: (1953) “**Yesevîliğe Dair Bazı Yeni Malumat**”, Fuad Köprülü Armağanı, İstanbul.

TOSUN Necdet. (1998) “**Yesevîliğin İlk Dönemine Ait Bir Risale: Mir'atü'l-Kulûb**”, İLAM Araştırma Dergisi, C 2, S 2, İstanbul.

TOSUN, Necdet: (2013),”**Yeseviyye**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt. 43,s. 487-490, İstanbul.

TOSUN, Necdet: (2013), “**Zünnûn-ı Mısırî**” TDV İslam ansiklopedisi, c. 44., s. 575-576.

TÜRKOĞLU, İsmail : (2010), “**Şeybânî Han**” TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt 39, s.43-45, İstanbul.

ULUDAĞ, Süleyman: (1988), “**Abdülkâdir-i Geylânî**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt 1, s.234-239, İstanbul.

ULUDAĞ, Süleyman: ( 1991), “**Amel**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt 3, s.19-16 İstanbul.

ULUDAĞ Süleyman: (1991),“**Aşk**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt 4, s.18-21 İstanbul.

ULUDAĞ,, Süleyman: (1995) “**Fakr** ”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt 11 ,s. 132, İstanbul.

ULUDAĞ, Süleyman. (1995), “**Fakr**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt 12, s.132-134 İstanbul.

ULUDAĞ, Süleyman: (1997) “**Hallâc-ı Mansûr**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt 15, s.377-381, İstanbul.

ULUDAĞ, Süleyman: (1997), “**Hasan-ı Basrî** ”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt 16, s.291-293 İstanbul.

ULUDAĞ, Süleyman: (2003), “**Marifet**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt 28, s.54-56, Ankara.

ULUDAĞ, Süleyman: (2006) “**Müşâhede**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt 32, s.152-153 İstanbul.

ULUDAĞ, Süleyman: (1998) “**Riyazet**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt 18, s.143-144 İstanbul.

ULUDAĞ, Süleyman: (1995) “**Şeyh Ebu'l-Hasan-ı Harakânî**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt 16, s.93-94 İstanbul.

ULUDAĞ, Süleyman: (2012) “**Tevekül**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt 41, s.1-3  
İstanbul.

ULUDAĞ, Süleyman: (2012), “**Tevhid**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt 41, s.21-22  
İstanbul.

ÜŞENMEZ, Emek, Boltaayev S., Tuğlacı G.: ( 2016) “**Özbekçe-Türkçe Sözlük**”,  
Türk Düyası Vakfı yayınları, İstanbul,.

VELİHUCAYEV, Kamilhan: (2000), “**Hazreti Azizan Şeyh Hudâyâd-ı Veli'nin Edebi mirasları hakkında**”, Özbekistan cumhuriyeti “Maneviyat ve marifet” cemiyeti merkezi, Hazreti Azizan Şeyh Huaydad-ı Veli (1461-1532), “Yesseviye tarikatının meşhur nümayendesi” s.20, Semerkand.

YERİK, Erhan: (1998), “**Hayret**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt 17, s. 60-61., İstanbul

ULUDAĞ, Süleyman: (1991), “**Amel**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt 3, s.19-16,  
İstanbul.

ERASLAN, Kemal: (1994) “**Dîvân-ı Hikmet**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt: 9,  
sayfa: 429-430, İstanbul.

YURDAGÜR, Metin: (1992), “**Bekâ**”, TDV İslâm Ansiklopedisi, cilt: 5, sayfa: 359-  
360,İstanbul.

## WEB KAYNAKLARI

(**Web 1**; <https://somuncubaba.net/dergi/197-sayi/hoca-ahmed-yesevi-yesevilik/>,  
Erişim Tarihi: 08.02.2018).

(**Web 2**; [http://www. http://ctle.pau.edu.tr/uztr/index.php](http://www.ctle.pau.edu.tr/uztr/index.php), Erişim Tarihi:11.11.2018).

(**Web 3**; <https://islâmansiklopedisi.org.tr/ahmed-yesevi>, Erişim Tarihi: 01.02.2019).

(**Web 4**; <https://islamansiklopedisi.org.tr/cagatay-edebiyati>, Erişim Tarihi:  
01.02.2018)

(**Web 5**; <https://www.alfabesi.com/ozbek-alfabesi/>, Erişim Tarihi: 11.02.2019).

(**Web 6**; <https://beyruha.wordpress.com/2013/01/20/gayret-nedir/>, 12/03/2019, Erişim Tarihi: 11.02.2019).

(**Web 5**; <https://kuran.diyamet.gov.tr/mushaf/kuran-meal-2/fatir-suresi-35/ayet-15/diyamet-isleri-baskanligi-meali-1> ,Erişim Tarihi: 15.02.2019).

(**Web 6**; <https://www.wikipedia.org/>, Erişim Tarihi: 10.05.2019).

(**Web 6**; <http://n.ziyouz.com/kutubxona>, Erişim Tarihi: 10.03.2019).

(**Web 7**; [http://dosyalar.semazen.net/e\\_kitap/Yuz\\_Mertebe.pdf](http://dosyalar.semazen.net/e_kitap/Yuz_Mertebe.pdf). Erişim Tarihi: 25.05.2019).

(**Web 8**; <https://www.antoloji.com/ilim-ilim-bilmektir-siiri/>. Erişim Tarihi: 29.05.2019).